

XXI ASR TILSHUNOSLIGI: tahlil va talqin

VOLUME 4

ISSUE 2

DECEMBER 2024



TAHRIRIYAT HAY'ATI

Bosh muharrir

Murodova Nigora Qulliyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o‘rinbosari

Yusubova Rano Norboyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Editor – in – chief

Murodova Nigora Kulliyevna
doctor of philological sciences, professor

Deputy Editor-in-Chief

Yusubova Rano Norboyevna
doctor of philological sciences, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Kalonov Muhiddin Bahriddinovich

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Narzikulova Dilnoza Xoshimjonovna

Pedagogika fanlari doktori, professor

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich

Kimyo fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT A'ZOLARI

Aynur Öz Özcan - filologiya fanlari doktori,
professor (Turkiya)

Nadir Mammadli- filologiya fanlari doktori,
professor (Ozarbayjon)

Ra'no Sayfullayeva- filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

Azamat Pardayev - filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

Baxtiyor Mengliyev - filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

Mehri Abuzalova - filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

Qo'ysin To'xtayeva - filologiya fanlari nomzodi,
dotsent (O'zbekiston)

O'rolboy Oripov - filologiya fanlari nomzodi
(O'zbekiston)

Manzura Ernazarova - filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

Gulchehra Boltayeva - filologiya fanlari doktori,
dotsent (O'zbekiston)

Dilorom Shamsiyeva - pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

Ra'no Davlatova – filologiya fanlari doktori, dotsent
(O'zbekiston)

Fazliddin Najmiddinov - filologiya fanlari nomzodi,
dotsent (O'zbekiston)

Xolbib Qurbonova- pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent (O'zbekiston)

Feruza Jumayeva- pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent (O'zbekiston)

Ra'no Sharopova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (O'zbekiston)

Gulnoza Ernazarova - filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

Gulsanam Norova - filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (O'zbekiston)

Nasiba Yarashova - filologiya fanlari doktori,
dotsent (O'zbekiston)

Navro'z Rahmonov- filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

Omongul Xolbekova- filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

Dildora Agzamova - filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (O'zbekiston)

Erkin Musayev – Katta o'qituvchi (O'zbekiston)

Bobir Maxammadov – filologiya fanlar bo'yicha
falsafa doktori (O'zbekiston)

Tahririyat bilan bog'lanish:

Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko'chasi, 45-uy

Web-site: <http://linge.nspi.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45

Editorial staff of the journal:

Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city

Web-site: <http://linge.nspi.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45

MUNDARIJA / CONTENT

Mavlonova Klaraxon	5
Matn tuzilishini o‘rgatishga doir tajriba-sinov jarayoni tahlili	
Равшанов Махмуд	13
Наночастицы смысла лексики языка	
Davlatova Ra’no	18
Tinglash – nutqiy faoliyatning bir turi sifatida	
Жумаева Феруза	22
Адвербиализация как способ слово образования в разносистемных языках	
Sulaymonov Bobir	30
Lug‘at maqola tadqiqiga zamonaviy yondashuvlar	
Nuritdinova Ra’no	39
“Ot”, “nom” va “ism” onomastik terminlarining uslubiy xususiyati	
Sharopova Ra’no	45
Leksik ma’noni komponent tahlil qilish metodikasiga oid	
Qurbonov Zayniddin	51
Olmosh so‘z turkumining funksional - pragmatik tadqiqi	
Sanoyeva Muhtabar	58
Nutqiy faoliyat – fiziologik, mantiqiy, lisoniy jarayonlar majmuyi	
Mardonova Feruza	63
Advancements in translation of phraseological units: harnessing the power of artificial intelligence (ai) in the translation of the phraseological units of the novel of M.A.Sholokhov “And Quiet Flows The Don”	
Tursunov Akmal	73
Konversiya usuli va yasama so‘z	
Axtamova Bibisora	80
O‘xshatishlarning sotsiopragmatik funksiyasi (Sadridin Ayniyning “Odina” qissasi misolida)	

Rustamov Bobomurod	84
Ijtimoiy tarmoqlarda madaniyatlararo muloqot	
Niyozova Shoira	89
Kontrastiv tilshunoslikning terminologik tushunchalari	
G‘aybulloyeva Umida	94
Sharof Rashidovning “Kashmir qo‘shig‘i” qissasida metaforalarning badiiy imkoniyatlari	
Nematullaeva Gulandom	99
Badiiy matnda pragmatik ma’noning ifodalanishi	
Haydarova Dilafruz	104
Kechirim nutqiy aktining maxsus manbalarda ifodalanishi	
Majidova Hulkar	111
O‘zbek botanik atamalari (fitonimlari) o‘zbek tili lug‘aviy tarkibining boyish mexanizmi sifatida	
Mustafayeva Maftuna	119
Ingliz va o‘zbek tillarida modallik kategoriyasining leksiko-grammatik xususiyatlari	
Yandashova Dilniso	125
Konsept tushunchasiga psixolingvistik yondashuv	
Mengliyeva Munira	130
“Aspektuallik” binar gipersemali maydonda tarz kategoriyasining funksional semantikasi	
Maxammadov Bobir	134
Ingliz tilidagi Microsoft Windows operatsion tizimi terminlarining genetik-etimologik tavsifi	
Saidova Kamola	146
Nofaol so‘zlar tadqiqiga doir metodik yondashuvlar	
Yarashova Nasiba	154
Bolalarga o‘zga tilni o‘rgatishning psixolingvistik asoslari	

MATN TUZILISHINI O‘RGATISHGA DOIR TAJRIBA-SINOV JARAYONI TAHLILI

Mavlonova Klaraxon,

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
prof.v.b., pedagogika fanlari doktori*

Annotatsiya: Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5–9-sinf ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatish samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan pedagogik tajriba jarayoni masalasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: matn tuzilishi, mashq, savol va topshiriqlar, reja, tahrir, sarlavha, matn qismlari, tinish belgilari, gap, gap bo‘laklari, olmosh, bilim, ko‘nikma, malaka.

Аннотация. В статье описан процесс педагогического экспериментирования, проведенного с целью определения эффективности обучения структуре текста на уроках родного языка для 5–9 классов общеобразовательных школ.

Ключевые слова: структура текста, упражнение, вопросы и задания, план, редактирование, название, части текста, знаки препинания, предложения, фрагменты предложений, местоимения, знания, умение, квалификация.

Annotation: The article describes the pedagogical experimentation process conducted with the aim of determining the effectiveness of teaching text structure in mother tongue lessons for grades 5–9 in general secondary schools.

Key words: text structure, exercise, questions and assignments, plan, editing, title, text parts, punctuation marks, sentences, sentence fragments, pronouns, knowledge, skill, qualification.

Kirish. Matn tuzilishini o‘rgatishga doir tajriba-sinov jarayoni uch bosqichda tashkil etildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida ta’kidlovchi tajriba-sinov ishlari olib borildi: o‘quvchilarning matn tuzishga doir mashqlarni qanday bajarganliklari o‘rganildi, o‘qituvchilar orasida so‘rovnoma o‘tkazildi va tegishli metodik xulosalar chiqarildi. Tadqiqotning ikkinchi – izlanuvchi bosqichida matn tuzilishiga doir qoidalar, ularning mustahkamlashga qaratilgan topshiriqlar, mashq turlari tuzila boshlandi, ayni paytda ayrim tajriba darslari tashkil qilindi. Tadqiqotning yakuniy (uchinchi) bosqichi uchun maxsus materiallar tayyorlandi. Materiallar matnning tuzilish komponentlariga doir qoidalar va mashqlar tizimidan iborat bo‘ldi.

Adabiyotlar tahlili. Jahon lingvodidaktikasi va til o‘qitish metodikasida matn turlari, matn tuzilmasini o‘rgatish, matniy xatolar ustida ishlash, matnni tahrir qilish, uni qayta ishlashga oid yozma nutqni rivojlantirishning inson tafakkuriga ta’siri, matn tuzish funksiyalari va uning yozma nutq ko‘nikmasini rivojlantirishdagi o‘rni, matn tuzish jarayonini rejalashtirish, o‘quvchilarning ko‘rsatmali materiallarga asoslanib matn tuzish malakasini oshirish, o‘quvchilarning tasviriy matn yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish,

matniy kompetensiyani shakllantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish insho yozish jarayoni bilan bog‘langan. U.Dolimov, O.Madayevlarning metodik ishlari, N.Sattorova, M.Hazratqulovning tadqiqoti shular jumlasidandir. Umumiy o‘rta ta‘lim jarayonida ona tili va o‘zbek tilini (davlat tili) o‘qitish, o‘quvchilarni matn yaratish bilan bog‘liq nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish, ijodiy tafakkurini o‘stirish masalalari M.Rixsiyeva, T.Ziyodova, R.Yo‘ldoshev, R.Safarova, Sh.Yusupova, X.Muxitdinova, F.Aminova, N.Alavutdinova, N.Bekniyozova, A.Hamroyev, G‘.Hamroyev, Z.Salishevalar tomonidan, rus tilini o‘qitish jarayonida matn tuzilishini o‘rgatish masalasi Y.M.Sorokina, G.N.Urinbayeva, S.Sadixova tomonidan o‘rganilgan.

I.R.Galperin, T.A.Ladijenskaya, L.I.Velichko, L.M.Loseva, M.R.Lvov, V.G.Goreskiy, O.V.Sosnovskayalarning tadqiqotlari va metodik qo‘llanmalarida rus tili darslarida matn tuzilishi ustida ishlash mazmuni hamda usullari kabi masalalar tadqiq qilingan.

R.Brakevell, M.Skardamalia, C.Bereiter, J.Britton, P.Burtis, C.Bereiter, M.Scardamalia, J.Tetroe, C.Englert, E.Hiyebertlar tomonidan matn yaratish, yozma ishlarni tashkil etish, matn tuzilishini o‘rgatishning anglash ko‘nikmasi rivojiga ta‘siri muammolariga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Ta‘lim o‘zbek tilida olib boriladigan maktablarning ona tili darslarida matn qismining ichki tuzilishi: gaplarning bog‘lovchili, olmoshli, ko‘makchili, yuklamali bog‘lanish usullari, 5–9-sinflar doirasida matn tuzilishiga doir qoidalar, ularni anglatishning vosita va metodlari, mustahkamlash uchun xizmat qiluvchi mashqlar tizimi masalalari maxsus o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mavzusini yoritishda pedagogik kuzatuv, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, sotsiologik metodlar (so‘rovnoma, suhbat), pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatishga doir tajriba-sinov jarayonida o‘quvchilarning matn tuzilishiga oid bilim, ko‘nikmalarini aniqlashga qaratilgan quyidagi parametrlar belgilab olindi:

5-sinf:

1. 1. Matn mavzusini aniqlash.
2. “Mavzu” so‘zidan keyin matn mavzusini yozish.
2. Ikki moddadan iborat reja tuzib yozish.
3. Epigraf tanlab, uni ham o‘z o‘rniga yozish.
4. 1. Matnni xatboshilarga ajratgan holda ko‘chirish.
2. Matnning “adashgan” gapini aniqlab, joyiga qo‘yish.

6-sinf:

1. Berilgan gaplar juftini olmoshlardan biri yordamida bog‘lash.
2. 1. Boshlamaga qarab matn turini aniqlash.
2. Bergan javobini qisqa izohlash.
3. Gaplarning bog‘lanish izchilligini tiklash, ketma-ketlikda ularga raqam qo‘yish.

7-sinf:

Berilgan gap juftliklarini olmoshlar va bog‘lovchilardan biri bilan bog‘lash.

8-sinf:

1. 1. Atov gaplardan keyingi gaplarda yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlash.
2. Davom ettirish mumkin bo‘lgan gaplarni aniqlash.
- 2.1. Gaplardagi noto‘g‘ri qo‘llangan kirish so‘zni aniqlash.
2. Mos kirish so‘zni yozish.
3. Tasvir matnning birinchi gapidagi xatolikni aniqlash va ushbu matnning birinchi gapini yozish.
4. Rivoya matnning birinchi gapidagi xatolikni aniqlash va ushbu matnning birinchi gapini yozish.
5. Matnni tahrir qilish.
6. Gaplardagi takrorlangan so‘zni aniqlash va o‘rniga mos so‘zni yozish.

9-sinf:

1. Berilgan qo‘shma gaplar orasidan sodda gaplarga ajratib bo‘lmaydiganlarini aniqlash, qavs ichiga “–” ishorasini qo‘yish.
2. Berilgan gaplar juftini qavs ichidagi bog‘lovchi vositalardan mosini tanlab, tagiga chizib ko‘rsatish.
3. 1. Berilgan qo‘shma gaplar orasidan sodda gaplarga ajratish mumkin bo‘ladiganlarini aniqlab, qavs ichiga “+” ishorasini qo‘yish.

2. Bog‘lovchi vosita ma’nosini to‘g‘ri chiziq bilan ajratilgan joyga yozib ko‘rsatish.

Tajriba-sinov jarayonida yuqorida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, o‘quvchilarga sinflar kesimida soddadan murakkabga tomon zanjirli o‘qitish yondashuvi asosida matn tuzilishini o‘rgatishga oid o‘quv topshiriqlari, evristik mashqlar, nazariy va amaliy materiallar tayyorlandi va taqdim etildi.

Tajriba-sinovdan oldin va undan keyin nazorat ishlari sifatida matn tuzish mazmunidagi yozma nazorat ishlari tashkil etildi. Bunda o‘quvchilar tomonidan matn tuzilishi komponentlariga oid yo‘l qo‘yilgan xatolar hisobga olindi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatish samaradorligi darajasini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari bo‘yicha o‘quvchilarning tajribadan keyin va tajribadan oldingi o‘rtacha o‘zlashtirishlari Styudentning matematik-statistika metodi yordamida tahlil qilindi. Tajriba-sinovda jami 3992 nafar o‘quvchi, shundan tajribadan oldin 1936, tajribadan keyin 2056 nafari qatnashdi.

Tajriba-sinov bo‘yicha nazorat ishlari quyidagi mezonlar asosida baholandi:

5-sinf	
Mezonlar	Ko‘rsatkichlar
Yuqori	<ul style="list-style-type: none"> ○ matn mavzusi to‘g‘ri aniqlangan; ○ sarlavha to‘g‘ri shakllantirilgan (tinish belgilaridan o‘rinli foydalangan, joylashuvi aniq belgilangan); ○ reja matn mazmuniga mos tuzilgan; ○ matnga mos epigraf tanlangan; ○ matn qismlarga to‘g‘ri ajratilgan.
O‘rta	<ul style="list-style-type: none"> ○ matn mavzusi to‘g‘ri aniqlangan;

	<ul style="list-style-type: none"> ○ sarlavha to‘g‘ri shakllantirilmagan (tinish belgilaridan foydalanishda xatoliklar kuzatilgan); ○ reja moddalarining bir qismi matn mazmuniga mos, bir qismida matnga aloqadorlik kuzatilmagan; rejani shakllantirishda bazi o‘rinda xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan (tartib raqam yoki harflar bilan belgilangan holda tinish belgilari to‘g‘ri qo‘llanmagan); ○ epigrafning joylashuvi hamda tinish belgilariga rioya qilinmagan; ○ matnni qismlarga ajratishda xulosa qismiga e‘tibor qaratilmagan.
Quyi	<ul style="list-style-type: none"> ○ matn mavzusini aniqlashda matn mazmuniga e‘tibor qaratilmagan; ○ sarlavha to‘g‘ri shakllantirilmagan (tinish belgilaridan foydalanishda xatoliklar kuzatilgan); ○ reja moddalari matn mazmuniga mos tuzilmagan; rejani shakllantirishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan (tartib raqam yoki harflar bilan belgilanmagan, tinish belgilari to‘g‘ri qo‘llanmagan); ○ epigraf matn mazmuniga mos tuzilmagan, joylashuvi hamda tinish belgilariga rioya qilinmagan); ○ matn qismlarga to‘g‘ri ajratilmagan.
6-sinf	
Mezonlar	Ko‘rsatkichlar
Yuqori	<ul style="list-style-type: none"> ○ gap mazmuniga mos olmoshdan foydalangan; ○ matn boshlamalari asosida matn turlari(tasviriy matn, hikoya matni, muhokama matn)ni to‘g‘ri aniqlangan; ○ har bir matn turiga to‘g‘ri izoh bergan; ○ matndagi gaplar to‘g‘ri ketma-ketlikda tartiblangan.
O‘rta	<ul style="list-style-type: none"> ○ gap mazmuniga mos olmosh to‘g‘ri tanlangan, ammo qaysi shaxs-sonda ekaniga e‘tibor qaratilmagan; ○ matn boshlamalari asosida matn turlari qisman topilgan (bunda matn turlarining biri topilmasdan ochiq qoldirilgan); ○ ayrim matn turiga izoh berilgan; ○ matndagi gaplar ketma-ketligini aniqlashda ayrim xatoga yo‘l qo‘yilgan (bunda 1-gap to‘g‘ri aniqlanmagan).
Quyi	<ul style="list-style-type: none"> ○ olmoshni qo‘llashda gap mazmuniga e‘tibor qaratilmagan; ○ matn boshlamalari asosida matn turlari aniqlanmagan; ○ matn turlariga izoh berilmagan; ○ matndagi gaplar to‘g‘ri ketma-ketlikda tartiblanmagan.

7-sinf	
Mezonlar	Ko‘rsatkichlar
Yuqori	<ul style="list-style-type: none"> ○ bog‘lovchilardan ma‘nosiga ko‘ra to‘g‘ri foydalanilgan; ○ kishilik olmoshlari gaplar mazmuniga mos ravishda qo‘llangan;

	○ olmosh ishora qilayotgan birlik to'g'ri aniqlangan.
O'rta	○ matn mazmuniga ko'ra bog'lovchilar qisman to'g'ri qo'llangan (bunda zidlov bog'lovchilaridan o'rinli foydalanilmagan); ○ kishilik olmoshlari birlik va ko'plikda almashib qo'llangan; ○ olmosh ishora qilayotgan birlik qisman to'g'ri aniqlangan (bunda ko'rsatish olmoshlari to'g'ri qo'llanmagan).
Quyi	○ matn mazmuniga mos bog'lovchilardan foydalanilmagan; ○ bo'lishsizlik olmoshi qo'llanmagan; ○ olmosh ishora qilayotgan birlik to'g'ri aniqlanmagan.

8-sinf	
Mezonlar	Ko'rsatkichlar
Yuqori	○ atov birliklarni to'g'ri qo'llay olgan; ○ modal so'zlarni ma'nosiga ko'ra to'g'ri qo'llay olgan; ○ tasviriy matnning boshlama qismini to'g'ri yoza olgan; ○ gaplarning bog'lanishini to'g'ri aniqlagan; ○ matndagi takrorlarni to'g'ri aniqlagan va olmoshlardan o'rinli foydalangan.
O'rta	○ atov birliklarni qo'llashda qisman xatolikka yo'l qo'ygan; ○ modal so'zlarni ma'nosiga ko'ra qisman to'g'ri qo'llay olgan; ○ tasviriy matnning boshlama qismini aniqlay olgan; ○ gaplarning bog'lanishida olmoshlardan o'rinli foydalana olmagan; ○ takrorning oldini olishda olmoshlardan o'rinli foydalana olmagan.
Quyi	○ atov birliklarni to'g'ri qo'llay olmagan; ○ modal so'zlarni ma'nosiga ko'ra to'g'ri qo'llay olmagan; ○ tasviriy matnning boshlama qismini to'g'ri yoza olmagan; ○ gaplarning bog'lanishini to'g'ri aniqlay olmagan; ○ gaplardagi takrorlarni to'g'ri aniqlay olmagan.

9-sinf	
Mezonlar	Ko'rsatkichlar
Yuqori	○ qo'shma gaplar orasidan sodda gaplarga ajratib bo'lmaydiganlarini aniqlay olgan; ○ gaplar juftiga mos bog'lovchi vositalarni tanlay olgan; ○ qo'shma gaplar orasidan sodda gaplarga ajratib bo'ladiganlarini aniqlay olgan.
O'rta	○ qo'shma gaplar orasidan sodda gaplarga ajratib bo'lmaydiganlarini qisman aniqlay olgan; ○ qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar qisman to'g'ri aniqlangan; ○ qo'shma gaplar orasidan sodda gaplarga ajratib bo'ladiganlarini qisman aniqlay olgan.

Quyi	<ul style="list-style-type: none"> ○ qo‘shma gaplar orasidan sodda gaplarga ajratib bo‘lmaydiganlarini aniqlay olmagan; ○ gaplar juftiga mos bog‘lovchi vositalarni tanlay olmagan; ○ qo‘shma gaplar orasidan sodda gaplarga ajratib bo‘ladiganlarini aniqlay olmagan.
------	---

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5–9-sinf ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatish samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba o‘tkazildi. Ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatish samaradorlik darajasini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari bo‘yicha o‘quvchilarning tajribadan keyin va tajribadan oldingi o‘rtacha o‘zlashtirishlari Styudentning matematik-statistika metodi yordamida tahlil qilindi.

O‘quvchilarning tajribadan keyingi va oldingi o‘rtacha o‘zlashtirishi 11,5 ga teng ekani aniqlandi.

Ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatishga oid o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekani statistik tahlil orqali isbotlandi.

Xulosa va takliflar. Murakkab sintaktik butunlik matn qismi bo‘lgan kichik mavzuga ishora qiluvchi reja moddasi, xatboshi, boshlanma, asosiy qism, xulosa, matnning birinchi gapi, gaplarning o‘zaro mantiqiy, mazmuniy bog‘lanish usullari, gaplarni o‘zaro bog‘lovchi vositalar: olmoshli bog‘lanish, bog‘lovchili bog‘lanish, ko‘makchili, yuklamali, modal so‘zli bog‘lanish, ko‘chirma gaplar o‘rnida maqol, hikmatli so‘z, hadis, sitata, she’riy misralar qo‘llanishi kabi komponentlar ta’limiy birlik sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq.

Ona tili darslarida matn tuzilmasiga oid qoidalarni amalda qo‘llash, matn tuzishda bog‘lovchi vositalarni qo‘llash, matnga maqol, hadis, hikmatli so‘z, she’riy misralarni kiritish talab etiladigan tahliliy (analitik), konstruksiyalash-sintezlash, qisman ijodiy konstruksiyalash-sintezlash, matn tuzish va xatolar ustida ishlash, tuzilgan matnni tahrir qilish kabi mashqlardan foydalanish o‘quvchilarda matniy kompetensiyani shakllanishiga xizmat qiladi.

5–9-sinflar uchun matn tuzilishiga doir bilim, ko‘nikma va malakalarga asoslangan “Men muharrirman”, “Tasvir va matn”, “Chizmani tavsifla”, “Begona qismni top”, “Gaplarni to‘g‘ri bog‘la”, “Matnni boyitamiz”, “Sarlavha tanlaymiz”, “Olmosh bilan almashtir” kabi innovatsion usullarning o‘quvchilarda matn tuzish va xatolar ustida ishlash ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qilishi tajriba-sinov ishlari orqali isbotlandi.

O‘quvchining matn tuzish bilan bog‘liq ijod jarayoni fikr-mulohaza yuritish, tasavvurida paydo bo‘lgan manzaralarni turli yo‘llar bilan xotirlangan so‘z bilan ifodalash, shu jarayonda o‘z his-tuyg‘ularini, o‘z nuqtayi nazarini aks ettirish kabi aqliy, estetik, kommunikativ faoliyat tarzida kechadi. Matn yaratish jarayonining eng qiyin jihati fikrni izchil rivojlantirishdan tashqari, kerakli so‘zni tez va to‘g‘ri esga tushira olish, gap tuzishda so‘z topish tufayli yuzaga keladigan to‘xtamlarni mashqlar orqali bartaraf etish, matn tuzilishi bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar ishlab chiqishda 4K: kritik, kreativ fikrlash, kommunikativlik va kollaboratsiya yondashuvini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR:

1. Долимов У. Иншо қандай ёзилади? / Олий ўқув юртига кирувчилар учун иншо ёзиш бўйича методик кўрсатмалар. – Т.: ТошДУ нашри, 1985. – 32 б.; Мадаев О. Иншо қандай ёзилади? / Ўрта махсус ўқув юртларининг ўқитувчилари учун методик кўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1991. – 88 б.; Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z. va b. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Т., 2020. – 103 б.; Сатторова Н. Ўқувчиларнинг иншо ёзиш малакаларини такомиллаштириш (5-синфда она тили ўқитиш жараёнида): Пед. фан. ном. ... дисс. – Т., 1995. – 141 б.; Ҳазратқулов М. Адабий таълимда иншонинг ўрни ва уни ташкил этишнинг илмий-методик асослари: Пед. ф. б. ф.д-ри дисс. – Самарқанд, 2018. – 154 б.

2. Рихсиева М. Таълим рус тилида олиб бориладиган мактабларнинг ўзбек тили дарсларида ўқувчиларга матн тузишни ўргатиш методикаси. Пед.фан.номз. ...дисс. – Т., 2009.

3. Зиёдова Т.У. Матн яратиш технологияси. Монография. – Т.: Фан, 2008. – 160 б.

4. Yo'ldoshev R.A., Rixsiyeva M.M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. – Т.: Fan va texnologiyalar, 2019.

5. Бекниязова Н. Бошланғич синфлар она тили дарсларида ўқувчиларга матн яратишни ўргатиш методикаси (таълим ўзбек ва қорақалпоқ тилларида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Монография. – Т.: Фан ва технологиялар, 2012. – 160 б.

6. Сорокина Е.М. Обучение построению сложного синтаксического целого на уроках русского языка в узбекской школе: Автореф. дис.канд.пед.наук. – Т., 1991. – 20 с.; 192.; Урумбаева Г.Н. Лингводидактические основы обучения учащихся 7–9-классов сложному синтаксическому целому как базовой структуре русской монологической речи (на материале школ с каракалпакским языком обучения): Автореферат канд.дисс... педнаук. – Т., 2001. – 19 с.; Садыхова, С. Композиционно-смысловая структура синтаксического целого. – Баку: Нурлан, 2010.; Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. 138 с.; Обучение русскому языку в 7 классе: Метод.рекомендации к учеб. для 8 класса общеобразовательных учреждений / Т.А.Ладыженская, Л.А.Тростенцова, М.Т.Баранов и др. – М.: Просвещение, 2002. – 94 с.; Обучение русскому языку в 8 классе: Метод.рекомендации к учеб. для 8 класса общеобразовательных учреждений / Л.А.Тростенцова, Т.А.Ладыженская, И.А.Шеховцева и др. – М.: Просвещение, 2003. – 70 с.; Л.И.Величко. Работа над текстом на уроках. – Москва: Просвещение, 1983. 128 с.; Лосева Л.М. Как строится текст: пособие. для учителей. – М.: Просвещение, 1980. 96 с.; Львов М.Р. Методика развития речи младших школьников: Пособие для учителя. – 2-е изд., перераб. – М.: Просвещение, 1985.; Методика преподавания русского языка в начальных классах: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / М. Р. Львов, В. Г. Горецкий, О. В. Сосновская. – 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2007. – 464 с.

7. Bracewell, R. J., Scardamalia, M., & Bereiter, C. (1978). The development of audience awareness in writing // Paper presented at the annual meeting of the American

Educational Research Association, Toronto, March. (ERIC Document Reproduction Service No. 154 433). <https://eric.ed.gov/?id=ED154433>; Britton, James. The Composing Processes and the Functions of Writing // In *Research on Composing: Points of Departure*. Eds. Cooper and Odell. Urbana: NCTE, 1978. 13–28. <https://sci-hub.se/https://doi.org/10.2307/1170204>; Burtis, P. J., Bereiter, C., Scardamalia, M., & Tetroe, J. (1983). The development of planning in writing. In B. Kroll & C. G. Wells (Eds.), *Explorations in the development of writing* (pp. 153–174). Chicester, England: Wiley.; Englert, C. S., & Hiebert, E. H. (1984). Children's developing awareness of text structures in expository materials. *Journal of Educational Psychology*, 76(1), 65–74.



НАНОЧАСТИЦЫ СМЫСЛА ЛЕКСИКИ ЯЗЫКА



РАВШАНОВ МАХМУД,

*профессор Навоийского государственного
горного и технологического университета,
доктор филологический наук*

Аннотация. Уменьшение частиц до нанометровых размеров приводит к проявлению в них так называемых «квантовых размерных эффектов», когда размеры исследуемых объектов сравнимы с длиной де-бройлевской волны электронов, фононов и экситонов. В сферических наночастицах имеет место трёхмерное квантование уровней, что позволяет говорить, в зависимости от состава наночастиц, об образовании «квантовых точек», «квантовых кристаллитов» и других объектов с нулевой размерностью.

Ключевые слова: нанотехнология материалов, наночастицы.

Annotatsiya. Zarrachalarni nanometr o'lchamiga kamaytirish ularda "kvant o'lchami effektlari" deb ataladigan narsaning namoyon bo'lishiga olib keladi, bunda o'rganilayotgan ob'ektlarning o'lchamlari elektronlar, fononlar va eksitonlarning de Broyl to'lqin uzunligi bilan taqqoslansa. Sferoid nanozarrachalarda sathlarni uch o'lchovli kvantlash amalga oshiriladi, bu bizga nanozarrachalarning tarkibiga qarab, "kvant nuqtalari", "kvant kristallitlari" va nol o'lchamdagi boshqa ob'ektlarning shakllanishi haqida gapirishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: materiallarning nanotexnologiyasi, nanozarralar.

Abstract. Reducing particles to nanometer sizes leads to the manifestation of so-called "quantum size effects" in them, when the sizes of the objects under study are comparable to the de Broglie wavelength of electrons, phonons and excitons. In spheroidal nanoparticles, three-dimensional quantization of levels takes place, which allows us to speak, depending on the composition of the nanoparticles, about the formation of "quantum dots", "quantum crystallites" and other objects with zero dimensionality.

Keywords: nanotechnology of materials, nanoparticles.

Введение. Наноматериалы делятся на компактные материалы и нанодисперсии; к первым относятся так называемые «наноструктурированные» материалы, т.е. изотропные по макросоставу материалы, повторяющимися элементами, структуры которых являются группировки (области), имеющие размеры нескольких нанометров, иногда десятки нанометров и более; иными словами, наноструктурированные материалы состоят из непосредственно контактирующих между собой нанообъектов.

Обзор литератур и методология исследования. Обзор по наночастицам и нанотехнологиям последнее время много исследовательских результатов. Особенно в исследованиях О.Ахмановой, А.Вежбицка, М.Бридели,

Л.С.Выготского, В.М. Шакелеина основные и вспомогательные основы наночастиц и нанотехнологий для современного требования. В основном в исследованиях Л.Выготского и О.Ахмановой проанализировались проблемы логические и психологические аспекты данной проблемы. В исследованиях А.Вжибицка, М.Бридсли Э.Маккромака по направлению теории метафоры. В работах М.Шакелина исследованы наночастицы в составе лексики языка.

В основу классификации методов получения наночастиц положить тип исходного вещества, то наночастицы можно получать в следующих модификациях:

1. Из компактных материалов того же (или иного) состава путем диспергирования различными методами.

2. Из соединений соединений путем направленного изменения их состава с последующей остановкой (теми или иными методами) роста новой фазы на стадии наноразмеров.

3. Превращением наночастиц одного состава в наночастицы другого состава.

Обсуждение и результаты исследования.

К сожалению, большинство известных на сегодняшний день методов позволяют получать наночастицы с широким распределением по размерам; тщательный контроль параметров реакции, таких как время, температура процесса, скорость перемешивания, концентрация реагентов и стабилизирующих добавок позволяют сузить распределение по размерам получающихся наночастиц, но не всегда до нужных размеров[3.41-58]. Известно, что большинство физических характеристик наночастиц существенно зависят от размера частиц. Подвергнуты операциям осаждения и центрифугирования. Процесс повторяют до получения фракций с нужным размером частиц и распределением по размерам.

Для создания магнитных материалов на основе наночастиц часто необходимо их внедрение в химически инертную, немагнитную основу - матрицу, которая оказывала бы незначительное влияние на магнитные свойства изолированных друг от друга наночастиц[2.5-49].

Методы получения наночастиц нельзя отделять от методов их стабилизации. Это особенно важно для лингвистических наночастиц, поскольку могут иметь иные характеристики, чем ядро наночастицы. Ниже будут рассмотрены отдельно общие методы получения наночастиц, на первый взгляд не связанные напрямую с их стабилизацией, и методы, где одновременно с получением наночастиц происходит их стабилизация тем или иным способом: в матрицах, капсулированием и т.п[4.16-79].

Задача семантики заключается в разъяснении смысла человеческих высказываний. «Ее цель состоит в том, чтобы выявить структуру мысли, скрытую за внешней формой языка... Семантический анализ неизбежно связан с упрощением. Суть проблемы состоит в том, чтобы выделить возможно меньшую часть естественного языка. Для более тонкой препарации и исследования языковых механизмов лингвистика не раз обращалась к терминам точных наук (поле, валентность, картина мира и др.). Последние десятилетия можно с уверенностью назвать десятилетиями технологических революций. Поистине

революционными явились нанотехнологии (греч. *pannos* – карлик), оперирующие мельчайшими – наночастицами[1.34-79].

Наночастица есть величина, служащая для обозначения дольных единиц равных миллиардной доле исходных единиц. Нанотехнологии оперируют наномасштабными структурами, на которые законы классической физики уже не распространяются. Одним из методов нанотехнологий является так называемый метод. Представляется интересным анализ слова с точки зрения иерархии его значений на уровне мельчайших, наномасштабных, структур смысла. Это позволит дополнить существующие методики компонентного анализа слова дальнейшим дроблением семы на наносмыслы, как отражение мельчайших элементов человеческой мысли[7.5-12].

Нам представляется, что при поиске предельного составляющего на уровне смысла в слове можно выделить мельчайшие – Наночастицы смысла (наносмыслы), которые находятся в постоянной диффузии и обладают способностью к скреплению с другими наносмыслами, идущими встречными потоками от соединенных в контексте волею говорящего/пишущего слов.

Эти потоки оседают в коннотации слова его потенциальными смысловозможностями. Причем, наносмыслы не всегда могут быть декодированы (разные культурные уровни адресанта и адресата). В этом случае они остаются только на уровне посланного импульса, но так и не расшифрованного. С другой стороны культурный опыт, интуиции, образность мышления и то, что принято называть «интуитивной очевидностью» становятся мощным импульсом для приведения в движение наносмыслов, делая возможным их неожиданное сплетение, что влечет за собой своеобразный «взрыв» внутри значения слова[6.78-86].

Но взрыв этот, тем не менее, контролируемый, поскольку будучи результатом. Полагаем, что на уровне наноанализа слова возможно получение информации и о таких ограничителях потока воображения, которые расширяя значение слова, контролируют его потенциал и определяют тот семантический предел, до которого может расширяться слово.

Допущение о том, что в слове можно выделить наносмыслы и что они являются составляющими его коннотации основано на нижеследующих рассуждениях.

Как известно, под структурой слова понимается состав и организация тех компонентов, из которых состоит слова. С одной стороны, это морфемы, а с другой – семантические компоненты. Комбинаторность лексического значения получила широкое отражение в лексикологии, в связи с чем метод семантического анализа слов, основанный на выделении компонентов их значений (компонентный анализ), признан «одним из наиболее общепризнанных и универсальных способов лингвистического исследования»[6.216-248].

Компонентный анализ значений есть анализ иерархически упорядоченной структуры значения. Это попытка разложить основную единицу лексико-семантического уровня языка – семему – на еще более мелкие элементы: сему, семантический маркер, дифференциальный признак, компонент значения, атом

смысла. Эти элементы, в большей или меньшей степени понимаемые в лексикологии как синонимичные, конструируют данное значение слова. Как видим, в лексической семантике давно обозначено направление к поиску минимальных частиц смысла. Тем не менее, именно на этом уровне в исследовании значений слова обнаруживаются лакуны, которые могут быть восполнены посредством скрупулезного анализа мельчайших частиц смысла.

Семы различаются, прежде всего, своей ролью в структуре значения слова и местом в иерархии данного значения. Как разновидности сем различают родовую сему (архисема) и дифференциальную сему. Первая – это категориально – лексическая сема. Она уточняет лексико-грамматическую сему «предмет» в именах существительных «вещество», одновременно данная сема уточняется и сама с помощью более конкретных сем, носящих дифференциальный характер. Следовательно, категориально – лексическим семам подчиняются дифференциальные семы, создающие индивидуальность слов[5.112-165].

Внутри слова нередко можно выделить и «потенциальные семы», актуализирующиеся в конкретном контексте. На этой возможности и строится механизм вторичной номинации. Очевидно, что наносмыслы особенно активны в тропах и различных стилистических фигурах, когда весь окружающий наносодержащее слово контекст «намекает» на возможное гиперпрочтение слова. Полагаем, что оперирование на уровне наносмыслов, вычлененных внутри слова, в известной степени даст возможность «объяснить, каким образом можно понять соположение элементов, нормально никак не связанных»).

В первую очередь отметим, что в идеосистеме Иосифа Бродского собственное имя Парфенон – название древнегреческого храма, признанного вершиной классической древнегреческой архитектуры, - превращается в нарицательное. Поэт тем самым расширяет значение слова Парфенон, переводя его индивидуальность, единичность в общность, некую ординарность и отождествляя со словом храм, величественным культовым сооружением, семантическая структура которого вбирается в значение слово Парфенон. Проанализируем данную микросистему путем последовательного сопоставления значений единиц ее составляющих по различным смысловым параметрам.

Заключение и рекомендации. Именно поэтому компонентный анализ на уровне наносмыслов представляется нам перспективным направлением лексической семантики. Наносмыслы, в частности, могут приоткрыть тайну лингвистики контекстов, пронизанной семантическими потоками. Художественная литература последних десятилетий – это в большинстве своем литература гипертекстов. Исследование ее языка требует своего инструментария. И, наконец, общая тенденция современной науки – это не столько расширение, сколько углубление поиска. Здесь мы лишь обозначали проблему.

Наши рекомендации исходя из поставленных задач мы ставили выявить роль наносем при передаче информации, их кагерирующие функцию экспрессивной оценки в процессе передачи словом мысли: «Мысль и слово не связаны между собой изначальной связью. Эта связь возникает, изменяется и

разрастается в ходе самого развития мысли и слова». Этот процесс имеет положительный характер в исследовании наночастиц в семантике лексики языка.

Литература

1. Ахманова О.С. и др. Основы компонентного анализа. Под ред. Э. М. Медниковой. - Москва : Изд-во Моск. ун-та, 1969. 56 -61с.
2. Бродский И.А. Поклониться тени. СПб, 2000. – 32-56 с. - ISBN 5-267
3. Бридсли М. Метафорическое сплетение// Теория метафоры. М 1990.: Москва: Прогресс 1990. 216-218 с.
4. Вежбицка А. Семантические примитивы// Семиотика. М.: 2001. : Антология. Составитель Ю.С. Степанов М.: Академический Проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2001.— 16с
5. Выготский Л.С. Мышление и речь. М.: 2001. 112-165 с
6. Маккормак Э. Когнитивная теория метафоры// Теория метафоры... : Москва: 1990 Прогресс 1990. 216-248 с.
7. Шаклеин, В. М. Наночастица как предвестник перемен в лексическом составе русского языка // Вестник РУДН. Серия: Русский и иностранные языки и методика их преподавания. – 2010. – № 1. – С. 5–12.



TINGLASH – NUTQIY FAOLIYATNING BIR TURI SIFATIDA



*Davlatova Ra'no,
filologiya fanlari doktori
Navoiy davlat universiteti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada nutq madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan tinglash madaniyati, uning muloqot aktlarining eng murakkab aspektlaridan biri ekanligi to'g'risida so'z boradi. Tinglash madaniyatining asosiy belgilari: suhbatdoshni xotirjam tinglash, aytilayotgan narsaning mohiyatini tushunish ekanligi, tinglash uslubi, turlari masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nutq madaniyati, tinglash madaniyati, tanqidiy tinglash, empatik tinglash, refleksiv bo'lmagan tinglash, faol refleksiv tinglash.

Аннотация. В данной статье говорится о культуре слушания, которая является составной частью речевой культуры и представляет собой один из наиболее сложных аспектов коммуникативных действий. Выделены основные признаки культуры слушания: спокойное слушание собеседника, понимание сути сказанного, вопрос стиля и типов слушания.

Ключевые слова: Культура речи, культура слушания, критическое слушание, эмпатическое слушание, нерефлексивное слушание, активное рефлексивное слушание.

Annotation. This article talks about the culture of listening, which is an integral part of speech culture and represents one of the most complex aspects of communicative actions. The main features of a listening culture are highlighted: calm listening to the interlocutor, understanding the essence of what was said, the question of style and types of listening.

Key words: Speech culture, listening culture, critical listening, empathic listening, unreflective listening, active reflective listening.

Kirish. Ma'lumki, muloqot - bu shaxsning alohida zarurati, uning jamiyatdagi o'rnini topishga, yashash ehtiyojlarini qondirishga ko'maklashuvchi, axborot almashinuvini ta'minlovchi jarayondir. Bugungi kunda zamonaviy kasblar uchun muloqot san'at darajasidagi eng muhim kasblardan sanaladi. Chunki tartibli va samarali muloqot odamlar o'rtasida munosabatlarni mustahkamlaydi, ish jarayonlarini osonlashtiradi. Uning umumtil muhitidagi o'rni aynan nutqiy muloqotda so'zlovchi va tinglovchi rolga egaligi bilan belgilanadi. So'zlovchi umumlashtirilgan ma'lumotni jo'natish vazifasini bajarsa, tinglovchi mazkur ma'lumotni idrok etish roliga bo'ladi. Umuman olganda, muloqotning asosiy muammolaridan biri har doim o'zaro tushunishga erishishdir.

Tilshunoslikda nutq madaniyati deyilganda asosan so'zlash madaniyatiga ko'proq diqqat qaratiladi. Ammo nutqiy muloqot deb atash mumkin bo'lgan vaziyatni yaratish uchun tinglovchi bo'lishi kerak. So'zlovchi-tinglovchi juftligi mazkur jarayonni yuzaga chiqarishning zaruriy shartidir. Odatda og'zaki (nutq) muloqotda asosiy rolni so'zlovchi bajaradi, u nutqiy faoliyatning diqqat markazida bo'lib, tinglovchida suhbat kayfiyatini yaratadi va kerakli yo'nalishga boshlaydi. Biroq, muloqotda tinglovchining roli ham faol

va muhimdir. Uning faollik darajasi: vaziyat, maqsad, suhbatdoshlarning o‘zaro munosabatlari tabiati bilan belgilanadi. Tinglash ham so‘zlash kabi kommunikativ muloqotning har qanday vaziyati va doirasida og‘zaki muloqotni amalga oshiruvchi nutqiy faoliyat turi sanaladi. Muloqotning muvaffaqiyati nafaqat chiroyli va to‘g‘ri gapirish, balki diqqat bilan tinglash qobiliyatiga ham bog‘liq. Agar so‘zlash jarayonida tinglovchining javob reaksiyasiga, og‘zaki yoki og‘zaki bo‘lmagan vositalar bilan ifodalangan kerakli fikr-mulohazalarga e‘tibor qaratilmasa, u holda muloqot muvaffaqiyatini kutib bo‘lmaydi.

Muloqotdagi asosiy pragmatik to‘siq hamsuhbatni diqqat bilan tinglamaslikdan kelib chiqadi. Agar diqqat bilan tinglansa, so‘zlovchi ayrim so‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llasa ham yoki noto‘g‘ri talaffuz qilsa ham o‘zaro ichki anglash holati nutqiy kelishuvni buzmaydi. Bekorga xalqimizda “Haqiqat so‘zlovchining tilida emas, tinglovchining qulog‘ida” degan hikmat yurmaydi. Shunga ko‘ra o‘zbek nutq madaniyati sohasida tinglash madaniyati tamoyillari, uni shakllantirish va rivojlantirishni tadqiq etish dolzarb masalalaridan biri sifatida e‘tirof etish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida inson eshitish qobiliyati mavjudligi uchungina gapira olishi ta’kidlanadi. Donishmand bu borada: “Ey farzand, toki qila olsang, so‘z eshitmakdin qochmag‘ilkim, kishi so‘z eshitmak bilan suxango‘ylik hosil qilur. Avvalo, buni shundoq dalillash mumkin: agar bir o‘g‘lon onadan tug‘ilsa, unga yerning ostidan bir joy qilib sut berib, ul joyda parvarish qilsalar, onasi va doyasi unga gapirmasalar, u o‘g‘lon hech kishining so‘zin eshitmasa, ulug‘ bo‘lg‘onda lol (soqov) bo‘lur. Ko‘rmasmusankim, barcha lollar kar bo‘lurlar...” – deydi. [2, 47]

Manbalarda aqliy faoliyatga moyil kishilar o‘z vaqtini muloqotning turli aspektlariga quyidagicha taqsimlanishi ko‘rsatiladi: tinglash-40%; so‘zlash-35%; o‘qish-16%; yozish-9% . [3, 12]

Ko‘rinadiki, tinglash muloqotdagi faol nutqiy holatdir. Biroq har qanday adresatni haqiqiy tinglovchi deb bo‘lmaydi. Zero, tinglash muloqot aktlarining eng murakkab aspektlaridan biridir. Muloqot jarayonida tinglashning roli reaktiv bo‘lib, nutq ishtirokchilari ichki nutqda fikrni shakllantirish va tartibga solish orqali amalga oshiriladi. Tinglashning ichki faoliyati aqliy muammolarni og‘zaki vositalar bilan hal qilishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, aynan tinglash gapirish va yozish shartlaridan biridir.

Tadqiqotlarda tinglash madaniyatining asosiy belgilari: suhbatdoshni xotirjam tinglash, aytilayotgan narsaning mohiyatini tushunish ekanligi va bu xususiyat odamlarning faqat 10 foizida mavjudligini ta’kidlashadi. Suhbatdoshlarning o‘zaro munosabatlaridagi asosiy xato shundaki, ular diqqat bilan tinglash va foydali ma'lumotlarni o‘zi uchun belgilab olish o‘rniga, bir-birlarini kuzatadilar, iloji boricha ko‘proq o‘zlari gapirish istagini namoyon etishadi. Bu o‘rinda I. Lafaterning "Ko‘p gapirish va ko‘p narsani aytish bir xil narsa emas" so‘zlarini eslash o‘rinli.

Tahlil va natijalar. Shu bilan birga, har bir shaxsning tinglash uslubi uning shaxsiyatiga, xarakter va qiziqishlari, jinsi, yoshi, aloqa ishtirokchilarining muayyan holatiga bog‘liq. Masalan, erkak va ayol tinglash uslubi bir-biridan farqlanadi. Erkaklarda tinglash uslubi suhbat mazmuniga e‘tibor berish bilan tavsiflanadi. Ular taxminan 20 soniya tinglay oladilar. Bunday tinglovchilar muhokama qilinayotgan narsani tushunib

olishlari bilan, o'z munosabatlari haqida o'ylay boshlaydilar va ba'zan mavzuni mohiyatini tushunib yetishlari bilan suhbatdoshni to'xtatadilar. Ayollar tinglash uslubi suhbatning mazmuniga yemas, balki suhbatdoshning his-tuyg'ulari va emotsional holatiga, muloqot jarayoniga katta e'tibor berish bilan tavsiflanadi. Ayollar suhbatdoshini ko'proq his qilishadi, uni shaxs sifatida qabul qilishadi va kamroq xalaqit berishadi. Har ikkala tinglash uslubi ham o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Erkaklar uslubi suhbatdoshga noqulaylik tug'dirishi, ayol uslubi ba'zan samarasiz bo'lishi mumkin.

Tinglashning nutqiy vaziyatga ko'ra turli ko'rinishlarini farqlash mumkin:

1. Tanqidiy tinglash. Bunda muloqot ishtirokchisi dastlab axborotni tanqidiy tahlil qiladi (ya'ni ma'lumotni tanqidiy idrok tafakkuri bilan qabul qiladi), keyin esa uni tushunishga harakat qiladi. Bunday tinglash qarorlar, loyihalar, g'oyalar, nuqtai nazarlar muhokama qilinadigan vaziyatlarda samaralidir. Yangi ma'lumotlar, bilimlar qabul qilinadigan nutqiy vaziyatda tanqidiy tinglashning samaradorlik darajasi kamayadi.

2. Empatik tinglash. Ushbu turdagi tinglashda muloqot ishtirokchisi so'zlarga emas, ko'proq o'zaro ta'sir tuyg'ularini "o'qish"ga e'tibor qaratadi. Agar so'zlovchi ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otsa, bunday tinglash samarali, salbiy his-tuyg'ular uyg'otsa samarasiz bo'ladi.

3. Refleksiv bo'lmagan tinglash. Ushbu turdagi tinglash suhbatdoshning nutqiga maksimal diqqat bilan minimal aralashuvni o'z ichiga oladi. Bunday eshitish quyidagi vaziyatlarda kuzatiladi:

- tinglovchi mavzuga o'z nuqtai nazarini, munosabatini bildirish istagi kuchli bo'ladi;
- tinglovchi shoshilinch masalalarni muhokama qilmoqchi bo'lsa;
- tinglovchining so'zlovchi nutqiga e'tirozi paydo bo'lsa;
- "Shundog'am ham qolgan fikri tushunarli" degan xulosaga kelganda;
- so'zlovchi masalani so'z bilan ifodalashga qiynalsa; uyatchan, o'ziga ishonchsiz ekanligini his qilsa va hokazo.

4. Faol refleksiv tinglash. Bunday tinglash jarayonida so'zlovchi bilan kommunikativ to'siqlarni yengib o'tish, hamfikrligi va hamdardligini namoyon etishga imkon beruvchi qayta aloqa o'rnatiladi. Qayta aloqa turli yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- savol berish (so'zlovchiga to'g'ridan-to'g'ri turli savollar orqali murojaat qilish);
- parafrazlash (ya'ni so'zlovchi fikrini to'g'ridan-to'g'ri takrorlamasdan, ularni bilvosita, ya'ni turli xil so'z yoki tasviriy iboralar bilan ifodalash). Bu bilan u so'zlovchi bergan axborot mohiyatini unga qaytarish orqali to'g'ri tushunayotganini ifodalaydi.

- his - tuyg'ularini namoyon etish (hissiyotlarni ifodalashda asosiy e'tibor xabarning mazmuniga yemas, balki so'zlovchining his-tuyg'ulari va gapining emotsionalligiga qaratiladi);

- xulosa qilish (tinglovchi so'zlovchiga uning asosiy fikrlari tushunilganligi va idrok yetilganligini yetkazadi [4, 42-43]).

Shuningdek, tinglovchining yuz ifodasi va xatti-harakatlari ham so'zlovchi nutqiga ta'sir o'tkaza oladi. Bunda u tinglovchi yuzida befarqlik, norozilik ifodasini kuzatsa unda gapirish istagi kamayadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tinglash madaniyati norasmiy muloqotda, insonlar o'zlarining haqiqiy his-tuyg'ulari va munosabatlarini ifoda yetganda ayniqsa muhimdir.

Tinglay olmaslik samarasiz muloqotning asosiy sababi bo'lib, tushunmovchiliklar, xatolar va muammolarga olib keladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, tinglash – bu katta ruhiy quvvat talab etuvchi, ma'lum ko'nikmalar va umumiy kommunikativ madaniyat darajasidagi murakkab jarayon. Nutq madaniyatini rivojlantirishda: tinglash kerak bo'lganda birinchi, gapirish kerak bo'lganda oxirgisi bo'lish muhim ahamiyatga ega. Shunda hatto yomon gapiradiganlarning nutqidan ham ma'lum bir xulosa va naf olish mumkin bo'ladi. Negaki xushmuomalalik ba'zan qo'pollikdan o'rganiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Игебаева Ф.А. Деловые коммуникации: практикум. – Уфа: Башкирский ГАУ, 2013. – 176 с.
2. Кайковус. Қобуснома. - Тошкент: Ўқитувчи, 1986, 47-б.
3. Мадэлин-Беркли Алэн. Забытое искусство слушание. - Санкт-Петербург: Питер, 1977, с. 12.
4. Панфилова А.П. Деловая коммуникация в профессиональной деятельности. – СПб: Знание, ИВЭСЭП, 2001. – 496 с.

АДВЕРБИАЛИЗАЦИЯ КАК СПОСОБ СЛОВО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗНОСИСТЕМНЫХ ЯЗЫКАХ

Жумаева Феруза,

*Завкафедрой русского языка и литературы,
доцент Навоийский государственный университет*

Аннотация: в этой статье рассмотрена адвербиализация в русском и узбекском языках. Выполнен сравнительный анализ адвербиализации в исследуемых разносистемных языках. Адвербиализация – это переход в класс наречий словоформ, принадлежащих другим частям речи. В функции наречия могут использоваться: имена существительные, имена прилагательные, местоимения, имена числительные, деепричастия, фразеологические сочетания. В статье рассмотрена транспозиция наречия «*keyin*» («потом»), которое может использоваться в функции разных частей речи в узбекском языке.

Ключевые слова: адвербиализация, наречие, деривация, анализ, транспозиция, переход, часть речи, транспозит, падежная форма.

Annotatsiya: Ushbu maqolada rus va o'zbek tillaridagi adverbializatsiya ko'rib chiqiladi. O'rganilayotgan turli tizimli tillardagi adverbializatsiyaning qiyosiy tahlili o'tkazildi. Adverbializatsiya – boshqa so'z turkumlariga oid so'z shakllarining ravish so'z turkumiga o'tishidir. Ravish vazifasida otlar, sifatlar, olmoshlar, sonlar, ravishdoshlar, frazeologik birikmalar qo'llanilishi mumkin. Maqolada o'zbek tilida turli so'z turkumlari vazifasida qo'llanishi mumkin bo'lgan "keyin" ravishining ko'chishi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: adverbializatsiya, ravish, derivatsiya, tahlil, transpozitsiya, o'tish, so'z turkumi, transpozit, kelishik shakli.

Abstract: This article examines adverbialization in the Russian and Uzbek languages. A comparative analysis of adverbialization in the studied multisystem languages was carried out. Adverbialization is the transition to the class of adverbs of word forms belonging to other parts of speech. The article examines the transposition of the adverb "keyin" ("later"), which can be used in the function of different parts of speech in the Uzbek language.

Key words: adverbialization, adverb, derivation, analysis, transposition, transition, part of speech, transposit, case form.

Введение (Introduction). В данной статье будем анализировать процесс адвербиализации на материале двух языков: русского и узбекского. Адвербиализация (от лат. *adverbium* – наречие) – переход в класс наречий словоформ, принадлежащих другим частям речи. Основа процесса адвербиализации – изоляция той или иной формы от системы словоизменения своей части речи и приобретение ею нового грамматического значения. [4, 468-469] В зависимости от направления диахронной трансформации различают два типа: иммиграционную, пополняющую какую-либо часть речи за счет других частей речи, и эмиграционную, при которой какая-либо часть речи «отдает свои слова в другие части речи, иммиграционная трансформация, в свою очередь,

включает следующие процессы: субстантивацию – переход в имена существительные, адъективацию – в прилагательные, нумерализацию – в числительные, прономинализацию – в местоимения, адвербиализацию – в наречия, предикативацию – в безлично-предикативные слова, препозиционализацию – в предлоги, конъюнкционализацию – в союзы, партикуляцию – в частицы, интеръективацию – в междометия. [4, 468-469]

Методология исследования (Research Methodology). В исследовании данной проблемы использован сравнительно-сопоставительный метод, который позволил определить семантические, грамматические и функциональные особенности адвербиализации в современном русском и узбекском языках.

Анализ литературы по теме (Literature review). Классификация всех случаев переходности в области частей речи, т.е. вопрос о транспозиции рассматривался в трудах Л.Л. Буланина, В.Н. Мигирова, В.И. Чуглова, М.Ф.Лукина, Е.П. Калечица, Т.М. Николаевой, Л.Д. Чесноковой. Важным для теории переходности на уровне морфологии можно считать установление признаков проявления переходности в области частей речи, частично описанных ранее в лингвистической литературе, но систематизированных, уточнённых и дополненных В.Н. Мигириным. Теорию переходности развивали также М.Ф.Лукин, Н.А. Каламова, Е.П. Калечиц, А.Я. Баудер, Ю.Г. Скиба и другие, но и до настоящего времени многие из важных вопросов остаются нерешёнными. [3, 566-572]

Проблемы классификации частей речи и явления переходности изучали лингвисты Узбекистана: Т.Турдибоев, Г.Абдурахмонов, А.Гулямов, С.Облокулов, Ж. Хамдамов, О.Ким, З.С. Исоков, А.Е.Ботинова, А.Б.Пардаев, С.Маматкулов, Я.Д.Эльтазаров, А.Бегматова, И.И. Расулов и др. [2, 61-67]

Несмотря на то, что различные типы и этапы процесса адвербиализации уже рассматривались в классических трудах А.А.Потебни, Л.В.Щербы, А.М.Пешковского, В.В. Виноградова и продолжают привлекать внимание специалистов, эти исследования не дают общей картины, считает О.Н. Калякина. [5]

Анализ и результаты (Analysis and results). Транспозиция – это тот факт, когда слово, относящееся к определённой категории, имеет семантический и грамматический характер, специфичный для другой группы слов, ослабляющий семантику функции. В тюркских языках части речи не ограничены строго друг от друга, они находятся в неразрывной связи, образуя целую систему. Взаимоотношения между самостоятельными словами и их переход друг в друга происходят в результате развития лексемной семантики, причем речевые и языковые формы перехода различны. В речевом переходе выражается переносное значение. Например, во фразе «*Birni ko 'rib fikr qil, birni ko 'rib shukr qil*» («Увидев одного, подумай, увидев одного (другого), будь благодарен жизни») слово, принадлежащее к числительному (один), временно используется в функции существительного, и это переходящее, речевое явление. При языковой миграции слово полностью переходит из одной категории в другую, происходит транспозиция. Транспозиция наблюдается почти во всех самостоятельных словах,

даже между самостоятельными и служебными словами. Можно сказать, что существует закономерная связь между словами, что свидетельствует о постоянном изменении языковой системы, о живом процессе развития. Поэтому принадлежность тех или иных слов должна определяться на основе изучения их семантических, морфологических и синтаксических свойств соответствующими методами исследования. Это одна из неотложных задач, стоящих перед нашим языкознанием (здесь имеется в виду узбекское языкознание), считает исследователь Р.Р. Сайфуллаева. [7, 183-185]

В узбекском языке часто наблюдается использование слова одной части речи вместо другой, то есть в другой функции. Например:

1) уурқа (qalin emas) – sifat (*тонкий*: прилагательное);

2) уурқа (ovqat nomi) – ot (*тонкий* в значении названия блюда: существительное);

1) ko‘k (rang) – sifat; (*синий* для обозначения цвета – прилагательное);

2) ko‘k (osmon) – ot; (*синий* в значении *небо* – существительное);

3) ko‘k (tikishning bir turi) – ot; (*синий* в значении *тип шитья* – существительное)

4) ko‘k (o‘t-o‘lan) – ot; (*синий* в значении *зелень* – существительное).

Ishlagan tishlar – в данной узбекской пословице слово *ishlagan* – это причастие – особая форма глагола, здесь использовано вместо существительного и отвечает на вопрос КТО?, выполняет синтаксическую функцию подлежащего.

Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning. (*Раз послушайся старого, другой раз – малого*) – В этой узбекской пословице прилагательные *katta*, *kichik* использованы на месте существительных и их синтаксическая функция транспонирована, то есть они не выполняют функцию определения, а выполняют новую синтаксическую функцию, функцию дополнения. Числительное *bir* транспонируется в повторяющийся сочинительный союз (раз/раз), который соединяет два предложения: происходит конъюнкционализация. Значит, можно сделать выводы о том, что переход слова из одной лексико-грамматической категории в другую категорию – это одна из форм словообразования.

Таким образом, в узбекском языке одно и то же слово может использоваться в функции разных частей речи. Рассмотрим функционирование наречия «*keyin*» («потом»).

1) *Xo‘p, hozir taqmasang, cho‘ntakka sol, uyingga yashir, keyin taqasan.* Oybek, Tanlangan asarlar. Здесь слово «*keyin*» выполняет функцию наречия.

2) *Agar [qovun] yaxshi bulsa, xalq yeb, sizni duo qiladi, men o‘zim yemaيمان. Keyin, kim biladi, bir palakdan har xil qovun yetishadi. Uch so‘lkavoy beraman, xo‘p deng.* Oybek, Tanlangan asarlar. В этом примере слово «*keyin*» является вводным словом.

3) – *Hammaga zehn solib o‘tirgan Safarov. Bo‘taboy akadan keyin o‘shanga [Ro‘zimatga] so‘z berdi.* A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *Sidiqjon ovqatdan keyin qo‘liga gazeta olgan edi, bir maqolani yarimlatmasdan, ko‘zi suzildi.* A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. В данных предложениях слово «*keyin*» употребляется в значении послелого (ko‘makchi) («после кого, после чего»).

4) Также наречие «*keyin*» может связывать придаточное причины или времени с главным предложением: выполнять функцию подчинительного союза. *Qo‘l kalta bo‘lgandan keyin, qayoqqa uzatasan?* Oybek, Tanlangan asarlar. *Yorug‘ dunyodan umiding bo‘limgandan keyin, darchang qiyshiq turdi nima bo‘ldi-yu, to‘g‘ri turdi nima bo‘ldi.* Bunaqa narsalar.. *orzu-havasga bog‘liq.* A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *Bu ishlar bir qadar bitgandan keyin, Sidiqjon onasini olib kelgani Bahrobodga bordi.* A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.

Из примеров можно сделать выводы о том, что в узбекском языке наречие “*keyin*” может употребляться в функции вводного слова, послелога, подчинительного союза.

Авторы учебника «*Ona tili*» считают, что в узбекском языке наречия образуются, в основном, двумя способами: аффиксацией и композиционным способом. По структуре наречия узбекского языка бывают: **простые** (*ko‘p, hozir, kamtarona*), **составные** (*har gal, bir vaqt, tez fursatda*), **парные** (*hali-beri, erta-kech, eson-omon*) и **повторяющиеся** (*endi-endi, asta-asta, oz-moz, sal-pal*). [9,159]

Исследователи утверждают, что в узбекском языке наречия могут использоваться в функции существительных (в лингвистике: отадвербиальная транспозиция, а именно: субстантивация), когда существительное, с которым связано наречие, выпадает и само наречие используется в функции существительного. В узбекском языке субстантивируются, в основном, наречия состояния, меры (иногда наречия времени).

Примеры: *Ko‘pni ko‘rgan ko‘hna dunyoda*

Baxt axtarib ko‘plar o‘tdilar. (H.O.)

Ilm ko‘pga yetkazar, hunar esa ko‘kka. (Maqol)

Har bir ishimizdan ertaning shabadasi kelib turibdi, o‘g‘lim. (O.) [9,159]

При отадвербиальной субстантивации наречия приобретают признаки существительного: могут иметь личные, падежные окончания и окончания множественного числа; в предложении могут выполнять синтаксическую функцию дополнения или определения как и существительные.

Какие же части речи транспонируются в разряд наречия в узбекском языке? В нижеследующих примерах можно наблюдать, как прилагательное и существительное употребляется в функции наречия. Примеры взяты из толкового словаря узбекского языка [10].

1. Прилагательное → Наречие

ZAB 1 sft. Nihoyatda yaxshi, xo‘b; ajoyib, zo‘r. *Bu yer zab joy ekan-da.*- [Dadavoy Qalandarovga:] *Zab miltiq ekanmi? Osh pishguncha lip etib soyga tushib, jindak ov qilib kelmaylikmi?* Uyg‘un, Navbahor. *Sartaroshlik zab hunar, xizimating tez ko‘rinar.* P.Mo‘min.

2 rvsh. Nihoyatda, juda ham. *Qizlar kulishdi: «Salimaxon, o‘zingizga ham kelinlik zab yarashar ekan-da».* N. Fozilov, Oqim.

ILDAM 1 sft. Tez xarakat qiladigan; chaqqon, tez. *Ildam yigit. Qo‘li sust kosibdan oyog‘i ildam gadoy yaxshi.* (Maqol.)

Karimchittak – kichkina, lekin harakatlari chaqqon va ildam bo‘lganidan, yoshlikda shunday laqabi bor edi, hozir kimsan – Mirzakarimboy. Oybek, Tanlangan asarlar.

Ro ‘paradagi ko ‘rkam uylardan yaxshi kiyingan, ranglari toza, serg‘ayrat va ildam ayollar qo‘llarida idishlari bilan qozon boshiga qatnab turibdilar. P. Tursun, O‘qituvchi. *Navkar minar ildam otni.* «Gulnorpari».

2 rvsh. Chaqqon va tez harakat bilan. *Fazliddin otni ildam chiqarib, daraxtga bog‘ladi.* Oybek, Tanlangan asarlar. [Salimboyvachcha] *Ichki cho‘ntagidan qog‘ozga o‘ralgan zaharni olib, titroq qo‘llari bilan oshga sepdi va qoshiq bilan ildam aralashtirdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Ildam, ildam qadam tashlanglar!* J. Sharipov, Xorazm.

2. Существительное → Наречие

INDIN 1 ot. Ertadan keyingi kun. *Direktorimiz erta bor, indin bor, deb ishni keyinga surib yubordilar.* «Mushtum». [Sutchiota] *Sut topshirgani shaharga ketishlarini aytib, indinni tayin qildilar.* A. Miraxmedov, Kulgan chechaklar.

2 rvsh. Ertadan keyingi kun; indin(i)ga. *Ertta o‘tib, indin yana to‘planadigan bo‘ldik.*

Исследуя явление адвербиализации в сопоставительном аспекте, Ш.Б.Назарова говорит о том, что в узбекском и корейском языках существуют простые наречия, которые образовались от существительных, прилагательных, числительных и местоимений. Например, слово «bir» (один) в функции наречия исследователь называет «функционально-семантическим транспозитом». Транспозит представляет собой результат процесса перехода слова из одной части речи в другую. В узбекском языке падежные формы числительного «bir»: «birdan» (вдруг), «birga» (вместе) – транспонируются в наречие. [6, 81-89]

Числительное «один» в функции наречия обозначает признак действия. В данном предложении адвербиализуемое слово «один» выполняет синтаксическую функцию обстоятельства: *Birdan yomg‘ir urib berdi.* (*Вдруг пошёл дождь.*) Таким образом, падежные формы «birdan», «birga» и слово «bir» относятся к разным частям речи: «bir+dan», «bir+ga» – наречие; «bir» – числительное.

Нужно отметить, что количество непроизводных наречий ограничено и в русском, и в узбекском языках. В частности, непроизводные наречия (непродуктивная группа) в русском языке: *здесь, там, тут, тогда, всегда;* слова, называющие признак как обстоятельство:

- образа и способа действия (иначе, вдруг);
- меры и степени (очень, почти, чуть);
- места (возле, прочь, повсюду);
- времени (после, иногда, ныне);

в узбекском языке: *tez, sekin, asta, zo‘rg‘a, arang, sal, tek, so‘ng, boya* (исконно тюркские) и *juda, hamon, darrov, hali, hamisha, xiyla, xiyol, mudom, nuqul* (заимствованные).

Рассмотрим, какие части речи могут использоваться в функции наречия в русском языке.

В функции наречия могут использоваться: имена существительные, имена прилагательные, местоимения, числительные, деепричастия, фразеологические сочетания.

О.Н.Калякина в диссертационном исследовании «Процесс адвербиализации в современном русском языке» описала процесс адвербиализации как высокопродуктивный тип функциональной транспозиции в аспекте её системно-языкового и прагматико-стилистического потенциала. Исследователь в своей диссертации выделяет следующие продуктивные типы адвербиализации: [5]

1. Предложно-падежные формы —» наречия:

1) от формы родительного падежа с предлогами **без, из, с, до, от**: (бестолку, без умолку, без удержу, без устали, без спросу; издали, изнутри; искони, исстари (устар.); исподлобья, исподтишка; сразу, снизу, сбоку, сверху, сзади, спереди, со зла, сначала, спросонья, доверху, донизу, до зарезу, до упаду, досыта, отроду. Например: *Работала она без устали; Издали белеет пароход; Бабушка недовольна внуками и смотрела исподлобья; Девушка танцевала до упаду;*

2) от формы дательного падежа с предлогами **к, по**: кверху, книзу, поблизости, посредине. Например: *Весьма кстати дедушка выбрал отца за либерализм; Рыбак жил поблизости от реки;*

3) от формы винительного падежа с предлогами **в, на, за**: набекрень, наспех, на смех, наперекор, нарасхват, нараспашку, назло, набок, напролет. Например: *Ты у больных две ночи просидела напролет; Здесь будет город заложен; Назло надменному соседу* (А. Пушкин); *вверх, вниз, вбок, вслух, вновь, вдаль, вглубь, вприкуску, всмятку*. Например: *Читать вслух на иностранном языке полезно; за границу - На днях они уехали за границу;*

4) от формы творительного падежа с предлогом **с**: с оглядкой, с ленцой, с прохладцей (без большого усердия). Например: *Он жил летом с ленцой;*

5) от формы предложного и местного падежей: *вдали, вблизи, внутри; на ходу, на боку, навывкате, на лету, накануне*. Например: *Накануне с колодца возвращались девушки, песни пели, танцы играли, а днем в работе родным помогали (нар. песня).*

2. Беспредложно-падежные формы —» наречия:

смерть, ужас, страсть, страх (нередко в сочетании с **как**) в значении: *очень сильно* (ср. в том же значении: *страшно, ужасно, адски, чертовски, дьявольски, бешено* и некоторые другие). Например: *«Я ужас как ревнив»* (Пушкин); *«Иван Иванович... уходился страх и прилег отдохнуть»* (Гоголь); *«Когда же им случилось оставаться вдвоем, Маше становилось страх неловко»* (Тургенев, «Бретер»); *«И весело мне страх выслушивать о фрунтах и рядах»* (Грибоедов, «Горе от ума»); *«Я смерть пить хочу»*; *«Ему самому было смерть смешно»* (Лесков, «Соборяне»); *«Когда же она не говорит ни глупостей, ни гадостей, а красива, то сейчас уверяешься, что она чудо как умна и нравственна»* (Л. Толстой, «Крейцера соната»).

Ограничена узким кругом группа наречий, состоящих из формы винительного падежа времени: *сейчас, тотчас, ср. посейчас*. Ср. вообще формы винительного места, времени и количества (*капельку, чуточку* и т. п.).

Непроизводительная группа наречий, «омонимных» с родительным падежом имен существительных. Ср. *дома*.

3. Деепричастия —> наречия:

Наречия с суффиксом -а (-я): нехотя, лёжа, сидя, не шутя; молча, загодя, немедленно, походя, отродясь (в некоторых случаях от деепричастий их отличает место ударения: *не хотя* - *нехотя*, *молча* - *молча*). Наречия с суффиксом -ючи (-ючи): *играючи*, *припеваючи*, *умеючи*, *крадучись*.

Большую часть узбекских наречий составляют лексические и семантические дериваты, образованные на основе транспозитивной деривации существительных, прилагательных, числительных, местоимений, причастий, инфинитива и звукоподражательных слов. Основная часть производных наречий образуется при участии словообразовательных формантов. Рассмотрим типы морфологической адвербиализации:

а) морфологическая адвербиализация существительного: *ingliz-cha*, *o'rtoqlarcha*, *dehqon-chasiga*, *qator-asiga*, *oy-lab*, *qush-day*, *o'q-dek*, *be-to'xtov*, *to'xtov-siz*;

б) морфологическая адвербиализация прилагательного: *yangi-cha*, *vaxshylarcha*, *ochiq-chasiga*, *mard-chasiga*, *uzun-asiga*, *shunaqa-siga*, *yaxshi-lab*, *fidokor-ona*, *mard-ona*, *majbur-an*, *tasodif-an*;

в) морфологическая адвербиализация местоимения: *sen-cha*;

г) морфологическая адвербиализация числительного: *bitta-lab*, *ikk-ovlon*;

д) морфологическая адвербиализация глагола: *istagan-cha*;

е) морфологическая адвербиализация наречия: *hozir-cha*.

Выводы и рекомендации (Conclusion/Recommendations). Таким образом, исследуя типы адвербиализации в русском и узбекском языках, можно сделать следующие выводы.

Хотя русский и узбекский языки относятся к разным языковым семьям, есть общее в образовании новых слов. (Русский язык относится к восточной группе славянских языков, принадлежащих индоевропейской семье, а узбекский язык является частью тюркских языков, относящихся к алтайской семье.) В обоих языках продуктивным считается суффиксация.

Адвербиализация является доказательством активного перехода частей речи в наречия в русском и узбекском языках. Мы считаем, что адвербиализация как тип транспозиции представляет собой живой и продуктивный процесс в современном русском и узбекском языках. Это лингвистическое явление имеет отношение к лексико-грамматической или межчастеречной омонимии.

Количество непрямых наречий ограничено и в русском, и в узбекском языках.

В современном русском языке процесс адвербиализации наиболее активно протекает в области предложно-падежных форм существительных, в полисемантическом характере которых заключены потенциальные возможности образования наречий.

Наличие предложно-падежной системы в исследуемых языках является предпосылкой адвербиализации в нем беспредложных и предложных конструкций, характеризующихся многообразием и семантическим переосмыслением.

Наречия, полученные при процессе адвербиализации, являются реже полными и чаще частичными лексико-грамматическими омонимами – дериват беспредложных и предложных конструкций имен.

Адвербиализация как первоначальный путь образования наречия постепенно перерастает в следующую высшую фазу - в морфологический способ словообразования [3, 567]. Это мнение разделяет Е.Г. Федорук и соавторы, которые сообщают, что «отмечая тесную связь наречий с другими частями речи, А.А. Шахматов указывает на образование наречий от существительных, прилагательных, причастий, деепричастий, местоимений и повелительной формы глагола, не разграничивая, однако, процесс образования наречий и процесс адвербиализации» [8, 202].

В данной статье мы затронули и вопрос об отадвербиальной транспозиции. При отадвербиальной субстантивации наречия приобретают признаки существительного и могут изменяться по падежам и числам.

Список использованной литературы (References)

1. Голубева А.Ю. Конверсия в словообразовании: узус иokkaзональность. 2014.- <https://www.dissercat.com/content/konversiya-v-slovoobrazovanii-uzus-i-okkazionalnost>
2. Жумаева Ф.Р. История изучения перехода частей речи в трудах узбекских учёных. – Международный научно-методический журнал «Образование и инновационные исследования». – 2022. – №6. – С. 61-67. - <https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/35>
3. Jumaeva F. R., Mamurova F. N. Transposition of parts of speech as a non-morphological method of word formation //ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (102). – 2021. – С. 566-572.
4. Жумаева, Ф. Р. Типы транспозиции частей речи в современном русском языке / Ф. Р. Жумаева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 47 (389). — С. 468-472. — URL: <https://moluch.ru/archive/389/85522/>
5. Калякина О.Н. Процесс адвербиализации в современном русском языке. Автореферат диссертации. - <https://www.dissercat.com/content/protsess-adverbializatsii-v-sovremennom-russkom-yazyke>
6. Назарова Ш.Б. Ўзбек ва корейс тилида адвербиализация ходисасининг қиёсий таҳлили. – Ж.: Хорижий филология. №2. – Самарканд, 2019. - <http://samxorfil.uz/maqola/ozbek-va-koreys-tilida-adverbializatsiya-hodisasining-qiyosiy-tahlili>
7. Сайфуллаева Р.Р. и др. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Т., «Фан ва технология», 2009. – 416 б.
8. Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. М.: Эдиториал УРСС, 2001.-624 с.
- 9.М. Hamroev, D. Muhammedova, D. SHodmonqulova, X. G`ulomova, SH. Y o`ldasheva, ONA TILI. Darslik. – Toshkent, 2007. - 276 с.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A. Madvaliev tahriri ostida. - Toshkent, 2020. – 680 b.



LUG‘AT MAQOLA TADQIQIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR



Sulaymonov Bobir,
*Qarshi Iqtisodiyot va
pedagogika universiteti dotsenti*

Annotatsiya. Ma'lumki, lug'at maqola lug'atning asosiy qurilmasi, tayanchini tashkil etadi. Zamonaviy antropotsentrik leksikografiyada olamning muayyan til, muayyan davrga xos yaxlit lisoniy tasviri o'zida aks ettiradigan alohida leksikografik janr sifatida lug'at maqola tadqiqiga e'tibor oshib bormoqda. Mazkur maqolada lug'at maqola haqidagi qarashlar, unga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: lug'at, lug'at maqola, kiberleksikografiya, vokabula, izohli lug'at, o'quv lug'ati, elektron lug'at.

Annotation: Clearly, a dictionary article constitutes the main structure of a dictionary and forms its foundation. In modern anthropocentric lexicography, there is an increasing focus on the study of dictionary articles as a distinct lexicographic genre that reflects a specific linguistic representation of the world characteristic of a particular language and time period. This article discusses perspectives on dictionary articles and contemporary approaches to them.

Key words: dictionary, dictionary article, cyberlexicography, vocabulary, explanatory dictionary, educational dictionary, electronic dictionary.

Аннотация: Известно, что статья в словаре является основной структурой словаря и составляет его основу. В современной антропоцентрической лексикографии наблюдается растущее внимание к исследованию статьи в словаре как отдельного лексикографического жанра, который отражает целостное языковое представление мира, характерное для определенного языка и определенного времени. В данной статье рассматриваются взгляды на статьи в словаре и современные подходы к ним.

Ключевые слова: словарь, статья в словаре, кибберлексикография, вокабуляр, толковый словарь, учебный словарь, электронный словарь.

Kirish. So'nggi yillarda jahon leksikografiyasida *tizimli leksikografiya, integral lingvistik talqin, olamning yaxlit lisoniy tasviri, leksemaning leksikografik portreti, sinxron semantika, diaxron semantikaga* doir tadqiqotlar doirasida lug'at maqolani o'rganishning yangicha an'analari yuzaga keldi.

Lug'at maqola leksikografiyaning mustaqil janri, umuman, lug'atning mustaqil – avtonom qismi, kompozit, matn; so'zning leksikografik tasviri, semiosferaning yaxlit obrazi, lug'at maqola multiqurilmasi – ichki uzvlari esa zona, maydon, bo'lim sifatida nafaqat tilshunoslik, balki matn lingvistikasi, adabiyotshunoslik, semiotika, lingvokulturologiya, kompyuter lingvistikasi va boshqa fanlarning obyektiga aylandi.

Mavjud lug‘atlarni elektronlashtirish, turli elektron qurilmalarda ishlaydigan onlayn va oflayn tartibli lug‘atlar taraqqiyoti leksikografiyaning yangi tarmog‘i kompyuter leksikografiyasi, elektron lug‘atchilik, internet leksikografiyasi kabi turli nomlar bilan yuritilayotgan kiberleksikografiyaning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bugungi kunda internet formatdagi lug‘atlarning hatto bir turi, muayyan toifagagina mansublaridan foydalanishda tanlash imkoni juda yuqori. Sababi bu tipdagi lug‘atlarda vokabula – bosh so‘z haqida mavjud barcha fonetik-fonematik, grafik, orfografik, orfoepik, etimologik, grammatik ma’lumotlar; semantizatsiya – izoh bilan bog‘liq tarixiy-etimologik, genetik izoh, paradigmatic, sintagmatik munosabatlari xususida to‘liq ma’lumot berish muammo emas.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Lug‘at maqolani o‘rganish tarixi leksikografiyaga bag‘ishlangan ilk tadqiqotlardan boshlanadi. Xususan, jahon tilshunosligida M.V.Lomonosov, A.A.Barsov, Y.K.Grot, L.V.Shcherba, V.V.Vinogradov, V.G.Gak, A.A.Shaxmatov, P.N.Denisov, N.M.Shanskiy, V.V.Morkovkin, o‘zbek tilshunosligida S.F.Akobirov, Sh.Fayzullayeva, N.Rasulov, K.Muxiddinov, E.Umarov, X.Fattohov, T.Kadirov, M.Ziyayeva, G‘.Abdurahmonov, S.Mutallibov, M.Mirtojiyev, Z.Hamidov, H.Dadaboyev, A.Madvaliyev kabilarning ishlarida leksikografiyaning umumiy masalalari bilan birga, uning asosiy obyekti lug‘at maqola xususida ham fikrlar berildi.

O‘zbek leksikografiyasida bevosita lug‘at maqola tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlar uchramaydi. Ammo o‘tgan asr o‘rtalaridan lug‘atshunoslik, manbashunoslikga doir ishlar, xususan, Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan va boshqa mumtoz lug‘atlar ustida olib borilgan izlanishlarda lug‘atning tuzilishi tahlili jarayonida lug‘at maqola va uning tarkibiy qismlari ham tahlilga tortilganini kuzatish mumkin. Xususan, A.K.Borovkov, E.Umarov, R.Doniyorov, H.Dadaboyev, N.A.Sulaymonova [6;21;22;10;9;8;20], shuningdek, B.Baxriddinova, Z.Raxmatova, Z.Rajabova, G.Mirxanova, Sh.Nashirova, Sh.Nabiyevalarning o‘quv lug‘atchiligi tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarida [5;18;14;17;15] lug‘at mikroqurilmasi tahlili doirasida lug‘at maqolaga doir fikrlarni uchratish mumkin.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida lug‘at va uning komponentlarini an’anaviy va zamonaviy konsepsiyalar asosida tadqiq qilib kelayotgan bir necha leksikografiya maktablari yuzaga kelgan. Xususan, AQShda L.Zgusta (*Northern Illinois University*), Buyuk Britaniyada R.Xartman (*University of Exeter*), Germaniyada F.Xausman (*University of Erlangen –Nuremberg*), Moskvada V.V.Morkovkin (*Институт русского языка имени А.С.Пушкина*), Y.D.Apresyan (*Институт русского языка имени В.В.Виноградова*), O.M.Karova (*Ивановский государственный университет*), V.V.Dubichinskiy (*Харьковский политехнический институт*) nomlari bilan bog‘liq leksikografiya maktablarida lug‘at maqola tadqiqiga turli aspektlarda yondashuvni kuzatish mumkin.

O‘tgan asr o‘rtalarida izohli lug‘atlarni tuzish amaliyoti bilan bog‘liq holda leksik ma’no va uning turlari masalasi kun tartibiga chiqadi. V.V.Vinogradovning izoh tipidagi lug‘atlarda so‘z ma’nosi talqiniga bag‘ishlangan uchta maqolasi – “*Rus tilining izohli lug‘atlari*” (“*Толковые словари русского языка*”), “*So‘z leksik ma’nosining asosiy tiplari*” (“*Основные типы лексических значений слова*”) va “*Rus leksikografiyasining*

ba'zi nazariy masalariga doir” (“О некоторых вопросах теории русской лексикографии”) e'lon qilinadi. Rus tilida tuzilgan izohli lug'atlarda leksik ma'noni yaxlit ifodalash, talqin qilish yo'llari xususida to'xtalar ekan, V.V.Vinogradov so'z leksik ma'nosini talqin etishning bir necha tizimlari mavjudligini ta'kidlaydi va “So'z leksik ma'nosining asosiy tiplari” maqolasida uning quyidagi asosiy tiplarini ajratadi: “1. Asosiy atash (nominativ) ma'no – narsa-predmet, belgi, hodisaning to'g'ridan-to'g'ri anglashiladigan va boshqa barcha ma'nolar uchun asos bo'ladigan bosh ma'nosi. 2. Nominativ-hosila ma'no – nutqiy ma'no. 3. Sintagmatik shartlangan ma'nolar: a) frazeologik; b) sintaktik; s) konstuktiv ma'no” [7.].

Umuman, so'z ma'nosini yaxlit leksikografik talqin qilishga urinish V.V.Vinogradovdan hozirgi kunga qadar ham leksikografiyaning eng dolzarb masalalaridan bo'lib qolmoqda. Aynan shu ehtiyoj leksikografiyada bosqichma-bosqich lug'at maqola ichki qurilishi – tarkibiy qismlarining murakkablashib borishiga sabab bo'ldi. Lug'at maqola tarkibiy qismlariga zona, uzv, maydon, bo'lim, qism, lug'at maqolaning o'ziga esa mustaqil leksikografik janr sifatida qarash an'anasi yuzaga keldi. Ba'zi tadqiqotchilar, masalan, taniqli leksikograf L.P.Stupin lug'at maqolani “lug'atning avtonom – o'zicha mustaqil qismi” [19.47] deb hisoblasa, S.G.Antonova unga matnning bir tipi – “sarlavha – bosh so'z va uning izohi, talqinini o'z ichiga olgan mustaqil matn” [1.30] deb ta'rif beradi.

Lug'at maqolani o'rganishga doir an'analarning yetakchilaridan biri lug'at so'zligi, lug'aviy birlik talqini, semantizatsiyaga integral – kompleks yondashuv asosida olamning yaxlit lisoniy tasvirini ifodalashdir. Sistem leksikografiya asoschilaridan bo'lgan Y.D.Apresyan lug'atni “muntazam yangilanib boradigan va o'zgarib turadigan tilning oniy tasviri” [2.12] deb ta'riflaydi va uning harakatdagi jonli tilning muayyan davrga xos obrazi – tasvirini real ifodalab bera olishi shart ekani, ushbu tasvir lug'at maqolada o'z ifodasini topishi, lug'at maqola “so'zning o'ziga xos portreti” ekanini ta'kidlaydi. Leksikografik portret, Y.D.Apresyaning fikricha, odatiy lug'aviy talqindan farqlanadi. Chunki u leksema haqidagi bir qancha yangi ma'lumotlarni ham qamrab oladi. Uning eng muhim xususiyati – lug'atda joylashish, rasmiylashish shakli bilan bog'liq. Leksemaning to'liq portretini tasavvur qilish uchun lug'at maqolaning barcha bandlari bilan tanishish kerak. Zamonaviy elektron lug'atlar bosma lug'atlarga qaraganda leksemaning murakkab va ko'p qirrali portretini yaratish imkonini beradi [3.485]. Umuman, tizimli leksikografiyaning asosiy vazifasi sifatida olamning tabiiy tasviri – fizik, geometrik, etik, psixologik va boshqa tasvirini muayyan tilda aks ettirishni ta'minlashdir. Y.D.Apresyan “ushbu sohalarning har birining tabiiy tasviri xaotik emas, ular muayyan tizimning tarkibiy qismlari, shuning uchun lug'atda ular yaxlitlikda tavsiflanishi kerak. Buning uchun, avvalo, leksik va grammatik ma'nolar umumiylikiga asoslanib, dunyoning sodda va tabiiy tasvirini qayta qurish kerak bo'ladi. Odatda, boshqa shunga o'xshash holatlarda bo'lgani kabi bunda ham rekonstruksiya va leksikografik tavsif yonma-yon turadi va ular muntazam bir-birini tartibga solib boradi [4.351].

G.A.Zolotova, R.P.Rogojnikova, A.S.Soy va boshqalar lug'at maqolaga matnning bir ko'rinishi sifatida qaraydi. G.A.Zolotova matnни tasnif qilar ekan, kommunikativ matnning beshta tipini ajratadi: tasviriy (reproduktiv), axborot-ma'lumot (informativ), generativ, ixtiyoriy (volyuntiv) va reaktiv matnlar. Uning tasnifida lug'at maqola

kommunikativ matnning reproduktiv turiga kiritiladi. G.A.Zolotovanning fikricha, lug‘at maqola – reproduktiv kompozit (matn) bir necha ichki kompozitlar: vokabula (bosh so‘z), tavsifiy, izoh qism va illyustratsiyadan tashkil topgan mustaqil matn tipi. Ushbu qismlar ichida tavsifiy qism – izoh va tasviriy qism – illyustratsiya o‘zaro birlashib, bosh so‘zning xususiyatini ochib beradi [12.323].

V.I.Krasik turli lug‘atlardagi izohlarni o‘rganish asosida lug‘at maqolani so‘z haqidagi barcha muhim zaruriy ma‘lumotlarni o‘ziga jamlagan minimum (содержательный минимум) deb baholagan edi [13.212].

A.S.Soy o‘quv izohli lug‘atlar lug‘at maqolasi ustida olib borgan izlanishlarida lug‘at maqolani “ko‘plab vazifalarni o‘z zimmasiga olgan polufunksional matn turi” [23] deb baholaydi. Uningcha, “o‘quv lug‘ati tarkibidagi har bir lug‘at maqola leksemaga xos zaruriy va o‘quvchi bilishi lozim bo‘lgan bilimlarni o‘zida jamlagan maxsus o‘quv matnidir” [24].

A.S.Soy lug‘at maqolani matn tipiga kiritar ekan, uning matn sifatida quyidagi qismlardan tashkil topishini ta‘kidlaydi: “1) bosh so‘z; 2) definitsiya (talqin, ta‘rif); 3) illyustratsiya. Lug‘at matn ikki qismdan tashkil topadi – axborot, ma‘lumotni uzatuvchi va qabul qiluvchi. Lug‘at maqolani yozish jarayonida leksikograf lingvistik ma‘lumotni taqdim etuvchi maqomida bo‘ladi va bu vazifasini o‘z vakolatlari doirasida bajaradi. Lug‘at foydalanuvchisi – o‘quvchi mazkur ma‘lumotlarni qabul qiluvchi hisoblanadi va uni o‘z bilimi doirasida o‘zlashtiradi. Bu o‘rinda kompetensiya – iqtidorlarning qarama-qarshiligi yuzaga keladi. Shuning uchun leksikograf o‘quv lug‘ati lug‘at maqolasini foydalanuvchining qobiliyati, kompetensiyasini hisobga olgan holda loyihalashtirishi kerak” [25.155].

L.Zgusta leksikografiyaga doir qo‘llanmasida lug‘at maqolaga lug‘atda leksik ma‘noni talqin qiluvchi asosiy leksikografik vosita sifatida qaraydi va uni lug‘at makroqurilmasidagi o‘rnini quyidagicha ko‘rsatadi: “1) lug‘aviy talqin, leksikografik semantizatsiya (the lexicographic definition); 2) ma‘nodoshlari, sinonimik paradigmadagi o‘rni (the location in the system of synonyms); 3) nutqiy qurshovda qo‘llanishiga illyustrativ havola (the exemplification); 4) pometalar (the glosses)” [11.252].

Umuman, lug‘at maqola tadqiqiga zamonaviy yondashuvlarning aksariyati antropotsentrik xarakterda bo‘lib, ularning asosida olamning tabiiy lisoniy tasvirini aks ettiruvchi ko‘p uzvli tizim sifatida qarash yotadi. Jumladan, lug‘at maqolaga mustaqil lingvistik janr sifatida yondashgan olimlar, xususan, akademik N.Y.Shvedova ham lug‘at maqola modeliga til olamining yaxlit tasviri deb qaraydi. “Lug‘at maqola – so‘z haqida shunchaki axborot beruvchi emas, balki uning turli qurshovlari – kontekstual, turkumiy, derivatsion, frazeologik, funksional jihatlari haqida to‘la ma‘lumot beruvchi lingvistik janr. Lingvistik makroolam bu yerda so‘zning mikroolami orqali ixcham, siqilgan tarzda yoritib beriladi. Lisoniy alohidalik, ya‘ni so‘z kontekstida namoyon bo‘lish, tilning katta olamini o‘z mikroolami chegarasigacha toraytirib taqdim etish vazifasini o‘z zimmasiga oladi” [26.42].

N.Y.Shvedovanning qarashlarini davom ettirgan M.Epshteyn lug‘at maqolani ko‘p elementli butunlik bo‘lib, so‘z bilan bog‘liq turli stilistik pometalar, etimologik va tarixiy ma‘lumotlar va boshqalarni o‘z ichiga olishi, ammo janr sifatida uchta majburiy

komponenti mavjud bo‘lishini ta’kidlaydi: “birinchisi, maqolaning sarlavhasi vazifasidagi bosh so‘z; ikkinchisi, izoh, bosh so‘zning talqini; uchinchisi, berilgan so‘zning kontekstda qo‘llanishiga misol, hech bo‘lmaganda bitta namuna. Bu uch element bir-biriga shunchalik chambarchas bog‘langanki, ularni insonning uch a‘zoli tarkibiga o‘xshatish mumkin. Ya’ni insonning tanasi bor, ruhi bor va, nihoyat, uni harakatga keltiradigan kuch bor. So‘z fikrning tanasi, izoh – so‘z, tananing ma’nosi, nutqiy misol esa so‘zning jonli nutqdagi namunasi” [27].

Zamonaviy metaleksikografiyada lug‘at maqola tadqiqiga yondashuvlar orasida elektron lug‘atlar mikroqurilmasi yuzasidan bajarilgan ishlar diqqatga molik. Elektron lug‘at so‘z bilan aloqador barcha ma’lumotlar – fonetik-fonologik, ortologik, orfoepik, transkripsion, leksik, kontekstual, paradigmatic, sintagmatik, etimologik, dialektologik, morfemik-morfologik, derivatsion, sintaktik va boshqa ma’nomlarni to‘la taqdim etish imkonini beradi. Korpuslar, *Wikipedia*, *Rubrikon* kabi xalqaro onlayn ensiklopediyalarda lug‘at maqolaning mukammal ko‘rinishlarini uchratish mumkin.

A.V.Pimenova bir tilli o‘quv lug‘atlarining o‘ziga xos xususiyatlarini Britaniyada nashr ingliz elektron leksikografik nashrlari misolida o‘rgangan maqolasida lug‘at maqola uchun quyidagi komponentlar – leksik birlikning ta’rifi, ya’ni izoh; uch xil – matn, tasviriy (vizual), audio ko‘rinishdagi illyustratsiya; shuningdek, qo‘shimcha ma’lumotlarning quyidagi ko‘rinishlari: leksik birlikning etimologik izohi (*Origin*); leksik birlikni qo‘llashga oid o‘ziga xosliklar (*Usage*); tezaurus (*Thesaurus*); so‘z shakli (*Word Link*); so‘zning struktural tarkibi (*Word Partnership*); ensiklopedik axborot (*Word Web*), so‘z tanlash (*World Choice*) muhim hisoblanishini aytib o‘tadi. U britan leksikonlarining lug‘at maqolasi foydalanuvchining darajasi – tayanch (*beginner*), o‘rtacha (*intermediate*) va yuqori (*advanced*) darajalardan kelib chiqib farqlanishini *Longman Dictionary of Contemporary English*ning onlayn versiyasida keltirilgan *Kindergarten* lug‘at maqolasi misolida tushuntirib beradi: “talabalar uchun tuzilgan lug‘atda *Kindergarten* so‘zining semantik maydoni: *kindergarten, infant school, nursery, nursery school, day nursery, day care center, crèche (creche), preschool*; maktab o‘quvchilari uchun: *kindergarten, infant school, day care, nursery*; lug‘at maqolada izoh maktab o‘quvchilari uchun: *A Kindergarten is a school for young children who are not old enough to go to a primary school*; talabalar uchun: 1. *American English a school or class for children aged five*. 2. *British English a school for children aged two to five [= nursery school]* tarzida murakkablashib borishi, so‘zning kelib chiqishi, sinonim, antonim va boshqa munosabatlari, misollar keltirilishi mumkin” [16.88].

O‘zbek lug‘atshunosligida olib borilgan tadqiqotlarga nazar tashlasak, Toli Imoni Hiraviyning “Badoye ul-lug‘at” asarini tekstologik va ilmiy jihatdan o‘rgangan A.K.Borovkov unda lug‘at maqolalarning tuzilish sxemasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olganiga diqqat qaratadi: “1. Lug‘at maqolaning bosh so‘zi – u fe’l, ot, sifat, son, olmosh, ravish, sifatdosh, undovlar, yuklama va qo‘shimchalar bo‘lishi mumkin. 2. So‘zning yozilishi va o‘qilishiga oid fonetik qaydlar. 3. So‘zning forscha tarjimai yoki kengaytirilgan izohi. Bu yerda so‘zning etimologiyasi, ishlatilishiga doir turli ma’lumotlar keltiriladi. 4. So‘zning shakli bo‘yicha grammatik qaydlar. 5. Bosh so‘z va undan yasalgan so‘z shakllarining har biri ma’nosini tasdiqlash uchun keltirilgan she’riy parchalar” [6.22]. Shuningdek, Mirza Muhammad Mahdiyxonning “Sangloh” asariga

ilova qilingan “Maboni al-lug‘at” ustida olib borilgan izlanishlarda ham, lug‘atdan jami 6181 lug‘at maqola o‘rin olgan bo‘lib, lug‘at maqolalarining kengligi, so‘z shakllarini lug‘at maqola ichida va ularning ma‘nolarini mumkin qadar to‘la va misollar bilan izohlashi bilan Navoiy asarlariga tuzilgan boshqa lug‘atlardan farq qilishi aytib o‘tiladi” [21;9;8].

Lug‘at maqola tadqiqiga bir muncha aniqroq yondashuvlarni N.A.Sulaymonovanning “Maxmud Zamaxshariyning “Asos-ul-balog‘a” asarining manbashunoslik tadqiqi” deb nomlangan nomzodlik ishida uchratish mumkin. Mazkur dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Asos-ul-balog‘a”ning tarkibiy tahliliga bag‘ishlanadi. Tadqiqotchining ta‘kidlashicha, “Asos-ul-balog‘a”da Zamaxshariy so‘z ma‘nosini har tomonlama, batafsil yoritib berish maqsadida o‘ziga xos “bir yangilikka qo‘l urgan. U lug‘atdagi so‘zlarni o‘sha davrda iste‘molda bo‘lgan jumla va iboralar tarkibidan ajratmagan holda bergan. Bu usul so‘z ma‘nolarini har tomonlama va batafsil izohlash uchun o‘ziga xos zamin yaratadi. So‘zlarni izohlash uchun keltirilgan jumla va iboralar o‘sha davr til xususiyatlarini, qonun-qoidalarini mukammal o‘rganish imkoniyatini beradi” [20.12].

N.A.Sulaymonova “Asos-ul-balog‘a” mikroqurilmasi – lug‘at maqolaning quyidagi qismlarini ajratadi: “a) bosh so‘z; b) bosh so‘z ma‘nosi; v) bosh so‘z hosilalari (fe‘l boblari, aniq va majhul daraja sifatdoshlari, masdarlari va hokazo) ishtirok etgan jumlar; g) bosh so‘zni izohlash uchun illyustrativ material sifatida qo‘llanilgan Qur‘on oyatlari, hadislar, xalifa va sahobalarning so‘zlari, she‘riy asarlardan olingan parchalar, frazeologizmlar, maqollar; d) so‘zning majoziy ma‘nosi; ye) bosh so‘z majoziy ma‘noda ishlatilgan jumlar; j) illyustrativ materiallar” [20.12]. Tadqiqotchi lug‘at maqolalarni hajmiga ko‘ra ham tahlil qiladi. Asardagi lug‘at maqolalarni hajmiga ko‘ra qisqa, o‘rtacha, uzun lug‘at maqolalarga bo‘ladi. “Asos-ul-balog‘a” 3742 ta lug‘at maqoladan tashkil topgani, ularning 480 tasi qisqa lug‘at maqolalar ekani, ular hajman kichik bo‘lib, bosh so‘zning ma‘nosi bir yoki ikki jumla bilan izohlangani, bosh so‘zning faqatgina haqiqiy ma‘nosi berilgani, so‘zni izohlashda illyustrativ materiallardan foydalanilmagani bilan xarakterlanishi; o‘rtacha hajmli lug‘at maqolalarda bosh so‘zning haqiqiy ma‘nosi bilan birga majoziy ma‘nosi ham izohlangani, so‘zlarni izohlashda illyustrativ materiallardan kam foydalanilganini ta‘kidlaydi.

Ma‘lumki, internet leksikografiyasi yuqori darajada axborotlashganligi, qidiruv tezligi, qo‘shimcha izoh, havolalarga boyligi, qolaversa, lug‘at mualliflarining o‘z leksikografik mahsulotini global darajada namoyish qilish, umuman, so‘z haqidagi barcha ma‘lumotlarni taqdim qilish imkoni yuqori ekani bilan an‘anaviy bosma – qog‘oz lug‘atlardan tubdan farqlanadi. Bu leksikografiyada lug‘at maqola tuzilishi haqidagi stereotiplar – yetakchi mezonlar, an‘ana, qonun-qonuniyatlarni o‘zgartirib yubordi.

Ayni paytda dunyoning ko‘pgina yetakchi leksikografik nashrlari shaxsiy internet saytlariga ega bo‘lib, ularda turli elektron qurilmalarda onlayn va oflayn tartibda ishlashga mo‘ljallangan lug‘atlar joylangan. Foydalanuvchi bir so‘zning izohini qidirmoqchi bo‘lsa, eng mukammal va eng foydalanish qulay lug‘atga murojaat qiladi. Lug‘at mikroqurilmasida *audio komponentlar, ovozli mashq-treninglar, turli animatsion vositalar, ta‘limiy o‘yinlar, multfilmlar, krossvordlar* ilova qilinishi ommalashmoqda. Bu esa, o‘z-o‘zidan, zamonaviy elektron lug‘atlar mikroqurilmasi – lug‘at maqolaning

kundan-kunga takomillashib borishi, qayta ishlanishi, to'ldirilishi, boyitib borilishi, umuman, ham mazmunan, ham struktural jihatdan murakkablashishiga olib keldi.

Zamonaviy leksikografiyada lug'at mikroqurilmasi – maqolani o'rganishda quyidagi yondashuvlar mavjudligini kuzatish mumkin: 1. Lug'at maqolaga lingvistik (leksikografik) janr nuqtayi nazaridan yondashuv; 2. Lug'at maqolaga tizimli, olamning yaxlit lisoniy tasviri nuqtayi nazaridan yondashuv; 3. Lug'at maqolaga matn lingvistikasi obekti sifatida yondashuv; 4. Lug'at maqolaga elektron lug'atlarga xos dastur sifatida yondashuv.

Umuman olganda, lug'at maqolaning lug'at megatuzilmasidagi o'rnini ochib berishda lug'atning boshqa uzvlari, ular o'rtasidagi paradigmatic, sintagmatic va iyerarxik munosabatlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Izoh tipidagi o'quv lug'atlar umumiy qurilishida lug'at mikroqurilmasi – lug'at maqola va uning ichki uzvlari, ularning maqola tarkibida o'rinlashuvi muhim rol o'ynaydi. Bu esa leksikografiya, jumladan, zamonaviy o'zbek antropotsentrik leksikografiyasida lug'at kompozitsiyasi, uning tarkibiy qismlari, ushbu qismlar orasida lug'at maqolaning o'rnini, uning mikrotizim sifatida struktural tarkibi, hajmi masalalarini atroflicha ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Lug'at maqola leksikografiyaning mustaqil janri, umuman, lug'atning mustaqil – avtonom qismi, kompozit, matn; so'zning leksikografik tasviri, semiosferaning yaxlit obrazi, lug'at maqola multiqurilmasi – ichki uzvlari esa zona, maydon, bo'lim sifatida nafaqat tilshunoslik, balki matn lingvistikasi, adabiyotshunoslik, semiotika, lingvokulturologiya, kompyuter lingvistikasi va boshqa fanlarning obektiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Антонова С.Г. Редакторская подготовка изданий. – Москва: Прометей, 2005. – 126 с.
2. Апресян Ю.Д. Лексикографическая концепция НБАРСа // НБАРС. Т. 1. – М., 1993. – С. 6-17.
3. Апресян Ю.Д. Лексикографический портрет глагола выйти // Избранные труды. Т. 2. – М., 1995. С. 485-502.
4. Апресян Ю.Д. Образ человека по данным языка: попытка системного описания // Избранные труды. Т. 2. – М., 1995. С. 348-388.
5. Бахриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол.фан... доктори (DSc) дисс. – Самарқанд. 2020. – Б.252.
6. Боровков А.К. Бадаи ал-лугат: Словарь Тали Имани Гератского к сочинениям Алишера Навои. – Москва: Москва: Изд-во вост. лит-ры, 1961.
7. Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слова // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М., 1977. С.162-189 <https://www.studocu.com/ru/document/rgpu-im-gertsena/sovremennyy-russkiy-yazyk/vv-vinogradov-osnovnye-tipy-lz-slova-tablitsa/13341559?page=1>
8. Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991.

9. Дадабоев Х.А. Замонавий ўзбек лексикографияси ва терминологияси. – Тошкент, 2016. – 98 б.
10. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977.
11. Zgusta L. Manual of Lexicography (Janua Linguarum. Series maior 39) – Prague: Academia / The Hague, Paris: Mouton, 1971. – 360 с.
12. К вопросу о структуре текстов разного коммуникативного назначения // Языковая система и ее развитие во времени и пространстве. Сб. статей к юбилею К. В. Горшковой. – МГУ, 2001. – С. 322-328.
<https://danefae.org/pprs/gorwkova/zoloto.htm>
13. Карасик В.И. Язык социального статуса // М.: Ин-т языкознания РАН; Волгогр. гос. пед. ин-т, 1992. – 330 с.
14. Мирханова Г.Р. Ўзбек тилининг синонимлар ўқув изоҳли луғатини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Қарши, 2022. –145 б.
15. Nashirova Sh.B. Ikki tilli o‘quv lug‘atlarda ko‘p ma’noli so‘zlarning leksikografik talqini (inglizcha-o‘zbekcha va o‘zbekcha inglizcha ikki tilli o‘quv lug‘atlari misolida): Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)... diss. – Termiz, 2023. –146 б.
16. Пименова А.В. Специфика одноязычных учебных словарей (на материале британских лексикографических издательств) // Вестник Челябинского государственного университета. 2009. № 22 (160). Филология. Искусствоведение. Вып. 33. – С. 87-91.
17. Ражабова З.И. Ўзбек ўқув фразеографиясининг лингвистик аспекти: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Қарши, 2022. –145 б.
18. Раҳматова З.Х. Мактабгача ёшдаги болалар нутқини ўстиришнинг лингвистик асослари. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Қарши, 2021. – Б. 141.
19. Ступин Л.П. Лексикография английского языка. – Москва: Высшая школа, 1985. – 167 с.
20. Сулаймонова Н.А. Махмуд Замахшарийнинг “Асос-ул-балоға” асарининг манбашунослик тадқиқи: филол. фан.. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 24 б.
21. Умаров Э. “Бадаи ал-луғат” и “Санглах” как лексикографические памятники и источники изучения староузбекского языка: Автореф. дисс. ... доктора. филол. наук. – Ташкент, 1989. – 47 с.
22. Умаров Э.А. Грамматика староузбекского языка «Мабани ул-луғат» Мирзы Мехдихана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1967. – 22 с.
23. Цой А.С. Особенности словарной статьи как текста. Материалы доклада // Актуальные проблемы русского языка и методики его преподавания. – М.: Флинта: Наука, 2007. – С. 24-49.
24. Цой А.С. Структура и содержание словарной статьи. Учебный словарь служебных слов. Статья // Известия Национальной академии наук Киргизской Республики. – Бишкек, 2004. № 1. – С. 41-42.

25. Цой А.С. Требования к словарной статье как тексту (результаты научного анализа словарных статей на служебные слова). Статья // Acta Universitatis Lodziensis. Folia linguistica rossica. No 3. Semantyka i pragmatyka tekstu. – Lodz: Wydawnictwo uniwersytetu Lodzkiego, 2007. – С. 155-161.

26. Шведова Н.Ю. Парадоксы словарной статьи // Русский язык. Избранные работы. – Москва: Языки славянской культуры, 2005. – С. 420-424.

27. Эпштейн М.Н. Магия, логика и эстетика слова. Словарная статья как жанр и как целостный образ семиосферы // Дар слова. 224 (300). Проективный лексикон русского языка. 18 января 2008.

“OT”, “NOM” VA “ISM” ONOMASTIK TERMINLARINING USLUBIY XUSUSIYATI

*Nuritdinova Ra’no,
NavDU O‘zbek tilshunosligi
kafedrasida dotsenti, f.f.n.*

Annotatsiya. Maqolada ot, ism, nom, atash, nomlash tarixiy-an’anaviy so‘zlarning onomastika termini vazifasi, ism so‘zi hozirgi o‘zbek tilida ko‘proq shaxsning atoqli oti, antroponim ma’nosida, ot, nom so‘zlari esa umuman nom, onomastik tizimda atoqli ot ma’nolarida me’yorlashganligi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Nomlash (nominatsiya), derivatsiya, transformatsiya, transpozitsiya, konversiya, apellyativ leksika, motiv, transmonizatsiya, leksik-semantik usul.

Аннотация: в статье указывается, что историко-традиционные слова «название», «имя» являются ономастическими терминами, а слово «имя» в современной ономастической системе узбекского языка более выражено в значении название собственных имён, антропонимов.

Ключевые слова: номинация, деривация, трансформация, транспозиция, конверсия, апеллятивная лексика, мотив, трансмонизация, лексико-семантический способ (метод).

Annotation. In the article, noun, nomination, proper noun, naming is the onomastics term of historical and traditional words, the word noun in the modern Uzbek language is more a personal proper name, in the sense of an anthroponym, and the words noun are general noun, it is considered that the name is standardized in the meaning of the noun in the onomastic system.

Key words: Naming (nomination), derivation, transformation, transposition, conversion, appellative lexicon, motive, transmonization, lexical-semantic method.

Kirish. Tildagi atoqli otlar anglatuvchi obyektlar moddiy, tabiiy va sun’iy, xayoliy, real va afsonaviy, dunyoviy yoki diniy bo‘lishi, ular yer yuzasida, quruqlikda yoki suvliklarda yoxud yer ostida, aksincha, fazo (samo)da joylashgan bo‘lishi mumkin. Atoqli otlar ma’no va vazifasiga ko‘ra xilma-xil bo‘lib, ular insonga yoki hayvonot, o‘simliklarga, boshqa xil jonli va jonsiz mavjudotlarga, hajman ulkan yoki kichik obyektlarga tegishli bo‘lishi mumkin. Ushbu nomlar miqdoran ko‘p bo‘lib, murakkab guruhlarni tashkil qiladi.

Shaxs (inson) tushunchasiga daxldor nom hamda ism terminlari sinonimlar tarzida ko‘rinsa-da, lekin ma’no jihatdan juda nozik farqi borligi e’tiborga olingan holda

ishlatiladi. Har qanday nom (ism)da kishilar, shu jumladan, xalq, qabila, urug‘ va elatlarning biror narsani ikkinchi bir narsadan farqlashga qaratilgan fikr-o‘yi mavjud bo‘ladi, mana shuning natijasida atoqli otlarning turlari yuzaga keladi. Atoqli otlarning asosiy vazifasi biror obyekt, shaxsni, narsa-hodisalarni yakka holda ajratib atashdir. Bu kishilarning ana shunday maqsadda nom ijod qilish va u bilan biror obyekt, nomlashi bilan bog‘liq. Nomlash (nominatsiya) murakkab jarayon bo‘lib, u obyektga munosib, maqbul nom topishni, berilgan nomning apellyativ leksikalikdan atoqli otlik xususiyatiga ega bo‘lishigacha o‘tadigan jarayonni, jamiyatning nomga bo‘lgan munosabatini o‘z ichiga qamraydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nomning konkret obyektning atoqli oti sifatida turg‘unlashuvi nomning qanchalik to‘g‘ri tanlanganligi, motivlangani, uning til onomastik tizimiga hamda jamiyatning, davrning milliy-lisoniy didi talablariga mosligiga bog‘liq.

Ma‘lumki, nomlash har doim ma‘lum maqsad, ma‘lum tushuncha va tasavvurlar, e‘tiqod, ishonch hamda rasmu rusumlar orqali amalga oshadi. Bu holat, ayniqsa, bolaga ism qo‘yish yoki ma‘lum joy va o‘rinlarni nomlashda yorqin ko‘rinadi¹. Nom berish bilan bog‘liq e‘tiqod va rasmu rusumlar juda qadimgi zamonlardan tortib to hozirga qadar davom etmoqda va muayyan etnografik an‘anaga aylangan.

Turkiy tillarda «nom» ma‘nosidagi «ot» so‘zi juda qadimiy davrlardan ma‘lum. Qadimiy turkiy tildan **ot** so‘zi: o t (ism, nom), ot (hayvon nomi), ot (otmoq), ot (urmoq: yuragi otdi – yuragi urib turibdi) ma‘nolarini ifoda qilgan². Bu so‘zning onomastikaga tegishli ot // od (ad) shakli: 1) ism, 2) umuman nom, 3) unvon, titul ma‘nolarini anglatgan³. Ism ma‘nosidagi **ot** so‘zi *at al* – ismga ega bo‘lish, *at ata* – ism berish, *at ber* – ism berish, *ati kotrulmus* – oti yuksaldi, mashhur bo‘ldi, *at qoy* – ot qo‘y, *at tut* – ismli bo‘lib yurmoq kabi birikma, iboralar tarkibida kelgan⁴.

M.Koshg‘ariy *a:t* so‘zi – ism, ot va laqab, unvon ma‘nosida qo‘llanishini ko‘rsatgan⁵. Ushbu muallif *atadi* fe‘lini shunday izohlaydi: «ol anar at atadi – u unga bir laqab berdi. Ot qo‘yib atashga ham bu so‘z qo‘llaniladi»⁶.

XII-XIII asr yozma obidasi bo‘lmish «Tafsir» tilida *at* (ot) I – ism, nom; *at* II – hayvon nomi va *at* – otmoq, uloqtirmoq; *at* II – yorishmoq, tong otmoq omonimlari qayd qilingan⁷. Nomlash jarayonini *atan* – ismli bo‘lmoq, *ata* – ism bermoq, nomlamoq so‘zlari ifodalagan⁸.

Yuqorida qayd qilingan manbalarda ism, nom leksemalari uchramaydi. Shu narsa ham xarakterliki, **adash** so‘zi (birdan ortiq shaxslar ismining o‘xshash, bir xil bo‘lib qolishi) «Drevnetyurkskiy slovar»da, shuningdek, «Devonu lug‘atit turk»da – «do‘st,

¹ Begmatov E. Nomlar va odamlar. – T.: Fan, 1966; Do‘simov Z., Tillayeva M. Joy nomlarining siri. – Xiva, 2001.

² Древнетюркский словарь. – Л.: Наука. 1969. – С. 64-65.

³ Древнетюркский словарь. – Л.: Наука. 1969. – С. 64.

⁴ Древнетюркский словарь. – Л.: Наука. 1969. – С. 64.

⁵ Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘atit turk. I tom. – Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 1960. – B. 107.

⁶ Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘atit turk. III jild. – Toshkent, 1963. – B. 267.

⁷ Боровков А.К. Лексика Среднеазиатского тefsира XII-XIII вв. – М.: ИВЛ, 1962. – С. 62.

⁸ Боровков А.К. Лексика Среднеазиатского тefsира XII-XIII вв. – М.: ИВЛ, 1962. – С. 63.

o‘rtoq» deb izohlangan⁹ «Tafsir» leksikasida at II so‘ziga **at tashi** (otdoshi) keltirilib, «adash» - bir xil ismli, degan izoh berilgan¹⁰.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani yoritishda analiz, sintez, chog‘ishtirma, semantik, tavsifiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Arabcha **ism**, forsha **nom** leksemalari o‘zbek tiliga keyinchalik, XIII asrlardan keyin kirgan bo‘lishi mumkin. Chunki XIV asrlarga oid Xorazm yozma obidalari tilida **at** so‘zi bilan bir qatorda **ism**, **nomdor** leksemalari uchraydi¹¹.

Alisher Navoiy asarlari tilida **ot** so‘zi yuqorida qayd qilingan ma’nolarda uchraydi. Shu bilan birga, bu so‘z **ot ahli** (nomdor, mashhur), **ot atla** (nomla, ata), **ot chiqar** (mashhur bo‘lmoq), **ot qozg‘an** (nom chiqarmoq), **ot qo‘y** (nomlamoq) iboralarini ham hosil qilishda qatnashgan¹².

Navoiy tilida **ism**, **nom** so‘zlari **ot** so‘zi bilan parallel qo‘llanilgan. **Ism** so‘zidan **ismlik** (nomli, nomga ega bo‘lgan)¹³ so‘zi yasalgan. Ushbu manbada negadir **nom** so‘zining o‘z ma’nosi emas, ko‘chma ma’nosi izohlangan: **nom** – obro‘, e’tibor, shuhrat, nomus¹⁴. Ushbu so‘z negizida yasalgan **nomvor** (nom chiqargan, mashhur), **nomdor** (dongdor), **nomdorlik** (mashhurlik), **nomjo‘y** (shuhratparast), **nomzod** (unashilgan, oldindan belgilangan), **nomiy** (nomli, shuhratli)¹⁵ so‘zlarining mavjudligi **nom** so‘zi XV asr tilida ancha seriste’mol bo‘lganidan darak beradi.

«Navoiy asarlari lug‘ati»da **ism** so‘ziga berilgan izoh ancha mukammalligi bilan xarakterlanadi: «**ism** a. 1. Nom, kishi oti; 2. Grammatikada ot – narsa oti; Ismi zot – Atoqli otlar; Ismi sifat – sifat otlari»¹⁶. XIV asrga mansub deb hisoblanuvchi «Kitob at tuhfa az-zakiya fil-lug‘at at-turkiya» yodgorligida «at»so‘zining hayvon nomi ma’nosi berilgani holda uning **ism**, **nom** ma’nosi izohlanmagan. Ammo lug‘atda **atan** – otli bo‘lmoq, **ismga** ega bo‘lmoq, **atla** – **ism** berish, **ismli** bo‘lish leksemalarining talqin qilingan o‘sha davrda **ot** (**ism**) so‘zining **ism**, **nom** ma’nosida qo‘llanganiga guvohlik beradi¹⁷.

Ot (a:t) so‘zi barcha turkiy tillarda uchraydi. E.V.Sevortyan **ot** so‘zining bu tillardagi beshta ma’nosini qayd qilgan. Ular orasida so‘zning **ism**, **nom**; laqab ma’nolari birinchi o‘rinda turadi. Tadqiqotchilarning aksariyati **ot** (a:t) – chaqirmoq, qichqirmoq, aytmoq ma’nosidagi o‘zakdan paydo bo‘lgan, bunga dalil ba’zi turkiy tillarda **ata** so‘zi chaqirish, qichqiriq ma’nosida uchrashi deb bilishadi¹⁸. Sh.Rahmatullayev bu so‘zning etimologiyasini E.V.Sevortyan va Mahmud Koshg‘ariy aytgan fikrlar doirasida talqin qilgan, xolos¹⁹.

⁹ Боровков А.К. Лексика Среднеазиатского тefsира XII-XIII вв. – М.: ИВЛ, 1962. – С. 92.

¹⁰ Лексика среднеазиатского тefsира. – . 62.

¹¹ Фазылов Э. Староузбекский язык Хорезмское памятники XIV века. Том I. – Тошкент: Фан, 1966. – С. 428. Том II, 1971. –С. 151.

¹² Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. II. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 532-533.

¹³ Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. II. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 52.

¹⁴ Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. II. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 474.

¹⁵ Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. II. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 477-478.

¹⁶ Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. II. – Toshkent: Fan, 1983. – B.281.

¹⁷ Изысканный дар тюркскому языку. – Тошкент: Фан, 1978. – С. 269.

¹⁸ Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М.: Наука, 1974. – С. 198-199.

¹⁹ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent: Universitet, 2000. – B.258.

A.Hojiyev **ism, nom** soʻzlarini tilshunoslik termini sifatida keltirmagan. Ot soʻziga u shunday taʼrif bergan: «Predmetlik maʼnosini bildiruvchi soʻzlar turkumi va shu turkumga oid muayyan soʻz»²⁰. Mana shu turkumga kiruvchi soʻzlarning bir guruhini **atoqli ot** tashkil qiladi. Ushbu termin quyidagicha izohlangan: «**Atoqli ot**. Bir turdagi predmetlardan birini bildiruvchi, ayrim shaxs yoki narsaning nomi boʻlib xizmat qiluvchi ot: Sodiq, Samarqand, Orol va b.»²¹. Demak, A.Hojiyev **ot, ism, nom** soʻzlarini alohida olingan holda onomastika sohasining termini sifatida talqin qilmagan.

«Oʻzbek tilining izohli lugʻati»da ot, ism, nom soʻzlari keng izohlangan. Ism, nom maʼnosidagi ot soʻzining 5 ta maʼnosi izohlangan: 1. Kishining shaxsiy ismi. 2. Unvon, mansab. 3. Zot, urugʻ. 4. Shuhrat, dong. 5. Grammatik kategoriya²². Ushbu lugʻatda ism (a) soʻzini aynan **ot** deb toʻgʻri izohlangan²³. Ism soʻzi maqolasida **ismi xos** gram. esk. atoqli ot. **Ismi om** – gram.esk. turdosh ot terminlari ham keltirilgan. Shuningdek, ismdosh, ismlamoq, ismlanmoq, ismli soʻzlari ham bosh soʻz sifatida keltirilgani ham diqqatga molikdir²⁴.

Nom soʻziga berilgan izohdan bu soʻz ot, ism soʻzlariga nisbatan kengroq maʼnoga egaligi maʼlum boʻladi: «Shaxs yoki narsa-predmetlarga qoʻyilgan ot, ism»²⁵. Demak, nom soʻzi keltirilgan maʼnoda ot soʻzining umumiy maʼnosiga yaqinlashadi. Ism soʻzi esa koʻproq shaxsning atoqli oti maʼnosini anglatadi va antroponim tushunchasini ifodalaydi. Hozirgi oʻzbek tilida shaxs yoki obyektini nomlash jarayonini nomlamoq, nomlanmoq, nomli, nomsiz terminlari ifodalaydi²⁶. **Ism** oʻzagidan yasalgan ismlamoq, ismlanmoq, ismli, ismdosh soʻzlari kamisteʼmolligi bilan xarakterlanadi.

Kuzatishlar ism soʻzi hozirgi oʻzbek tilida koʻproq shaxsning atoqli oti, antroponim maʼnosida, ot, nom soʻzlari esa umuman nom, onomastik tizimda atoqli ot maʼnolarida meʼyorlashganini koʻrsatadi.

Oʻzbek tilining tarixiy rivoji davomida ot, ism, nom soʻzlari bilan bogʻliq baʼzi leksema va iboralar isteʼmoldan chiqqan. Bular **asmo** – ism soʻzining koʻplik shakli: ismlar, nomlar; **ismi xos** – atoqli ot, **ismi om** – turdosh ot, **atan** – ism, nomga ega boʻlmoq, **ot** – unvon, titul maʼnosida va b.

Yuqorida tahlil qilingan **ot, ism, nom, atash, nomlash** tarixiy-anʼanaviy soʻzlardir. Bu soʻzlar oʻtmishda onomastik maʼnodan koʻra koʻproq etnografik maʼno ifodalagan. Hozirda bu soʻzlarga ilmiy terminlik, yaʼni onomastika termini vazifasi ham yuklatilgan.

Qayd qilingan xususiyatga tildagi atoqli otlarni toʻplash va tadqiq qilish jarayonida duch kelinadi hamda bu tushunchalar, tasavvurlar, eʼtiqod va ishonchlar, etnografik udumlar, odatlar, rasmi rusumlarni u yoki bu tarzda nomlashga toʻgʻri keladi.

Bu hol oʻz navbatida nomlarning etnografik asosi bilan bogʻliq terminlarni yuzaga

²⁰ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻzbek milliy ensiklopediyasi, 2002. – B. 77.

²¹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lu gʻati. – Toshkent: Oʻzbek milliy ensiklopediyasi, 2002.– B.19.

²² Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildli. 1-jild (Toshkent: “Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-y – B. 548.

²³ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildli. 1-jild (Toshkent: “Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-y. – B. 336.

²⁴ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildli. 1-jild (Toshkent: “Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-y– B. 336.

²⁵ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildli. 1-jild (Toshkent: “Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-y. – B. 508.

²⁶ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildli. 1-jild (Toshkent: “Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-y. – B. 509.

keltiradi. Nom qo'yish qonuniyat (odob)lari bo'lgani kabi, obyektlarga (xoh u jonli, xoh jonsiz bo'lsin) ism qo'yish va nom bilan atash odob (qonuniyat)lari ham bor. O'zbek xalqi ham boshqa xalqlar kabi farzandlariga. umuman, mavjud barcha narsalarga nom (ism) qo'yish, nom bilan atash yuzasidan ancha-muncha tarixiy, milliy va etnografik an'analarga egaligini hammamiz bilamiz. Ularni bugungi yoshlarning ongiga singdirish va zamonaviy talab, ehtiyojlar asosida ta'lim tizimining mazmun-mundarijasida o'z ifodasini toptirish dolzarb muammolaridan sanaladi. Chunki har bir kishi o'z hamda yonidagi ota-ona, aka-uka, do'stu birodarlari, qarindosh-urug'larining nom (ism)lari nega shunday qo'yilgani, yozilishi, o'ziga xos yashirin va sirli ma'nolarini bilishlari, shuningdek, yashash joylarining nega shunday atalishni anglab yetishlari ularning insoniylik kamoloti, ma'rifatu ma'naviyatini belgilaydigan ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Zero, nom kishining atab qo'yilgan ismi, sharifi, yashash joyi, urug'i, ajdod-avlodi, ular bilan bog'liq jarayon va holatlarning maxsus atamasidir. Ayni vaqtda, atama so'zini nomshunoslikdan boshqa joyda qo'llab bo'lmasligini, uning terminologiya sohasidagi terminga zid tushunchaligini e'tiborga olish shart. SHu o'rinda nomshunoslik terminining o'zagi bo'lgan nom so'ziga berilgan izohga murojaat qilinsa, ba'zi bir noaniqliklar oydinlashadi:

«Nom (fors-tojikcha)

1. Shaxs yoki narsa-predmetlarga qo'yilgan ot, ism. Shahar nomlari. Nom qo'yimoq. Nom bermoq. *Keksayib qolgan eshonning xotirasi ancha pa-sayganidan ko'p vaqt o'z o'g'illarining nomlarini ham xotinidan so'rab olar edi.* P.Tursun. O'qituvchi. Biror sohaga, guruhga oidlikni bildiruvchi atama. Ulug' nom.

2. Faoliyatning biror sohasida erishgan yutuq, malaka darajasini ko'rsatish uchun rasmiy yo'l bilan beriladigan unvon. Faxriy nom. Xizmat ko'rsatgan artist degan nom. Klassik kurash bo'yicha mamlakat chempioni degan nom.

3. Ko'pchilik orasida ma'lum-mashhurlik; dong, dovrug', shuhrat. *Nomi chiqqan kurashchi.*¹

Ko'rinib turibdiki, nom (u kimni, nimani, qayerni xalq tomonidan qanday va qay tarzda atalishining zamonga mos ravishdagi ifodasi) milliylik, madaniyatlilik, tarixiylik, ma'naviy barkamollik belgisi sanaladi. Ularda biz bilmagan, ammo bilishimiz lozim bo'lgan va kishining diqqat-e'tiborini tortadigan nozik hamda purma'noli yashirin hikmatlar majmui bir butun holda muhrlangan. Shuning uchun Erkin Vohidov ta'kidlaganidek, «Ismlarning tarixi uzoq, ismlarda asrlik qismat» bor.

Isming chiroyli bo'lmasa, harf aybdor emas, otang qo'ygan uni. Suvning achchigligi sariqligida emas: ayniganidan deb bil».²⁷

Kaykovus «Qobusnoma»da nom ma'nosida uning sinonimi bo'lgan ot so'zini ham ishlatadi (nom-ot). «Otni ota va onang qo'ymishlar, sen unga g'arra bo'lmag'il, nedinkim, ul zot mahqi bir nishondin o'zga narsa ermasdur. Ammo sen hunar bilan bir nomga ega bo'lg'il. O'zingni «Ja'far», «Muhammad», «Ahmad, «usta», «xo'ja», «fozil» oti bila atab, ammo unga loyiq bo'lmasang, u ot ermasdur».²⁸ Bu fikri bilan Kaykovus nomga jiddiy munosabatda bo'lish keraklini ta'kidlagan.

Yurtimizda joylar nomi va odamlar ismi - yurtimiz, xalqimizga munosib, go'zal

²⁷Jaloliddin Rumiy. Oqibattuproq bo'lurmiz. - Toshkent: Muxarrir, 2010. - B.6.

²⁸Kaykovus. Qobusnoma. -Toshkent: O'qituvchi, 1986. - B.32.

bo‘lishi kerak».²⁹

Xulosa. Kuzatishlar ism so‘zi hozirgi o‘zbek tilida ko‘proq shaxsning atoqli oti, antroponim ma’nosida, ot, nom so‘zlari esa umuman nom, onomastik tizimda atoqli ot ma’nolarida me’yorlashganini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilining tarixiy rivoji davomida ot, ism, nom so‘zlari bilan bog‘liq ba’zi leksema va iboralar iste’moldan chiqqan. Bular **asmo** – ism so‘zining ko‘plik shakli: ismlar, nomlar; **ismi xos** – atoqli ot, **ismi om** – turdosh ot, **atan** – ism, nomga ega bo‘lmoq, **ot** – unvon, titul ma’nosida va b.

Yuqorida tahlil qilingan **ot, ism, nom, atash, nomlash** tarixiy-an’anaviy so‘zlardir. Bu so‘zlar o‘tmishda onomastik ma’nodan ko‘ra ko‘proq etnografik ma’no ifodalagan. Hozirda bu so‘zlarga ilmiy terminlik, ya’ni onomastika termini vazifasi ham yuklatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. II. – Toshkent: Fan, 1983.
 2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013.
 3. Begmatov E. Nomlar va odamlar. – T.: Fan, 1966.
 4. Бегматов Э. Исmlарнинг сирли олами. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014.
 5. Боровков А.К. Лексика Среднеазиатского тefсира XII-XIII вв. – М.: ИВЛ, 1962.
 6. Древнетюркский словарь. – Л.: Наука. 1969.
 7. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1978. – 200 с.
 8. Koshg‘ariy Maхmud. Devonu lug‘atit turk. I tom. – Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 1960.
 9. Фазылов Э. Староузбекский язык Хорезмское памятники XIV века. Том I. – Тошкент: Фан, 1966. – С. 428. Том II, 1971.
 10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 1-jild (Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-y.
 11. Изысканный дар тюркскому языку. – Тошкент: Фан, 1978.
 12. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М.: Наука, 1974.
 13. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent: Universitet, 2000.
- Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbek milliy ensiklopediyasi, 2002.

²⁹Baxtiyor Karim. Ism-sharifingiz // Sharq yulduzi. 2004 yil. №3, 4. - B. 3-4.

LEKSIK MA’NONI KOMPOONENT TAHLIL QILISH METODIKASIGA OID

Sharopova Ra’no,
Navoiy davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasida
dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Maqolada talabalarga so‘zlar o‘rtasidagi ma’noviy munosabatlarni o‘rganish, semantik aloqadorlik tabiatini tahlil qilishda komponent tahlil metodining o‘rni, o‘quv faoliyatida komponent tahlilni o‘tkazish metodologiyasi tasvirlangan.

Аннотация. В статье описывается роль метода компонентного анализа в исследовании смысловых связей между словами, анализе характера смысловых связей, а также методика компонентного анализа в учебной деятельности.

Annotation: The article discusses the role of component analysis in studying the semantic relationships between words and analyzing the nature of semantic relatedness. It emphasizes the methodology for conducting component analysis in educational activities.

Kalit so‘zlar. leksik semantika, komponent tahlil metodi, semema, sema, arxisema, integral sema, differensial sema, semik tahlil.

Ключевые слова. Лексическая семантика, метод компонентного анализа, семема, сема, архисема, интегральная сема, дифференциальная сема, семический анализ.

Key words:

Keywords: lexical semantics, component analysis method, sememe, sema, archiseme, integral sema, differential sema, semantic analysis

Kirish. Filologiya yo‘nalishida o‘qitiladigan Semasiologiya kursining “Leksik semantika” qismi talabalarning so‘zning leksik ma’nosi, leksik ma’no tuzilishi, ma’nolararo munosabatlar bilan bog‘liq jihatlarni o‘zlashtirishida muhim o‘rin tutadi. Ma’no aloqadorligi bo‘lgan so‘zlar o‘rtasidagi paradigmatic munosabatlarini o‘rganishda, semantik aloqadorlik tabiatini tahlil qilishda semasiologiyada muhim metod sanalgan komponent tahlil usulidan foydalanish hamda mazkur metodning mohiyati va undan foydalanish bo‘yicha talabalarda ko‘nikma hosil qilish lozim.

Semema tuzilishini o‘rganish uni tashkil etuvchi semantik komponentlar majmuyini aniqlash va ularning munosabatlarini, ular orasidagi bog‘lanishlarni tavsiflashdan iborat. Tilshunoslikda semema tarkibidagi komponentlarni ajratib olishning bir qancha usullari ishlab chiqilgan. Bular xususan, leksemalarning lug‘at ta’riflarini tahlil qilish; komponent tahlil; qiyoslash; o‘xshatish; lisoniy suhbat va boshqalar [3, C.124]. Mazkur metodlarning asosiysi komponent tahlil sanaladi. Leksik ma’noning komponent tahlilini tushunishning ahamiyatini Y.D.Apresyan quyidagicha qayd etadi: “Komponent tahlil, ayniqsa leksikani tavsiflashda alohida rol o‘ynaydi hamda biron bir adekvat ma’no nazariyasi u yoki bu darajada ma’nolarning komponent tahlilini ta’minlovchi usul (protsedura)larsiz amalga

oshirilmaydi” [1, C 113-120.]. Ushbu maqolamizda Semasiologiya darslarida komponent tahlil metodidan foydalanish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalarni ilgari suramiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Komponent tahlil tilshunoslikda mustaqil metod sifatida XX asr 50-yillari oxirida V.Gudenaf va F.Lounsberi asarlari bilan bog‘liq ravishda shakllandi. Ushbu metod umumiy ma‘noviy qismlarga ega bo‘lgan so‘zlarni qarama-qarshi qo‘yib, ulardagi farqli belgilarni aniqlashga asoslangan. Komponent tahlil tartibi ma‘noning minimal komponentlari – semalarni ajratishni o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilshunosligida bu metod differensial-semantik metod, semik tahlil deb ham atalib kelinmoqda. Semik tahlil semalarni ajratish bilan birga ma‘nolarni semalarning tartibli yig‘indisi ekanligini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Ma‘no komponentlari – semalarni tahlil qilishning turli yo‘llari, aniqlangan semantik komponentlarni qayd etishning turli usullari mavjud. Semik tahlilning ko‘pincha ikkita asosiy turi – qisman (minimal) va to‘liq tahlil o‘tkazish tartibi qayd etiladi [3, C.124]. Leksema semalarining qisman tahlili asosan paradigmatic munosabatdagi so‘zlar – sinonim, omonim, antonim, giponim so‘zlar yoki muayyan LMG ustida amalga oshirilib, so‘zlarning kichik guruhining ma‘nolarini farqlashga xizmat qiladi. Mazkur tahlil faqat leksik xususiyatga ega bo‘lgan arxisema, integral va differensial semalar ustida o‘tkaziladi. Bo‘yoqdor leksik birliklardan konnotativ semalar ham ajratiladi.

To‘liq komponent tahlilda esa semalarning semik tuzilishi to‘liq (mukammal) holda tavsiflanadi. Sema bo‘linishning to‘liq tarkibi ierarxik joylashgan semalarning ketma-ket aniqlanishini nazarda tutadi: kategorial grammatik sema – leksik-grammatik semalar – arxisema – differensial semalar – potensial semalar – konnotativ semalar [4, c. 193]. Semalarning to‘liq tarkibini tahlil qilish metodikasi grammatik va leksik xarakterdagi minimal komponentlarni aniqlashni o‘z ichiga oladi [4, C.187].

Tilshunoslikda ma‘noning eng kichik uzvi bo‘lgan semaning turlicha tasniflari mavjud. Rus tilshunosligida semalar xususiyatiga ko‘ra grammatik va leksik xususiyatli semalarga ajratiladi. Bir turkumdagi so‘zlar uchun xos grammatik xususiyatli eng umumiy sema kategorik-grammatik sema bo‘lib, grammema ham deb nomlanadi. Ot turkumidagi so‘zlardagi ‘predmetlik’, sifat turkumidagi so‘zlarda ‘belgi’, fe‘l turkumi so‘zlariga xos ‘harakat/ jarayonlik’, son so‘zlarda ‘miqdor’ va h. kategorik-grammatik semadir. So‘z semantikasida keyingi o‘rinda leksik-grammatik semalar ajratiladi. Bular bir turkumdagi so‘zlarning lug‘aviy ma‘nolarida mavjud bo‘lgan, lekin bu so‘zlarning barchasi uchun bir xil bo‘lmagan grammatik xarakterdagi semalar. Masalan, otlarda ‘aniqlik’, ‘mavhumlik’, ‘jamlik’, sifatlarda “nisbiylik”, “asliylik” va b. semalar. Iyerarxik tartibda keyingi o‘rinda leksik xususiyatli semalar joylashadi. Eng umumiy leksik xususiyatli sema – arxisema, qiyoslanuvchi so‘zlar guruhi uchun umumiy sema – integral sema, qiyoslanuvchi so‘zlarni bir-biridan farqlovchi sema – differensial semalardir. Tilshunoslar differensial semalarni ham bir necha turlarini ajratganlar. Xususan, maishiy va professional, ijobiy va salbiy, ehtimoliy, antonimik, gradual [3, C. 48–61]; tavsiflovchi, relyatsion, vazifaviy, lokal, temporal, aksional, butun-bo‘lak, aksiologik va boshqalar [4, C. 189]. Umuman, so‘zning lug‘aviy ma‘nosi turli xil semalarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, semalar to‘plami har bir so‘zda individualdir.

O‘zbek tilshunosligida M.Mirtojiyev semalarni quyidagi tiplarga ajratgan:

so‘zlarning semantik maydonidagi tutgan mavqeyiga ko‘ra (arxisema, integral sema, differensial sema, potensial sema), so‘zlarning semantik taraqqiyotidagi holatiga ko‘ra (farqlovchi sema, o‘xshash sema), so‘z sememasi tarkibida tutgan o‘rniga ko‘ra (yadro sema, derivat sema, relyativ sema, sirtqi sema; so‘z tarkibida tutgan o‘rni va borliqqa bo‘lgan munosabatiga ko‘ra denotativ sema va konnotativ sema; so‘z tarkibida tutgan o‘rni va subyekt xabariga ko‘ra informativ sema (nomlovchi sema va relyativ semani o‘z ichiga oladi), pragmatik sema (emotsional sema va ekspressiv semani o‘z ichiga oladi), sintagmatik vazifasiga ko‘ra (klassema) [2, B. 74 – 75]. M.Hakimova esa semalarning semik strukturadagi darajasi (mavqei)ga ko‘ra asosiy va ikkilamchi (chet) semalar; ma’no xususiyatiga ko‘ra atash (ideografik, denotativ) semalari, ifoda semalari (baho semasi, konnotativ sema), vazifa (funktional) semasi; sememalarni qiyoslash, ularni birlashtirish va farqlashiga ko‘ra birlashtiruvchi (integral) semalar va farqlovchi (differensial) semalarni farqlaydi [5, B. 38 – 42].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada mavzuni yoritish uchun komponent tahlil, tavsifiy metod, qiyoslash va analiz-sintez metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Komponent tahlil usuli yordamida leksik birliklarning ma’no tuzilishini tahlil qilishda ma’no belgilarining farqlovchi xususiyatidan kelib chiqiladi. Ya’ni, har bir so‘z ma’lum bir paradigmatic qatorning a’zosi bo‘lib, o‘z ma’nosi bilan boshqa har qanday so‘zdan hech bo‘lmaganda bitta ma’no komponenti – semasiga ko‘ra farq qiladi. Qiyoslash natijasida ma’lum guruh doirasidagi bir so‘zning ma’nosini boshqa so‘zlarning ma’nolaridan chegaralash imkonini beradigan barcha semantik komponentlar – differensial semalar aniqlanadi. Bitta paradigmatic qator so‘zlarining semantik tarkibida lug‘aviy ma’noviy guruhning barcha leksik birliklari uchun umumiy bo‘lgan kamida bitta ma’no komponenti mavjud bo‘lib, bu so‘zlarning ma’nolarini birlashtirish va taqqoslash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur ma’no belgisi integral sema deb nomlanadi.

Semik tahlil ko‘p hollarda ikki yo‘nalishda o‘tkaziladi: 1) semema semalar tarkibini denotat haqidagi bilimga asoslanib, intuitiv aniqlash; 2) lug‘at izohlaridan foydalanib tahlil qilish. Tahlilning mazkur yo‘nalishlarda qanday o‘tkazilishini birma-bir ko‘rib o‘tamiz.

Semalar tarkibi denotat haqidagi bilimga asoslanib, intuitiv aniqlanganda leksema sememasiga xos ma’no belgilar – semalar to‘g‘ridan to‘g‘ri aniqlanadi va shu asosda ularning ma’no farqlari belgilanadi. Masalan, *kreslo, stul, skameyka, kursi, karavot* so‘zlari qatoriga xos ma’noviy munosabat mazkur usulda quyidagicha tahlil qilinadi:

Kreslo = ‘mebel’ + ‘o‘tirishga mo‘ljallangan’ + ‘suyanchiqli’ + ‘tirsak qo‘ygichli’

Stul = ‘mebel’ + ‘o‘tirishga mo‘ljallangan’ + ‘suyanchiqli’ + ‘tirsak qo‘ygichsiz’

Skameyka = ‘mebel’ + ‘o‘tirishga mo‘ljallangan’ + ‘suyanchiqli’ + ‘tirsak qo‘ygichli’/ ‘tirsak qo‘ygichsiz’ + ‘ko‘p kishiga mo‘ljallangan’

Kursi = ‘mebel’ + ‘o‘tirishga mo‘ljallangan’ + ‘suyanchiqsiz’ + ‘tirsak qo‘ygichsiz’

Karavot = ‘mebel’ + ‘yotish uchun mo‘ljallangan’ + 0 + 0

Yuqoridagi *kreslo, stul, kursi, skameyka, karavot* leksemalarining barchasida integral sema ‘mebel’ bo‘lib, ularni umumiy qatorga birlashtirsa, ‘o‘tirishga mo‘ljallangan’ semasi *kreslo, stul, kursi, skameyka* leksemalari uchun integral sema, ‘yotish uchun mo‘ljallangan’ semasi esa *karavot* leksemasi uchun differensial sema.

‘suyanchiqli’ semasi *kreslo, stul, skameyka* leksemalari uchun integral, ‘suyanchiqsiz’ semasi kursi leksemasi uchun differensial sema. ‘tirsak qo‘ygichsiz’ semasi *stul* va kursi leksemalarida integral sema, *kreslo* leksemasi uchun differensial, *skameyka* leksemasida neytral.

Semalar tahlili asosan bir arxisema asosida birlashuvchi bir leksik-semantik guruhga mansub so‘zlarni qiyoslash uchun o‘tkaziladi. *Avtobus* (avtomobil arxisemasi asosida) leksemasini *tramvay* va *trolleybus* so‘zlari bilan taqqoslab, ‘yonuvchi yoqilg‘ida ishlash’ semasi (‘elektrda ishlash’ tramvay, trolleybusga xos), taksi leksemasi bilan qiyoslab ‘marshrut bo‘ylab harakatlanish’ semasi (‘belgilangan tarif bilan’, ‘kam o‘rinli’ taksiga xos), metro so‘zi bilan qiyoslab ‘yer ustida’ semasi (metro – ‘yer osti’, ‘poyezd shaklida’, ‘rivojlangan infratuzilma’, ‘megapolislarga xos’) aniqlanadi.

Differensial semalarni aniqlash algoritmidan foydalanish *avtobus* so‘zida semalar tarkibi quyidagicha ekanligini aniqlash imkonini beradi: ‘avtomobil’, ‘ko‘p o‘rinli’, ‘yo‘lovchilarni tashish uchun’, ‘g‘ildiraklarda’, ‘o‘z dvigateli bilan’, ‘izsiz’, ‘yonuvchi yoqilg‘i bilan ishlaydi’, ‘marshrut bo‘ylab harakatlanadi’, ‘belgilangan tarif bilan’, ‘yerda’.

Ikkinchi yo‘nalishda lug‘at izohlaridan foydalanib, bosqichli ravishda bevosita tahlil qilinayotgan birliklarning ta‘riflari taqqoslanadi. Bunda tahlil uch bosqichda amalga oshiriladi:

- 1) mavjud izohli lug‘atlardan so‘zlarning leksik ma‘nolarini aniqlash va yozish;
- 2) ma‘nolarni semalarga ajratish;
- 3) integral (umumiy, birlashtiruvchi) va differensial (farqlovchi) semalarni aniqlash va yozib chiqish.

Izohli lug‘at *avtobus* so‘zining quyidagi ta‘rifini beradi: *Yo‘lovchilar tashiydigan ko‘p o‘rinli katta avtomobil* (O‘TIL)

Avtobus so‘zining izohda berilgan semalari orasidagi avtomobil so‘zi navbatdagi tahlilga asos bo‘ladi: *Avtomobil – Ichki yonish dvigateli yordamida harakatlanadigan, yo‘lovchilar yoki yuklarni tashishga mo‘ljallangan, g‘ildirakli, relssiz transport vositasi* (O‘TIL). Lug‘atda berilgan izoh orqali *avtomobil* so‘zining quyidagi differensial semalariga ega bo‘lamiz: ‘*ichki yonish dvigateli yordamida harakatlanadigan*’, ‘*yuklarni tashiydigan*’, ‘*g‘ildirakli*’, ‘*relssiz*’. Semalarning mazkur bosqichma-bosqich tahlil orqali *avtobus* va *avtomobil* so‘zlarining jins va tur munosabatida ekanligini guvohi bo‘lamiz. ‘Yo‘lovchilar tashish uchun mo‘ljallangan’ semasi har ikkala sememaga ham xos bo‘lsa, yuklarni tashishga mo‘ljallangan’ sema avtobusda uchramaydi. Shuningdek, avtobusga xos ‘katta’ semasi avtomobilda bo‘lmasligi mumkin (masalan, yengil avtomobillarda).

LMG semalari ustida komponent tahlil o‘tkazilganda jadvaldan foydalanish ularning umumiy va farqli belgilarini aniq tasavvur qilishga imkon beradi. Tahlil namunasi: *kasalxona, poliklinika, gospital, QVP (qishloq vrachlik punkti), klinika, dispenser*.

Leksemalar	Davolash muassasasi	Og‘ir kasallar uchun	Turli mutaxassislarda iborat vrachlar xizmat	Tor mutaxassislardan iborat vrachlar xizmat	Yotib davolanish uchun mo‘lj. (stasionar)	Profilaktika	Ilmiy tekshirish	Harbiylarga mo‘lgallangan	Fuqarolarga mo‘lgallangan
kasalxona	+	+	+		+				+
gospital	+	+	+		+			+	
poliklinika	+		+						+
QVP	+								+
klinika	+			+	+		+		+
dispanser	+			+	+	+			+

Semik tahlil ikki xil tarkibga ajratishni ko‘zda tutishi mumkin: 1) leksik va grammatik ma’nolarning semalarini o‘z ichiga olgan to‘liq tarkibga ajratish; 2) faqat leksik ma’no semalarini o‘z ichiga olgan qisman tarkibga ajratish. Semalarning to‘liq tarkibini tahlil qilish metodikasi grammatik va leksik xarakterdagi minimal komponentlarni aniqlashni o‘z ichiga oladi. Grammatik xarakterga ega bo‘lgan semalar leksik semalar sohasiga tegishli emas, shuning uchun asosan leksik ma’no semalarini o‘z ichiga olgan qisman tarkibga ajratish o‘tkaziladi.

Komponent tahlil uchun quyidagi mashqlardan foydalanish mumkin:

1. Quyidagi so‘zlarni komponent tahlilini amalga oshiring. Arxisema, integral va differensial semalarini aniqlang. So‘zlarning semantik tuzilishidagi umumiylik va farqli belgilar bo‘yicha xulosangizni yozing. *Sumka, keys, portfel, ryukzak, jomadon, diplomat; magistr, bakalavr, talaba, professor; kursi, stul, kreslo, skameyka, karavot; ixlosmand, ishqiboz, shinavanda, havaskor, muxlis; bezak, ziynat, hasham; inoyat, marhamat, lutf, iltifot; hayit, bayram, to‘y; istak, xohish, ishtiyoq, orzu, havas, ko‘ngil, armon, rag‘bat, tilak; yonmoq, kuymoq, qizimoq; eshitmoq, tinglamoq, sezmoq, anglamoq; qaramoq, boqmoq, tikilmoq, termilmoq, to‘nmoq.*

2. ‘Sovuq’ integral semali leksemalarni yozing; o‘xshash va farqli belgilarini semalari asosida tasvirlang.

3. So‘zlarning lug‘at ta’riflariga asoslanib, ularning leksik ma’nosidagi differensial sema(lar)ni aniqlang. Lug‘at ta’riflarida differensial sema(lar)ni qayd etishning lingvistik vositalari haqida xulosangizni ayting. *Shamol, shabada, quyun, to‘fon, izg‘irin, garmsel, bo‘ron, nasim, yel, dovul, sabo, girdibod.*

4. Komponent tahlil metodi asosida “to‘plam” integral semasiga ko‘ra birlashgan so‘zlarni ajratib yozing. *Albom, antologiya, afisha, vatan, vakuum, devon, dengiz, dona, yo‘riqnoma, kodeks, kolleksiya, kulliyot, munshaot, paykal, serviz, hikoya, qaytim*

5. Quyidagi leksemalarga xos ma’nolarni daftaringizga yozing, ularga xos integral semani aniqlang. *shakar, qiyom, shira, sharbat, shinni; guzar, chorbog‘, chordoq, foye; shabnam, qirov, tuman, shudring; yaltoq, cho‘tir, cho‘ltoq, tarxash, pandavoqi, yaloqi,*

to'pori, shovvoz; yalpoq, suyri, to'garak, yassi; subhidam, peshin, choshgoh, oqshom, namozgar.

6. O'zingizning tanlovingiz asosida ma'noviy yaqin leksemalarni aniqlang va semalarini aniqlash asosida komponent tahlilini amalga oshiring.

7. Quyida semalari berilgan so'zlarni aniqlang. Bu leksemalar bilan arxisema umumiyliги asosida birlashuvchi leksemalarni topib, ularni semalarga ajrating hamda jadvalda aks ettiring.

arxisema – 'hayvon', differensial sema – 'sutemizuvchi', 'kavsh qaytaruvchi', 'o'txo'r', 'juft tuyoqli', 'xonaki', 'quvushshoxlilar oilasiga mansub', 'erkak'; potensial sema – 'yuvosh', 'go'l'; "sifat"; arxisema – metall buyum; differensial sema – 'dastaga o'rnatilgan', 'yassi', 'uzun tig'li', 'o'tkir', 'kesuvchi', 'ro'zg'or asbobi'; potensial sema – 'jarohatlash/o'ldirishga qodir', 'ehtiyotkorlikni talab qiladi'.

Xulosa va takliflar. Komponent tahlil leksik ma'noni ma'no bo'laklari – semalarga ajratib o'rganish usuli bo'lib, bu metod yordamida o'rganilayotgan semema semalarga ajratiladi va ushbu semalar orqali sememaning ma'nosi aniqlanadi yoki boshqa sememalar semalari bilan o'xshashligi, farqi belgilanadi. So'zning leksik ma'nosi semalar yig'indisidan iborat ekan, izohli lug'atda so'z ma'nolarini ta'riflashda komponent tahlil muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Апресян Ю. Д. Современные методы изучения значений и некоторые проблемы структурной лингвистики // Проблемы структурной лингвистики. Москва: Издательство АН СССР, 1963.

2. Mirtojiev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent, 2010.

3. Попова З. Д., Стернин И. А. Лексическая система языка: Внутренняя организация, категориальный аппарат и приемы описания : учебное пособие. 3-е. М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2011.

4. Урманчеева И.С. Компонентный анализ и методика его проведения на занятиях по лексикологии в вузе. Человек. Культура. Образование. 2023, 4 (50).

5. Hakimova M. Semasiologiya. Toshkent, 2008.



OLMOSH SO‘Z TURKUMINING FUNKSIONAL - PRAGMATIK TADQIQI



*Qurbonov Zayniddin,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Nukus innovatsion instituti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikning nisbatan yangi sohalaridan biri bo‘lgan pragmalingsvistika, shunindek, olmosh so‘z turkumining funksional - pragmatik tadqiqi haqidagi tahliliy ma’lumotlar berilgan.

Tayanch so‘zlar: funksional, pragmalingsvistika, kontekst, nutqiy faoliyat, subyekt, obyekt, nutqiy akt, pragmatik ma’no.

Аннотация. В данной статье дана одна из относительно новых областей языкознания - прагмалинговистика, а также аналитические сведения о функционально-прагматическом анализе группы местоименных слов.

Ключевые слова: функционал, прагмалинговистика, контекст, речевая деятельность, субъект, объект, речевой акт, прагматический смысл.

Annotation. This article provides one of the relatively new areas of linguistics - pragmalinguistics, as well as analytical information about the functional-pragmatic analysis of a group of pronominal words.

Key words: functional, pragmalinguistics, context, speech activity, subject, object, speech act, pragmatic meaning.

Kirish. O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda tilshunoslikning nisbatan yangi sohalaridan biri bo‘lgan pragmalingsvistika sohasiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Pragmalingsvistika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy tarmoqlaridan biri sanalib, u shaxsning ijtimoiy faoliyatini aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat, nutqiy vaziyatning ta’siri bilan aloqador masalalarni o‘rganadi. Shu nuqtai nazardan so‘z turkumlaridan olmoshning ham funksional - pragmatik tadqiqi muhim ahamiyatga egadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tilga doir ilmiy va nazariy manbalarda so‘z turkumlaridan olmosh so‘z turkumiga doir noan’anaviy lisoniy qarashlarni kuzatishimiz mumkin. Olmosh so‘z turkumiga oid bunday fikrlar ularning lingvistik tabiatidan kelib chiqib shakllangan. Olmosh – tilshunoslikda eng muhim va keng tarqalgan leksik kategoriya sanaladi. Ular gapda aniq shaxs, narsa, belgi yoki miqdorni emas, balki ularning o‘rnini egallaydigan so‘zlar sifatida qo‘llaniladi. Olmoshlar ma’no va kontekstga bog‘liq holda tilshunoslikning pragmatika sohasiga taalluqli jihatlarini ham o‘z ichiga oladi. Olmosh so‘z turkumi tilshunoslikda juda muhim so‘z turkumlaridan biri bo‘lib, u tilning nutqiy jarayonida subyektlar va obyektlarni bevosita nomlash o‘rniga ularni bilvosita ko‘rsatish yoki ifodalash vazifasini bajaradi.

Olmoshlar nutqda turli kontekstlarda qo‘llanishi bilan bir qatorda, ularning pragmatik tadqiqi bu so‘z turkumining kommunikativ ahamiyatini, ya‘ni ularning aniq vaziyatlardagi foydalanish usullarini tahlil qiladi. Ushbu maqolamizda olmosh so‘z turkumining funksional - pragmatik tahlili yoritiladi va ularning kommunikativ funksiyalari turli lingvistik kontekstlardagi tadqiqi o‘rganiladi. Olmoshlar o‘zining xususiyatiga ko‘ra, kim yoki nimani ifodalayotganini aniq aytmasdan, nomlanayotgan obyekt yoki shaxsni ko‘rsatadi. “Olmoshlar predmet, belgi yoki miqdorning aniq nomini bildirmay, ular o‘rnida qo‘llanadi. Olmoshlarning aniq ma‘nosi matn vaziyati - nutq jarayonida ishtirok etuvchilarning munosabatiga qarab konkretlashadi. Demak, matnsiz olmoshlarning ma‘nosi - nimani ko‘rsatishi noma‘lum bo‘lib qoladi”³⁰. Tilshunoslikda olmoshlar odatda yettita turga ajraladi. Ularning nomlar barchamizga ma‘lum shu bois bitta-bitta keltirib o‘tirmaymiz. Ular turli pragmatik maqsadlarda qo‘llanilib, ma‘lum nutqiy holatlarga qarab har xil ma‘nolarni ifodalashi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Olmoshlarning pragmatik tadqiqida ularning nutqiy vaziyatlardagi vazifalari va ma‘nolari tahlil qilinadi. Olmoshlar asosan kommunikatsion vaziyatlarga qarab, muloqotchilar o‘rtasidagi munosabatlarni, ularning shaxsiy pozitsiyasini yoki voqea-hodisalarga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Masalan, Shaxs olmoshlari orqali subyekt va obyektga ishora qilish bilan birga, ko‘pincha shaxslar o‘rtasidagi ijtimoiy masofa, hurmat, yaqinlik darajasi ham ifodalanadi. Ko‘rsatish olmoshlari esa konkret bir vaziyatdagi narsalar yoki shaxslarni aniq belgilashda ishlatiladi va ular orqali ma‘lum obyekt yoki voqeaga ko‘rsatma berish mumkin. Masalan, “bu” va “shu” kabi olmoshlar bir xil vaziyatda turli pragmatik ma‘nolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Olmoshlar har doim ma‘lum kontekstda ishlatiladi va bu ularning pragmatik rolini aniqlaydi. “Olmoshning konkret ma‘nosi kontekst, situatsiya - nutq jarayonida ishtirok etuvchilarning munosabatiga qarab konkretlashadi”³¹. Ularning ko‘p qirrali xususiyati tufayli olmoshlar nutqiy aktlarda o‘zgaruvchan ma‘nolarni kasb etadi. Masalan, shaxs olmoshlari qo‘llanilishida o‘quvchining qaysi shaxsni nazarda tutganini bilish uchun kontekst muhim ahamiyatga ega. Bunday vaziyatda men olmoshi so‘zlovchining o‘zini anglatadi, lekin nutqiy kontekstga qarab, u ta‘kidlash, e’tirof yoki mas’uliyat ifodasi bo‘lishi mumkin. Sen yoki siz olmoshlari esa kommunikatsiya jarayonida hurmat yoki yaqinlik darajasini ko‘rsatadi. Shuningdek, olmoshlar dialoglarda subyektlar o‘rtasidagi munosabatni o‘rnatishda va saqlab qolishda muhim o‘rin tutadi. Olmoshlar yordamida suhbatdoshlar o‘zaro ishora qiladilar, obyektlarni nomlamasdan tushunishga erishadilar. Dialoglardagi olmoshlarning pragmatik tahlili ularning muomala jarayonidagi faoliyatini aniqlashda yordamlashadi. Masalan, ko‘rsatish olmoshlari (bu, ana u) orqali suhbatdoshlar orasidagi obyektga bo‘lgan diqqat markazi belgilab beriladi. So‘roq olmoshlari esa suhbatga oydinlik kiritish va aniqlik talab qilishda ishlatiladi. Olmoshlarning ishlatilishi faqat lingvistik kontekst bilan cheklanmay, ular ijtimoiy munosabatlarni ham ifodalaydi. Masalan, *sen* va *siz* olmoshlari turli darajadagi ijtimoiy masofa yoki hurmatni bildiradi. Shu nuqtai nazardan, olmoshlar nafaqat grammatik qoidalariga asoslanadi, balki ularning ijtimoiy vazifalari ham keng qamrovli bo‘lib, bu

³⁰ Киличев Э. Узбек тилининг амалий стилистикаси. - Тошкент, 1992.

³¹ Узбек тили грамматикаси. I қисм. Тошкент, 1975, 332-бет.

jiyat pragmatik tahlilning muhim qismi sanaladi. Kishilik olmoshlari rasmiy va norasmiy nutqda farqlanadi. Masalan, “sen” olmoshi ko‘pincha do‘stlar yoki yaqin suhbatlarda ishlatilsa, “siz” olmoshi rasmiy muomala yoki hurmatni ifodalashini kuzatishimiz mumkin. Olmoshlar yordamida insonlar o‘zlarini yoki boshqalarni qanday ko‘rsatishni xohlayotganlarini nutq orqali bildiradilar. Masalan, “biz” olmoshi guruh ichidagi birdamlikni ifodalashda ishlatilishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Olmoshlarining pragmatik ahamiyatini tahlil qilishda ularning nutqdagi funksiyalari va turli kommunikatsion vaziyatlarda qanday ma’no kasb etishini misollar orqali ko‘rsatish mumkin. Pragmatik jihatdan olmoshlar kontekstga bog‘liq holda o‘z ma’nosini o‘zgartirishi va muloqot jarayonida turli vazifalarni bajarishi bilan ajralib turadi. Masalan, *men, sen, u, biz, siz, ular* kishilik olmoshlari muloqot jarayonida ishtirokchilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni belgilaydi va nutqiy holatga bog‘liq holda turlicha qo‘llanishi mumkin. “*Men bugun bu loyihani tugatdim*” bu gapda “men” olmoshi shaxsiy e’tirofni va mas’uliyatni ifodalab, so‘zlovchi o‘zini faol ishtirokchi sifatida ko‘rsatmoqda. “*Biz bu loyihani tugatdik.*” “Biz” olmoshi so‘zlovchi bilan boshqa ishtirokchilar o‘rtasidagi birdamlik ma’nosini ifodalab kelmoqda. Ushbu gapdagi pragmatik ma’no shundaki, so‘zlovchi loyihada jamoaviy ishtirokni ta’kidlamoqda u mas’uliyatni faqat o‘ziga olmasdan, butun guruhga teng ravishda taqsimlamoqda. “*Sen bu ishni tugatdingmi?*”. Bunday holatda esa “sen” olmoshi suhbatdosh bilan yaqin munosabatni yoki norasmiylikni bildiradi. So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida shaxsiy yaqinlik borligi ko‘rinadi. “*Siz bu ishni tugatdingizmi?*”. Bu gapda esa “siz” olmoshi rasmiy va hurmat qilish ma’nosini ifodalab kelmoqda. So‘zlovchi bu orqali suhbatdoshga nisbatan hurmat ko‘rsatmoqda yoki rasmiy nutq jarayonini saqlamoqda. Bu ko‘proq katta yoshdagilar yoki begona insonlar bilan muloqotda qo‘llanadi.

Bu, shu, ana u ko‘rsatish olmoshlari nutqda obyektlarni aniq ko‘rsatib, o‘zaro tushunishni ta’minlaydi. Ularning ishlatilishi vaziyatga bog‘liq holda ma’nolarni o‘zgartirishi mumkin. Ishtirokchilar birga bo‘lishib, biror kitobni qo‘llarida tutib turgan paytda. “*Bu kitob juda qiziqarli ekan.*” gapida “bu” olmoshi bevosita qo‘llaridagi kitobni ko‘rsatib, kitob o‘sha vaqtda yaqin joyda bo‘lib, olmosh kitobni aniq identifikatsiya qilish uchun ishlatiladi. Pragmatik jihatdan “bu” olmoshi obyektga yaqinlikni anglatadi. “*Shu kitobni o‘qishni maslahat beraman.*”. Bu gapda esa “shu” olmoshi ma’lum bir masofada joylashgan va bir necha kitoblar orasidan birini ishora qilib ko‘rsatish ma’nosida. Pragmatik nuqtai nazardan, so‘zlovchi bilan kitob o‘rtasida ma’lum bir masofa borligi anglashiladi. “*Ana u bino tarixiy yodgorlik hisoblanadi.*” “Ana u” olmoshi uzoqdagi obyektga ishora qilinmoqda. Pragmatik jihatdan, so‘zlovchi o‘zining va tinglovchining joylashgan joyidan ancha uzoq bo‘lgan obyektga e’tibor qaratmoqda.

Kim, nima, qaysi so‘roq olmoshlari suhbat davomida tushunmovchiliklarni bartaraf etish yoki qo‘shimcha ma’lumot talab qilish maqsadida ishlatiladi. Ular pragmatik nuqtai nazardan axborot olish va suhbatni davom ettirish vazifasini bajaradi. “*Kim bugun keladi?*” gapida so‘zlovchi tinglovchidan ma’lum bir shaxs haqida axborot olmoqchi. Bunda olmoshning pragmatik maqsadi – so‘zlovchining bilmaydigan ma’lumotni o‘rganishidir. Suhbatga aniqlik kiritish uchun ishlatilgan so‘roq olmoshi suhbatni davom ettirish va tinglovchining javobiga muvofiq holda yangi ma’lumot olish uchun zarurdir.

“*Nima sodir bo‘ldi?*” Bu gapda “nima” olmoshi orqali aytuvchi umumiy vaziyat haqida axborot talab qilmoqda. Bu olmosh nutqiy vaziyatga aniqlik kiritish uchun ishlatilgan bo‘lib, suhbatdoshni voqea tafsilotlarini taqdim etishga undaydi.

Hech kim, hech narsa bo‘lishsizlik olmoshlari inkor ma’nomalarni ifodalashi bilan birga, nutqning pragmatik qirrasini kengaytiradi. Masalan, “*Hech kim bunday ishni qilishni xohlamaydi.*” “Hech kim” olmoshi yordamida so‘zlovchi muayyan vaziyatda biror kishi mavjud emasligini ifodalaydi. Pragmatik ma’noda bu olmosh so‘zlovchining voqeaga bo‘lgan umumiy qarashini va e’tirozini ifodalaydi. Bu bilan so‘zlovchi voqeaga nisbatan o‘zining salbiy munosabatini bildirishi yoki qandaydir umumiy inkor natijasini anglatishi mumkin.

Hamma, ba’zi, bir belgilash olmoshlari umumiylik, ayrimlik yoki aniq belgilangan guruhlarni ifodalashda qo‘llaniladi va ularning ma’nosi kontekstga bog‘liq holda aniqlanadi. Masalan, “*Hamma bu qarorga rozi bo‘ldi.*” bu misolda “hamma” olmoshi umumiylik ma’nosini ifodalab, barcha ishtirokchilarning bir xil fikrda ekanligini bildirmoqda. Pragmatik jihatdan bu olmosh so‘zlovchining umumlashtiruvchi yondashuvi va barcha ishtirokchilarni bir toifaga kiritishini ko‘rsatmoqda.

Shunindek, olmoshlarning badiiy matnda qo‘llanishi, ular bilan bog‘liq pragmatik jihatlarni aniqlash hamda matnning umumiy ma’no va mazmunini chuqurroq anglab olish imkonini beradi. Olmoshlar badiiy matnlarda nafaqat grammatik vazifa bajaradi, balki qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarni, ularning psixologik holatini va voqealarning rivojini ifodalashda ham muhim sanaladi. Masalan, kishilik olmoshlarining badiiy matnda ishlatilishi: “*Men bu yerda yakka-yu yolg‘iz qolgandayman,*” dedi Otabek o‘ziga-o‘zi (A.Qodiriy).

Ushbu misolda “men” kishilik olmoshi Otabekning ichki kechinmalarini ifodalab kelmoqda. Kishilik olmoshi bilan boshlanuvchi gap Otabekning o‘zini o‘zi tahlil qilayotganidan xabar berayapti. Badiiy asardagi ushbu olmosh pragmatik nuqtai nazardan qahramonning ruhiy holatini ochib berishga xizmat qilayotganligini shuningdek, uning yakkalanganlik va o‘zini yolg‘iz his qilayotganini ifodalaydi. Bu holatda “men” olmoshi bilan qahramon o‘zining ruhiy holatini aniqlashga va o‘zini voqelikdan ajratishga harakat qiladi.

“*Bu yer juda sovuq edi. Shu yerda hamma narsa o‘zini g‘alati tutardi.*” matnda “bu” va “shu” ko‘rsatish olmoshlari ishlatilganligini kuzatishimiz mumkin. “Bu” yer bevosita so‘zlovchi tomonidan belgilangan joyni ko‘rsatadi, ya’ni voqea ro‘y berayotgan joy so‘zlovchiga yaqin. “Bu yer” degan olmosh tinglovchini ma’lum bir joyga yo‘naltiradi. Matnda bu olmosh so‘zlovchi bilan joy o‘rtasidagi yaqinlikni ko‘rsatadi. “Shu” olmoshi esa yana bir yaqin obyekt yoki joyga ishora qilmoqda. Bu yerda olmoshlar obyekt va hodisalar o‘rtasidagi masofani qisqartirib, tinglovchiga voqeani aniq tasavvur qilish imkonini beradi.

«*Ana shu daraxtingizdan payvandlik bersangiz?*» deb so‘radi (Sh.Hamro). Bu misolda esa “ana u” ko‘rsatish olmoshi ishlatilgan bo‘lib, u uzoqdagi biror narsaga ishora qilmoqda. “Ana u” olmoshi badiiy matnda personajning nigohi orqali tasvirlanayotgan obyektning joylashuvini tinglovchiga aniq tasvirlaydi. Pragmatik nuqtai nazardan, olmosh o‘quvchini qahramonning nigohi orqali ko‘rsatib, e’tiborni ma’lum bir obyektga

jalb qiladi. Shu bilan birga, bu olmosh voqeaning dinamikasini oshirib, noma'lum harakatlanuvchi obyekt bilan bog'liq sirli va xavotirli kayfiyatni yaratadi.

“Kim kelayotganini “bilasizmi?” so‘radi Yusuf, nigohini uzoqdan ko‘ringan kimsadan uzmay.

Bu gapda “kim” so‘roq olmoshi orqali Yusuf kimsaning shaxsini aniqlashga harakat qilmoqda. Bu olmosh pragmatik jihatdan suhbatning asosiy maqsadi — ma'lumot olish uchun ishlatilgan. Odatda badiiy matnlarda so‘roq olmoshlari yordamida qahramonlarning bir-biriga nisbatan noaniq qarashlari yoki tushunmovchiliklari ifodalangan bo‘ladi. Yusufning so‘rovi orqali u shu paytgacha noma'lum bo‘lgan biror shaxs haqida bilishga intilmoqda, bu esa voqealar rivojida yangi qismni ochib berishi mumkin.

Salomxonaga chiqqach, eshiklarni ochib, boshqa xonalarga qaradi, hech kim yo‘qligiga ishongach, Ali Qushchiga yuzlandi (O.Yoqubov).

“Hech kim” olmoshi gapda egalik funksiyasida ishlatilib, u gapning mazmunini to‘ldiruvchi asosiy subyekt sifatida “yo‘qligiga” fe’li bilan bog‘lanib, inkorni ifodalab turibdi. Shu bilan birga, olmosh ma'lum bir shaxsni emas, shaxslar majmuini qamrab olgan holda mavhumlikni ta’kidlamoqda. Ushbu olmosh pragmatik jihatdan vaziyatga aniqlik kiritish maqsadida ishlatilib, ya’ni, *Ali Qushchiga* murojaat qilishdan oldin, gapiruvchi xonada boshqa shaxslarning yo‘qligiga ishonch hosil qilmoqda. Bu gapning pragmatik ma’nosi kommunikatsion ehtiyotkorlik va holatni nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘lib, boshqa shaxslarning yo‘qligi haqida xotirjamlik hosil qilishdir.

“Hamma bu vaziyatdan norozi edi, lekin hech kim bu haqida ochiq gapirmasdi.” Bunda “hamma” va “hech kim” olmoshlari birgalikda qo‘llanilgan. “Hamma” olmoshi umumiylikni ma’nosini ifodalab, ya’ni barcha ishtirokchilar vaziyatdan norozi ekanini ko‘rsatmoqda. Bu olmosh pragmatik jihatdan qahramonlar o‘rtasidagi umumiy kayfiyatni yoki hissiyotni ifodalash uchun ishlatilgan. “Hech kim” olmoshi esa umumiy inkor ifodalab, so‘zlovchi bilan tinglovchi o‘rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Bu gapda olmoshlar yordamida so‘zlovchi va tinglovchilarning voqealarga bo‘lgan munosabati ko‘rsatilgan bo‘lib, ular o‘z his-tuyg‘ularini ochiq ifoda etmasdan, yashirincha norozi ekanliklari ma’nosi ifodalangan.

Shuningdek, olmoshlar ishtirok etgan maqollarni ham pragmatik tahlil qilish orqali ularning xalq donishmandligi va madaniy kontekstdagi o‘rnini tahlil qilish mumkin. Maqollarda olmoshlar turli vaziyatlarda ishlatiladi va ularda yashiringan ma’nolar turli darajalarda pragmatik vazifa bajaradi. Quyida olmosh ishtirok etgan bir nechta maqollarning tahliliga e’tiborimizni qaratamiz.

“Sen meni bil, men seni bilay”. Bu maqolda “sen” va “men” kishilik olmoshlari ishtirok etgan. Olmoshlar bu gapda suhbatdoshlikni ifodalab, munosabatlardagi o‘zaro tushunishni ta’kidlab kelmoqda. Ushbu maqolda pragmatik jihatdan o‘zaro ishonch va tanishlik orqali ishlardagi muvaffaqiyat ta’kidlanmoqda. Bu maqol muloqotda shaxslar o‘rtasidagi yaqinlik va o‘zaro hurmatning muhimligini ko‘rsatib ikki shaxs o‘rtasidagi tushunishni va ishonchni ifodalamoqda. Kishilik olmoshlari orqali ishning muvaffaqiyatli kechishi uchun o‘zaro munosabat va yaxshi tanishlikning ahamiyati ko‘rsatilgan. Maqolning ma’nosi yaqin tanishlar orasida ishlar osonroq bitishini ifodalamoqda.

"*Sen meni bilasan, men seni bilaman, ish bitadi*". Bu maqolda "sen" va "men" kishilik olmoshlari ishlatilib, olmoshlar bu yerda suhbatdoshlikni ifodalaydi va munosabatlardagi o'zaro tushunishni ta'kidlamoqda. Ushbu maqolda pragmatik jihatdan o'zaro ishonch va tanishlik orqali ishlardagi muvaffaqiyat ta'kidlanganini kuzatishimiz mumkin. Bu maqol orqali muloqotda shaxslar o'rtasidagi yaqinlik va o'zaro hurmatning muhimligini ko'rishimiz mumkin. Pragmatik jihatdan esa olmoshlar bu yerda ikki shaxs o'rtasidagi tushunishni va ishonchni ifodalamoqda. Ishning muvaffaqiyatli bitishi uchun kishilik olmoshlari orqali o'zaro munosabat va yaxshi tanishlikning ahamiyati ko'rsatilmoqda. Maqolning ma'nosi yaqin tanishlar orasida ishlar osonroq bitishini anglatmoqda.

"*Eling omon bo'lsa - sen omon*" maqoli ijtimoiy birdamlik va hamjihatlikni targ'ib qiladi. Unda shaxsiy manfaatlarining jamiyat osoyishtaligi bilan bog'liqligi ta'kidlanib, kishilar o'rtasida o'zaro bog'liqlik va jamiyatga mas'uliyat tuyg'usi shakllantirilganligini kuzatishimiz mumkin. Jamiyatning tinch va barqaror bo'lishi shaxsiy hayotning osoyishtaligiga bevosita ta'sir etishi pragmatik urg'u bilan ifodalangan. Maqol odatda odamlarni jamiyat tinchligi uchun harakat qilishga, el osoyishtaligini saqlashga undashdaga qaratilgan sanaladi.

Odamlarni tashqi sharoitga moslashish, undan imkoniyat yaratish yoki uni o'zgartirish uchun harakat qilishga ilhomlantiradi.

"*Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq*" maqoli shaxs (sen) va muhit (zamon) o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik bog'liqlikni ko'rsatayotganini anglab olamiz. Funksional jihatdan u odamlarni qiyinchiliklar oldida faol bo'lishga undaydi, pragmatik jihatdan esa moslashuvchanlik va ijobiy fikrlashni rag'batlantiradi. Bu maqol xalq falsafasi va ijtimoiy hayot haqidagi chuqur qarashlarni o'zida aks ettirmoqda.

Bunday konversiya (ko'chish - ko'chirish) ma'lum bir aniq hodisaning nomi deb qaraladi: so'zning o'z formasini o'zgartirmagan holda boshqa turkum vazifasida qo'llanishi sifatida qayd etib o'tilgan.

Demak, bu aslida ko'chish emas, balki bir tomondan qaraganimizda “kengayish”dir.

Shu o'rinda olim konversiya atamasining ma'no qamroviga ham munosabat bildiradi: “ko'chish, o'tish, o'zgarish kabi terminlarining hech qaysisi bu hodisani to'la aks ettirmaydi. Anglashiladiki, bunday yasashni keng ma'noda qo'llash, konversiya termini bilan atalishi shartli xarakterga egadir”.

Kategorial ko'chish, umuman, ko'chishning bir ko'rinishidir. Bunda ko'chirishning boshqa turlari ham bor:

1. Konversiya affiks orqali yuzaga kelishi ham mumkin (chop - fe'l, chop+ iq – ot: affiksatsiya yo'li bilan ko'chirish: bunda konversiyaning vositasi affiksdir).

2. Ko'chish so'zi bir so'z turkumining o'z ichidagi turli “aylanishlar”ga nisbatan ham qo'llanadi: atoqli otning turdosh otga ko'chishi yoki aksincha.

3. Konversiya tufayli yuzaga kelgan grammatik sinonimiyani ba'zan fonetik vosita, leksik urg'u orqali farqlash hodisasi ham uchrab qoladi.

Masalan, urg'uning o'rmini ko'chirish orqali ravishning tashqi шаклланиши: yangi – sifat, yangi – ravish: endi (endi cho'milishga boramiz – endi; kelin kir yuvishga endi kirishgan edi, eshikdan onasi kirib keldi.)

A.G'.G'ulomovning qayd etishicha, ko'chish nafaqat sintaktik shart-sharoit bilan, balki ma'no va boshqa omillar bilan ham bog'liqdir (bunda belgilar kompleksi bor). Ilg'or, qahramon, mard, yalqov, kasal kabi so'zlar bugungi tilda boshqa so'zlar bilan sintaktik aloqa orqali birikishdan tashqari, deyarli ot kabi qo'llanish xususiyatiga ega bo'lib qolgan. Ko'chish semantik o'zgarishning – ma'no taraqqiyotining natijasi bo'lib

ham tug‘iladi. Masalan, endi ravishi o‘rni bilan yuklama ham bo‘lib keladi: - Nega endi jo‘jalarni so‘yar ekanmiz? - dedi xotini. (“Mushtum”) Yomg‘ir yomon quydi (yomon: juda, juda qattiq quydi). Ekspeditor o‘lguday dag‘al odam. (“Mushtum”) O‘lguday so‘zi juda so‘zining ma‘no va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lmoqda. [2]

Boshqa xil yasalmalarda bo‘lgani singari, motivatsiya munosabati – yasashga asos bo‘lgan qism (yasovchi element) bilan hosila element orasida боғланиш бўлади. Масалан, от ўрнида қўлланган, қимирлаган сўзи (Qimirlagan qir oshar) shu ma‘no bilan bog‘langan fe‘l (sifatdosh shakli) bilan aloqada. Agar semantik-grammatik aloqa sezilmas holga kelsa, yasalganlik ham bilinmaydi.

Ayni holatlar soddalashishning bir ko‘rinishidir. So‘ng, og‘ir, chopar, ilg‘or, qorqon, sichqon, qorag‘on, bilag‘on so‘zlari misolida ana shunday leksik-grammatik aloqaning yo‘qolish holatlari ko‘rsatib o‘tilgan (deetimologizatsiya - etimologik asosning unutilishi). Boshqa tomondan, konversiya ikki, ba‘zan uch so‘zni nazarda tutadi:

1. Semiz odam (sifat, aniqlovchi). 2. Ozg‘in sal iljaydi, semiz xoholab qornini ushlab kuldi (kim? - semiz, ozg‘in–ega).

2. Yaxshi odamlar (sifat). 2. Yaxshilar (ot o‘rnida, ya‘ni otlashgan so‘z).

3. Yaxshi gapirdi (ravish vazifasida).

Demak, semiz, ozg‘in, yaxshi sifatlari yasovchi element bo‘lib kelsa, ot va ravish o‘rnida kelganlari ikkinchi element (hosila)dir.

A. G‘.G‘ulomov shu jarayon doirasida ko‘rilishi mumkin bo‘lgan boshqa bir hodisani aniq farqlash zarurligini ko‘rsatadi. Olimning ta‘kidlashicha, “Shunday so‘zlar ham borki, ularning yakka holda qaysi turkumga kirishi aniq bo‘lmaydi”. Masalan, issiq - sifat, (issiq kun) va ot (Shunday issiqda qayerga ketyapsiz? Issiq ta‘sir qildi), sovuq - sifat (sovuq suv) va (Sholini sovuq urdi), to‘y - ot va fe‘l; ko‘ch - fe‘l va ot kabi.

Ushbu misollar tahlilidan shunday xulosa chiqariladi: “Etimologik jihatdan bog‘liq bo‘lgan yuqoridagi juftlar (ular polisemiya dan vujudga kelgan omonimlardir) konversiya hodisasini ko‘rsatmaydi, balki ularning ikki tomonlamaligi boshqacha xarakterga ega”.

Ayni paytda, ko‘ch (moq) – ko‘ch, kengash (moq) – kengash, kurash (moq) - kurash, ko‘k (rang nomi) - ko‘k (ko‘kat) - ko‘k (osmon) kabi misollar keltirilib, konversiyaning mahsuldor emasligi qayd etilgan. [3]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. A.G‘.G‘ulomov tomonidan konversiyaning kategorial ko‘chish natijasida grammatik omonimiyani yuzaga keltirishi (qizil bayroq - qizil sifat; qizillar oqlarni yengdilar-qizil, oq ot kabi qo‘llangan), eng muhimi, konversiya jarayonining sintaktik, semantik holati bilan birga paradigma bilan bog‘liqligi ham maxsus ta‘kidlangan.

A.G‘.G‘ulomov umumnazariy bir muammoga ham oydinlik kiritadi. Ma‘lumki, umumiy tilshunoslikdagi asosiy qoidalardan biri – “o‘zgarish va yangilanishlar dastlab nutqda yuzaga keladi, so‘ng til hodisasiga aylanadi” degan qoida konversiya misolida ham o‘z isbotini topadi, nutq hodisalari orqali til hodisalari tug‘iladi.

Asli sifatdosh shakli bo‘lgan og‘ir, zo‘rg‘a kabi so‘zlar asl manбайдan uzoqlashib, aloqani uzgan, alohida lug‘aviy birlikka aylangan. “Demak, og‘ir, zo‘rg‘a kabi ko‘rinishlar endi nutq hodisasi emas, balki til hodisasi. Bular shu tusda ma‘lum bir turkumga kiradigan so‘zlar (og‘ir – sifat, zo‘rg‘a–ravish) bo‘lib, ularning kategorial holati nutq jarayonida belgilanmaydi. Qiyoslang: Yaxshi so‘zi til hodisasi tusida sifat, uning ot

bo‘lib kelishi nutq jarayonida kelib chiqadi”. Til va nutq doimiy bo‘lmagan hollarda, til qoliplari va ularning nutqiy hosilalarini farqlash nuqtai nazaridan A.G‘.G‘ulomov yana bir fundamental masalaga o‘z munosabatini bildirib, til nazariyasi va rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan fikrni quyidagicha ifodalaydi:

Ayrim so‘zlarning konversiya yo‘li bilan yasalganligi odatdagi hol tusiga kirgan o‘zlashgan, umumlashgan, bunday yasamalar yakka holda ham har ikki tomonni, bu yasalmaga asos bo‘lgan yasovchi elementni eslatib turadi (yalqov, yarador tipidagi so‘zlar), bularda sintaktik-kontekstual holatning roli endi nisbatan kuchli emas: qovunning pishgani (qiyoslang: pishgan qovun), bu ishning lekini bor, shekilli, lekinini ayt (lekini: zid tomoni to‘siq ma’nosida, ot o‘rnida); – Nega? – Negasini keyin ko‘rasiz (negasi - sababi ma’nosida: ot o‘rnida).

A.G‘.G‘ulomov odatdagi holatlar – til qoliplari, andozalari asosida hosil bo‘ladigan ko‘chishlarni uzual ko‘chish, odat tusiga kirmagan, doimiy bo‘lmagan ko‘chishlarni okkazional ko‘chish deb nomlaydi. Okkazional ko‘chish quyidagi belgilari bilan uzual ko‘chishdan farqlanadi: “ko‘chishning kuchsizligi, bunday sintaktik-kontekstual holatning maksimal rol o‘ynashi, bunday ko‘chishning odatdagi – o‘zlashgan hol bo‘lmay, onda-sonda uchraydigan (lekin kabi) hodisa ekanligi ko‘rinib turibdi.

Olim tomonidan ba’zi bir (yuqorida qayd etilgan) terminlarga ham izoh berib o‘tilgan: “Bularning birinchisi, uzual ko‘chish (odat – biror hodisaning odatdagi holati” ma’nosidagi “uzus” so‘zidan), ikkinchisi, okkazional ko‘chish (“tasodifiy,” – “odatdagi qo‘llanish tusiga kirmagan - uzual bo‘lmagan” ma’nosidan)dir”.

Shuningdek, ba’zi ko‘rinishlar tilning ma’lum taraqqiyot davrida ko‘rsatilgan holatlar orasida o‘tish davri bo‘ladi.

Bu xulosa A.G‘.G‘ulomovning diaxroniya va sinxroniya jarayonlariga munosabatini ham ko‘rsatadi, chunki olim I.A.Boduen de Kurtenening “Sinxroniya diaxroniyaning qonuniy davomchisidir” degan fikrini o‘zbek tili, turkiy tillar qurilishi misolida ham ajoyib tarzda isbotlagan va tatbiq etgan edi. Konversiyaning so‘z yasashda asosiy rol o‘ynaydigan ko‘rinishlari substantivatsiya, adyektivatsiya, adverbilizatsiya va pronomina- lizatsiyadir. A. G‘.G‘ulomov keyingi ishlaridan birida konversiyaga nisbatan transpozitsiya terminini qo‘llaydi. [4]

Tadqiqot metodologiyasi. So‘z yasash bilan bog‘liq holda shunday fikrlarni bildiradi: “Bir so‘z turkumidan boshqasini hosil qilishning keng tarqalgan yo‘li affiks yordami bilan yasashdir: otdan sifat, sifatdan ot, fe‘ldan sifat va boshqalar. Bir so‘z turkumidan boshqasini hosil qilishning affikssiz yasash yo‘llari ham bor. Shulardan biri transpozitsiya hodisasidir: bu bir leksik-grammatik kategoriyadagi – bir turkumdagi so‘zning boshqa turkumga ko‘chishi. Masalan, Qari kelsa – oshga, yosh kelsa - ishga. (Maqol) Demak, transpozitsiyada kategorial o‘zgarish yuz beradi. Transpozitsiya bir qancha turlarga ega: substantivatsiya (otlashish), adyektivatsiya (sifatlashish), adverbializatsiya (ravishlashish), pronominalizatsiya (olmoshlashish).

Keyingi o‘rinlarda adyektivatsiya xususiyatlari bayon etilgan, shuningdek, cho‘yan g‘ildirak kabi qo‘shilmalardan farqli holda zig‘ir yog‘, dumba yog‘, tuxum sho‘rva; ganch devor, par yostiq, duxoba ko‘rpa, qovoq somsa kabi birikuvlarda ot+ot qo‘shilmasidagi birinchi qism sifatga juda yaqinlashishini, keyingi ot tarkibida o‘sha narsaning qisman bo‘lishi, to‘liq tashkil etishi ma’nosini ta’kidlab, affiks qo‘shilishi natijasida ayrimlari

osonlik bilan sifatga aylanishini ko‘rsatadi: sut choy – sutli choy, ganch devor-ganchli devor, tuxum sho‘rva -tuxumli sho‘rva kabi; tosh so‘zi sifatlashgan nominativ birikmalarli affiksi qo‘shilishi bilan qo‘shma sifatlarga aylanadi: tosh yurakli qaynona, sher yurakli yigit, kulcha yuzli bola, qo‘y ko‘zli odam.^[5]

Ko‘rinadiki, A.G‘.G‘ulomov asarlarida konversiya-transpozitsiya tushunchasi butun til qurilishini ham diaxron, ham sinxron nuqtai nazardan qamrab oluvchi yaxlit o‘zaro bog‘langan jarayon sifatida tadqiq etilgan.

Bu jarayon natijasida tilning barcha sath birliklari o‘zaro shartlangan, bir-birini taqozo etuvchi aloqalarda olib qaraladi. Konversiya - transpozitsiya tufayli tilning lug‘at tarkibi, morfemikasi, so‘z yasalishi, morfologiyasi va sintaksis o‘rtasida uzluksiz tarzda birliklar almashinuvi yuz berib turadi: mavjud materialdan yangi material yaratiladi, S.O.Karsevskiyning asimmetrik dualizm qonuniyatiga ko‘ra, bir shakl bir necha ma’no vazifani ifodalay olsa, o‘z navbatida, bir ma’no-vazifa bir necha shakl orqali ifodalanish imkoniga ega bo‘ladi.

Funksional transpozitsiya qonuniyatini kashf etgan olimlardan biri Sh.Balli shunday deb yozgan edi: “O‘z doiralariga o‘ralgan ramzlar tilning ko‘plab ehtiyojlarini qondirishda juda cheklangan manba sifatida xizmat qilgan bo‘lar edilar. Ammo kategoriyalararo almashuv tufayli fikr erkinlikka erishadi, ifoda yana boy va turli jilolarga ega bo‘ladi”.

Konversiya-transpozitsiya masalasini jahon tilshunosligidagi eng yaxshi yutuqlar asosida tadqiq etgan professor A.G‘.G‘ulomov bu borada o‘ziga xos, takrorlanmas, o‘z qimmatini yo‘qotmaydigan konsepsiyani yaratgan olimdir.^[6]

R.Qo‘ng‘irovning fikricha, so‘z turkumlariaro barcha o‘tish hollarini ko‘chish (konversiya, transpozitsiya, translyatsiya) deb, bir turkumdan boshqa turkumga ko‘chiriluvchi so‘zni ko‘char (so‘z) (transpondent) deb, ko‘chgan so‘zni ko‘chkin (so‘z) (transpozit) deb, so‘zni bir turkumdan boshqasiga ko‘chiruvchi usul va yo‘llarni ko‘chiruvchi vosita (transpozitor) deb nomlashni tavsiya etadi. Albatta, bunday nomlash umumiy jarayonga mos kelsa-da, ko‘char (so‘z), ko‘chkin (so‘z) kabi atamalar sun‘iyligi, adabiy meyorlarga mos tushmasligi bilan maqbul atamalar qatoridan o‘rin ololmasligi tabiiy.

Konversiya (transpozitsiya) masalasida A.G‘.G‘ulomov tomonidan belgilangan hodisalar doirasi, ularning turlari va ko‘rinishlari, yondosh hodisalar bilan munosabati bo‘yicha aytilgan fikr, qoida, tekshirish yo‘li va usullari fanimizning eng yaxshi yutuqlaridan bo‘lib, keyingi yillarda bajarilgan tadqiqotlar uchun ham asos, qolaversa, yo‘l-yo‘riq vazifasini bajarib kelmoqda. Ko‘rinadiki, A.G‘.G‘ulomov asarlarida konversiya–transpozitsiya tushunchasi butun til qurilishini ham diaxron, ham sinxron nuqtai nazardan qamrab oluvchi yaxlit o‘zaro bog‘langan jarayon sifatida tadqiq etilgan.^[7]

Funksional transpozitsiya qonuniyatini kashf etgan olimlardan biri Sh.Balli shunday deb yozgan edi: “O‘z doiralariga o‘ralgan ramzlar tilning ko‘plab ehtiyojlarini qondirishda juda cheklangan manba sifatida xizmat qilgan bo‘lar edilar. Ammo, kategoriyalararo almashuv tufayli fikr erkinlikka erishadi, ifoda yana boy va turli jilolarga ega bo‘ladi.

Abbreviatura italyancha “abbreviatura” soʻzidan olingan boʻlib, u oʻz navbatida, lotincha “abbrevia” “qisqartiraman” soʻziga borib taqaladi. Qisqartma soʻzlar XX asr Yevropa tillarida paydo boʻlib, soʻng koʻpgina tillarda ularning turli yasaliş andozalari yuzaga kelgan. Qisqartma soʻzlar ot soʻz turkumidagi qoʻshma soʻz, soʻz birikmasining turlicha darajada qisqarishidan yuzaga kelgan ixcham soʻzlardir. Abbrevatsiyaning asl manbasiga sinonimik munosabatda boʻluvchi ixcham yasalmalarni yaratishga qaratilgan (shunga xizmat qiluvchi) soʻz yasash usulidir.

A.Gʻ.Gʻulomovning soʻz yasalişiga bagʻishlangan barcha ishlarida qisqartma soʻzlar qoʻshma soʻz yasaliş boʻlimida qaralgan. Olimning yozishicha: “Qoʻshma soʻzlarning bir turi qisqartma soʻzlardir. Qoʻshma soʻzlarning bu turi otlardagina uchraydi. Bunday soʻzlarning yasaliş usuli rus tilidan olingandir”.

A.Gʻ.Gʻulomov qisqartma soʻzlarning muhim belgilarini quyidagicha koʻrsatadi: “Bularning asosiy qismi turli muassasalarning nomi va maxsus terminlardir... bir qismi oʻzbek tilida bir butun, bir sodda otdek boʻlib ketgan, ular bir butun sifatida oʻqiladi. Toʻla, kengaygan soʻz va tartib jihatidan boshqa-boshqa boʻlgan qisqartma otlar oʻsha maʼnoni ifodalovchi bir sodda soʻzdek oʻqila boradi. Asosiy qismi kalka yoʻli bilan hosil qilinadi, ular boshqa hamma otlar kabi yasaliş va turlanish xususiyatiga ega: MTSdan, MTSga...”.

“Oʻzbek tili grammatikasi” kitobida olim yuqoridagi fikrlarini yanada rivojlantirib, quyidagi jihatlarni maxsus taʼkidlaydi: “Soʻz birikmalarining va qoʻshma soʻzlarning qisqarishidan ham yangi soʻz hosil boʻlishi mumkin (mashina traktor stansiyasi – MTS kabi).

Tahlil va natijalar. Rus tilidan olingan bu soʻz yasash yoʻli ixchamlik bilan ifodalanadi: u iqtisodiy meyorga juda mos keladi. Uning nomi rus tilidan kalkalash yoʻli bilan yasalgan: slojnosokrashyonniye slova – qisqartma qoʻshma soʻz, qisqartirilgan qoʻshma soʻz”. [8]

Qisqartirilgan shakl bilan toʻla shakl oʻrtasidagi munosabatda soʻzlarning rus tilidan oʻzlashish darajasi ham muhim omil boʻlib xizmat qiladi: qisqartma tarkibidagi har bir qism adabiy tilga toʻliq oʻzlashgan soʻz sanaladi va kalkalash yoʻli bilan birinchi qismi qisqartiriladi: telekamera (televizion kamera), teleocherk, telestudiya, telefilm; zoopark (zoologiya parki), yana: zookabinet, zoomagazin, zoomuzey; aviazavod, aviapochta, aviabomba, aviabaza va b.

Xulosa va takliflar. Grammatikaning ot soʻz turkumiga oid soʻz yasaliş qismida Sh.U.Rahmatullayev qisqartmalar doirasida qoʻshma terminini ishlatishga eʼtiroz bildiradi: “Qisqartmalarning barchasiga nisbatan qoʻshma terminini ishlatish nooʻrin. Qoʻshma soʻz leksemalardan tuziladi, qisqartmalarda esa, barcha qismlar yoki biror qism leksemadan uzib olingan shartli parcha boʻladi. Bundan qatʼi nazar, qisqartmalarni qaytadan toʻliq holga keltirsak, qoʻshma soʻzga teng birlik yuzaga chiqmaydi (Bunday birikmalarni qoʻshma soʻz deb qaraydigan vaqtlar oʻtib ketdi), balki turgʻun birikma yuzaga chiqadi. Demak, qisqartma qoʻshma soʻz haqida emas, qisqartma turgʻun birikma haqida gapirish oʻrinli”. [9]

Keyingi yillarda qisqartma soʻzlarning mohiyatiga boʻlgan munosabat tubdan oʻzgardi. A.Nurmonov va N.Maxmudovlar shunday yozadi: “Qisqartma soʻzlar tom maʼnodagi soʻz yasalişdan tubdan farq qiladi, ular soʻz yasaliş natijasi emas.

Qisqartma soʻzlarning paydo boʻlishi muayyan denotat va signifikat ifodachisi boʻlgan turgʻun birlikning formal ixchamlashuvi natijasidir, bunda mohiyat, semantika mutlaqo oʻzgarishsiz qolaveradi.

Faqat formagina ixchamlashib, kommunikativ aloqa tezligi uchun qulaylashadi. Shuning uchun qisqartma soʻzlarning hosil boʻlishini funksional forma yasalishi, soʻz yasalishi va boshqa hodisalardan farqlangan holda “variatsion forma yasalishi” deb qarash nazariy jihatdan toʻliq asosga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. A.Gʻ.Gʻulomov. Oʻzbek tili grammatikasi, I-tom. –T.: Fan, 1975. –B. 22.
2. A.Gʻ. Gʻulomov. Sifat haqida mulohazalar (Ikkinchi maqola) - Oʻzbek tilida soʻz yasalishi. Ilmiy ishlar toʻplami, № 608, ToshDU. –T.: 1979. –B. 8.
3. A.Gʻ. Gʻulomov. Oʻsha maqola. –B.8–9.
4. A.Gʻ. Gʻulomov. Oʻsha manba. –B. 29.
5. Bolshoy ensiklopedicheskiy slovar. Yazikoznaniye. Moskva, 2000. –S.9.
6. A.Gʻ. Gʻulomov. Sifat haqida mulohazalar (Ikkinchi maqola) - Oʻzbek tilida soʻz yasalishi. Ilmiy ishlar toʻplami, № 608, ToshDU. –T.: 1979. –B. 8.
7. A.Gʻ. Gʻulomov. Oʻzbek tili grammatikasi . II jildlik , I- tom . T.: 1975. Gʻulomov A. Gʻ. Sifat haqida mulohazalar (ikkinchi maqola) / (ToshDU ilmiy asarlari) Oʻzbek tilida soʻz yasalishi. – T., 1979. – B.92 .
8. A.Gʻ. Gʻulomov. Oʻsha kitob. –B 38.
9. Sh.U. Rahmatullayev. Oʻsha kitob . –B. 251



**O‘XSHATISHLARNING SOTSIOPRAGMATIK
FUNKSIYASI
(SADRIDDIN AYNIYNING “ODINA”
QISSASI MISOLIDA)**



Axtamova Bibisora,
*Navoiy davlat universiteti,
tayanch doktorant*

Annotatsiya. O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishlarni bir qator antroposentrik yo‘nalishlarda tadqiq qilib kelishmoqda. Ushbu maqolada Sadridin Ayniy asarlarida uchraydigan o‘xshatishlarning sotsiopragmatik jihati va sotsiopragmatik funksiyasi o‘rganiladi. Ayniy asarlarida qo‘llangan misollar orqali o‘xshatishlarning nutq va inson omiliga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘xshatishlar, metafora, verbal va noverbal muloqot, o‘xshatish vositalari, sotsiopragmatik funksiyasi.

Аннотация. В узбекской лингвистике ассимиляция изучается в ряде антропоцентрических направлений. В данной статье рассматриваются социально-прагматические аспекты и социопрагматическая функция улыбок, обнаруженные в работах Садриддина Айния. Влияние улыбок на речь и человеческий фактор анализируется на примерах, использованных в работах автора.

Ключевые слова: ассимиляции, метафоры, вербальная и невербальная коммуникация. сравнения, социопрагматическая функция.

Abstract. In Uzbek linguistics, assimilations are being studied in a number of anthropocentric directions. This article examines the sociopragmatic aspect and sociopragmatic function of similes found in the works of Sadridin Ainiy. The influence of similes on speech and the human factor is analyzed through the examples used in Aini's works.

Key words: assimilations, metaphors, verbal and non-verbal communication. similes, sociopragmatic function.

Kirish. Bizga ma’lumki, har qanday ijodkor asarining tili va nutqi ravon bo‘lishi uchun bir qator tasviriy vositalardan foydalaniladi. O‘xshatishlar badiiy-uslubiy xususiyatlarga egaligi bilan nutqiy muloqotning ta’sirchanligini, ifodaliligini ta’minlab beradi. Sadridin Ayniy asarlarida o‘xshatishlardan keng foydalangan, ularning ijtimoiy muhit, ijtimoiy vaziyat va jamiyatda qay holatda ishlatilganini sotsiopragmatik jihatdan o‘rganish mumkin. Bir kommunikant boshqa bir kommunikant bilan muloqotga kirishishidan avval uning kimligi, qanday mavqega egaligi, yoshi yoki jinsiga e’tibor beradi. Sotsiopragmatik tahlil jarayonida insonlar tildan foydalanishda turli vaziyatlarga qarab lisoniy yoki nolisoniy shaklda muloqotga kirishishini kuzatamiz. Boshqalarga yaxshi ko‘rinish yoki muloqot vaziyatida ijobiy fikr uyg‘otish maqsadida bo‘lishadi. Bunday jarayonda turli harakatlar, mimikalar, turlicha verbal muloqotni qo‘llashadi. Sadridin Ayniy asarlaridagi kommunikantlar muloqotida ham bunday vaziyatlarni

ko‘rish bilan birga sotsial jamiyat va undagi kishilarning, masalan, ota va bola, yigit va qiz yoki xo‘jayin va qo‘l ostida ishlovchi qul, xizmatkorning muloqotida turlicha vaziyatni ko‘rish mumkin. Mazkur maqolada esa o‘xshatishlarning ijtimoiy muhit va jamiyat ichidagi kommunikantlar nutqida qay shaklda ishlatilganligi Sadridin Ayniy asarlari misolida ochib beriladi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishlar bilan bog‘liq bir qator ilmiy ishlar, ilmiy faoliyat bor. Jumladan, D.Xudoyberganovanning “Matnning antroposentrik tadqiqi” nomli monografiyasida o‘xshatishlarning lingvokulturologik jihatlari o‘rganiladi. Bundan tashqari, M.Yoqubbekova o‘zbek xalq qo‘shiqlari lingvopoetikasiga bag‘ishlangan monografiyasida ham o‘xshatishlar va ularning ma‘lum bir maqsadlari haqida so‘z yuritadi. N.Mahmudovning “O‘xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli” nomli maqolasida o‘xshatishlarning lingvokulturologik tadqiqini birinchilardan bo‘lib tahlil qiladi. O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishlar R.Qo‘ng‘urov, M.Mukarramov, F.Usmonovning ilmiy faoliyatida chuqur tadqiq etilgan. D.Xudoyberganova va N.Mahmudovlar tomonidan tuzilgan “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” ham o‘xshatishlarning sotsiopragmatik funksiyasini o‘rganishimizda qo‘l keladi. D.Rustamovanning “Metaforik evfemizatsiyaning lingvokulturologik va sotsiopragmatik aspektlari” nomli doktorlik dissertatsiyasidan sotsiopragmatik tahlil bo‘yicha o‘rganamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda metodikaning tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, kontekstual tahlil, statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. “O‘xshatish mazmuni ifodalangan matnlar o‘zbek tilida so‘zlashuvchi til egalarining ijodiy tafakkuri, fikrlash tarzi va milliy mentalitetining o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi, shuningdek, tilning yaratuvchanlik imkoniyatini ko‘rsatuvchi lingvomadaniy birlik sifatida namoyon bo‘ladi” [Xudoyberganova D., 2013: 101]. Sotsiopragmatik tahlil deganda birgina shaxs yoki uning nutqi emas, butun bir ijtimoiy muhit va jamiyat, o‘sha davrning ijtimoiy sotsial tahlili tushuniladi. Ayniy asarlarini sotsiopragmatik tahliliga kirishganimizda sotsial elementlardan foydalanishda bir qator omillarni sanab o‘tish mumkin, jumladan, jamiyat, davr, kommunikantlarning o‘zaro yaqinligi, jinsi, yoshi, xilma-xilligi, millati, ijtimoiy holati, o‘xshashligi kabilar. O‘xshatishlar ayni vaziyatda Sadridin Ayniy asarlari tilini ochib berishga yordam beradi.

Bizga ma‘lumki, o‘xshatish tasviriy vositasi to‘rtta asosiy qurilish komponentidan tashkil topadi. Bular o‘xshatish asosi, o‘xshatish sub‘yekti, o‘xshatish etaloni va o‘xshatish vositalaridan iborat. Bunday qurilish unsurlarining ayrimlari uslubiy talab bilan tushib qolishi mumkinligini D.Xudoyberganova aytib o‘tadi. M.Yoqubbekova o‘z monografiyasida esa bu to‘rtta komponentdan tashqari bo‘lgan yana bir unurni yani “o‘xshatish maqsadi” [Yoqubbekova M., 2005:162] borligini ham ta‘kidlaydi. O‘xshatishlarning sotsiopragmatik tahlilida aynan shunday o‘xshatish maqsadini o‘rganamiz. “O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishning semantik-sintaktik, pragmatik va uslubiy jihatlari bir qator ishlarning tadqiq ob‘yekti bo‘lgan... O‘xshatish mazmuni ifodalangan matnlarni yaratishda matn tuzuvchi turli kommunikativ strategiyalarni qo‘llashi mumkin” [Xudoyberganova D., 2013:98]

– *Durust, ba’zi bir vaqtda qora bulut parchalari Arbob Kamolning solinib turgan qovoqlari va burushgan yuzlaridek ko’rinib dunyoni Odina ko’ziga qorong’ilatar edi, lekin biroz vaqt o’tar-o’tmas tag’in oftob qora pardalar ostidan qutilgan sharq qizidek qora bulutlarni yirtib chiqar va Odinaning qayg’uli yuziga o’zining quvonchli nurini separ edi.* [S.Ayniy, 2019:15] Yuqoridagi parchada Ayniy tabiat tasviri jonli bo’yoqlarda berish bilan birga kommunikantning ichki holati, ijtimoiy vaziyati, xo’jayinidan chekayotgan aziyati sezilib, qora bulutlar -uning qovoqlari va yuzlaridek deb o’xshatilgan. O’sha davr va aynan o’sha jamiyatda xo’jayin va uning qo’l ostida ishlovchi dehqon yoki xizmatkorlar orasida ma’lum to’siqlar borligini, xo’jayinlar ularga gapirishda ehtiyotkor bo’lib, masofa saqlashgani tushunish mumkin. Ayni damda xizmatkorda esa o’z xo’jayiniga nisbatan hayqiqat kuzatiladi.

Bu kabi misollarni Sadridin Ayniy asarlarining har sahifasida uchramiz: – *Arbob bu gapni eshitishi bilan yirtqich hayvondek bo’kirdi: – Javob ...hisob...bu nima degan so’z...bu valadi zinoning qorni to’ygan, shekilli!* [S.Ayniy, 2019:22] // – *Faqat Gulbibining dardi, u bulbulsiz qolgan gulning, bog’bonsiz qolgan bog’ning dardi Odinani biron nafas tinchitmas edi: bu dardning og’irligi shunda ediki, uni ochib so’ylamoq uchun birorta ham Hamdard topilmas edi.* [S.Ayniy, 2019:48] – *Shu jumladan, bizning zavod kattalari va mahalliy hokimlar ham bu hodisani zavod ishchilariga hikoya qilib, o’zlariga qarshi qozondek qaynagan ishchilar azobiga suv quydilar...* [S.Ayniy, 2019:52] // – *Talangan musofirlar mushuk og’zidan qutulgan sichqonday qo’rqa-pisha yo’lga tushdilar, lekin talon hali tamom bo’lmagan ekan.* [S.Ayniy, 2019:57] // – *Buning ustiga ochlik va qahatchilikning to’ng’ich bolasi bo’lgan tif (terlama kasali) paydo bo’lib, xalqni ikkinchi tomondan qirib, tuproqqa topshira berdi.* [S.Ayniy, 2019:95] // – *Rahimxondan keyin amir Doniyol davrida ham Ko’histon xalqining kosasiga suzilgan osh shu edi.* [S.Ayniy, 2019:100] // *Bir nech daf’u urganlaridan keyin mirg’azab: – Qo’ying endi, ipakday yumshagan bo’lsa kerak,-dedi.* [S.Ayniy, 2019:113] // – *Qarilikdan, ochlikdan yoki kasallikdan yo’l yurmakka bo’shlik qilganlarning boshlarida navkarlarning qamchilari, tayoqlari o’ynar edi. Haqiqatan, bu mardikorlar guruhi qo’y podasi kabi haydalmogda edi. Farq yolg’iz shunda ediki, qo’y podasini to’xtatib, o’tlatib haydasalar, bularni ochlik va kuchsizliklariga qaramasdan zo’rlab quvar edilar* [S.Ayniy, 2019:28].

Yuqorida kuzatganimiz Sadridin Ayniyning “Odina” asaridagi o’xshatishlarda inson a’zolari, inson tashqi ko’rinishi, insonning nutqi, insonning xarakteri bilan bog’liq bo’lgan xususiyatlar ijtimoiy vaziyatlarda uchraydi. “Kommunikantlarning sifatleri muloqot tizimida qanchalik muhim o’rinni egallamasin, har holda bu tizimning markazida kommunikantlarning ijtimoiy roli turadi” [Safarov Sh., 2008:155].

Sanab o’tilgan o’xshatishlarda kuzatish mumkinki, Sadridin Ayniy turg’un o’xshatishlar bilan birga erkin o’xshatishlardan mohirona foydalangan. Qozondek qaynagan ishchilar o’xshatishida qozon – o’xshatish etaloni, ishchi – o’xshatish sub’yekti, qaynash – o’xshatishning asosi bo’lsa, -dek shakl jihatdan o’xshatishning vositasi bo’lib kelgan. Endi o’xshatishning vazifasi ijtimoiy vaziyat, o’sha muhitdagi ishchilarning ya’ni ma’lum bir sotsial guruhning holatini aniqlik bilan ifodalab kelgan. Ularning sotsiopragsmatik funksiyalariga e’tibor qaratsak, adresant va adresatlarning ma’lum bir maqsadi borligini anglash mumkin bo’ladi. Ayniy asarlarida asosan, ishchi,

mehnatkash aholining ezilgan qiyofasi va ularning rahbarlari, xo‘jayinlarining esa zulmkor qiyofasi o‘xshatishlar orqali chiziladi va hu orqali ular o‘rtasidagi ijtimoiy masofa seziladi. Bunday sotsial muhitni turli xil hayvonlar yoki tabiat tasviriga bog‘lab ko‘rsatishini ko‘ramiz: *qo‘y podasi kabi, sichqonday, yirtqich hayvonday*. Sadridin Ayniy tarixda bo‘lgan bunday ayni haqiqatlarni, o‘sha davrni, jamiyatdagi tuzumni bu kabi o‘xshatishlar vositasida gavdalantirib beradi.

Xulosa va takliflar. Sotsiopragmatik kuzatuvlar natijasida aytish mumkinki, Sadridin Ayniyning “Odina” qissasida o‘xshatishlar ma’lum bir vaziyat, ijtimoiy davrni inson ongida gavdalantirishdan tashqari unga ekspressivlik, bo‘yoqdorlik, obrazlilik funksiyalarini ham berib o‘tadi. Ayniyning o‘zi yaratgan o‘xshatishlari uning badiiy mahorati va qalami o‘tkirigidan dalolat beradi. Bizning tarixiy davr, o‘sha muayyan muhit, kommunikantlarning ijiymoiy mazqeyi va ularning nutq jarayonidagi ijtimoiy holatini aniq his qilishimizga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hakimov M. O‘zbek tili pragmatikasini o‘rganish. – Farg‘ona, 2011.
2. Mahmudov N. Oybek she‘riyatidagi o‘xshatishlarning lingvopoetikasi. – Toshkent, 1985.
3. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.
4. Mamajonov A., Mahmudov U. Uslubiy vositalar. – Farg‘ona, 1996.
5. Muhamedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent, 2011.
6. Sadridin Ayniy. Odina. – Toshkent: Kamalak, 2019.
7. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008.
8. Safarov Sh., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari. – Samarqand, 2007.
9. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2013. – 136 b.
10. Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2005.
11. Yo‘ldoshev M., Isakov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2009.



IJTIMOIIY TARMOQLARDA MADANIYATLARARO MULOQOT



Rustamov Bobomurod,
Navoiy innovatsiyalar
universiteti, tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqola ijtimoiy tarmoqlardagi madaniyatlararo muloqot dinamikasini o‘rganib, uning afzalliklari, muammolari va eng yaxshi amaliyotlarini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: madaniy almashinuv, diasporalar, global hamkorlik, stereotip, raqamli bo‘linish, madaniy sezgirlik.

Аннотация: В этой статье рассматривается динамика межкультурной коммуникации в социальных сетях, подчеркиваются ее преимущества, проблемы и передовой опыт.

Ключевые слова: культурный обмен, диаспоры, глобальное сотрудничество, стереотип, цифровой разрыв, культурная чувствительность.

Annotation: This article explores the dynamics of cross-cultural communication in social media, highlighting its benefits, challenges, and best practices.

Keywords: cultural exchange, diasporas, global cooperation, stereotype, digital divide, cultural sensitivity

Kirish. Ajdodlarning ruhiy olami va tushunchalari bugungi kunga qadar maqol, matal, iboralar, metaforalar, madaniy belgilar orqali yetib kelgan. Ma’lumki, inson bolaligidan boshlab o‘z millatiga xos til va til orqali madaniyatni o‘rganib boradi. Shundagina u inson hisoblanadi. Xalqning nozik madaniy belgilari uning tilida aks etadi. Til insonning o‘ziga xos va o‘ziga mos atributlaridan bo‘lib, u orqali inson o‘zini va olamni anglaydi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi madaniyatlararo muloqot global o‘zaro bog‘liqlikning murakkabligini aks ettiruvchi hayotiy tadqiqot sohasi sifatida paydo bo‘ldi. Facebook, X, Instagram va Telegram kabi platformalar turli madaniyatlarda bir zumda o‘zaro aloqalarni osonlashtirishi bilan birga, ular muloqot uchun noyob muammolar va imkoniyatlarni ham taqdim etadi.

Web-canape.ru ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha kompyuter va mobil qurilmalar orqali odamlar kun davomida o‘rtacha 2,2 soat vaqtini ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarga sarflashar ekan [1].

O‘z navbatida, ro‘yxatdan o‘tgan ijtimoiy media foydalanuvchilari soni esa 4,6 milliardga yetgan. Bu ko‘rsatkich 2020-yilning xuddi shu davriga nisbatan 1,4 millionga yoki 44 foizga ko‘payganini ko‘rsatmoqda [2].

Foydalanuvchi tomonidan yaratilgan tarkibni, lingvistik o'zgarishlarni va algoritmlarning ko'rinish va faollikka ta'sirini tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot ijtimoiy medianing madaniyatlararo muloqot uchun transformativ vosita sifatidagi roli haqida tushuncha berishga qaratilgan. Oxir oqibat, u ijtimoiy media madaniy tafovutlarni qanday bartaraf etishi mumkinligini chuqurroq tushunishni va uning cheklovlari va axloqiy mulohazalarini tanqidiy bilish zarurligini tan olishni himoya qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Madaniyatlararo muloqotda ijtimoiy tarmoq matnlarining voqelanishi o'zaro tushunish va hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini, shuningdek, noto'g'ri muloqot va madaniy o'zlashtirish xavfini ta'kidlaydi. Madaniyatlararo muloqotda ijtimoiy tarmoq matnlarining voqelanishi juda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy media platformalarining yuksalishi muloqot landshaftini o'zgartirib, madaniy chegaralar bo'ylab tezkor o'zaro ta'sir o'tkazish imkonini berdi. Ushbu adabiyot tahlili ijtimoiy mediadagi madaniyatlararo muloqot bilan bog'liq asosiy mavzular, nazariyalar va topilmalarni ko'rib chiqadi va uning potentsial afzalliklari va muammolarini ta'kidlaydi.

Geert Xofstedening madaniyat o'lchovlari (masalan, kuch masofasi, individualizm va kollektivizm) madaniy qadriyatlar onlayn o'zaro munosabatlarni qanday shakllantirishi haqida tushuncha beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kollektivistik madaniyatdagi foydalanuvchilar guruh uyg'unligi va bilvosita muloqotni birinchi o'ringa qo'yishi mumkin, individualistik madaniyatdagilar esa o'zini ifoda etish va to'g'ridan-to'g'rilikni qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy tarmoqlarda madaniyatlararo muloqotni tushunish uchun bir qancha nazariy asoslar qo'llanilgan:

1. Madaniy o'lchovlar nazariyasi: Bu nazariya madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni o'lchash va tushunishga yordam beradi. (Masalan, Hofstede'ning madaniy o'lchovlari individualizm va kollektivizm, kuch masofasi, noaniqlikdan qochish kabi o'lchovlarni o'z ichiga oladi) [3].

2. Muloqotni joylashtirish nazariyasi: Bu nazariya odamlar o'zlarining muloqot uslublarini boshqalarga moslashish uchun moslashtirishlarini ta'kidlaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar ko'pincha o'z tilini, ohangini va mazmunini o'z auditoriyasining madaniy me'yorlariga moslashtirish uchun moslashtiradi, bu esa ko'proq tushunishni kuchaytiradi yoki aksincha, tushunmovchiliklarga olib keladi.

3. Ijtimoiy mavjudlik nazariyasi: Bu nazariya boshqalarning mavjudligi aloqaga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Madaniyatlararo kontekstlarda og'zaki bo'lmagan belgilarning etishmasligi matnga asoslangan muloqotda madaniy nuanslardan xabardor bo'lish zarurligini ta'kidlab, noto'g'ri talqinlarga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali turli madaniyatlar o'rtasida muloqot qilish imkoniyati kengaymoqda va o'zaro bog'langan bugungi dunyoda ijtimoiy tarmoqlar madaniyatlararo muloqot uchun kuchli platformaga aylandi. Turli xil kelib chiqishi odamlar onlayn aloqada bo'lganda, madaniy farqlarni tushunish va navigatsiya qilish har qachongidan ham muhimroqdir.

Tahlillar va natijalar. Ijtimoiy media madaniy tafovutlarni bartaraf etish va tushunishni rivojlantirish potentsialiga ega bo'lsa-da, u tanqidiy ishtirokni talab qiladigan

muhim muammolarni ham keltirib chiqaradi. Kelajakdagi tadqiqotlar rivojlanayotgan texnologiyalar va o‘zgaruvchan madaniy landshaftlarning oqibatlarini hisobga olgan holda, onlayn madaniyatlararo o‘zaro ta’sirlarning rivojlanayotgan tabiatini o‘rganishni davom ettirishi kerak.

Til va madaniyat ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni saqlash, avloddan avlodga uzatish, madaniyatlararo muloqotni yuzaga keltirish va uni rivojlantirish xususiyatiga ega bo‘lgan noyob hodisadir [4].

Ijtimoiy media foydalanuvchilarga o‘zlarining madaniy o‘ziga xosliklari va hikoyalarini ifoda etish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, odamlar o‘zlarining onlayn personajlarini tuzadilar, ko‘pincha bir nechta madaniyat elementlarini aralashtiradilar. Ushbu duragaylash ko‘p madaniyatli tushunishni rivojlantirishi mumkin, ammo haqiqiylik va o‘zlashtirish haqida munozaralarni keltirib chiqarishi mumkin.

Til ijtimoiy tarmoqlarda madaniyatlararo muloqotda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, lingvistik xilma-xillik ishtirok etishni kuchaytirishi mumkin, ammo to‘siqlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, jargon, kulgichlar va memlardan foydalanish turli madaniyatlarda sezilarli darajada farq qilishi mumkin, bu esa noto‘g‘ri muloqotga olib keladi.

Ijtimoiy media algoritmlari kontentning ko‘rinishiga ta’sir qiladi, ko‘pincha foydalanuvchilarning mavjud e’tiqodlariga mos keladigan postlarga ustunlik beradi. Bu aks-sado kameralarini yaratishi mumkin, bu esa turli nuqtai nazarlarga ta’sir qilishni cheklaydi. Tadqiqotlar madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda algoritmik savodxonlikning muhimligini ta’kidlaydi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi madaniyatlararo muloqotda mojaro ehtimoli katta tashvishdir. Tushunmovchiliklar turli madaniy me’yorlar yoki qadriyatlardan kelib chiqishi mumkin, bu ko‘pincha anonimlik va onlayn o‘zaro aloqalar masofasi tufayli kuchayadi. Tadqiqotlar ushbu mojarolarni yumshatishda madaniy sezgirlik va xabardorlik zarurligini ta’kidlaydi.

Muloqotning juda murakkab jarayon ekanligi haqida B.F.Parigin shunday yozadi: Muloqot shunchalik ko‘p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o‘zida quyidagilar kiradi:

- a) individlarning o‘zaro ta’sir jarayoni;
- b) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati;
- d) bir kishining boshqalarga ta’sir ko‘rsatishi [5].

Ijtimoiy media madaniy amaliyotlar va g‘oyalar almashinuvini osonlashtiradi, bir-biriga yanada bog‘langan dunyoga hissa qo‘shadi. Biroq, bu globallashtirish madaniy ustunlik va mahalliy o‘ziga xoslikni saqlab qolish haqida savollar tug‘diradi. Olimlar ham global, ham mahalliy istiqbollarni qadrlaydigan muvozanatli yondashuv tarafdori.

Ijtimoiy tarmoqlarda madaniyatlararo muloqotning afzalliklari:

1. Madaniy almashinuv va ta’lim:

Ijtimoiy media foydalanuvchilarga madaniy tajribalar, an’analar va qadriyatlarni almashish imkonini beradi. Instagram va TikTok kabi platformalar odamlarga madaniy bayramlar, oshxonalar va san’atni namoyish qilish imkonini beradi, bu esa global qadrlash va tushunishni kuchaytiradi.

2. Diasporalarni ulash:

O‘z vatanlaridan uzoqda yashovchi odamlar vatandoshlari bilan bog‘lanishlari va ularning madaniy ildizlari bilan aloqada bo‘lishlari mumkin. Bu madaniy o‘ziga xoslikni saqlashga yordam beradi va hissiy yordam beradi.

3. Global hamkorlik:

Ijtimoiy media biznesdan tortib ta’limgacha turli sohalarda xalqaro hamkorlikni osonlashtiradi. Bu odamlarga muammolarni hal qilish va innovatsiyalar uchun turli istiqbollarni olib, chegaralar bo‘ylab birgalikda ishlash imkonini beradi.

Ijtimoiy tarmoqlarda madaniyatlararo muloqotdagi qiyinchiliklar:

1. Noto‘g‘ri aloqa va noto‘g‘ri talqin:

Til to‘siqlari va madaniy farqlar tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, kulgichlar turli madaniyatlarda turli ma’nalarga ega bo‘lishi mumkin, bu esa noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib keladi.

2. Stereotip va tarafkashlik:

Ijtimoiy tarmoqlar stereotiplar va madaniy qarashlarni davom ettirishi mumkin. Kontentga tanqidiy yondashish va cheklangan ma’lumotlarga asoslangan taxminlar qilishdan qochish juda muhimdir.

3. Raqamli bo‘linish:

Ijtimoiy tarmoqlarga kirish universal emas. Iqtisodiy va infratuzilmaviy nomutanosiblik madaniyatlararo muloqotlarda ishtirok etishni cheklab qo‘yishi mumkin, bu esa vakillikni buzishi mumkin.

Samarali madaniyatlararo muloqot uchun eng yaxshi amaliyotlar:

1. Madaniy sezgirlik va hurmat:

O‘zaro munosabatlarga ochiq fikr va madaniy farqlarga hurmat bilan yondashish. Boshqalar uchun haqoratli bo‘lishi mumkin bo‘lgan til yoki belgilarni ishlatishdan saqlanish.

2. Faol tinglash va jalb qilish:

Turli nuqtayi nazarlarni tushunish uchun vaqt ajrating. Muhokamalarda puxta o‘ylang, fikrlarni aniqlashtirish uchun savollar bering va samimiy qiziqish ko‘rsating.

3. O‘zingizni tarbiyalang:

Madaniyatlararo muloqot qobiliyatingizni oshirish uchun boshqa madaniyatlar haqida bilib oling. Madaniy me’yorlar va qadriyatlar bilan tanishish tushunmovchiliklarning oldini oladi.

4. Moslashuvchanlik:

Muloqot uslublarida moslashuvchan bo‘ling. Yondashuvingizni madaniy kontekstga va muloqot qilayotgan kishilarning afzalliklariga qarab sozlang.

Xulosa va takliflar. XXI asrga kelib madaniyatlararo muloqot madaniyati butun insoniyatga, mamlakatlararo munosabatlarga, xalqlar va millatlar hayotiga o‘tkazayotgan ta’siri natijasida dunyo o‘zgarimoqda [6]. Ijtimoiy tarmoqlardagi madaniyatlararo muloqot butun dunyodagi odamlar bilan bog‘lanish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi. Madaniy farqlardan xabardor bo‘lish va hurmatli muloqot usullarini qo‘llash orqali odamlar mazmunli o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishlari va yanada inklyuziv onlayn hamjamiyatga hissa qo‘shishlari mumkin. Ijtimoiy media rivojlanishda davom etar ekan, xilma-xillikni qabul qilish va tushunishni rag‘batlantirish uning madaniyatlararo muloqot uchun to‘liq salohiyatidan foydalanish uchun kalit bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTAR RO‘YXATI

1. https://ijtimoiy.uz/2313/#_ftn1
2. https://ijtimoiy.uz/2313/#_ftn1
3. <https://geerthofstede.com/culture-geert-hofstede-gert-jan-hofstede/6d-model-of-national-culture/>
4. Madaniyatlararo muloqot. Ma’ruzalar matni. – Toshkent, 2021. – B. 45.
5. www.researchgate.net/publication/360480265_Muloqotning_ijtimoiy_funksiyalari
6. <https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0019/5.48.pdf>



KONTRASTIV TILSHUNOSLIKNING TERMINOLOGIK TUSHUNCHALARI



Niyozova Shoira,
Navoiy davlat universiteti
Ingliz tili amaliy kursi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Kontrastiv tilshunoslik ikki yoki undan ortiq tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni tizimli o'rganishdir. Ushbu soha ushbu munosabatlarni tavsiflash uchun ishlatiladigan terminologiyaga e'tibor qaratib, tilshunoslarga fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika va pragmatika kabi lingvistik xususiyatlarni tahlil qilish va taqqoslash imkoniyatini beradi. Asosiy terminologik tushunchalarga uzatish, aralashish, konvergentsiya, divergentsiya va tipologiya kiradi. Ushbu atamalarni tushunish amaliy tilshunoslik, tillarni o'qitish, tarjimashunoslik va lingvistik tadqiqotlar uchun juda muhimdir, chunki ular tillarning bir-biriga qanday ta'sir qilishini va ma'ruzachilarning ko'p tilli muhitda qanday harakat qilishini o'rganish uchun asos yaratadi.

Kalit so'zlar: kontrastiv tilshunoslik, terminologiya, tilni taqqoslash, Transfer, interferentsiyasi konvergentsiya, divergentsiya, tipologiya, fonologiya, morfologiya, sintaksis semantika, pragmatika, ko'p tillilik.

Abstract. Contrastive linguistics is the systematic study of the similarities and differences between two or more languages. This field focuses on the terminology used to describe these relationships, enabling linguists to analyze and compare linguistic features such as phonology, morphology, syntax, semantics, and pragmatics. Key terminological concepts include transfer, interference, convergence, divergence, and typology. Understanding these terms is essential for applied linguistics, language teaching, translation studies, and linguistic research, as they provide a framework for exploring how languages influence one another and how speakers navigate multilingual environments.

Keywords: contrastive linguistics, terminology, language comparison, transfer, interference, convergence, divergence, typology, phonology, morphology, syntax, semantics, pragmatics, multilingualism.

Аннотация. Контрастивная лингвистика – это систематическое изучение сходств и различий между двумя или более языками. В этой области основное внимание уделяется терминологии, используемой для описания этих взаимосвязей, что позволяет лингвистам анализировать и сравнивать лингвистические особенности, такие как фонология, морфология, синтаксис, семантика и прагматика. Ключевые терминологические понятия включают перенос, интерференцию, конвергенцию, дивергенцию и типологию. Понимание этих терминов важно для прикладной лингвистики, преподавания иностранных языков, переводоведения и лингвистических исследований, поскольку они обеспечивают основу для изучения того, как языки влияют друг на друга и как носители языка ориентируются в многоязычной среде.

Ключевые слова: контрастивная лингвистика, терминология, языковое сравнение, перенос, интерференция, конвергенция, дивергенция, типология, фонология, морфология, синтаксис, семантика, прагматика, многоязычие.

Kirish. Taqqoslash – bu mantiqiy tahlil, umumlashtirish, tavsiflash va boshqalar bilan bir qatorda umumiy ilmiy usul. Ushbu usul barcha fanlarda keng qo‘llaniladi, ammo uning imkoniyatlari hali tizimlashtirilmagan. Ehtimol, global miqyosda bunday tizimlashtirish mumkin emas. Ammo ma’lum bir fan doirasida mumkin va zarurdir. Taqqoslash mumkinligini, taqqoslash uchun qanday asoslar bo‘lishi mumkinligini, taqqoslash usulidan qanday maqsadlarda foydalanish mumkinligini va tegishli fan muammolarini hal qilish uchun nima berishi mumkinligini aniqlash muhimdir. Taqqoslash (sinonim – taqqoslash) inson tafakkurining asosiy xususiyatlaridan biri, voqelikni bilish va o‘xshash ob’ektlar va hodisalarni farqlash usuli. Dunyoning xilma-xilligi turli hodisalarning doimiy taqqoslanishini belgilaydi. Umuman olganda, tillarni taqqoslash fani qadimgi davrlarda, odamlar boshqa tillarda so‘zlashuvchilar bilan tushuntirish zarurligiga duch kelganda paydo bo‘lgan. Tillararo taqqoslash tilshunoslikdagi birinchi qiyosiy yo‘nalishdir. Tillarni taqqoslash bilan shug‘ullanadigan birinchi tadqiqotchilar tarjima lug‘atlarini tuzuvchilar bo‘lib, ular chet tilidagi mos keladigan so‘zlarni o‘z ona tillarida tanlashga majbur bo‘lishdi. Albatta, bu davrda tillarni taqqoslashning hech qanday usuli yo‘q edi. Va fanda tillarni taqqoslash usuli tushunchasi uzoq vaqt davomida mavjud emas edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Taqqoslashni ilmiy asosga qo‘ygan birinchi lingvistik yo‘nalish XIX asr boshlarida Germaniyada paydo bo‘lgan va F.Bopp va Y.Grimm ismlari, shuningdek, daniyalik tilshunos R.Rask va A.X.Vostokovning ismlari bilan bog‘liq bo‘lgan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik edi. “Taqqoslash quyidagilarga erishish uchun qo‘llanilishi mumkin ikki xil maqsad: umumiy naqshlarni aniqlash yoki tarixiy ma’lumotlarni olish uchun”, – deb yozgan A.Meie (Meie 1954, 11-bet). Qiyosiy tadqiqotning maqsadi turli tillarning til quyi tizimlarining o‘xshashliklari va farqlarini aniqlashdir; shu bilan birga, taqqoslangan tillarning bir xil nomdagi quyi tizimlari avtonom ravishda o‘rganiladi va tavsiflanadi (masalan, rus va ingliz tillaridagi harakat fe‘llari, nemis va frantsuz tillaridagi imtiyozli munosabatlarning ifodasi, Polsha va bolgar tillaridagi kiyimlarning nomlari va boshqalar) va keyin tavsif natijalari taqqoslanadi. Qiyosiy tilshunoslik doirasida ma’lum bir quyi tizimni tashkil etuvchi birliklar to‘plami va sonidagi umumiy va har xil narsalar aniqlanadi. Kontrastiv tadqiqotlar deyarli har doim chet tillarini o‘qitish vazifalari bilan chambarchas bog‘liq. D.Bolinger bu borada shunday deb yozgan edi: “kontrastiv tilshunoslik o‘qitish tajribasidan kelib chiqqan. Har bir chet tili o‘qituvchisi biladi va har bir chet tilini o‘rganuvchi tez orada ona tili ma’lum va bashorat qilinadigan holatlarda ikkinchi tilni o‘zlashtirishga xalaqit berishini aniqlaydi” (tsit. Po: Yartseva 1981, 4-sahifa). Kontrastiv tadqiqotlar deyarli har doim chet tillarini o‘qitish vazifalari bilan chambarchas bog‘liq. D.Bolinger bu borada shunday deb yozgan edi: “kontrastiv tilshunoslik o‘qitish tajribasidan kelib chiqqan. Har bir chet tili o‘qituvchisi biladi va har bir chet tilini o‘rganuvchi tez orada ona tili ma’lum va bashorat

qilinadigan holatlarda ikkinchi tilni o'zlashtirishga xalaqit berishini aniqlaydi" (tsit. Po:Yartseva 1981, 4-sahifa). kontrastiv tadqiqotlarning chet tillarini o'qitish vazifalari bilan chambarchas bog'liqligi qisman kontrastiv rejadagi tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni birinchi kuzatish va o'rganish amaliy vazifalarga bo'ysunganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Har qanday til yo'nalishi singari, uning o'ziga xos usullari, terminologiyasi mavjud. kontrastiv tadqiqotlarda qo'llaniladigan usullar, bir tomondan, zamonaviy umumiy tilshunoslikning turli yo'nalishlarida nazariyaning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq, boshqa tomondan, bu yoki boshqa kontrastiv ishning maqsadlari va yo'nalishiga bog'liq. Aslida, kontrastiv asarlar har doim ham qiyosiy xarakterdagi ko'plab tadqiqotlar orasida aniq ajralib turmaydi, bu ko'pincha ularda ishlatiladigan terminologiyada aks etadi. Ko'rinishidan, kontrastiv tadqiqotlarda asosiy e'tibor umumiy til hodisalarining ma'lum bir to'plamiga asoslangan taqqoslangan tillarning o'ziga xos xususiyatlariga qaratilishi kerak. Har qanday yo'nalishi singari, uning o'ziga xos usullari, terminologiyasi mavjud. Kontrastiv tadqiqotlarda qo'llaniladigan usullar, bir tomondan, zamonaviy umumiy tilshunoslikning turli yo'nalishlarida nazariyaning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq, boshqa tomondan, bu yoki boshqa qarama-qarshi ishning maqsadlari va yo'nalishiga bog'liq. Aslida, kontrastiv asarlar har doim ham qiyosiy xarakterdagi ko'plab tadqiqotlar orasida aniq ajralib turmaydi, bu ko'pincha ularda ishlatiladigan terminologiyada aks etadi. Ko'rinishidan, kontrastiv tadqiqotlarda asosiy e'tibor umumiy til hodisalarining ma'lum bir to'plamiga asoslangan taqqoslangan tillarning o'ziga xos xususiyatlariga qaratilishi kerak. Qarama-qarshi leksikologiya to'g'ridan to'g'ri leksikografiya bilan bog'liq, chunki faqat yangi turdagi lug'atlar-differensial ikki tilli lug'atlar ikki tilning lingvistik birliklarining semantik va funktsional xilma-xilligi va farqini to'liq ochib berishi mumkin. Kontrastiv leksikologiyaning yana bir qismi kontrastiv semasiologiyadir. Semasiologiyaning asosiy vazifasi til birliklarining ma'nosini o'rganish va bu ma'nolarning o'zgarishini aniqlashdir, kontrastiv semasiologiya-bu bitta til birliklarining qiymatlarini taqqoslashda tavsiflash ularning har biri boshqa tilda mumkin bo'lgan yozishmalar bilan ushbu birliklar orasidagi farqlarni aniqlash va aniqlash.

Tahlil va natijalar. Kontrastiv tilshunoslik va kontrastiv leksikologiyaning vazifalaridan biri o'rganilayotgan til birliklarining milliy o'ziga xos xususiyatlarini-ularning semantikasi va taqqoslanadigan tilda ishlashini aniqlashdir. Ikki tilni taqqoslash va ularning farqlarini topish natijasida o'rganilayotgan tilning milliy o'ziga xosligi aniqlanadi. Til birligi semantikasining milliy o'ziga xosligi uning semantik tarkibiy qismlar tarkibi va taqqoslash tili birligi o'rtasidagi farqidir. Turli xil odamlar guruhlar atrofimizdagi muhitni turli yo'llar bilan eslashadi va talqin qiladilar. Dunyoning tiklanishi, dunyoning lingvistik manzarasi odamlarning madaniy xususiyatlariga bog'liq.

O‘zbekistonda uzum navlarining ulkan halqasi borligini hamma biladi: xalili, behishti, Husaini, kelin barmok (xonimlar barmoqlari), toifi, kora kishmish. Frantsiya aholisi uchun hech kim bu uzum navlarining nomlarini aytmaydi. Shuningdek, ko‘pchilik uchun sharob bilan bog‘liq bo‘lgan Cabernet Sauvignon, Cabernet Franc, Merlot, Pinot Noir, Chardonnay, Petit Verdot, grenache frantsuz navlari. Kundalik hayotdagi farqlar (tandir, sandal daraxti va boshqalar) leksik birliklarda aks etadi. Shuning uchun, tarjimonda tarjimon so‘zning asl ma’nosini buzmaslik va barcha nuanslarni etkaza olmaslik uchun juda ehtiyot bo‘lishi kerak. Va shuning uchun kontrastiv tahlilda ma’lum bir tilning butun lingvistik rasmini hisobga olish kerak, chunki til birligi ma’nosining milliy o‘ziga xosligi faqat taqqoslash orqali aniqlanadi. B.Y.Gorodetskiy, V.G.Vilyuman, Nemzer va K.Jeyms va boshqalar tomonidan taqdim etilgan olimlar KLning afzalliklari shundaki, u psixologik fanlar, etnopsixologiya, lingvokulturologiya, madaniyat tarixi, sotsiolingvokulturologiya bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu sizni u yoki bu so‘zning semantikasiga yangicha qarashga majbur qiladi, chunki “turli tillarning semantikasida insoniyat e’tiborining ko‘p asrlik tendentsiyalari bir xil emas, sezilarli voqelikni idrok etishda selektivlik yo‘nalishlari” Kontrastli tahlil boshqa qiyosiy usullar paytida yashirin bo‘lishi mumkin bo‘lgan ba’zi til hodisalarini to‘g‘ri va aniq aniqlash imkonini beradi. Masalan, ta’kidlanganidek R.S.Ginsburg, “kontrastiv tadqiqotlar natijasi so‘z ma’nosining “yashirin komponenti” tushunchasi-xususiyatlari faqat aniqlanishi mumkin bo‘lgan so‘zning referent aloqasi turli tillardagi signifikativ jihatdan yaqin so‘zlarni kontrastiv qo‘yishda” Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, kontrastiv tilshunoslik boshqa barcha tilshunoslik yo‘nalishlaridan (qiyosiy tarixiy tilshunoslik, til tipologiyasi, til universallari nazariyasi, areal tilshunoslik) sezilarli darajada farq qiladi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, ularning barchasi nazariy tilshunoslikka tegishli, bu kontrastiv tilshunoslik haqida gapirish mumkin emas. Garchi hozirgi kunga qadar kontrastiv shunoslikning holati to‘g‘risida hali umumiy fikr va aniq tasavvur mavjud emas. Ammo, Sternin va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan metodologiyaga asoslanib, biz kontrastiv tilshunoslik haqli ravishda o‘ziga xos xususiyatlar va fazilatlarga ega bo‘lgan mustaqil lingvistik intizom bo‘lishi kerak deb hisoblaymiz. Shuni ta’kidlash kerakki, Kontrastiv tilshunoslik, birinchi navbatda, uning amaliy tabiati bilan ajralib turadi, ya’ni.ushbu fan amaliy maqsadlarga ega, ular orasida lingvodidaktik ajralib turadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, biz qarama-qarshi tilshunoslik qiyosiy tilshunoslikdan quyidagilar bilan farq qiladi, degan xulosaga keldik, chunki kontrastiv tahlil qilish uchun tillarning qarindoshligi printsipial emas, alohida til hodisalari tahlil qilinadi, ona tilining chet tili bilan quyi tizimlari emas yoki aksincha; taqqoslash va taqqoslash bir til birligidan boshqa tildagi analoglariga sinxron ravishda amalga oshiriladi, aksincha avtonom va mustaqil ravishda; va eng muhimi, farqlarni topish, o‘xshashliklar “avtomatik ravishda” aniqlanadi.

Xulosa va takliflar. Til madaniyatning ko‘zgusi bo‘lib, unda nafaqat insonni o‘rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o‘zini o‘zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an‘analari, urf-odatlar, axloqi, qadriyatlar yig‘indisi va dunyoqarashini ham aks etadi. Bu kontrastiv tilshunoslik va tillarni qiyosiy o‘rganish bilan shug‘ullanadigan boshqa lingvistik fanlar o‘rtasidagi asosiy farq. Shunday qilib, kontrastiv tilshunoslik o‘zining aniq obykti, predmeti, maqsadlari, vazifalari, shuningdek tahlil usullari bilan rivojlangan fan sifatida namoyon bo‘ladi. Albatta, uning turli jihatlarini muhokama qilish bundan buyon ham davom etadi: bunday munozaralar uning zaifligidan emas, balki fanning hayotiyligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sternin I.A. Kontrastiv tilshunoslik. Tadqiqot nazariyasi va metodikasi muammolari. – M.: Sharq-G‘arb, 2007. – 208 b.
2. Lion, J. Til, ma’no va kontekst. Fontana Matbuot. – M., 2010. – 146 b.
3. Yuldasheva L. O‘zbek tilining madaniy jihatlar. – T., 2019.
4. Vinogradov V. Rus leksikologiyasi va semantikasi. – M.: Nauka, 1970.
5. Rahmonov A. Tilning madaniy o‘ziga xoslikdagi o‘rni: o‘zbek isti



**SHAROF RASHIDOVNING “KASHMIR QO‘SHIG‘I “
QISSASIDA METAFORALARNING
BADIY IMKONIYATLARI**



G‘aybulloyeva Umida,
NavDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Badiiy adabiyotning eng muhim so‘z quroli bu so‘zdir. Har bir So‘zlovchi o‘z fikrini eshituvchiga yoqimli,jozibali,ta’sirchan qilib yetkazishni maqsad qilib qo‘yadi. Bunday vaziyatlarda esa, albatta badiiy tasvir vositalaridan foydalaniladi. Ulardan eng keng tarqalgani bu metaforalardir. Ushbu maqolada “Sharof Rashidovning “Kashmir qo‘shig‘i“ qissasida qo‘llanilgan metaforalar va ularning badiiy imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: metafora, leksik nominatsiya, metaforizatsiya, poetik metafora.

Аннотация: Самым важным словесным инструментом художественной литературы является слово. Каждый говорящий ставит перед собой цель донести свою мысль до слушателя приятным, привлекательным, впечатляющим образом. В таких ситуациях, конечно, используются средства художественного изображения. Самыми распространенными из них являются метафоры. В этой статье рассматриваются метафоры, использованные в повести Шарафа Рашидова "Кашмирская песня" и их художественные возможности.

Ключевые слова: метафора, лексическая номинация, метафоризация, поэтическая метафора.

Annotation: The most important verbal tool of fiction is the word. Every speaker aims to convey his thoughts to the listener in a pleasant, attractive, and impressive way. In such situations, of course, artistic image tools are used. the most common are metaphors. This article talks about the metaphors used in the short story "Song of Kashmir" by Sharaf Rashidov and their artistic possibilities.

Keywords: metaphor, lexical nomination, metaphorization, poetic metaphor.

Kirish. Inson so‘zlay olish qobiliyati,ongi bilan boshqa tirik mavjudotlardan ajralib turadi.So‘zni o‘z o‘rnida jozibali,ma’noli so‘zlay olish ham bir san’atdir.So‘zlovchi fikrini bayon qilar ekan,o‘z nutqi davomida turli badiiy tasvir vositalaridan foydalanib,ularni o‘z ma’no nozikliklarini inobatga olib qo‘llaydi. Metaforalar mana shunday keng imkoniyatlarga ega ,leksik jozibadorikka liqto‘la bo‘lgan ko‘chim turlaridan biridir.

Metaforalar ikki narsa o‘rtasida o‘xshatish,taqqoslash,kitobxon ongida yaqqol obraz yaratish uchun qo‘llaniladigan adabiy vositadir.Ushbu hodisada narsa o‘z

xususiyat, shakl, belgi, harakat, hid, hajm va shu kabi xususiyatga ega bo'lgan narsaning nomini oladi. Metaforalar kundalik hayotda, badiiy adabiyotda, she'riyatda uchraydi va so'zga rang-baranglik, go'zal ma'no baxsh etadi.

Metaforalar tilshunosligimizda ikkilamchi nominatsiya sifatida ham o'rganiladi. V.N.Teliya metaforani “nutqdagi mavjud nominativ vositalarning yangi vazifani ado etishga kirishuvini” aks ettiruvchi ikkilamchi leksik nominatsiyaga xoslangan deb biladi. M.Mamadaliyeva “O'zbek tili nominativ birliklarning konnotativ aspekti” asarida konnotatsiyani ifodalashda metaforalarning o'rni haqida gapirganda, xususiy-muallif metaforalari yozuvchining estetik maqsadi, ya'ni borliqni subyektiv munosabatini qo'shib ifodalagan holda nomlash asosida yuzaga kelishi, ular uslubiy jihatdan bo'yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo'lishi, metafora orqali ma'no ko'chishida konnotativ ma'no yorqinroq aks etishini ta'kidlab, masalan, *ot, eshak, qo'y, it, bo'ri, tulki, yo'lbars, boyog'li, musicha, burgut, lochin, qaldirg'och, bulbul* kabi hayvon va qushlarning nomlari bo'lgan leksemalar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'noda juda keng qo'llanishini tahlil qilgan. “Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo'yning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, tulkining ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchliligi, lochinning ko'zi o'tkirligi kabi tirik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko'chiriladi, natijada konnotativ ma'no yuzaga keladi hamda matnning ta'sirchanligi oshadi” [Mamadaliyeva, 1998:12]. Ikkilamchi nominantlik faqat matndagina anglashiladi, degan fikr metaforaga ham tegishlidir. Shuningdek, ularda sub'ektiv munosabat bo'rtib turadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sharof Rashidovning mazkur asarida metaforalarning badiiy imkoniyatlarini ochib berishda “Kashmir qo'shig'i” qissasi matni, A.Hojiyev, S.Karimov, D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyevaning ilmiy ishlaridan iqtiboslar keltirildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusini yoritishda qiyoslash, kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Metafora – so'zni matnda qo'llashdagi o'ziga xos hodisadir. Matnda shakllanmagan, zarur matniy aloqalardan uzilib qolgan metafora mavjud emas. Shuning uchun ham metaforani har qanday o'rganish, uning vazifasini qarab chiqish faqat keng matnning real xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Endi metaforaning lingvistik tabiati haqida. Metaforizatsiya juda murakkab semantik jarayon bo'lib, ma'lum til lug'at tarkibining boyishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Metaforizatsiya natijasida so'zning ma'nosida o'zgarish yuz berishi, ma'no anglatish doirasi kengayib ketishi mumkin. Shuning uchun ham tildagi frazeologizmlar, polisemantik so'zlar, omonim va sinonimlarning ko'payishiga, terminologiyaning boyishiga metaforizatsiya sababchi bo'ladi, deb ayta olamiz. Ma'lumki, umumiste'moldagi so'zlarning asosiy qismi ko'p ma'nolidir. O'zbek tilda ko'p ma'noli so'zlarning yangi ma'no kasb etishiga olib keluvchi nolingvistik faktorlardan eng faol qo'llanadigani - bu metaforadir. Metafora (yun. *metaphora* - ko'chirish) - ma'no ko'chishining keng tarqalgan turlaridan biri, narsa-hodisalar orasidagi o'xshashlikka asoslanuvchi ko'chim turi, trop. [Quronov 2004:40] Metafora mohiyatan yashirin o'xshatish bo'lib, unda o'xshatilayotgan narsa tilga olinmagani holda, uning ma'nosini o'xshayotgan narsa, ya'ni uni ifodalayotgan so'z bildiradi. Albatta, bu o'rinda

o'xshatilayotgan narsa-hodisalarning aynan o'xshashligi talab qilinmaydi, balki ikki narsa-hodisaga xos belgilardan birortasi asos uchun olinadi.

Masalan: *"Lola shirin so'zlari bilan o'z dugonasini yupatdi, uning umidiga umid, ishonchiga ishonch qo'shdi"*.

Bu o'rinda predmetning maza-ta'm belgisini beruvchi shirin so'zi o'xshashlik asosida xususiyat ifodalash uchun qo'llanilgan. Yozuvchi bu o'rinda o'z sevgilisidan najot kutayotgan, muhabbati yo'lida tinimsiz kurash olib borayotgan oshiq Nargizni yupatish, unga taskin berish uchun dugonasi Lola yaxshi, umidbaxsh so'zlardan foydalanadi. Ikkinchi bir o'rinda ham shirin so'zi metafora sifatida qo'llangan:

"U qancha qo'shiq aytsa, sevimli yori Bambur uning ko'zlariga shuncha ravshan ko'ringanday, ishtiyoq bilan o'rgan ipak sochlarini silab, erkalaganday, yoqut lablariga lablarini qo'yib, shirin-shirin bo'sa olganday bo'lardi".

Nutqqa obrazlilik, ta'sirchanlik baxsh etish maqsadida ikki narsa yoki hodisa o'rtasidagi o'xshashlik, muvofiqlik asosida ularning biri o'rnida xuddi shu ma'noni anglatadigan butunlay boshqacha tarzda, albatta, so'z yoki ibora ko'chma ma'noda ishlatiladi. Ana shu so'z yoki ibora metaforadir. A. Hojiyev metafora va metonimiya kabi hodisalarni so'zlarning ma'nosidagi o'zgarish yoki siljish natijasida emas, balki ulardagi nom ko'chishi oqibatida yuzaga keladi deb hisoblaydi hamda ularni nolingvistik jarayon tarzida izohlaydi. [Hojiyev 1961:220] Nom ko'chishi qandaydir o'xshashlik, narsalar, belgilar, harakatlar o'rtasidagi ma'lum aloqadorlik asosida yuz beradi. Shuning uchun ham nom ko'chishga olib keluvchi bunday hodisalar nolingvistik hodisa hisoblanadi deydi. Predmetlar, narsa va hodisalar, ularni anglatadigan tushunchalar o'rtasidagi dialektik muvofiqlik va aloqadorlik so'zlarning nutqda butunlay yangi ma'nolarda qo'llanishini keltirib chiqaradi va u mutlaqo so'zlovchining subyektiv qarashlariga hamda imkoniyatiga bog'liq ravishda yuzaga keladi. So'zlovchining salbiy munosabatini kuchliroq ifodalaydi. Bunga "Kashmir qo'shig'i" qissasidan misol keltiramiz:

"Gullar bog'ining bir chekkasida qad ko'targan tepalikka chiqib, olamdagi barcha qora kuchlarni chaqirib, ishga soldi".

Yozuvchi bu gapda Xorudning vajohatiga, yovuzligiga kuch qo'shgan. U "qora kuchlar" deganda qora shamol, izg'irin va shunga o'xshash tabiat, gullar kushandalarini "Gullar bog'i"ni yakson qilishga chorlamoqda.

Metafora hissiyotimizga, ongimizga ta'sir etish bilan birga yozuvchini ham uzundan-uzoq bayondan qutqaradi. Metaforalarning badiiy uslubga xos alomat ekanligini bir xil metaforalarning ham badiiy ham so'zlashuv uslublarida qo'llanilishini taqqoslash orqali yaqqol ko'rish mumkin. Badiiy adabiyot tilining ajralmas a'zosi bo'lgan metaforalarning qo'llanishidagi o'ziga xoslik haqida yana shuni aytish mumkinki, ular har bir tilda urf-odatlar, jug'rofiy muhit, fan va madaniyatning, iqtisodiy va xo'jalik taraqqiyotining darajasiga bog'liq ravishda milliy xarakter ham kasb etadi. Qissada qo'llangan metaforalarda tabiat va inson uyg'unligini ko'rish mumkin. Bu hodisa badiiylikni oshiradi, ma'noni kuchaytiradi:

Poetik metaforalar tasvir obyektini aniq material asosida nazariy, adabiy-tarixiy va individual-ijodiy tomonlarni o'zaro aloqadorlikda olib qarab o'rganish adabiy

jarayonning, poetik ijodning, yozuvchi uslubi va mahoratining ko‘plab tomonlarini aniqlashga imkon beradi:

“Pok sevgisini faqat Bamburgagina bag‘ishlaganini, usiz baxt daryosi suvidan bahramand bo‘lmasligini va shuning uchun ham o‘z Bamburini umrbod izlashga, uni topishga va Gullar bog‘ida u bilan qo‘shilishga ahd qilganini angladilar”.

Bu misolda ”baxt daryosi”, ”pok sevgi” kabi birikmalarni metaforaning yaqqol namunalari sifatida olishimiz mumkin. Yozuvchi bu gapda umidini uzmagani, yashashda olg‘a intilayotgan, sevgilisi bilan albatta, birga bo‘lishiga ishonayotgan vafodor yor timsolini chizib bergan.

Mazkur nutqiy parchada yomonlik, zulm qorong‘ulik, zulmatga qiyoslangan va shoir bu misra orqali yovuz kuchlarga ya‘ni Xorud va uning yelkadoshlariga ishora qilgan:

*“Ular bilan bu olam —
Qorong‘i, yorishmaydi”.*

Quyidagi o‘rinda oltin va tuproq so‘zlari metaforaning go‘zal namunasini hosil qilgan. Unda tabiatning insoniyatga g‘amxo‘rligi, unga zavq berishi, qalbiga go‘zallik ato etishi qiyoslash asosiga qurilgan holda ifodalangan:

“...maysalar ham oltin tuproqning mo‘l-ko‘l ozuqasi — kulib turgan quyoshning hayotbaxsh nurlaridan bahra olib, qulfurib yashnadilar”.

Ikkinchi bir o‘rinda yomonlik timsoli Xorud alvastiga qiyoslangan:

“ Bu alvastining qurum bosgan xarobazordagi o‘yinini ko‘rmaysizmi!”

Ko‘rib o‘tganimizdek, ijodkorning shuuri, estetik ideali, dunyoqarashi, maqsadi va g‘oyasi metaforalar vositasida badiiy aks ettirilgan. inson ruhiyatining muhim qirralarini muayyan narsa, tuyg‘u va kechinmalari betakror tabiat manzaralar tasvirida ham metaforalar uslubiy vosita vazifasini bajaradi.

”gul qora ofat bilan olishdi, timdalashdi, yulishdi, ammo nozik chechak holdan ketdi, ko‘zlari tinib, darmonsizlandi-da, yerga yiqildi”.

Mazkur parcha fikrimizning yaqqol dalilidir. Bunda ”qora ofat” deyish orqali Xorudning asarda salbiy qahramon ekanligini, gulni ”nozik chechak” deb atash orqali esa uning ofat oldida naqadar kuchsizligiga ishora qilgan va bu hodisani metafora asosida ochib bergan. Bunga o‘xshagan misollarni qissada yana yuzlab uchratishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, tilda ayrim olingan ma‘lum bir so‘zni metafora deb tushunish noto‘g‘ridir. Tilda matndan ajralgan metafora – so‘z yo‘q, balki nutq jarayonida, keng ma‘noda matnda so‘zni metaforik qo‘llash hodisasi mavjud.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, metafora yozuvchi uchun muhim vosita bo‘lib, u yozuvchiga go‘zal asar yaratish imkonini beradi. U so‘zga jon kiritib, kitobxon uchun qiziqarli ma‘nolarni yaratadi. ”Kashmir qo‘shig‘i “ qissasida ham yozuvchi metaforalardan juda unumli foydalanganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bu asar badiiyligini yanada oshiribgina qolmasdan, kitobxon uchun ham yangi ma‘nolarni kashf etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hojiyev A. O‘zbek tili leksikologiyasi. -Toshkent, 1961.-220-bet.
2. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Sam., 1994. 19-bet.
3. Mamadaliyeva M. O‘zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti. –T. : ND, 1998.12-b.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T., 2004. 40-bet.
5. O‘zME. Birinchi jild. T:2000
6. Rashidov Sh. Kashmir qo‘shig‘i qissa. T:1978



BADIIY MATNDA PRAGMATIK MA'NONING IFODALANISHI



Nematullaeva Gulandom,
NavDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. She'riy matnda muallifning individual uslubini o'rganish, uning asarlari mazmunini badiiy bayon qilishda lingvopragmatik vositalarni qo'llash mahoratini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada qoraqalpoq shoiri Berdaqning “Bolg'an yemes” she'rida ifodalangan pragmatik ma'no tahlilga tortilgan, she'rning o'zbek shoiri Mirtemir tomonidan tarjima qilingan varianti qiyosan keltirilgan holda izohlangan.

Kalit so'zlar: pragmatika, pragmatik birlik, muallif nutqi, leksik birlik, semantika, konnotativ sema, pragmatik sema, pragmatik baho.

Аннотация. В поэтическом тексте важное значение приобретает изучение индивидуального стиля автора, овладение навыками применения лингвопрагматических средств в художественном выражении содержания его произведений. В этой статье прагматический смысл, выраженный в стихотворении “Bolg'an yemes” Каракалпакского поэта бердыка, был подвергнут анализу, а вариант стихотворения, переведенный узбекским поэтом Миртемиром, был сравнительно интерпретирован.

Ключевые слова: прагматика, прагматическое единство, авторская речь, лексическое единство, семантика, коннотативная sema, прагматическая sema, прагматическая оценка.

Annotation. In the poetic text, it is important to study the individual style of the author, to study the skill of applying linguopragmatic means in the artistic statement of the content of his works. This article draws on the analysis of the pragmatic meaning expressed in the poem “Bulgarian yemes” by the karakalpak poet Berdaq, with a variant of the poem translated by the uzbek poet Mirtemir annotated by analogy.

Keywords: pragmatics, pragmatic unit, author's speech, lexical unit, semantics, connotative sema, pragmatic sema, pragmatic assessment.

Kirish. “Pragmatika” atamasi (yunoncha “faoliyat”, “harakat” ma'nosida) semiotika – belgilarning umumiy nazariyasi asoschilaridan biri bo'lgan Ch.Morris tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Olim Charlz Pirs g'oyalarini rivojlantirgan holda semiotikani uch qismga ajratdi: 1) semantika – belgilarning voqelik obyektlariga munosabati to'g'risidagi ta'limot; 2) sintaktika – belgilar o'rtasidagi munosabatni

o‘rganish; 3) pragmatika – belgilarning interpretatorlar, ya’ni belgilar tizimidan foydalanuvchilarga munosabati haqidagi ta’limot [1]. So‘z ma’nosining pragmatik ifodalangan konnotativ ma’nolari o‘zaro bir-biri bilan aloqada bo‘ladi. Baho konnotatsiyaning boshqa ma’nolari bilan birga so‘z ma’nosining ekspressivligini, pragmatik maqsadini oshirishga xizmat qiladi va badiiy matnda subyektiv munosabatni yanada kuchliroq, ifodalibroq, ta’sirchanroq ifodalash uchun xizmat qiladi. Ekspressivlik shu jihati bilan so‘z ma’nosining pragmatik jihati hisoblanadi va u muloqot jarayonida so‘z tanlash, uni qo‘llash va bu orqali badiiy-kommunikativ ta’sir o‘tkazishni ko‘zda tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbek tilshunosligida baho ifodalovchi vositalarni R.Hadyatullayev Z.Ma’rufov, A.Abdullayev, S.Boymirzayeva, G‘.Qambarov, M.Hakimov, M.Madaminova, Z.Tohirovlarining ishlarida pragmatik semalarning hosil bo‘lishi va ularda subyektiv munosabatning yuzaga kelishiga to‘xtalangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusini yoritishda qiyoslash, komponent va kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Badiiy matnda muallif badiiy-kommunikativ ta’sirni mo‘ljallab, zaruriy til vositalarini tanlaydi. She’riy matnda aks ettirilgan olam tasviri ijodkorning individual-mualliflik ongi orqali qayta ishlanib, uning pragmatik bahosini belgilab beradi. Muallif nutqining pragmatik aspekti muallifning maqsadga ijtimoiy baholash munosabatining yetkazilishida mujassam bo‘ladi. Muallif pragmatikasi emotsional-baholovchilik, obrazlilik xususiyatlarini aks ettiradi. Badiiy axborot berish, emotsional baholash orqali o‘z his-tuyg‘ularini namoyon qilish, obrazli fikrlash va badiiy tasvir yordamida badiiy-estetiklikni yuzaga keltirish pragmatik maqsad orqali amalga oshiriladi. Qoraqalpoq shoiri Berdaqning “Bolg‘an yemes” she’ri o‘zbek shoiri Mirtemir tomonidan tarjima qilingan bo‘lib, she’rda qoraqalpoq xalqining o‘z davridagi murakkab hayoti aks ettirilgan. Masalan: *Bylgen yel qaraqalpaq boldy, Qyrylsa da urpaq boldy, Berdimurat Berdaq boldy, Dag‘yn heshkim bilgen yemes (Bo‘lgan qoraqalpoq bo‘ldi, Qirilsa-da urpoq bo‘ldi, Berdimurod Berdaq bo‘ldi, Dog‘in hech kim bilgan emas).*

Baho kategoriyasi tilning turli sath birliklari va vositalari orqali ifodalanadigan baho mazmunini bildiradi. Baho mazmuni qiyos asosida bo‘rttirib ifodalanadi, bahoning estetik funksiyasi yuqori bo‘ladi. So‘z kontekstda o‘zining funksional qo‘llanish o‘rnini o‘zgartirishi bilan atash semasi o‘rnida so‘zlovchining konkret munosabatini bayon qiluvchi ifoda ma’nosi birinchi darajali mavqeni egallaydi, natijada pragmatik tahlilga ehtiyoj seziladi [2]. Demak, pragmatik tahlil obykti sifatida so‘zning pragmatik semasi ahamiyatli hisoblanadi. Konnotativ ma’no o‘xshatish, leksemani ko‘chma ma’noda ishlatish asosida yuzaga keladi. Konnotativ ma’no leksik ma’no ustida turuvchi nutqiy ma’no bo‘lib, turli nutqiy vaziyatlar bilan bog‘liq tarzda anglashiladi. Konnotativ ma’no aks etgan matn murakkab bo‘ladi.

Til egasining belgiga bo‘lgan munosabati, to‘g‘rirog‘i, uning belgi orqali ifodalanayotgan obyektga bo‘lgan munosabati pragmatik ma’no sanaladi, pragmatik ma’noning ko‘pincha leksema mazmuniy mundarijasidagi baho ma’nosi orqali namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi. Pragmatik ma’no esa konnotativ ma’noning bir turi – pragmatik qiymatga, ya’ni subyektiv munosabat, baho, nutqiy vaziyat, muloqot xulqi bilan bog‘liqlik, ta’sir etish samaradorligiga oid ma’no qirralarini o‘zida jamlaydi. “So‘zning

genetik ma’nosi shu so‘zning fonetik tarkibida dastlabki leksik ma’nosidir. Undan yangi-yangi leksik ma’nolar hosil bo‘lishi tabiiy hol hisoblanadi” [3]. Masalan, Berdaqning “Bo‘lgan emas” she’rida “*Qora dumnan qashan keter? Shıraq shalqıp jang’an yemes*” misralarini Mirtemir “*Qora tuman qachon ketar? Chiroq yarq-yarq yongan emas*” deb tarjima qilgan. *Qora* so‘zining denotativ ma’nosi “rang-tusi mavjud ranglarning barchasidan to‘q”, “qozonkuya, ko‘mir tusidagi”, “is, qurum bosgan, qoraygan yoki oqlanmagan, pardozlanmagan”, “qorong‘i; nursiz, ziyosiz”, “biror narsaning uzoqdan yoki qorong‘idan ko‘zga tashlanuvchi aksi, ifodasi; sharpa” semalari jamlanmasidan tarkib topgan. Yuqoridagi ifodada esa “qiyinchilik” va “musibat” semalari asosida qiyoslash natijasida xalqning mashaqqatli, og‘ir hayotini bo‘rttirish va salbiy munosabat natijasida salbiy baho yuzaga kelgan va pragmatik ma’no sifatida ifodalangan. So‘zdagi denotativ ma’no bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish konnotativ ma’noni yuzaga keltirgan.

“Belgi ifodalash baho bildirishda juda sermahsul hisoblanadi. Belgi bildirgan so‘zlar nimaning (predmetning, harakatning) belgisini bildirishidan qat’iy nazar bahoga ishora qiladi. Shuning uchun sintaktik jihatdan aniqlovchi va hol bo‘lib keladigan so‘zlar ijobiy yoki salbiy bahoni yuzaga keltiradi” [4]. Aniqlovchi rang-tus sifatleri bilan ifodalanganda ranglar orqali anglashiladigan ijobiy yoki salbiy baholar bo‘rtib turishini ularni mazmuniy jihatdan matn bilan bog‘liq holda tushunish mumkin. Ayniqsa, *oq, qora, qizil, sariq* kabi. Masalan, *qora* “dard”, “g‘am”, “musibat”, “yomonlik”, “zulm”, “baxtsizlik” kabi ma’nolarni anglatadi. Shuning uchun bunday gaplarni tushunishda har bir xalq o‘z udumlaridan kelib chiqqan holda yo‘l tutadi. Masalan: *Aspandy qara bult basyp, G‘aplette bendeler sasyp* (*Ko‘kni qora bulut bosib, G‘afatda bandalar shoshib*). Bu o‘rinda *qora* so‘zi aniqlovchi vazifasida kelgan. Bu belgi musibat, ocharchilik, yo‘qchilikni bildirganligi uchun ham *qora* bulut xalq boshiga tushgan azob-uqubatni bildirib, unga salbiy baho berilishiga asos vazifasini bajarmoqda. So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatda o‘ziga xos tushunish va anglash mavjud. Qoraqalpoq ongida ham, o‘zbek ongida ham “*qora*” timsoli motam, qiyinchilik, uqubat ma’nosini tiklaydi.

Hayvon otlarini bildiruvchi leksemalarda baholash munosabatining ifodalanishi nutqiy muloqotda keng kuzatiladi. *Cho‘chqa* leksemasi nutqiy qurshovlarda belgi, xususiyat, salbiy munosabat semalariga ega bo‘lib, “go‘sht va yog‘ olish uchun boqiladigan juft tuyoqli, kalta oyoqli, yirik sut emizuvchi uy hayvoni” denotativ semasi bosh ma’no hisoblanadi. *Cho‘chqa* leksemasini ikki sememaga bo‘lib, ularni: a) “kishilarning ochofat, ochko‘zlik xususiyatini”; b) “xalqni talab, ularga jabr qilish xususiyati belgisini ifodalovchi ot” tarzida ta’riflash mumkin. Mazkur metaforik ko‘chim xalqqa jabr qiluvchi, xalq mulkiga ko‘z olaytiruvchi, nafsi buzuq, halokat keltiruvchi, ochlikka duchor qiluvchi, qo‘lidan har qanday yomonlik keladigan, ochofat, har qanday yomonlikdan qaytmaydigan, yaramas nutqiy ma’nolariga ega. Nutqiy vaziyat asosida so‘zlovchining norozilik tuyg‘usini ifodalashi mumkinligini Berdaq “*Hesh o‘aqyt shoshqa-shoshqany, Azyo‘lasyp jarg’an yemes*” (*Hech mahal cho‘chqa cho‘chqani Xanjar tishda yorgan emas*) misralarida to‘liq yoritilgan. Pragmatik ma’no qiyos, ko‘chim natijasida yuzaga keladi, bu kabi nutqiy ma’nolar turli nutqiy vaziyatlar bilan bog‘liq tarzda anglashiladi. Pragmatik ma’no aks etgan matn murakkab bo‘ladi. Unda

qiyos, ko‘chim natijasida yuzaga kelgan ma‘no birdan ortiq subyektiv munosabat ifodalanadi.

Badiiy matnda ijodkor pragmatik maqsadini to‘la yetkazish, kitobxonning diqqat-e‘tiborini jalb qilish, fikrni bo‘rttirish, ularga emotsional ta‘sir qilishda emotsional-baholovchi pragmatik ma‘noga ega so‘z yoki birikmadan foydalanishga ehtiyoj sezadi. Bu jarayonda ko‘chimar muhim vosita sanaladi. Berdaq xalqni talon-taroj qilgan, rizqiga ko‘z olaytirgan, badnafs kimsalarni ko‘p o‘rinda *cho‘chqa* metaforasi bilan qo‘llaydi. Masalan: *Dyzde yekken qao‘yn boldym, Shoshqasыз kyn bolg‘an yemes (Cho‘lda bitgan qovun bo‘ldim, Cho‘chqasiz kun bo‘lgan emas. Yoki Bir jazalmay pəlegimdi, Kəkleу yzip qamegimde, Shoshqa tyyp tyynegimdi, Urqanым jaydyrg‘an yemes (Yozolmay hech palagimni, Uzib-yorib xamagimni, Cho‘chqa yanchib tugunagimni Urqanim yoydirgan emas).*

Inson – tirik organizm, uning ijobiy sifatlari ham, salbiy sifatlari ham ko‘pincha boshqa jonli mavjudotlarga ko‘chiriladi. Bunda madaniy yondashuvlar etalon qilib olinadi. Masalan, *bulbul, lochin, ot, arslon* kabi leksemalar ijobiylik anglatrsa, *bo‘ri, cho‘chqa, tulki* kabi leksemalar salbiy bahoni anglatish uchun xizmat qiladi, hayvon sifatlari shunday sifatlarga ega shaxslarga qiyoslash orqali qo‘llaniladi va baho berish uchun asos bo‘ladi.

Ushbu she‘rda lisoniy vositalar yordamida, masalan, antonimlar asosida yuzaga kelgan afsuslanish, g‘am-musibat, achinish kabi emotsional holatlar millatning o‘sha davrdagi portretini chizish, yashash tarzini oydinlashtirish, ularning xatti-harakatlarini tasvirlashdagi ruhiy holat, ijtimoiy mavqedagi tengsizlik kabi pragmatik ma‘nolar yuzaga chiqqan. Pragmatik ma‘noning antonimlar orqali baho ifodalashi “yaxshi” va “yomon” tushunchalari asosida yuzaga chiqadi, bunda belgi ifodalovchi antonimlar pragmatik baho ifodalashda ancha sermahsuldir. Masalan: *Birazlar ash, birazlar toq, Toq adamның qayg‘ısy joq, Ash adamның uyqısy joq, Aны toqlar bilgen yemes (Qanchalar och, qanchalar to‘q, To‘q odamning qayg‘usi yo‘q, Och sho‘rlikning uyqusi yo‘q, Buni to‘qlar bilgan emas).* Bu gapdagi *och* va *to‘q* antonimlari o‘zaro qiyosan olinganda, antonimik munosabatni ifoda etadi: bu o‘rinda ijobiy yoki salbiy baho emas, balki muayyan belgining darajasini ifodalash maqsadida qo‘llanilgan. Shu so‘zlarning takror holda qo‘llanishi bahoning yanada kuchayishi, darajalanishini yuzaga keltiradi.

Xulosa va takliflar. Har qanday nutqiy jarayon muayyan nutqiy maqsad asosida shakllanadi, badiiy matndagi pragmatik maqsad avvaldan rejalashtirilgan, muallif ongida shakllangan bo‘ladi. Ko‘rib chiqilganidek, Berdaq “Bolg‘an yemes” she‘rida leksemalarni ko‘chma ma‘noda qo‘llash orqali emotsional ta‘sir kuchini ko‘zda tutgan, bu kabi baho maqsadga erishuvni amalga oshirgan. Bu jarayon so‘zning semantik ma‘nosi imkoniyatlaridan pragmatik maqsadda foydalanish tufayli yuzaga keladi. Pragmatik ma‘no badiiy-kommunikativ maqsadga erishish uchun til birliklarining yangi ma‘nolarini yuzaga chiqarishdir, ijodkorning o‘z nutqida baholash so‘zlaridan foydalanishi leksemalarning barchasini muayyan bahoni ifodalashini ko‘rsata olishidadir. So‘zning kontekstdagi ma‘nosi bilan bog‘liq bahoni ifodalashi ko‘pincha pragmatik jihatdan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qarang: Madaminova M. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o‘rni: Filol.fan.b-cha fals. d-ri ...diss.avto-ref. – Andijon, 2022. – B.10-11.
2. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B.40.
3. Mirtojyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – B. 137.
4. Qambarov G‘. Baho munosabati va uning o‘zbek tilida ifodalanishi (shaxslararo munosabat asosida): Filol. fan. nomzodi ...dissertatsiya. – Toshkent, 2008. – B. 54.



KECHIRIM NUTQIY AKTINING MAXSUS MANBALARDA IFODALANISHI



Haydarova Dilafruz,
Navoiy davlat universiteti,
O'zbek tili ixtisosligi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada so'nggi yillarda tilshunoslikda keng tarqalgan "diniy matn" tushunchasi va uning mohiyati, diniy matnlar tadqiqi, kechirim nutqiy akti va uning diniy matnlar doirasida o'rganilishi masalasiga oydinlik kiritilgan. Maqolada o'zbek milliy tili egalarining nutqidagi kechirim nutqiy aktini diniy matnlardan ayricha o'rganib bo'lmamasligi asoslangan. Shuningdek, duo deb ataluvchi diniy matnlar, ularning turlari, mohiyati, pragmatik tarkibi va tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar. Diniy matn, dunyoviy matn, kechirim nutqiy akti, gunoh, kechirim so'rovchi adresant— inson, kechirimni qabul qiluvchi adresat — Alloh, gunohni tan olish; adresant ruhiy holatini ifodalovchi nutq; kechirimning noverbal shakllari, bilvosita aloqa.

Аннотация. В данной статье разъясняется понятие "религиозный текст", получившее широкое распространение в лингвистике в последние годы, и его суть, изучение религиозных текстов, речевой акт извинения и его изучение в рамках религиозных текстов. Статья основана на том факте, что речевой акт извинения в речи носителей узбекского национального языка никаким образом не изучается отдельно от религиозных текстах. Также представлены религиозные тексты, так называемые молитвы, их виды, сущность, прагматический состав и анализ.

Ключевые слова. Религиозный текст, светский текст, речевой акт прощения, грех, адресантом просящим прощения является человек, адресатом принимающим прощение является Бог, признающий грех; речь, выражающая душевное состояние адресата; невербальные формы извинения, не прямое общение.

Annotation. This article explains the concept of "religious text", which has become widespread in linguistics in recent years, and its essence, the study of religious texts, the speech act of apology and its study within the framework of religious texts. The article is based on the fact that the speech act of apology in the speech of speakers of the Uzbek national language is in no way studied separately from religious texts. Also presented are religious texts, so-called prayers, their types, essence, pragmatic composition and analysis.

Key words. Religious text, secular text, speech act of forgiveness, sin, the addressee asking for forgiveness is a person, the addressee receiving forgiveness is God, recognizing the sin; speech expressing the addressee's state of mind; noverbal forms of apology, indirect communication.

Kirish. So'nggi yillarda tilshunoslikda keng tarqalgan "diniy matn" tushunchasi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Bunday har xillik yangi va ayni damda tarixiy o'rganish obyektining murakkabligi va ko'p qirraliligi bilan izohlanadi. Hozirgi vaqtda "diniy matn" deganda diniy mavzudagi matn, din sohasidagi nutqiy aktlar, mavzuiy jihatdan inson e'tiqodiga bog'liq matnlar to'plami va hok. tushuniladi. [21]

Diniy matnlarda insonning Xudo bilan aloqasi; diniy bilimlarni egallash, uzatish kabilar ifodalanadi. Tadqiqotimiz ob'ekti kechirim nutqiy akti ekanligini inobatga olib

aytish mumkinki, o'zbek milliy tili egalarining nutqidagi kechirim nutqiy aktini diniy matnlardan ayricha o'rganib bo'lmaydi. "Muayyan bir millat tilini antropotsentrik jihatdan mukammal o'rganish uchun "til va din"ning o'zaro aloqasi va munosabatini o'rganuvchi teolingvistika (grek. theos – Xudo va lot. lingua – til) yo'nalishi muhim o'rin tutadi".[26]

Adabiyotlar tahlili

Dunyoviy matnlarda kechirim nutqiy aktlarining asosini "ayb, xato, noto'g'ri ish" tushunchalari tashkil etsa, diniy matnlarda "gunoh" tushunchasiga asoslanadi. Shunga ko'ra diniy va dunyoviy matnlardagi kechirim nutqiy aktlari mundarijasi "samoviy", "ichki" va "tashqi", "dunyoviy" semalarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, E.V.Artamonova kechirimning diniy va dunyoviy shakllarini turli janrlar sifatida ajratib ko'rsatadi: "Diniy kechirim so'rash Xudoning amrlarini buzish, inson tabiatining gunohkorligi bilan bog'liq yuksak axloqiy va manaviy muammolarni ko'rib chiqadi. Dunyoviy kechirim so'rash insonning jamiyat bilan oqilona, o'zaro manfaatli munosabatlarini aks ettiradi. Bunda muloqot hamkorlarining e'tibori o'zaro munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'ladi.[22]

Diniy kechirim nutqiy aktida kechirim omili gunohdir. Gunoh – (fors – jinoyat, ayb; asli shu ma'nodagi arab. „junoh“ so'zidan olingan) diniy axloqiy tushuncha bo'lib, diniy aqidalarga xilof ish yoki xatti-harakatni bildiradi. Gunoh tushunchasi qadimda turli ta'qiqlarni buzuvchi, axloqsiz odamning harakati ma'nosida qo'llangan.[28]

Diniy matnda qo'llanilgan nutqiy aktning umumiy kommunikativ maqsadi: Xudoning hukmidan qo'rqish va kechirim so'rashdir. Mazkur nutqiy akt murakkab illokutsiyaga ega. So'zlovchi qilgan gunohi uchun tavba qilganidan keyin ruhiy holati o'zgaradi: ma'naviy kamolotga bir qadam qo'ygandek, vijdoni engillashgandek his etadi. E'tiborlisi shundaki, so'zlovchi adresat bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotga kirishmaydi. Adresat tasavvuriy bo'lib, u bilan qilingan nutqiy muloqot ichki va tashqi nutq shaklida namoyon bo'ladi. So'zlovchi o'z gunohini e'tirof etar ekan, ya'ni tan olar ekan uning kechirilishiga ham ishonadi va Xudoning rahm-shafqatiga umid qiladi. Ya'ni so'ralgan kechirim uchun javob talab qilinmaydi.

Shu nuqtayi nazardan ayrim tadqiqotchilar kechirimga asoslangan diniy murojaatni uzr so'rashning maxsus turi deb baholashadi (E.V. Artamonova; A. Yu. Chernыsheva). Bunday kechirimning pragmatik tarkibini kechirim so'rovchi adresant— inson; kechirimni qabul qiluvchi adresat — Alloh; gunohni tan olish; adresant ruhiy holatini ifodalovchi nutq (samimiy tuyg'ular, pushaymonlik); kechirim so'rashning noverbal shakllari: tiz cho'kish, sajda qilish; aybini tan olishning o'z vaqtidaligi; adresat bilan bevosita aloqa yo'qligini e'tirof etish (xayolan kechirim so'rash); boshqa inson uchun kechirim so'rash; kechirim so'rashning sababi: Xudoning hukmidan qo'rqish; vaziyat ishtirokchilarining hissiy holati o'zgarishi (adresant vijdon azobidan yengillashadi, adresat adresantga nisbatan "nimadir yaxshilik" taqdim etishiga ishonch) .

Material va metodlar. Ma'lumki, O'zbekistonda islom dini eng ko'p tarqalgan va millatimiz egalarining aksariyati e'tiqod qiladigan din sanaladi. Shu nuqtayi nazardan biz mazkur o'rinda musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi Qur'oni Karim ("Qur'oni karim - o'zbekcha ma'nolari tarjimasini"[13]), atoqli islom olimi Imom Ismoil al-Buxoriyning 4 jildli „Al-Jome' As-Sahih“ kitobi tarjima matnlari va ayrim badiiy

asarlardan olingan diniy kechirim nutqiy aklarga murojaat qilishni maqsad qildik. Tadqiqot ob’ekti kechirim nutqiy akti bo’lganligini inobatga olib mazkur manbalarda kechirim nutqiy aktini ifodalovchi til birliklari aniqlandi va statistik tahlil qilindi.

Natijalar. Ma’lumki, Qur’on 114 sura, 6666 oyatdan iborat bo’lib, mazkur manba imkon darajasida tahlil qilinganda mazmuniy mundarijasida kechirim semasi mavjud bo’lgan quyidagi til birliklari qo’llanilganligi kuzatildi:

Kechirmoq fe’li 25 marta; (“Albatta, Alloh O’ziga shirk keltirilishini kechirmas. Undan boshqani, kimdan xohlasa, kechirur. (Niso surasi, 116-oyat);

Afv qilmoq // etmoq fe’li 32 marta (“Albatta, Alloh afv qiluvchidir, mag’firatlidir”. (Haj surasi, 60-oyat);

Istig’for aytmoq (yoki keltirmoq) (arabcha- gunohni kechirishini, afv etishni so’rash) - Xudodan gunohni kechirishini so’rash, qilgan gunohlariga tavba izhor etib, “Astag’firulloh!!”deyish)[9] fe’li 21 marta. (“Bas, Unga istig’for ayting, so’ngra Unga tavba qiling”. (Hud surasi, 61-oyat);

Tavba, tavba qilmoq (arabcha-aybiga iqror bo’lish, gunohlari uchun kechirim so’rab yolvorish) fe’li – 94 marta; (“Gunoh ishlarni qilganlar undan keyin tavba qilsalar va iymon keltirsalar, albatta, Robbing undan so’ng mag’firatlidir, rahmlidir.” (A’rof surasi, 153-oyat). Shuningdek, Qur’oni Karimda “Tavba” deb nomlangan 129 oyatdan iborat sura ham mavjud bo’lib, shu birgina suraning o’zida tavba so’zi 15 marta qo’llanilgan.

Mag’firat, mag’firatli, mag’firat qilmoq (arabcha- "عَفَرَ" fe’li ma’nosida bo’lib, "kechirish", "yashirish" va "berkitish" ma’nolarini bildiradi [29]) so’zlari 196 marta (“Aniqki, bandalarimdan bir guruhi: «Robbimiz, biz iymon keltirdik. Bizni mag’firat qilgin. Bizga rahm qilgin. Sen rahm qiluvchilarning yaxshisidan», degan edilar” (Nur surasi 109-oyat);

Tazarru, tazarru qilmoq (uzr bilan yalinish, yolvorish) - 7 marta (“Qaysi bir shahar-qishloqqa rasul yuborsak, albatta, shoyad tazarru qilsalar deb, uning ahlini zararlar va musibatlar ila tutganmiz”.(A’rof surasi, 94-oyat)

Ma’lumki, Imom Ismoil al-Buxoriyning „Al-Jome’ As-Sahih“ kitobi Islomda ishonchliligi jihatidan Qurondan keyingi ikkinchi manba bo’lib hisoblanadi. Mazkur kitobning 4 jildi statistik tahlil qilinganda quyidagi ko’rsatkichlarga ega bo’ldik:

Kechirmoq fe’li 129 marta: (“Sizlardan qaysiningiz qavmga zararu boshqalarga manfaat yetkazuvchi amaldor bo’lib qolsangiz, ansorlarning yaxshi ishlarini qabul qilib, yomon ishlarini kechiringizlar!» — deb marhamat qildilar (Imom Ismoil al-Buxoriy. “Al-jome as-sahih” (2-jild).

Afv qilmoq // etmoq fe’li 176 marta (“Guvohlik beramanki, Olloh taolo ul kishini afv etib, gunohlarini kechirdi”. (Imom Ismoil al-Buxoriy. “Al-jome as-sahih” (2-jild).

Mag’firat, mag’firatli, mag’firat qilmoq fe’li 211 marta. («Yo parvardigorim, gunohlarimni, jaholatimni, me’yordan ortiqcha qilgan barcha ishlarimni va o’zing mendan yaxshiroq xabardor bo’lgan qilmishlarimni mag’firat qilg’aysan!” (Imom Ismoil al-Buxoriy. “Al-jome as-sahih” (4-jild).

Istig’for, istig’for aytmoq so’zlari 43 marta (Abu Hurayra rivoyat qiladilar: «Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: «Rabbimiz taborak va taolo har kecha tunning uchdan bir qismi qolganda osmonning eng quyi qavatiga tushib: «Kimki duo o’qib menga iltijo qilsa, duosini mustajob qilgayman, kimki mendan tilak tilasa, tilagini bajo

etgayman, kimki menga istig‘for aytsa, kechirgayman!» — deydi», — dedilar». (Imom Ismoil al-Buxoriy. "Al-jome as-sahih" (4-jild).

Tavba, tavba qilmoq so‘zlari: 155 marta («Men Janob Rasulullohga: «Yo Rasulalloh, mol-mulkimni Olloh taolo va uning Rasuli yo‘lida sadaqa qilish birlan(qilgan gunohlarimga) tavba qilmoqchiman», — dedim. (Imom Ismoil al-Buxoriy. "Al-jome as-sahih" (2-jild).

Tazarru, tazarru qilmoq so‘zlari 4 marta ("Abu Abdulloh: «Banda jon chiqar mahalda yokim jon chiqish arafasida astoydil tavba-tazarru’ qilib «Lo iloha illallohu» desa, Olloh taolo gunohlarini kechirgaydir», — deydilar. (Imom Ismoil al-Buxoriy. "Al-jome as-sahih" (4-jild).

Shuningdek, nutqimizda duo deb ataluvchi diniy matn ham mavjudki, mazkur matnlar Xudoga iltijo qilib, o‘zi yoki boshqalar uchun uzoq umr, baxt, najot tilash va yomonlikni qaytarish, kechirim so‘rash kabilarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunda duo qiluvchi ma‘lum bir xatti-harakatni ado etadi (mas, musulmonlarda ikki qo‘lini yuziga tortib fotiha qiladi). Duolar ikkiga bo‘linadi:

a) "ma'sura", ya'ni matni Qur'on, hadis yoki boshqa diniy manbalarda aniq belgilab qo'yilgan duolar;

b) "muhtaraa", ya'ni duo matnini o'zi to'qib, erkin holatda iltijo qilish.[12]

Mazkur tasnifdagi "ma'sura", ya'ni matni Qur'on, hadis yoki boshqa diniy manbalarda aniq belgilab qo'yilgan duolarda uchraydigan kechirim nutqiy aktlari; to'g'risida yuqorida so'z yuritilgani bois, biz mazkur "muhtaraa", ya'ni duo matni so'zlovchi tomonidan to'qilib, erkin holatda iltijo qilinadigan duolar to'g'risida to'xtalmoqchimiz.

Duolar so'zlovchining Xudoga murojaati bo'lib, uning mohiyatida Xudoga hamdu sanolar aytish, iltijo qilib marhamatini o'tinib so'rash, shukrona keltirish kabi turli mazmundagi murojaatlar yotadi.[19]

Islom dinida duo odatda og'zaki shakldagi (xoh ichki, xoh tashqi) matnni nazarda tutadi va ko'pincha muayyan harakatlar bilan birga keladi. Masalan, tiz cho'kib sajda qilish, ikki kaftini yuziga surib fotiha qilish va va hok. Jahon tilshunosligida duolar va ularning lingvistik xususiyatlari ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida duolar maishiy nutqiy janr sifatida sotsiolingvistik aspektida F.M.Xasanova tomonidan tadqiq etilgan.[18]

Olimaning fikricha, duo nutqiy janri ikkinchi bir mustaqil nutqiy janr tarkibida kelib, ushbu janrda duo nutqiy akti sifatida vazifa bajaradi.[18]

Tadqiqotlarda duolar amalga oshirilish usuliga ko'ra (ichki va tashqi duolar); adresant miqdoriga ko'ra (shaxsiy va jamoaviy duolar); mazmuniga ko'ra (maqtov//hamd, shukrona//minnatdorlik, iltimos, narrativ va bosh.); aytilish makoniga ko'ra (uy va masjid duolari); aytilish paytiga ko'ra (tonggi, uyqudan avvalgi duolar) kabi turlarga bo'linadi.[27] Mazkur tasnifga asoslanib kechirim mazmunidagi duolarni mazmuniga ko'ra iltimos, amalga oshirilish usuliga ko'ra ichki va tashqi shaklda; adresant miqdoriga ko'ra shaxsiy va jamoaviy kechirim duolariga ajratish mumkin.

Ko'p hollarda so'zlovchi o'zi qilgan gunoh va xatolarga iqror bo'lib, kechirim so'raganda ichki duodan foydalanadi. O.A.Proxvatilova xayolan "so'zsiz qalban duo" qilishni ichki duo deb tavsiflaydi.[27] Ichki duolar ovoz chiqarib aytilmaydi va Xudo

bilan doimiy aloqani izlayotgan subektning ichki holatini ko'rsatadi. So'zlovchi mazkur holatda yakka o'zi va Xudo bilan muloqotga kirishgani uchun bunday duolar shaxsiy duolar sanaladi. Bunday duolarda adresat sanalgan Xudoga murojaat shakli ham (Xudojon, Allohim) o'ziga xos bo'ladi. Masalan: — E, Xudojon, ne qilayki oldingda gunohkorman, o'zing barini bilib-ko'rib turguvchi zotsan, shu safar men ojiz bandangni kechir, sharmanda-yu sharmisor qilma. Tavba qildim, tavba... (Erkin Malik. "Shaytonvachcha")

Jamovaviy duolar odatda shu jamoadagi yoshi katta kishilar, din mutaxassislari tomonidan ko'pchilik nomidan aytiladi. Bunday duolar ko'p hollarda qoliplashgan shaklda bo'ladi. Masalan: Adashgan bandalaring orasida do'stlarimiz ham bor, gunohlarini kechirib, ularga O'zing hidoyat ber. Do'stlarimiz orasida arazlashganlar bor, ularning dillarini O'zing kechirimlilik nuri bilan yorit. Do'stlarimizning ishlarida omadlarini berib, martabalarini baland ayta. (Tohir Malik. "Odamiylik mulki")

Ba'zan so'zlovchi adresatni (Xudoni) duo tarkibidan tushirib qoldiradi. Biroq so'zlovchi va tinglovchining duo adresati to'g'risidagi umumiy bilimlari orqali uni oson tushunish mumkin: — Oshal jannatlarining soyasiga arzimas bu dunyoga mahliyo qolgan bo'lsak, yo'qotdik deb achingan, topdik deb quvongan bo'lsak, o'zi kechirsin, — deb duo qildilar. (Murod Mansur "Judolik diyori")

Berilgan mikromatnda o'zi kechirsin gapi Xudoning o'zi kechirsin mazmunini ifodalaydi. Shuningdek, diniy nuqtayi nazarda Xudodan kechirim so'rashda til egalari nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik vositalardan ham foydalanadi. Masalan: So'fiylik yo'lini tutuvchi solik bu holni ko'rgach, shayxi uchun ko'ngli buzilib oh urdi. Keyin ibodatga berilib, kecha-kunduz tavba yoshlarini to'ka boshladi. Iztirob bilan ko'p-ko'p duolar qildi va nihoyat Alloh uning duosini qabul etdi... Tong shamoli mushk hid taratib esa boshladi. Gunohi uchun Xudoga tavba qilib, sajdadan uzoq vaqt bosh ko'tarmadi. Ko'zlari hijolat yoshlarini oshkor etib, ohu nadomat alangasi avjda edi. (Tohir Malik. "Odamiylik mulki")

Mazkur mikromatnda kechirim nafaqat duo orqali, balki tavba yoshlarini to'kish, sajdadan uzoq vaqt bosh ko'tarmaslik, hijolat yoshlarini to'kish kabi noverbal vositalar orqali yuzaga chiqqan. Umuman, Islom dinida 5 vaqt namoz o'qish va qilgan ishlariga tavba qilish musulmonlar uchun farz qilingan. Shuningdek, e'tiqodiga qarshi ish qilganda "Astag'firullo" - (arabcha Xudo, o'zing saqlagin, Xudo, o'zing kechir [11]) deb aytish va tasbeh o'giringanda ham mazkur kalomni aytish sunnat qilib belgilangan.[12]

Shuningdek, so'zlovchi ba'zan insonlar o'rtasidagi oddiy muloqot chog'ida ham Xudodan kechirim so'rashi mumkin. Bunda so'zlovchi Xudoning oldida o'zini oqlash, qilayotgan ishi noto'g'riligini, diniy e'tiqodiga qarshi ekanligini bildirish maqsadida kechirim so'raydi. Masalan: Xudo kechirsin, "falanchini yukotish kerak" desam, shotirlar o'ldirib, kallasini uzib kelishdan ham toyishmaydi. (A.Qorjovov. "Qil ustidagi taqdir")

Yoki quyida berilgan matnda adresat oddiy inson bo'lsa-da, so'zlovchining kommunikativ maqsadi bilvosita Xudodan kechirim so'rash: Ota-onangni tinch qo'y. Ular bilan keyinroq, baxtli oila qurganimizdan so'ng gaplashamiz. -Baxtli oila qurishingizga ishonasizmi? - Gunohimizni Yaratgan kechiradi, Lobar. Agar rozi bo'lsang, shu hafta to'yimizni qilamiz. Mulla topib kelaman, nikoh o'qiydi. Bilasanmi,

bir vaqtlar mening ham oilam bor edi. Nachora, taqdirimiz birinchi turmush bilan baxtli bo‘lib qolishni ikkimizgayam nasib etmagan ekan. (A.Qorjovov. “Qil ustidagi taqdir”)

Berilgan matnda so‘zlovchi adresatga (Lobarga) Gunohimizni Yaratgan kechiradi, deb oldindan bashorat qilayotgan bo‘lsa-da, o‘zining qilayotgan ishi gunohligini biladi va shu tarzda Xudodan kechirim so‘raydi. Bu so‘zlovchi va tinglovchining o‘zaro umumiy bilish fondi (ya’ni Xudoning mehribon va rahmli ekanligiga ishonch) orqali anglashiladi.

Muhokama. Ko‘rinadiki, diniy matnlar kechirim nutqiy aktini chuqur o‘rganish uchun maxsus matn sifatida ahamiyatlidir. Yuqoridagi ko‘rsatkichlar buning yaqqol dalilidir. Musulmonlarning muqaddas kitobi Qur’oni Karim va Imom Ismoil al-Buxoriyning „Al-Jome’ As-Sahih“ kitobi tahlil qilinganda mazmuniy mundarijasida kechirim semasi mavjud bo‘lgan kechirmoq, afv qilmoq // etmoq, istig‘for aytmoq//keltirmoq, tavba//tavba qilmoq, mag‘firat//mag‘firatli//mag‘firat qilmoq, tazarru//tazarru qilmoq kabi til birliklari qo‘llanilganligi kuzatildi. Shuningdek, mazkur til birliklari statistik tahlil qilinganda, Qur’onda mazmuniy mundarijasida kechirim semasi mavjud bo‘lgan til birliklari umumiy 375 marta; „Al-Jome’ As-Sahih“ hadislar to‘plamida 718 marta qo‘llanilganligini kuzatdik.

Xulosa. Ko‘rinadiki diniy matnlar kechirim nutqiy aktining ifodalanishida muhim va maxsus manba sifatida xizmat qiladi. Yuqoridagi ko‘rsatkichlar ham buning yaqqol dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bondarko N.A. (2011) Interaction of oral and written traditions in German meditative prayers of the XIII-XIV centuries [Electronic resource] / N.A. Bondarko//Acta linguistica Petropolitana. Proceedings of the Institute of Linguistic Research. - No. 1, - URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vzaimodeystviye-ustnoy-i-pismennoy-traditsiy-v-nemetskix-meditativnyx-molitvax-xiii-xiv-vekov>.

2. Bugaeva I. V. Theolinguistics: theology + linguistics? Language and method: Russian language in linguistic studies of the XXI century. - V. 2: Linguistic analysis on the verge of a methodological breakdown / ed. D. Shumska, K. Ozga. — Krakow: Wydawnictwo Uniwersytetu Jagiellońskiego. 2015. - P. 293–300.

3. Calhoun. S. Dictionary of social sciences. USA, 2002. – p. 287.

4. Dementiev. V.V. On the typology of speech genres in connection with the spheres of speech communication and without such connection // Communicative Research. 2019, V.6. No.3. -S. 633.

5. Dementiev. V.V. Theories of speech genres. Moscow: Znak, 2010. -p. 594.

6. Gadomsky A. K. On the genres of the religious language in Russian and Polish theolinguistics. Style, 2009. - No. 8. - S. 107–118.

7. Itskovich T. V. Genre system of religious style. – Moscow, 2021.


8. Karasik V. I. Language circle: personality, concepts, discourse. - Volgograd: Change, 2002. 477 p.

9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. 241-b


10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild. 631-b

11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. -Toshkent, 2022. 1-jild. 162 b.

12. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. -Toshkent: « O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. - B.408.
13. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimasi. Qur’oni Karim: o‘zbekcha ma’nolari tarjimasi: Turkiya diyonat ishlari boshqarmasi. 1-nashr. Istanbul, 2017.
14. Sultonova Sh.M. Muqaddas matnlarda zamon kategoriyasining lingvomadaniy xususiyatlari. Filol.f.b.f.d-ri.diss. - Farg‘ona, 2019
15. Uluqov N.M. O‘zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi. Filol.f.n. diss., - Toshkent, 1997.
16. Umarxo‘jaev M.E. Diniy atamalar va iboralar izohli lug‘ati, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, -Toshkent, 2016.
17. Wojtak M. Manifestation of standardization in statements of religious style (on the material of liturgical prayer) Text: stereotype and creativity. - Perm: Perm State University,1998. - S. 214-230.
18. Xasanova F.M. Duo nutqiy janrining funktsional xususiyatlari haqida ayrim mulohazalar. Pedagogical sciences and teaching methods. 2024, part 30. 39-41.
19. Xasanova F.M. Maishiy nutqiy janrlarni sotsiolingvistik aspektida tadqiq etishning dolzarb masalalari. The Multidisciplinary Journal of Science and Technology. VOLUME-4, ISSUE-3. B.494-510.
20. Amonturdieva Sh.R. O‘zbek diniy matnining funktsional-stilistik tadqiqi. Filologiya f.b.f.d-ri diss.avtoref. - Samarqand, 2020.
21. Анисимова Е.Е. Об аспектах изучения религиозного дискурса в отечественной лингвистике. Вестник МГЛУ. Гуманитарные науки. Вып. 9 (851), 2021 -С.71-84.
22. Артамонова Е.В. Жанры русской речи: исповедь, просьба о прощении, принесение извинения: Дис... канд. филол. наук. - Казань: Казанский гос. ун-т им. В.И. Ульянова-Ленина, 2008. с. 94.
23. Бобырева Е.В. Религиозный дискурс: ценности, жанры, стратегии (на материале православного вероучения). -Волгоград: Перемена, 2007.
24. Galieva M.R. Dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tafakkurning aks etishi. Filol.f.d-ri diss.avtoref. -Farg‘ona, 2019. B.6.
25. Maxmaraimova Sh. O‘zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha kontseptual lug‘ati. – Toshkent: Cho‘lpon, 2018 – 99 b.
26. Постовалова В. И.Наука о языке в свете идеала цельного знания. В поисках интегральных парадигм. -Москва: URSS, 2015.
27. Прохвятилова О.А. Православная проповедь и молитва как феномен современной звучащей речи. -Волгоград, 1994. -С.154.
28. [Gunoh - Vikipediya \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Gunoh) [Афу ва мағфират \(muslim.uz\)](http://muslim.uz)



O‘ZBEK BOTANIK ATAMALARI (FITONIMLARI) O‘ZBEK TILI LUG‘AVIY TARKIBINING BOYISH MEXANIZMI SIFATIDA



Majidova Hulkar,
NavDU doktoranti

Annotatsiya. Til aloqa vositasi sifatida doimiy izlanish va dinamik rivojlanishga muhtoj bo‘lgan global tuzilmalardan biridir. Til xalq madaniyati va milliy ma‘naviyatning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Doimiy ravishda olg‘a harakatlanish natijasida yangi nomlar paydo bo‘lishiga, jamiyat tarixi, muloqot, fikrlash va o‘rganish jarayoni bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan yangi so‘zlarning yaratilishiga olib keladigan yangi rivojlanish va tushunchalar paydo bo‘ladi. Biz bu ishimizda botanika atamashunosligini o‘zbek tilining lug‘aviy tarkibini boyitish mexanizmi sifatida ko‘rib chiqishga harakat qildik.

Kalit so‘zlar: til, lug‘at, taraqqiyot, tilshunoslik, fitonimlar, botanika terminologiyasi, so‘z yasalishi, sinonimik munosabatlar.

Аннотация. Язык представляет собой одну из глобальных структур, нуждающуюся в постоянном исследовании и динамическом развитии как средства общения. Язык способствует зарождению народной культуры и национального духа. В результате постоянного движения вперёд появляются новые разработки, концепции, обуславливающие новые названия, создание новых слов, которые взаимосвязаны с историей общества, процессом общения, мышлением и обучением. В данной работе мы попытались рассмотреть ботаническую терминологию как механизм обогащения лексического состава узбекского языка.

Ключевые слова: язык, лексика, развитие, лингвистика, фитонимы, ботаническая терминология, словообразование, синонимические отношения.

Annotation. Language is one of the global structures that needs constant research and dynamic development as a means of communication. The language contributes to the emergence of folk culture and national spirit. As a result of the constant movement forward, new developments, concepts are emerging that determine new names, the creation of new words that are interconnected with the history of society, the process of communication, thinking and learning. In this paper, we tried to consider botanical terminology as a mechanism for enriching the lexical composition of the Uzbek language.

Keywords: language, vocabulary, development, linguistics, phytonyms, botanical terminology, word formation, synonymic relations.

Введение. Язык представляет собой одну из глобальных структур, нуждающуюся в постоянном исследовании и динамическом развитии как средства общения. Через язык предопределяются сложные процессы становления и совершенствования, происхождение нации и история этапов её развития, формирование национального менталитета, психологии и нравственных ценностей. Язык способствует зарождению народной культуры и национального духа.

Фитоним создает новые слова. В терминологической трактовке фитоним (с греч. *phyton* – растение, *опута* – имя, название) – название растения.

Фитонимы функционируют в лексико-семантической системе языка, где они выполняют не только номинативную, но и прагматическую, оценочную, экспрессивную и прочие функции, употребляются носителями языка наряду с любыми другими словами.

Фитонимы, как языковая система, издревне находились в развитии и совершенствовании и этот процесс активизируется и ныне, поскольку фитонимическая система языка означает явление, которое не меняется быстро, но является стабильным.

Языки, которые претерпели трансформацию, расширили рамки своего потенциала и достигли сформированности, отличаясь своей собственной системой фитонимов, дающей названия новым предметам, новым явлениям, новым суждениям и представлениям в жизни, реализующимся в определённом порядке.

Субъекты, использующие фитонимы, перенимают опыт в хозяйственной практике в процессе общения, обмениваются достижениями в экономике и культуре, отчего межкультурное общение становится более интенсивным и плодотворным.

Литературный обзор. Фитонимы (гр. *phyton* – растение + *опута* – имя) – это специальные названия, употребляемые для обозначения растений. Например, названия огурцов (*Гулноз, Зилол, Наврўз, Омад*), клевера (*Хива, Вахи*), картофеля (*Ақраб, Умид, Диёра* и др.), сортов винограда (*Фалаба, Бахтиёрий* и мн. др.)

Как известно, в мире фиксируется свыше 500 000 разновидностей растений. В частности, в Республике Узбекистан насчитывается более 4148 видов растительного мира, из них 1023 рода и 138 семейств. В основном, большинство из них наделены собственным названием. Поэтому фитонимам отведено, как и другим видам бионимов, видное место в лексической системе узбекского языка.

В лингвистике целую систему под названием «фитонимы» представляют названия деревьев, полевых, корнеплодных, луковых, фруктово-овощных и многих иных культур. Бесспорен процесс их использования в реальной жизни, в развитии культуры истории, социально-политических взглядов народа.

Фитонимом *арпа* (ячмень) обозначается одна из древнейших злаковых культур, служившая основным кормом для лошадей. В узбекском языке название *бугдой* (пшеница) вошло в обиход как обозначение важной продовольственной культуры.

По данным ботанических исследований, значительную часть фитонимов узбекского языка составляют следующие виды растений:

- названия деревьев (*тут дарахти, қорақарагай, эман* и др.);

- названия кустарников (*карганак* и др.);
- названия разных растений (*андиз, гоз, джилгин* и др.);
- название трав и травянистых растений (сортов клевера *Тошкент-1, Еттисув, Хива*);
- название бахчевых и других культур, например, сортов огурцов (*Гулноз, Наврўз, Омад* и т.д.);
- название цветов и кустарников (*Келинтили (Невестин язык), Маргилон – 330*).

В узбекском языке бахчевые передаются также словом *полиз*, а все культурные растения, которые выращиваются на огороде, называются как *сабзавот экинлари*. По состоянию на 2005 г. насчитывалось свыше 120 видов подобных растений. По данным Национальной энциклопедии Узбекистана, наиболее распространены 90 видов, которые относятся к 10 семействам. Анализ термина *сабзавот* в этимологическом аспекте показал, что он произошёл от слова *сабз* персидско-таджикского языка и означает зелень. Как считает Б. Бафоев, изучавший лексику произведений Навои, термин *сабз* образован от этимона *сабз* посредством словообразующего суффикса *-и*.

По мнению учёного, образующая основа *сабз* должна быть членимой, а термины *сабз* и *полиз* характеризоваться единым способом образования благодаря своей семантической близости. Рассмотрение термина *сабзавот* даёт основание относить его к форме множественного числа существительного *сабза*, образованного суффиксом *-(в)от*, вследствие чего обрело значение продукции бахчевого посева.

Рассматривая этимологию слова *полиз* в предложении Навои: *Бақтим эрса полизе кўрдимки тўла қовун ва бодринг ва хиёр эрди* (К счастью, увидел бахчу, полную дынь, огурцов и хиёр), Б.Бафоев³² приходит к выводу, что это слово также заимствовано из персидского языка. Оно там употребляется в значении *полиз – полез* и имеет следующие значения:

- 1) *бог, бўстон, гулистон* (цветущий сад, цветник);
- 2) поле для посева дыни, арбуза, огурцов.

Как утверждает Б. Бафоев, первое значение этого слова обусловлено расширением семантической границы слова, что подтверждают структура и семантика исследуемого слова. Термин *полиз*, по мнению ученого, употребляется и в современных иранских языках: в таджикском (*полиз*), персидском (*пализ*), афганском (*палез*).

³² Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент:Фан, 1983. – 1576.

По мнению С. Е. Малова³³, слово *полиз* употребляется в языке уйгурском в форме *пелес*, *пелис*. Показано, что это слово имеет производную основу и образовано присоединением суффикса *-из* к основе *пол-пушта*, т.е. первичное значение слова *полиз* – площадь, засеянная бахчевыми.

В современном узбекском языке термины *сабзавот* и *полиз* представлены как синонимы, хотя семантическое поле слова *сабзавот* шире, чем у слова *полиз*. *Сабзавот* нередко используется и в целях обозначить место выращивания бахчевых и в целях определить название их продукции.

Поскольку синонимы называют одно и то же явление, но по-разному, между ними устанавливается не семантическое тождество, а лишь семантическая близость. Если трансформация текста приводит к очень незначительным смысловым потерям, которыми можно пренебречь, то трансформированный и исходный тексты можно считать семантически тождественными, т.е. вариантами одной и той же единицы.

Например, следующие пары словосочетаний фитонимов в узбекском языке, являясь синонимами, имеют сходные, т.е. общие значения:

1) *Гуруч курмаксиз бўлмайди* (досл. Рис не бывает без камушек) // *Гул тикансиз бўлмайди* (досл. Не бывает розы без шипов) // *Гулзор алафсиз бўлмас* (досл. Нету сада без сорняка) (общий смысл: Семья не без уroda или И на солнце есть пятна);

2) *Бир гул билан баҳор бўлмайди* (досл. Один цветок весны не делает) // *Бир гул билан бог бўлмас* (досл. Один цветок не образует сад) // *Бир тариқдан бутца бўлмас* (досл. Одним пшеном кашу не сварить) (русский аналог: Одна ласточка весны не делает);

3) *Хашаки отни емга ўргатсанг, тўрвани тагини тешади* (досл. Если лошадь на сене научится есть овес, то он порвёт мешок) // *Қамишни бўйи ушласанг, қўлингни кесади* (досл. Если некрепко держать тростник, он поцарапает твою руку).

Как показывают примеры, одно однозначное понятие имеет два вербальных выражения, и оно реализуется с помощью двух или более предложений – словосочетаний с фитонимом полипредикативного характера.

Анализы и результаты. В узбекском языке имеется значительное число названий растений, в которых содержатся названия местности, этнических групп населения, птиц и животных, по ассоциации с которыми связаны названия трав, кустарников, растений. Анализ растений показал, что их названия различаются в русском и узбекском языках не только потому, что такого слова либо конструкции вообще нет в другом языке, но и потому, что одинаковые слова и конструкции языки используют по-разному.

³³ Малов С.Е. Уйгурский язык. – М. – Л., 1954.

Процесс словообразования ботанических терминов в русском и узбекском языках отличается многовековой историей, и их формирование осуществлялось неодинаково в разные исторические эпохи.

Однако в узбекском языке в неизменном виде сохранились, помимо зерновых культур злаков, названия тех растений, которые употреблялись как корм для домашних животных или в лечебных целях:

- *янтоқ* – верблюжья колючка, от общетюркского *jandaq*, слово сформировано путём добавления аффикса *-daq* к глаголу *jan* – «гореть». Возможно, растение использовалось в процессе обжарки гончарных изделий, что объясняет наличие глагола *гореть*;

- *йўнғичқа* – клевер. По всей вероятности, использовалось при гадании. Слово связано с глаголом *jōr* – «предсказывать, раскрывать сны, приметы». Растение имеет другое, более позднее название – *беда*, заимствованное из персидского языка. Оно активно употребляется в лексике узбекского языка как синоним более ранней формы *йўнғичқа*;

- *болтирзон* – от общетюркского *baltyryan*, наименование различных растений из семейства зонтичных, главным образом, съедобных. В узбекском языке используется в форме *ойболтирзон* для обозначения «дягиля», связано с компонентом *baltyr* («свежий», «молодой», «младший»). Возможно, название связано с соком или смолой, которые производят из данного растения;

- *андиз* – девясил от общетюркского *andiz*, самая ранняя форма, отмеченная Махмудом Кашгари³⁴, это, вероятно, происходит от компонента *an-* в значении растение, используемое в качестве лекарства для людей и животных.

В узбекском языке недостаточно широко представлены названия неплодоносных деревьев. Видимо, причиной служит их более скромное значение по сравнению с плодоносными деревьями в узбекской культуре:

- *жўка* – липа, вероятно, первоначальное значение *jōke* – «лыко», которое получают из липы;

- *арча* – можжевельник зарафшанский, ёлка, туя, *arĉa* от глагола *ary* – «становиться чистым, очищаться» + афф. *-ĉa*, что дает в результате *aryĉa* > *arĉa*. Возможно, название обусловлено на тему, что можжевельник употреблялся в бытовых условиях как средство для очищения;

- *қаин* – берёза, от общетюркского *qajiq* «береза»;

- *қарагай* – сосна;

- *итжумрут* – крушина, от общетюркского *it* – «пес» + *šumurt* > *jumurt* «черемуха». Возможно, мотивом для обозначения названия явилась схожесть плодов черёмухи и крушины. Однако такие свойства крушина, как колючесть,

³⁴ Абдурахмонов Ф., Муталибов С. “Девону луғатит турк” Индекс. Ўзб.Ф.А. нашриёти 1967, 512-бет.

горький вкус плодов, объясняют внесение компонента *it-*, означающего «собачий, несъедобный, колючий»;

- *қорақат* – смородина, от тюркского *qaraqat*. Лексема по составу состоит из *qara* «чёрный» + «ягода», вероятно, название обусловлено тёмной окраской плодов растения;

- *ёнзоқ* – грецкий орех, от тюркского *jayaq*. Видимо, название служит производным от *jaу* «масло» + афф. *-aq*;

- *дўлана* – боярышник, вероятно, лексема *dolayana* является монгольского происхождения;

- *булдургун* – ежевика, от тюркского *böldirgen*. Этимологически *böldirgen* восходит к глаголу *bōdir-* + афф. *gen*, значение которого не установлено;

- *пиёз* – лук, от иранского происхождения *pijaz*, хотя известен фитоним *soyan* тюркского происхождения, его параллель – *pijaz*, вносит дополнительное значение «свежий»;

- *бехи* – айва, от таджикского *bihī* «айва». До заимствования формы *бехи* в староузбекском языке использовался фитоним *ajva*, этимология не ясна;

- *ўрик* – абрикос, *ōrik* от общетюркского *ürük* со значением «нечто, наполненное воздухом в виде шара, шарика», что вполне подходит к общему виду всех косточковых. Это доказывает тот факт, что в староузбекском языке форма *ürük* использовалась как опорный компонент для обозначения других видов костяных плодов, в таких сочетаниях, как *qara ürük* «слива», *saryu ürük* «абрикос», *tuluу ürük* «персик». Затем слова *qara ürük* и *tuluу ürük* стали передаваться фитонимами персидского происхождения *қароли* «слива», *шафтоли* «персик» и др.

- *гилос* – вишня, черешня от персидского *gilas* «черешня». Известна пратюркская форма *sije*, которая применяется в узбекском языке лишь в значении определённых дикорастущих видов горной вишни (вишни тяньшанской, красноплодной и др.). В определённых диалектах узбекского языка употребляется фитоним *olvoli* «вишня», который произошёл от заимствованного из персидского языка;

- *нок* – груша, от таджик. *nok* «груша». Самая ранняя тюркская форма - *amrut*, которая сохранилась в таком смысле во многих тюркских языках, в том числе в ряде узбекских диалектов в форме *almurut*, *olmurut* или *murut*. Наряду с этим употребляется фитоним *нашвати*, который означает некоторые горные сорта груши;

- *анжир* – инжир, от таджик. *ançir* «инжир»;

- *баргизуб* – подорожник от таджик. *барг* (лист) + *дзуб* (от глаг. *дзаба* «таять, становится жидким»). Название обусловлено применением в измельчённом виде листьев растения в лекарственных целях;

- *бангидевона* – дурман, от таджик. *банги* (наркоман) + *девона* (сумасшедший), название обусловлено сильными галлюцинациями и отравлением людей и скота, вызванными содержащимися в растении токсичными веществами;

- *гандамия* – термопсис, от таджик. *ганда* (плохой, гнилой) + *мия* (общее название для растений семейства бобовых), обусловлено отравлением людей и скота, вызванными содержащимися в растении токсичными веществами;

- *гармдори* – острый перец, от таджик. *гарм* (горячий) + *дору* (лекарство), название обусловлено острым вкусом и использованием растения в лечебных целях;

- *гулхайри* – альтая, от таджик. *гул* (цветок) + арабское *хайр* (благо). Название обусловлено благотворными свойствами растения.

Заключение. Ботанические фитонимы, являясь одним из ключевых кодов в узбекской культуре, употребляются при отображении разных сфер жизни человека. Являясь устойчивыми благодаря грамматическим и семантическим моделям, их сочетание предусматривает определённые видоизменения в структурно-семантическом и функциональном планах. Компонент лексики в словах-фитонимах ботанических названий выделяется тем, что через фитонимы передает культурно-исторический, социально-общественный, профессиональный и бытовой опыт носителей языка. Как показал проведенный анализ формирования фитонимической лексики узбекского языка, фитонимы ботанических названий играют значительную роль в обогащении лексического состава узбекского языка.

Литература:

- 1.Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент:Фан, 1983. – 157б.
- 2.Малов С.Е. Уйгурский язык. – М. – Л., 1954.
- 3.Абдурахмонов Ф., Муталлибов С. “Девону луғатит турк” Индекс. Ўзб.Ф.А. нашриёти 1967, 512-бет.
- 4.Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати (Словарь узбекской ономастической терминологии) Наманган, 2006.
- 5.Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. Москва: Наука, 1988.
- 6.Ўзбекистон миллий энциклопедияси (Национальная энциклопедия Узбекистана). Тошкент, 2005.
- 7.Мажидова Х.И. - «Словообразовательный словарь названий растений русского-узбекского языков».Навоий, 2024. 80 стр. ISBN 978-9910-654-24-4
- 8.Мажидова Х.И. - «Словообразовательные особенности сложных названий растений» // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2024-7-son, Namangan. 372-374 ст.

9. Бабакулов И.Т., Мажидова Х.И. К изучению ботанических терминов и их словообразования // *Научный журнал “Ученый XXI века”*. 2022. №9(90). 24-26 ст. ISSN 2410-3586. Россия.

10. С.Ф.Акобиров «Язык и терминология», Ташкент, Фан, 1968г



INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MODALLIK KATEGORIYASINING LEKSIKO-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI



Maftuna Mustafayeva

*Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar
instituti, katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Hozirgi zamon tilshunosligida modallik kategoriyasini o‘rganish hali ham eng ko‘p muhokama qilinadigan masalalardan biri bo‘lib, ko‘p hollarda tilshunoslar tomonidan alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ko‘plab ilmiy izlanishlarga qaramay, modallik kategoriyasining chegaralari va uni ifodalash vositalarini aniqlash masalasi hali hanuz to‘liq hal qilinmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Har qanday grammatik kategoriyalarning gapda grammatik imkoniyatlari mavjud. Xuddi shunday modal so‘zlarning ham grammatik imkoniyatlari va ularning gapdagi o‘rni haqida o‘rganilishi ham eng muhim omil sanaladi. Tadqiqot davomida modal so‘zlarning grammatik imkoniyatlarini o‘rganmaslik ularning ishlatilish usuli va yondashuvlarini bilmaslikka sabab bo‘ladi. Modallik toifasi va uning tillarda qanday ifodalanganligi haqida yetarli ilmiy asoslarning mavjud emasligi, ushbu maqolani yozish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi tilshunoslikning leksik-grammatik kategoriyasi sifatida keng tarqalgan, lekin bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan “modallik” tushunchasining mohiyatini tushuntirib berish; modallik va uning turlari bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning fikrlarini tahlil qilish; ushbu lingvistik kategoriyani ingliz va o‘zbek tillarida ifodalash vositalarini ko‘rib chiqish; va uning mazmunini ifodalovchi vositalarning ma‘no va jilolarining xilma-xilligini chuqur tahlil qilishdan iborat.

Kalit so‘zlar: modallik, subyektiv munosabatlar, modal so‘zlar, gapning kirish elementlari, modal so‘zlarning lug‘aviy tarkibi, modal so‘zlarning tasnifi.

Annotation. The study of the category of modality in modern linguistics is still one of the most discussed issues, and in many cases it is given special attention by linguists. Despite numerous scientific studies, we can see that the issue of determining the boundaries of the category of modality and the means of its expression has not yet been fully resolved. Any grammatical category has grammatical possibilities in a sentence. Similarly, the study of the grammatical possibilities of modal words and their role in a sentence is also considered the most important factor. Failure to study the grammatical possibilities of modal words during research will lead to ignorance of their methods and approaches to use. The lack of sufficient scientific basis for the category of modality and how it is expressed in languages serves as the basis for writing this article. The main purpose of this article is to explain the essence of the widespread, but contradictory concept of "modality" as a lexical-grammatical category of linguistics; to analyze the opinions of local and foreign scholars on modality and its types; to consider the means of expressing this linguistic category in English and Uzbek; and to conduct an in-depth analysis of the diversity of meanings and glosses of the means of expressing its content.

Keywords: Modality, subjective relations, modal words, introductory elements of the sentence, lexical composition of modal words, classification of modal words.

KIRISH

XIX asrda mahalliy va xorijiy tilshunoslar diqqat e'tiborini tortgan ma'lum bir toifadagi so'zlar hozirda modal deb ataladi. Zamonaviy ingliz tilida olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida o'ziga xos ma'no va xarakterli xususiyatlarni yo'qotib, yangi umumiy ma'no va yangi xarakterli xususiyatga ega bo'lgan va modal vazifani bajara boshlagan ayrim so'zlar mavjud. Boshqa sinflardan ajralib turadigan bu so'zlarni birlashtirgan umumiy ma'no yo taxmin nuqtai nazaridan yoki aniqlik nuqtai nazaridan yoritilib beriladi. Yangi vazifaning bajarilishi bu so'zlarning modal so'zlar sinfiga ajratilishiga olib keldi.

Modallik tushunchasi asosan leksik-grammatik sohani ifodalaydi, ammo kengroq ma'noda u semantik sohani, ya'ni so'zning ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan barcha jihatlarni o'z ichiga oladi. Modallik – bu harakatning voqelik bilan bog'lanishini yoki so'zlovchining harakatga bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi ma'no kategoriyasidir. So'zlovchi nafaqat ma'lumotni tinglovchiga yetkazadi, balki o'z bahosini ham ifodalaydi. Modallik kategoriyasi tilning turli darajalarida (morfologiya, sintaksis, intonatsiya, matn) o'z aksini topadigan lingvistik universalliklardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Modallik kategoriyasiga oid nazariy ma'lumotlar xorijiy tilshunos olimlar Sh.Balli, E.A.Belyaeva, N.Ya.Vinogradov, L.S.Ermolaeva, E.A.Zvereva, F.R.Palmera, I.B.Xlebnikova, shuningdek, o'zbek tilshunos olimlar N.Mahmudov, A.Nurmonov, M.Irisqulov, A.Baskakov, A.Abduazizov, X.Ne'matov, O.Bozorov, Sh.Rahmatullayev, B.Mengliyev, R.Sayfullayeva, N.Turniyozov, Z.Xolmanovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida, darslik va o'quv qo'llanmalarida uchratish mumkin.

“Lingvistik terminlar lug'atida modal so'z o'zining aniq leksik ma'nosini yo'qotgan va modallikni tasvirlash vositasi sifatida ishlatiladigan so'z” sifatida ta'riflanadi³⁵. M.A. Belyayeva o'zining Ingliz tili grammatikasi kitobida modal so'zlarga bergan ta'rifiga ko'ra, modal so'zlar gapda aytilgan fikrga nutq egasining subyektiv munosabatini ifodalovchi so'zlardir³⁶. Modal so'zlar o'zgarishsiz so'zlar bo'lib, nutq egasining aytilgan fikrga subyektiv munosabatini ifodalaydi. Modal so'zlarning shakli bo'yicha yagona tashqi belgisi rivojlanmagan. Ammo ikki boshqa belgi — semantik va sintaktik — aniq ko'rsatilgan bo'lib, bu ko'plab lingvistlarni modal so'zlarni mustaqil so'z turkumi sifatida ko'rishga majbur qiladi. Modal so'zlarning semantik belgisidir, ularning fikrning haqiqatga to'g'riligi, taxminiyligi yoki istalganligi nuqtai nazaridan subyektiv munosabatni ifodalovchi ma'nosi.

Modal so'zlar ma'no jihatdan nominativ vazifani bajaradigan boshqa leksik qismlardan ancha farq qiladi; ammo ma'no mustaqilligi nuqtai nazaridan ular gapning funksional qismlari emas, balki leksik qismlariga kiradi. Modallarning sintaktik roli gapning kirish elementini yoki kamroq uchraydigan bo'lak so'zni ifodalashdan iborat. Modallar tasdiqlash va inkor qilish, ya'ni “ha” va “yo'q” kabi gap-so'z vazifasini ham bajarishi mumkin.

³⁵ Словарь лингвистических терминов. –М., 1969. 475 с.

³⁶ Беяева Е.И. ФСП модальности в английском и русском языках. - Воронеж, 1985.- 180 с.

Professor L.S. Barxudarovning ta’kidlashicha, gapda modal soʻzlar har doim kirish elementi sifatida qoʻllaniladi. Shuningdek, modal soʻzlarni butun gapdagi faktning ehtimolligi, mumkinligi, boshqa voqealar yoki faktlar bilan aloqasi kabi xususiyatlari bilan tavsiflovchi soʻzlar deb ham ta’riflaydi³⁷. Buning ustiga, L.S. Barxudarov, gapda kirish elementi sifatida ishlaydigan har bir soʻzning modal soʻzlar turkumiga kirmasligini ta’kidlaydi. Modallar nutqning alohida qismlari boʻlib, boshqa gap boʻlaklari, qoʻshma gaplar, infinitiv konstruktsiyalar va boshqa elementlar ham kirish elementi sifatida ishlashi mumkin. Modal soʻzlar nutq boʻlagi sifatida faqat gapda har doim kirish elementi vazifasini bajaradigan soʻzlarni anglatadi. Ushbu soʻzlar oʻzgaruvchan emas va boshqa soʻzlar bilan chegaralangan moslashuvchanlikka ega boʻlishi bilan ajralib turadi³⁸.

NATIJALAR

Modal soʻzlar, maʼnolari jihatidan, voqelik faktlariga nisbatan bildirgan subʼektiv munosabatiga qarab quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Bayonotni ifodalovchi soʻzlar;
2. Bayonot mazmuniga uning maqsadga mosligi yoki nomaqbulligini baholovchi soʻzlar.

Zamonaviy ingliz tilidagi modal soʻzlarning kelib chiqish masalasi asosiy ahamiyatga ega va shuning uchun ham ular tilshunoslikda katta qiziqish uygʻotadi. “*maybe, perhaps, possibly, probably, apparently, evidently, obviously, manifestly, no doubt, surely, of course, certainly*” kabi modal soʻz va iboralar uzoq rivojlanish jarayonida nutqning muhim qismlarining tubidan paydo boʻlgan.

Akademik V.V. Vinogradov modallik kategoriyasini barcha til tizimlarida turli shakllarda amal qiladigan asosiy va markaziy kategoriyalardan biri deb hisoblagan. Olim “voqelikka nisbatan emotsional munosabat shakllari va bayonotning voqelikka boʻlgan munosabatini modal baholash oʻrtasida aniq farqni belgilash zarurligini” ta’kidlagan³⁹, bu esa nutq hodisalari ikki soha oʻrtasida chambarchas bogʻlanishini koʻrsatadi. U, shuningdek, emotsional va ekspressiv xarakterdagi soʻz va iboralarni modal maʼnolarni ifodalovchi vositalar sifatida qabul qilib, modallik tushunchasini sezilarli darajada kengaytirdi.

Chet ellik olimlar ingliz tilidagi modallikning quyidagi turlarini ajratadilar:

1. Epistemik modallik – mavjud faktlarga asoslanib, bayonotlarning ehtimoli yoki mumkinligi. Ushbu modallik semantikasida maʼruzachining maʼlumotlarning ishonchliligi va ularga boʻlgan munosabati haqida bilimi aks etadi.
2. Deontik modallik – qonun yoki axloqiy tamoyillar nuqtai nazaridan imkoniyat, zarurat yoki ruxsatni ifodalaydi.
3. Dinamik modallik – aniq obʼektiv sharoitlar asosida imkoniyat yoki zaruratni bildiradi.

³⁷ Бархударов Л.С. Штелинг Д.А. Грамматика английского языка. Изд-е 4-е, испр. - М.: Высшая школа, 1978. - 423 с.

³⁸ Бархударов Л.С. Структура простого предложения в современном английском языке. - М.: Высшая школа, 1966. - 200 с.

³⁹ Виноградов В. В. *Исследования по русской грамматике. Избранные труды.* М.: Наука, 1975. 559 с

4. Maqbul modallik – so'zlovchining xohish-istaklari asosida imkoniyat yoki zaruratni ko'rsatadi.

5. Teologik modallik – maqsadga erishish nuqtai nazaridan biror narsaning zarurligi yoki mumkinligini ifodalaydi⁴⁰.

Modallik kategoriyasini aniqlashdagi o'xshashlik va uning turlari bo'yicha yuqorida keltirilgan tadqiqotchilar o'rtasidagi farq modallikni ifodalash vositalarini tanlashda ham o'z aksini topadi. Tilshunoslar modal fe'llarni subyektning harakatga bo'lgan munosabatini ifodalovchi asosiy vosita sifatida ko'radilar; fe'lning mayl shakllari gapning voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalash uchun ishlatiladi, modal so'zlar esa so'zlovchining gap predmetiga bo'lgan munosabatini ifodalovchi asosiy vosita hisoblanadi⁴¹.

F. R. Palmer o'z asarlarida zamonaviy ingliz tilida modallikni ifodalovchi vositalarni (fe'l shakllari, modal so'zlar, epistemik fe'llar) tavsiflaydi⁴². V. Z. Panfilov modallikning lingvistik kategoriyasini modallik va hukmning mantiqiy tahlili bilan bog'lab, modal ma'nolarni ikki turga ajratadi: obyektiv modallik va subyektiv modallik⁴³. Obyektiv modallik ma'lum bir vaziyatda tasvirlangan obyektiv (mumkin, amaldagi, zarur) aloqalarning xususiyatini ifodalaydi, bu vaziyat esa kognitiv harakatning yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi. Subyektiv modallik esa, so'zlovchining gapning mazmunini uning ishonchliligi, ehtimolligi, ehtimolsizligi va boshqalar nuqtai nazaridan baholashini bildiradi.

Modal so'zlar so'zlovchining gapga subyektiv munosabatini ifodalaydi. Ular aniq yoki ehtimoliy holatni, shuningdek, subyektiv bahoni ko'rsatishi mumkin. Ingliz tilida *certainly, of course, surely, indeed* so'zlari aniqlikni, *perhaps, maybe, probably, possibly* esa noaniqlik va imkoniyatni ifodalaydi; *fortunately, unfortunately, luckily, unluckily* so'zlari esa so'zlovchining ma'lum bir harakatni xohlagan yoki xohlamaganini bildiradi. Modal so'zlar gapning bevosita a'zo hisoblanmaydi, chunki ular gapdagi vaziyatni baholaydi va shuning uchun gapdan tashqarida turadi:

Perhaps, the will come later. - Ehtimol, ular keyinroq kelishadi.

Matnda modal so'zlar kommunikativ ahamiyatga ega bo'lib, gapga subyektiv modallikning turli nuanslarini qo'shadi: so'zlovchi tinglovchiga ma'lumot taqdim etishdan tashqari, o'zining aytilganlarga va suhbatdoshga nisbatan munosabatini ham bildiradi. Modal so'zlar o'z ichiga olgan gaplar hissiy jihatdan to'ldirilgan bo'lib, ajablanish, quvonch, qo'rquv, g'azab, noaniqlik kabi his-tuyg'ularni aks ettiradi. Quyidagi misollarga qaraymiz:

Perhaps, they are wrong. - Ehtimol, ular adashishayotgandir.

Unfortunately, the weather was bad. – Afsuski, ob-havo yomon edi.

⁴⁰ Fintel K. von. 2006. *Modality and Language* [Электронный ресурс] // *Encyclopedia of philosophy – second edition* / Donald M. Borchert (ed.) Detroit: MacMillan Reference USA. URL: <http://mit.edu/fintel/fintel-2006-modality.pdf> (data obrasheniya: 12.10.2013).

⁴¹ Ермолаева Л. С. Типология системы наклонения в современных германских языках // *Вопросы языкознания*. 1977. № 4. С. 27-35.

⁴² Palmer F. R. *Modality and the English Modals*. L.: Longman, 1979. 196 p.

⁴³ Панфилов В. З. Категория модальности и ее роль в конструировании предложения и суждения // *Вопросы языкознания*. 1977. № 4. С. 37-48.

Ingliz tilida ish-harakat predmeti va harakat o‘rtasidagi modal ma’noni ifodalovchi asosiy vosita modal fe’llardir. Modal ma’no, sintaktik birlik bo‘lgan modal fe’lning lug‘aviy ma’nosi orqali ifodalanganligi sababli, bu leksik-sintaktik usulga kiradi. Modal fe’llarning leksik ma’nosining xos xususiyati shundaki, ular modallikning turli shakllarini (zaruriyat, imkoniyat, afzallik, tavsiya va hokazolarni) ifodalaydi.

Demak, modal fe’llar ish-harakatning o‘zini emas, balki gapda modal fe’l predikat vazifasini bajarib, harakatga nisbatan munosabatni ifodalaydi. *Can (could), may (might), must, ought to, shall (should), will (would), need, have to, va dare* kabi modal fe’llar zarurat, imkoniyat, tavsiya, taxmin, ehtiyoj va boshqa turli shakldagi zaruriyatlarni yoki uning yo‘qligini ifodalaydi.

MUHOKAMA

Modal fe’llar o‘zining asosiy vazifasini bajarib, harakat sub’ektining harakatga bo‘lgan modal munosabatini, ya’ni harakatning zarurligini, mumkinligini yoki istagini ifodalaydi; har biri o‘zining asosiy ma’nosiga ega bo‘lib, shu ma’noning turli nuanslari asoslanadi. Modal fe’llarning ikkinchi darajali vazifasi esa so‘zlovchining butun gapga bo‘lgan modal munosabatini ifodalashdan iborat.

Modal so‘zlarning o‘zbek tilidagi grammatik imkoniyatlari va xususiyatlari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, ingliz tilidan farqli o‘laroq, o‘zbek tilida modal so‘zlar bo‘yicha qat’iy nazariyalar keltirilgan. Boshqa tarafdin ya’ni til o‘rganuvchilar uchun keltirilgan ma’lumotlar esa ingliz tilidagiga o‘xshab xuddi nazariyalarga o‘xshab qat’iy tarzda keltirilgan.

M.Irisqulov modallik haqida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan: “Modallik mayl sintaktik kategoriya vositasida ifoda etilib, tasdiq bilan inkor orasidagi turli munosabatlar mumkinlik, gumonlik, reja, istak, shubha va hokazoni o‘z ichiga oladi. Bu kategoriyaning pastki va yuqori chegaralari aniq: bular *ha* va *yo‘q* so‘zlaridir”⁴⁴.

Z.Xolmanovanning yozishicha, modal so‘zlar ma’no jihatdan 7 ta turga bo‘linadi, shuningdek, modal so‘zlar dialoglarda so‘z-gap vazifasida (- ha); kirish so‘z vazifasida kelishi haqida ham ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Aynan kirish so‘z vazifasida kelsa turli so‘z turkumlari asosida shakllanganligi haqida fikrlar keltirib o‘tgan. Shu bilan bir qatorda gap grammatik kategoriyasiga urg‘u berib, gap modallikka ko‘ra yoki voqelikka munosabatiga ko‘ra tasdiq va inkor mazmunida bo‘ladi deb ham ta’kidlagan⁴⁵.

Demak, modal so‘zlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, modallikni ifodalovchi *lozim, mumkin, shart, zarur* leksemalar gapda fe’llarga birikib, gap oxirida kelishi ingliz tilidagi fe’llari bilan birikib keladigan modal yordamchi fe’llariga o‘xshatish mumkin. Eng qiziq jihati *I must work hard* ingliz tilidagi keltirilgan gapni *Men qattiq ishlashim kerak* deya tarjima qilinishi *kerak* modallikni ifodalovchi leksemaning kesim *ishlashim* (I shaxs birlik) bilan birikib tarjima qilinishiga e’tibor qaratish zarur. Ushbu gap misolida mazkur gaplarning grammatik imkoniyatlarini chamalaydigan bo‘lsak, ingliz tilida *must work* va o‘zbek tilidagi *ishlashim kerak* ham birgalikda kesim vazifasini bajaryapti hamda fe’l so‘z turkumidagi gapga bog‘lanishini kuzatish mumkin. Bundan tashqari gapdagi o‘rni haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, yordamchi vazifasida keluvchi modallar fe’ldan oldin

⁴⁴ Irisqulov.M.T. Tilshunoslikka kirish (ikkinchi nashr). Toshkent. Yangi asr avlodi 2009. B. 131

⁴⁵ Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent. B.143-144

ifodalanadi, lekin o‘zbek tilida esa buning aksi, oxirida fe’ldan keyin qo‘llanadi. Bu faqat bir jihatdan o‘xshashlik.

Grammatik jihatdan yana bir o‘xshashlikni tahlil qilish jarayonida uchratdik, xususan, *certainly* – *albatta* tarzida tarjima qilinadi. Bundan kelib chiqadiki, mazkur holatda dialoglarda tasdiqni ifodalash uchun ushbu modal so‘zlar so‘z-gap vazifasida ifodalanadi.

XULOSA

Tilshunoslikda tillarda o‘rganiladigan grammatik kategoriyalar butunlay o‘zgarib ketmaydi, balki vaqt o‘tib, uning tuzilishi, ko‘rinishi o‘zgarishi, lekseamalar qo‘shilishi yoki olib tashlanishi mumkin, lekin umumiy maqsad va ildiz bitta g‘oya sari yetaklaydi. Umuman olganda har ikki tilda ham modal so‘zlar bir xil vazifada keladi, ya’ni gapdan ajralgan holda unga qo‘shimcha ma’no yuklaydigan bir vosita sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Словарь лингвистических терминов. –М., 1969. 475 с.
2. Беляева Е.И. ФСП модальности в английском и русском языках. - Воронеж, 1985.-180 с.
3. Бархударов Л.С. Штелинг Д.А. Грамматика английского языка. Изд-е 4-е, испр. М.: Высшая школа, 1978. - 423 с.
4. Бархударов Л.С. Структура простого предложения в современном английском языке. - М.: Высшая школа, 1966. - 200 с.
5. Виноградов В. В. *Исследования по русской грамматике. Избранные труды.* М.: Наука, 1975. 559 с.
6. Fintel K. von. 2006. *Modality and Language [Электронный ресурс] // Encyclopedia of philosophy – second edition / Donald M. Borchert (ed.) Detroit: MacMillan Reference USA. URL: <http://mit.edu/fintel/fintel-2006-modality.pdf> (дата обращения: 12.10.2013).*
7. Ермолаева Л. С. *Типология системы наклонения в современных германских языках // Вопросы языкознания. 1977. № 4. С. 27-35.*
8. Palmer F. R. *Modality and the English Modals.* L.: Longman, 1979. 196 p.
9. Панфилов В. З. *Категория модальности и ее роль в конструировании предложения и суждения // Вопросы языкознания. 1977. № 4. С. 37-48.*
10. Irisqulov.M.T. *Tilshunoslikka kirish (ikkinchi nashr).* Toshkent. Yangi asr avlodi 2009. B. 131.
11. Xolmanova Z. *Tilshunosllika kirish.* Toshkent. B.143-144.



BADIIY MATNDA MILLIY KONNOTATSIYANING AKS ETTIRILISHI



Yandashova Dilniso,
NavDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Zamonaviy tilshunoslikning asosiy sohalaridan biri hisoblangan psixolingvistikaga e'tibor qaratilib, lingvokulturologiyaning asosiy birliklaridan biri bo'lgan konsept Abdulla Oripov ijodi misolida tahlil qilingan. Maqolada madaniy konseptning bir nechta turlari va ularning misralardagi kognitiv xususiyatlari ochib berilgan. Maqolada umr, vaqt, dunyo, xiyonat kabi madaniy konseptlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Madaniy konsept, psixolingvistika, madaniyat, qadriyat.

Аннотация: С акцентом на психолингвистику, которая считается одной из основных отраслей современной лингвистики, концепция, являющаяся одной из основных единиц лингвокультурологии, была проанализирована на примере творчества Абдуллы Арипова. В статье раскрыты несколько типов культурных концепций и их познавательные особенности в стихах. В статье анализируются такие культурные понятия, как жизнь, время, мир, предательство.

Ключевые слова: культурная концепция, психолингвистика, культура, ценность.

Annotation: With a focus on Psycholinguistics, considered one of the main areas of modern linguistics, analyzed on the example of the work of concept Abdullah Oripov, one of the main units of linguoculturology. The article reveals several types of cultural concept and their cognitive characteristics in the stanzas. The article analyzes cultural concepts such as life, time, world, betrayal.

Keywords: cultural concept, psycholinguistics, culture, value

Kirish. Konsept – bevosita insonning yashirin his-tuyg'ulari, ichki kechinmalarining so'zdagi ifodasi hisoblanadi. Psixolingvistikaning markazida inson turadi. Konsept bu insonlarning ma'lum tushunchalarni individual anglash jarayoni desak, psixolingvistika ham bevosita inson va uning ongi bilan uzviy bog'liq bo'lgan fan hisoblanadi. Konsept tushunchasiga psixolingvistik yondashuv esa, insonlarning ongi va tafakkuri orqali his qilgan, anglab yetgan tushunchalarning inson hayotidagi ahamiyatini psixolingvistik jihatdan tahlil qilish kabi jihatlar yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili. Konsept va uning ahamiyati, tilshunoslikdagi ma'nosi bo'yicha jahon tilshunosligida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, madaniy konsept bu mental birlik bo'lib, ongdagi mental va psixik resurslar birliklarini ifodalashga xizmat qiladi [1]. Y.S.Stepanov konseptning uch tarkibiy qatlamini ajratadi: 1.Asosiy, bosh belgi; 2.Qo'shimcha, yoki bir necha qo'shimcha, "passiv" belgilar; 3.Tashqi, lisoniy shaklda aks ettiriladigan, odatda, umuman e'tiborga olinmaydigan ichki shakl [2]. O'zbek tilshunosligida ham ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ko'plab darslik va qo'llanmalar, maqolalar e'lon qilingan. "Kognitiv tilshunoslik,

sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, pragmatika va lingvokulturologiya antroposentrik paradigmaga asoslangan eng muhim sohalar hisoblanadi”[3]. D.Xudoyberganova ham madaniy konsept va uning lingvokulturologiyadagi o‘rniga alohida to‘xtalib: “Madaniy konsept bu mavhum tushunchalarning nomlari. Masalan: Vatan, sevgi, urush, tinchlik” deya ta‘rif beradi[4]. Lingvokulturologiya va uning asosiy tushunchasidan biri hisoblangan konsept haqidagi eng qimmatli ma‘lumotlar Sh.Usmanovning “Lingvokulturologiya” nomli darsligida keltirilgan. Konsept lingvokulturologiyada eng faol qo‘llaniluvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlari ifodalaydi [5]. Konsept bu so‘zga nisbatan kengroq talqin etiladigan birlik hisoblanadi. O‘.Q.Yusupov konsept tushunchasini aysbergga o‘xshatib shunday yozadi: “Agar konsept aysberg bo‘lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir”[6]. Bundan tashqari, T.Mardiyev fikriga ko‘ra: “Konseptlar, odatda, inson turmush tarzi bilan bog‘liq ma‘lum tushunchalarni maxsus qoliplarga solish, lisoniy va madaniy mavjudligini belgilashga qaratiladi. Ma‘lum bir konsept har bir lingvomadaniyatda o‘ziga xos shakllanishga ega sanaladi. Konseptlar, o‘z navbatida, so‘z ma‘nolariga nisbatan keng talqin etiladigan, murakkab tipologik qurilmaga ega ”[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyosiy–tarixiy tahlil, komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ta‘kidlaganimizdek, bugungi kunga kelib madaniy konsept va uning misralarda ifodalanishi she‘rning ta‘sir doirasining keng ekanligini anglatadi. Konsept bu bevosita madaniyat va tilning kesishuvida paydo bo‘lgan birlik hisoblanadi. V.A.Maslova til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni quyidagicha tasniflaydi:

Til madaniyat uzvi deb ayta olamiz, chunki:

1. Ota-bobolarimizdan qolgan madaniyatning ajralmas qismi;
2. Madaniyatni o‘zlashtirishda asosiy vosita;
3. Til madaniy tarkibdagi barcha hodisalarning eng muhimidir [8].

Haqiqatdan ham til va madaniyat bir-biriga uzviy bog‘langan tushunchalar hisoblanadi. Madaniy konsept esa shu ikki tushunchaning negizida vujudga kelgan. Xususan, ma‘lum bir misradagi aynan madaniy konseptni psixolingvistik tomondan tahlil qilishda, misrada ifodalangan ma‘noning psixologik xususiyatlari va psixologik vaziyatlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday misralar ham borki, inson ichki kechinma va tuyg‘ularini psixologik jihatdan yondashganda uni so‘zda tushuntirish nihoyatda murakkab holat, biroq barcha ma‘no bir so‘z bilan ifodalangandek, butun bir kitobga ham sig‘maydigandek ko‘ringan dardlar bir necha satrlik she‘rda mujassam go‘yo. Aslini olganda haqiqiy iste‘dod egasi, chinakam shoirning ijodi haqiqatdan shunday bo‘lsa kerak. Shu o‘rinda Abdulla Oripovning “Nay” she‘ri orqali insonning ichki dard-u hasratlari mevali daraxt misolida ifodalangan [9]. She‘r tahlili davomida shoirning nay tasvirini ochib beruvchi kognitiv va psixologik yondashuvlari ketma-ketlikda oydinlashib boradi:

*Yashnardi u adirda durkun,
Epkinlarga ochgan cha quchoq.
Keldilar–u odamlar bir kun
Tanasiga sanchdilar pichoq.*

Albatta, bu o‘rinda shoir “*mevali daraxt*” misolida, *durkun, epkin (shamol, suv va shu kabilarning oqimi, shu oqimdagi ta‘siri, urinishi)* [10], *quchoq, pichoq* kabi so‘zlar orqali nayning holatini insonlarga xos bo‘lgan tuyg‘ular orqali ifodalagan. Nay ya‘ni insonlar foydalanuvchi musiqiy asbob misolida, uning hozirgi foydalanish holatiga kelgunicha ro‘y beradigan ketma-ketlikdagi ishlarni shoir insonlarning hayotiy holatlari, ichki iztiroblariga yonma-yon tarzda, hamohang ifodalaydi.

*Ayirdilar avval ko‘zidan,
So‘ng bag‘rini oldilar o‘yib.
Yetmaganday, bu ham bo‘g‘zidan
Pufladilar lablarin qo‘yib.*

Nay tasvirida qora bo‘yoqlardan ko‘p foydalanilgan, ya‘ni salbiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi ifodalarga keng o‘rin berilgan. Yuqoridagi misrada ko‘z inson uchun eng muhim tana a‘zosi hisoblanadi, bu a‘zoning o‘yib olinishi qanchalik qo‘rqinchli, biroq shoir nayning chalinish jarayonini shunday tasvirlaydi. Nayning barmoq bilan bosiladigan, tovush chiqadigan 6 ta teshigi mavjud. Ularni ochishni shoir go‘yoki *bag‘rini o‘yib olish* deya tasvirlaydi. Keyingi misrada salbiy bo‘yoqdorlik oshib boradi, ya‘ni *bo‘g‘ziga labini qo‘yib puflash holati* bu misraning ta‘sirchanligini oshirgan.

*Ko‘rmagandi bunchalar xo‘rlik
Hatto ayoq tilganda yuzin.
Alamiga chidolmay sho‘rlik,
Nola tortib yubordi uzun.*

Bilamizki, nay musiqiy asbobini ko‘rganda bir tomondan xursandchilik, to‘y, bazmlar ko‘z oldimizga kelsa, yana bir tomondan uning ovozini eshitganimizda g‘am, dard kabi tuyg‘ular o‘tadi ko‘nglimizdan. Biroq shoir bu she‘rida nay orqali insonlarga xos qayg‘ularni tasvirlagan. *Hatto ayoq tilganda yuzin misrasida ayoq* salbiy bo‘yoqdorlik kuchli bo‘lgan so‘z. Demak, she‘rda deopoetonimlar ham nayning qora chiziqclarini aniq tavsiflab kelgan.

*Odamlar-chi to‘plandi shu on,
Faryodiga qilolmay toqat.
Bir qamishni yig‘latib chunon,
So‘ng o‘zlari qildilar rohat.*

Faryod, toqat, qamish, yig‘latib, rohat so‘zlari misrada bir-birini ma‘naviy jihatdan to‘ldirib, she‘rning ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Konsept lingvokulturologiyada eng asosiy va faol birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida xalqlarning madaniyatini va ularning o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Madaniy konseptni inson ichki his tuyg‘ularining, milliy qadriyat va urf-odatlarining so‘z va so‘z birikmalaridagi talqini deb tushunish ham mumkin. Aslini olganda, madaniy konseptlar har bir shoirning ichki kechinmalari asosida yuzaga keladi. Masalan: ayrim shoirlar dunyoni o‘tkinchi vaqtga, hech narsaga arzimaydigan bir matoga o‘xshatishgan. Abdulla Oripov ijodida esa dunyo bu bir bozorga o‘xshatiladi. Bunday yondashuv shoir ijodi yetakchi o‘rinlarda turishini yana bir isboti deyish mumkin:

*Bozorga o‘xshaydi asli bu dunyo
Bozorga o‘xshaydi bunda ham ma‘ni
Ikkisi ichra ham ko‘r madim also*

Molim yomon degan biror kimsani.

Darhaqiqat, inson tug‘ilar ekan, butun umri davomida o‘z ehtiyojlari yo‘lida gohida haq, gohi nohaq yo‘llardan o‘tadi. Shoir aytganidek, bu dunyoga kelgan har bir inson go‘yoki savdogar, hammasi o‘z foydasi yo‘lida molini faqat maqtaydi, kamchilik esa yo‘q go‘yoki. Madaniy konsept bu zamonaviy tushunchalardan bo‘lganligi sababli, har bir misrani birma–bir tahlil qilsak, shoir har bitta tushunchani izohlar ekan uning yangicha tomonlarini, ma’nolarini ham anglatib o‘tadi. Shoir she’rlarida hech kutilmagan ammo fikrlarni teranlashtiradigan bir mo‘jiza bordek go‘yo. Bunga qoyil qolmaslikning iloji yo‘q. Shoirning “*Dorboz*” she’rida ham yuqoridagidek so‘zlarning serjilo mazmunini ko‘rish mumkin:

*Bulutlarga yondosh, osmon ostida,
Kiprikdagi yoshday turibdi dorboz.
Qilichning damiday arqon ustida,
Ko‘zlarini yumib yuribdi dorboz.*

Bulut, osmon, kiprikdagi yosh, dorboz, qilichning dami so‘zlari bir-birini ma’naviy jihatdan to‘ldirib turibdi. Aslida bulut va osmon haqiqatdan ham insonlar yetaolmaydigan bir manzildek go‘yo. Dorbozning insonlardan yuqorida, birgina arqonning ustida erkin harakatlanishi uni kuzatib turgan odamlar uchun go‘yoki osmon va bulutdek balandda. Dorbozning hayoti esa xuddi kiprikda ilinib turgan, bir soniyada yerga tushib ketadigan yosh deya ta‘riflangan. Shoirning badiiy, estetik mahoratiga tan bermaslikning iloji yo‘q.

*Odamlar, odamlar, uni olqishlang,
Qarang, u naqadar epchil va o‘ktam,
Biz-chi, eh... ba‘zi bir ko‘zi ochiqlar
Eplab yurolmaymiz katta yo‘lda ham.*

Yuqoridagi misralarda shoir to‘g‘ridan-to‘g‘ri odamlarga murojaat qiladi va dorbozning epchilligiga tan berib, afsus ham qiladiku, ba‘zi bir ko‘zi ochiqlar ya‘ni insonlarga ishora qilib, dorboz yuradigan arqondan hajmi ming chandon katta bo‘lgan yo‘lda ham eplab, to‘g‘ri yuraolmasligimizni ta‘kidlaydi. Badiiy adabiyotda kontrast usulidan mahorat bilan foydalanib, she’rning ta‘sir ifodasini yanada oshirish mumkin. Abdulla Oripov ijodida madaniy konseptlar bilan birgalikda, ularni teran ifodalash orqali kontrast usulidan ham foydalanilgan. Masalan “*Shoir yuragi*” she’rida bu dunyoning o‘tkinchiligiga, barcha insonlarning umri birdek g‘animat ekanligi umr, vaqt, inson konseptlari orqali ifoda qilingan.

*O‘tar bu ko‘prikdan jamiyki jonzod,
Chumolidan tortib fillar ham o‘tar.
Sultonlar o‘tadi goh shod, goh noshod
Zanjirlarin sudrab qullar ham o‘tar.*

Yuqoridagi misrada “*ko‘prik*” so‘zi dunyoga ishora qiladi, ya‘ni insonlarning, hattoki jamiyki bu dunyodagi tirik jonzotlarning yashayotgan umrini shoir uzun bir ko‘prikka o‘xshatadi. *Chumoli, fillar, sultonlar, zanjirlarin sudragan qullar* kabi so‘zlarning ifodalanishi bir-birini kognitiv jihatdan to‘ldirib turibdiki, insonlar qanday holatda yashamasin, sultonmi, gado mi baribir bu hayotdan ko‘z yumadi. Barchaning nazdida juda kichik ko‘ringan chumoli ham, bahaybat fil ham birdek bu dunyoni tark etadi, barchasining boradigan manzili bitta degan xulosalarni ilgari suradi shoir.

*Elchilarga o‘xshab turfa zamondan,
Shaloq aravalar, “mers”lar o‘tadi.
Ro‘baro kelishib ikki tomondan,
Bir-biriga tamom terslar o‘tadi.*

Elchi barchamizga ma‘lumki, boshqa millatga mansub bo‘lgan shaxs. Shoir yuqoridagi misralar orqali bu dunyodan bir-birini tanimaydigan, tamoman begona bo‘lgan insonlar ham yashab o‘tadi, tashqi holati go‘yoki “mers” kabi bo‘lgan insonlar-u, “shaloq aravadek” yurganlarning ham umri bir kuni poyoniga yetadi. Hech qachon ko‘rishmaymiz deya ikki tomonga ketgan insonlar ham bu o‘tkinchi dunyoda yashab o‘tadi.

Xulosa va takliflar. Biror leksema konseptual jihatdan tahlilga tortilganda, eng avvalo, uning mazmun–mohiyati, zamonaviy tilshunoslikdagi mazmuni yanada chuqurroq namoyon bo‘ladi. Konsept bu so‘zni shunchaki anglatadigan ma‘nosi emas, balki insonning idroki, tafakkuri bilan bog‘liq jihatlarini, kognitiv va lingvomadaniy ko‘rinishlarini ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ham madaniy konseptlarni anglash, tushunish va uni qanday ma‘no anglatayotganligini anglab yetish bugungi kun zamonaviy lingvistikaning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Oddiy so‘z orqali ifodalangan ma‘no emas balki madaniy konseptlar orqali ifodalangan mazmun va mohiyat bugungi kun olimlarini ham o‘ziga jalb etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Степанов Ю.С. Константы. «Словарь русской культуры» Опыт исследования. – М., АСТ, 2001.–С.12.
2. Кубрякова Е.С. Язык и знание (на пути знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения, роль языка в познании мира). – М., Языки славянской культуры, 2004. – С.14.
3. Rahimov A. Tilni paradigmalar asosida o‘rganish muammolari // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2012. – №2. – B.24.
4. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – T., 2015. – B.29.
5. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – T., 2019.–B.45.
6. Yusupov O‘.Q. Ma‘no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamallari xususida // stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari. – T., 2011. – №6. – B.49
7. Mardiyev T. “Baxt” konseptining lingvomadaniy va semantik talqini (ingliz va o‘zbek tillari qiyosida) // “Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta‘lim” (Ilmiy axborotnoma jurnali). – Samarqand: SamDCHTI nashriyoti, 2016, №10. – B. 36-44
8. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – M.: Akademiya, 2001. – B.62.
9. A. Oripov. Saylanma. – T., 2018.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1 jild. Madvaliyev A. tahriri ostida. – O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T., 2006

“ASPEKTUALLIK” BINAR GIPERSEMALI MAYDONDA TARZ KATEGORIYASINING FUNKSIONAL SEMANTIKASI

Mengliyeva Munira,
TOSHDO‘TAU doktoranti, PhD

Annotatsiya. An’anaviy o‘zbek tilshunosligida fe’lning shaxs-son, zamon, mayl va nisbat kabi grammatik kategoriyalari, shuningdek, bo‘lishli/bo‘lishsiz, to‘liqsiz fe’l, yordamchi fe’l kabi shakllari atroflicha tadqiq etilgan. Biroq harakat tarzi ma’nolari va tarz ifoda shakllariga oid ilmiy xulosalarda muntazam o‘zgarishlarni kuzatish mumkin. Zero, masalaga doir XX asr lingvistik xulosalari kezi kelsa, bugungi tilshunoslik natijalaridan keskin farq qiladi. Biroq harakat tarzi kategoriyasiga oid dastlabki qarashlar va tilshunoslik xulosalarini tamomila inkor etish mumkin emas. Aksincha, mavzu yuzasidan olib borilgan barcha tadqiqotlar tarz ifoda birliklari yuzasidan chiqarilajak yangi xulosalarning yanada haqqoniy, ratsional va keng qamrovli bo‘lishini ta’minlab beradi. Bajarilgan tadqiqotlarga asoslangan va bir vaqtning o‘zida ulardan farqli o‘laroq, tarz ifoda vositalarini ma’no prizmasidan kelib chiqqan holda tasniflash harakatning tarzi va uning mazmun-mohiyatini yangi bosqichda yorqinroq ochib beradi.

Kalit so‘zlar: fe’l, harakat tarzi, grammatik kategoriya, maydon yadrosi, gipersema

Аннотация. В традиционном узбекском языкознании тщательно изучены грамматические категории глагола, такие как лицо-число, время, наклонение и соотношение, а также такие формы, как причастие/причастие, вспомогательный глагол. Однако можно наблюдать регулярные изменения в научных выводах о значениях поведения и формах его проявления. Ведь лингвистические выводы XX века по этому вопросу резко отличаются от результатов современной лингвистики. Однако полностью отрицать первоначальные взгляды и лингвистические выводы относительно категории поведения невозможно. Напротив, все исследования, проводимые по этому вопросу, будут гарантировать, что новые выводы, которые можно сделать о категории вида, будут более правдивыми, рациональными и всеобъемлющими. На основе проведенных исследований и в то же время отличная от них классификация средств выразительности, основанная на призме смысла, раскрывает вид действия и его сущность на новом уровне.

Ключевые слова: глагол, образ действия, грамматическая категория, ядро поля, гиперсема.

Annotation. In traditional Uzbek linguistics, the grammatical categories of the verb, such as person-number, tense, inclination and ratio, as well as forms such as participle/participle, incomplete verb, auxiliary verb, have been thoroughly studied. However, it is possible to observe regular changes in scientific conclusions about the meanings of behavior and forms of expression. After all, the 20th century linguistic conclusions on the issue differ sharply from the results of today's linguistics. However, it is impossible to completely deny the initial views and linguistic conclusions regarding the category of behavior. On the contrary, all the research conducted on the subject will ensure that the new conclusions to be drawn from the style of expression units will be more truthful, rational and comprehensive. Based on the conducted studies and at the same time different from them, the classification of the means of expression based on the prism of meaning reveals the style of the movement and its essence at a new level.

Key words: verb, motion manner, grammatical category, core of the field, hyperseme.

Kirish. O‘zining sathlararo tarqalgan ifoda vositalari, turli ma’no guruhlari bilan harakat tarzi fe’li – katta kategoriya sanalgan zamon kategoriyasidan ham keng qamrovli til xodisasi. Bir qarashda, tarzning “jarayonlilik” ma’nosi to‘qqizta xususiy ma’no bilan cheklanishi yanglishdek, yana bir necha ma’no qo‘shish kerakdek tuyiladi. Biroq keltirilajak ushbu ma’nolardan tashqari anglashiladigan har qanday ma’noni ham alohida ma’noviy guruh sifatida ajratib bo‘lmaydi. Chunki ular biror-bir vositaning mustaqil ma’nosidan emas, balki kontekstdan anglashiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili O‘zbek tilshunosligida tarz ifoda vositalari, ayniqsa, ko‘makchi fe’l doirasida keng tadqiq etildi. Dastavval, A.G‘ulomov ko‘makchi fe’llarni “fe’l+fe’l” tipidagi fe’l so‘z qo‘shilmasi sifatida o‘rgangan bo‘lsa, A.Hojiyev morfologik sathda tarz ma’nosini ifodalovchi ifoda birliklarini ko‘makchi fe’l deb nomladi. Olimning “Ko‘makchi fe’l” monografiyasi yana bir jihatdan e’tiborga molikki, garchi unda tarz ifoda birliklarining shakliy hususiyatlari e’tibor markazida bo‘lsa-da, olim har bir ko‘makchi fe’lning ma’nosiga to‘xtalib o‘tadi. Shu tariqa tarzning “davomiylik”, “muntazamlilik” va “soniyaviylik (oniylik?)” kabi ma’nolari dastlabki mulohazalar natijalari sifatida yuzaga keldi. Albatta, davr o‘tishi bilan o‘zbek tilshunoslari tarz ifoda vositalari ko‘makchi fe’l doirasidan ancha kengroq ekanligi va bu kategoriyaning faqat morfologik sathda cheklanishi mumkinligiga shubha bilan qaray boshlashdi . Birgina ko‘makchi fe’l atamasining o‘ziyoq yanglish ekanligi ushbu atama faqat asosiy fe’lga qo‘shilgan ko‘y, ol, tur, qol kabi birliklarni qamrab olar va bu holatda asosiy fe’lga ko‘shilgan ravishdosh shakli chetda qolib ketar edi. Shu tariqa keyinchalik harakat tarzi atamasi vujudga keldi [1, 2, 5].

Tadqiqot metodologiyasi. Albatta, davr o‘tishi bilan o‘zbek tilshunoslari tarz ifoda vositalari ko‘makchi fe’l doirasidan ancha kengroq ekanligi va bu kategoriyaning faqat morfologik sathda cheklanishi mumkinligiga shubha bilan qaray boshlashdi . Birgina ko‘makchi fe’l atamasining o‘ziyoq yanglish ekanligi ushbu atama faqat asosiy fe’lga qo‘shilgan ko‘y, ol, tur, qol kabi birliklarni qamrab olar va bu holatda asosiy fe’lga ko‘shilgan ravishdosh shakli chetda qolib ketar edi. Shu tariqa keyinchalik harakat tarzi atamasi vujudga keldi. “Grammatik kategoriya tushunchasi grammatik ma’no, grammatik shakl tushunchalari bilan bog‘liq holatda talqin qilinar ekan, uni umumiylik-xususiylik dialektikasi nuqtayi nazaridan to‘laqonli tushuntirish va asoslash mumkin”.

Tahlil va natijalar. Hozirda tarz ma’nolari umumiylik va xususiylik dixotomiyasida quyidagicha tabaqalanadi:

Umumiy grammatik ma’no	“TARZ”	
Oraliq grammatik ma’no	“Jarayonlilik”	“Qobiliyat”
Xususiy grammatik ma’no	Boshlanish, davom, tugash	Bajara olish/bajara olmaslik

Bu ma’no kategoriyalari O.Shukurovning “Harakat tarzi shakllari paradigmasi” monografiyasida keltiriladi: olim ushbu kategoriya tizimiga umumiylik-xususiylik (alohidalik) dialektikasi nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘ladi. Tadqiqotlarda tarz shakllari turlicha yondashuvda o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning yagona umumlashtiruvchi belgisi – shaklning e’tibor markazida bo‘lganligi, ularning ma’nosi esa ajratib turuvchi xususiyatlaridan biri sifatida qaralganligida. Shu tarzda tadqiqotlar shakldan ma’noga yo‘nalishida rivojlangan. Albatta, tahlilning bu yo‘nalishda olib borilishi o‘z davri uchun

muhim ahamiyatga ega bo'lgan: o'zbek tilshunosligida bu davrda til birliklari sistemalarini aniqlash, tasniflash ustuvor vazifa bo'lganligi sababli ushbu vositalarning ma'nosi shakldan keyingi planda o'rganildi.

Tillarga antropotsentrik yondashuv davri til ifoda birliklarini ham "shakldan ma'noga..." yo'nalishida emas, balki "ma'nodan shaklga..." tamoyili asosida tadqiq etish, tarz vositalarini turli sath va sathlarda qamrab olib, masalani yanada kengroq ko'lamda – funksional-semantik maydon sifatida tadqiq etish zaruratini kun tartibiga qo'yimoqda. Bunda tilning sistem-struktur munosabatlari yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Zero, "til o'zining material mohiyatiga ko'ra belgilar sistemasini yoki semiotik sistemani hosil qiladi" [8:37]. Ma'lumki, "ingliz va o'zbek tillaridagi so'z turkumlari so'zlarning leksik, leksik-grammatik ma'nosiga ko'ra; morfologik shakllarning ma'lum bir guruhga kiruvchi so'zlar uchun umumiylikiga ko'ra hamda so'zlarning gapdagi roli kabi xususiyatlariga ko'ra aniqlanadi" [4:101]. Biroq til ifoda vositalarini an'anaviy, sathlar doirasida bo'lib o'rganishdan ko'ra bir ma'no ostida turli sathlardagi vositalarni jamlashga asoslangan funksional-semantik maydon sifatida yondashuv quyidagi ustunliklarga ega:

birinchidan, bilamizki, so'z ma'nolari tushuncha ifodalaydi. Bunda kishi ongida aks etgan obyektiv olamdagi narsa, hodisa, harakat, holat va belgi hakidagi tushuncha so'zda o'z ifodasini topadi [3:1-3]. Ifoda vositalarini ma'nosiga ko'ra tasniflashda tilning umumiy ontologik tabiati yaqqolroq ko'rinadi. Chunki ma'no barcha tillar uchun (garchi bu tilshunos olimlar tomonidan har doim ham e'tirof etilaversa-da) lingvistik universaliga hisoblanadi. Ushbu ma'nolarni ifodalovchi vositalar esa har bir tilda o'ziga xos va takrorlanmas;

ikkinchidan, mazmundan shaklga tamoyili asosidagi yondashuv tadqiqotlari shakldan ma'noga tamoyili asosidagi tadqiqotlardan farqli o'laroq, o'z natijalari bilan tilning lisoniy imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligi uchun boyroq lingvistik ta'minot vazifasini bajaradi;

uchinchidan, semantika tilning mazmunini o'rganadi; tildagi ma'no ifodasi asosiy aloqa vositasi bo'lib, ma'no ifodasi vositasida biron-bir shaxs boshqa bir shaxsga, shuningdek, jamiyat miqyosida ham o'z fikrini yetkazib beradi. Demak, nutqiy faoliyat nazariyasiga ko'ra, inson borliqni o'z ongida aks ettiradi, bu nusxa asosida tushuncha hosil qiladi, uni ma'noga aylantirib, nutqda ifodalash uchun uni anglatadigan rang-barang darajalanish qatorida turuvchi vositalaridan eng ma'qulini tanlaydi. Bu nutqiy intensiya talabi bilan sodir bo'ladi. Holat, shuningdek, so'zlovchining tafakkuri, didi, til va nutqiy qobiliyati, qolaversa, nutqiy vaziyatni to'g'ri baholashiga bog'liq;

to'rtinchidan, V.Gumboldt: "Til faoliyat mahsuli (ergon) emas, balki faoliyatdir (energia)" [6:49], – deydi. Ayni shu qarashni semantik tadqiqotlarga asos sifatida qabul qilib, tilning yaxlit sistema ekanligi, nutqda uning tarkibiy qismlari o'zaro munosabatda bo'lishini ta'kidlash lozim. Ma'lum bir ma'noni ifodalashda kuchaygan ifodalovchilarga ushbu vaziyatda kuchsizlangan vositalar ko'maklashadi. Boshqa vaziyatda ko'maklashgan vositalar kuchayganda, ilgarigi vaziyatda kuchli bulgan vositaning semantik qiymati pasayadi. Masalan, baqirib yubordi jumlasida yubordi tarz vositasi harakatning kutilmaganda sodir bo'lganini bildiruvchi yagona vosita, u biroz o'zgartirilgan holda to'satdan baqirib yubordi deya tahlil qilinadigan bo'lsa, harakatning kutilmaganda sodir bo'lganligiga bir vaqtning o'zida ikki vosita sintaktik sathda hol,

morfologik sathda ko'makchi fe'l ishora qilmoqda. Biroq ikkinchi holatda kutilmaganlik ma'nosi, asosan, to'satdan so'zi orqali anglashilib, yubordi ushbu ma'noni kuchliroq ifodalashga yordam beradi;

beshinchidan, mazmundan shaklga yo'nalishida ish ko'rish tabiiy tilni sun'iy intellekt uchun modellashtirishda ustuvorlikka ega;

oltinchidan, tarjimada ma'nodan shaklga tamoyili asosidagi yondashuv tarjima qilinayotgan matn mazmunining adekvat aks ettirilishiga hal qiluvchi ta'sir etadi.

Xulosa va takliflar. Barcha asoslar harakat tarzi kategoriyasining ma'nodan shaklga yo'nalishida tadqiq qilinishi asosli ekanligi haqidagi xulosaga olib keladi. Tilshunoslik xulosalari, boshqa fanlar qatori, doimiy tadqiqotlar natijasi o'laroq muttasil yangilanib bormoqda. Ammo tilshunoslik obyekti bo'lmish lison nutqda shu holicha, tizimli ravishda voqelanmaydi. Nutq murakkab holda har xil lisoniy hodisalarning turli nolisoniy omillar bilan qorishgan bir butunlik sifatida namoyon bo'ladi [7:22; 8:49]. Har bir tilda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham fe'l, ya'ni harakat va holatni ifodalovchi leksemalar gapning markaziy tashkil etuvchisi hisoblanadi va qolgan barcha leksemalar shu markaz atrofida jamlanadi. Tillarning tipologik xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, harakatning qay shaklda amalga oshirilganini ifodalashga xizmat qiluvchi tarz shakllari turkiy tillarning, xususan, o'zbek tilining o'ziga xos va betakror ifoda imkoniyatlaridan biridir. Aytish joizki, harakatning tarzi bir yoki ikki turdagi vositalar bilan chegaralanib qolmaydi, turli ma'nolarni ifodalashga xizmat qiluvchi ushbu vositalar tizimi bu tildagi boshqa kategoriya va funksional-semantik maydonlardan tarkibining kengligi va o'ta murakkabligi bilan xarakterlanadi. Shu boisdan uni aspektuallik maydoni binar gipersemali maydonida bir ma'no qutubi sifatida tasniflash joiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi: Filol. fan.nomz. diss.... avtoref. – Toshkent: 1994.
2. Abuzalova M. Substansial morfologiya, valentlik va sintaktik qurilma: Filol. fan. doktori (DSs) disser. avtoreferati. – Samarqand: 2018.
3. Allan K. Natural Language Semantics. – Oxford: Blackwell Publishers, 2006. – P. 1–3.
4. Bo'ronov J. Ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1973 – B. 101.
5. Mirtojdiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010 – B. 27.
6. Гумбольдт В О различии строения человеческих языков и его влияние на духовное развитие человеческого рода. // Хрестоматия по истории языкознания XIX–XX веков. – М.: 1953. – С. 93
7. Гурбанов З.Г. Лексика азербайджанского литературного языка XVII века: Автореф. дисс. ...кан. филол. наук. – Тошкент: 1972. – С. 22;
8. Кушникова Л.В. Взаимодействие языков и культур в переводческом пространстве: Дисс. ... д-ра филол. наук // Л.В.Кушникова. – Пермь: 2006. – С. 49.
9. Косовский Б. Общее языкознание. – Минск: 1969. – С. 37.



**INGLIZ TILIDAGI MIKROSOFT
VINDOVS OPERATSION
TIZIMI TERMINLARINING
GENETIK-ETIMOLOGIK TAVSIFI**



Maxammadov Bobir,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: Windows operatsion tizimi hozirgi zamonaviy texnologiyalarning ajralmas qismi bo'lib, unda qo'llaniladigan terminlar axborot texnologiyalari sohasida muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola Windows tizimidagi terminlarning genetik-etimologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Windows, terminologiya, genetik-etimologiya, mohiyat, izohlash.

Аннотация: Операционная система Windows является неотъемлемой частью современных технологий, а термины, используемые в ней, имеют значительное значение в области информационных технологий. Эта статья посвящена изучению генетико-этимологических характеристик терминов в системе Windows.

Ключевые слова: Windows, терминология, генетико-этимология, сущность, объяснение.

Annotation: The Windows operating system is an integral part of modern technology, and the terms used within it hold significant importance in the field of information technology. This article is focused on studying the genetic and etymological characteristics of terms within the Windows system.

Keywords: Windows, terminology, genetic-etymology, essence, explanation.

So'zlarning genetik xususiyati deganda ularning kelib chiqishi ya'ni etimologiyasi tushuniladi. **Etimologiya** (etimos - haqiqat va logiya— so'z; so'zning haqiqiy ma'nosi) — 1) so'z va morfemalarning kelib chiqishini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi; 2) so'zning kelib chiqishini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usullari majmui; 3) so'zning kelib chiqishi. XIX asr tilshunosligida "Etimologiya" termini "grammatika" ma'nosida ham qo'llangan.⁴⁶

Bugungi kunda barcha tillar izchil rivojlanib bormoqda hamda lug'at boyligi ko'paymoqda. Shu qatorda ingliz tilini misol qilib olsak, garchi foydalanilayotgan ko'p

⁴⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Etimologiya>

soʻzlar anchadan beri tilimizning maʼlum bir qismiga aylanib qolgan boʻlishiga qaramasdan, yangi soʻzlar bu tilga doimiy qoʻshilib kelmoqda. Ingliz tiliga taʼsir qiluvchi omillar quyidagilardir:

Oʻzga tillardan oʻzlashgan soʻzlar. Ingliz tilida soʻzlar koʻp holatlarda odatda anglo-sakson yoki lotin hamda grek tillaridan oʻzlashgan hisoblanadi. Shuningdek, boshqa tillardan ham soʻzlar olingandir.

Texnologiya va mahsulotlar nomlari orqali qoʻshilgan soʻzlar – Mazkur til odatda hozirgi urfdagi, qiziqishdagi hamda innovatsiyadagi hodisalarga oʻzining taʼsiri koʻrsatmoqda. Aynan aksariyat dasturlar, kompyuter texnologiyalarining yoʻriqnomalari ingliz tilidan kirib kelmoqda. Masalan, *“Google chrome”* mobil ilovasida foydalanilgan terminlardan oladigan boʻlsak, *“tap”, “app”, “account”, “sync”* kabi atamalar aynan tilga oʻzlashmoqda. Tilning rivojlanishi uchun bundan tashqari mahsulotlar nomlarining koʻpayishi muhim ahamiyatga ega. Xususan, mobil ilovalar nomlari orasidan **“Telegram”, “Yandex”, “Payme”** kabi soʻzlar ham hozirgi kunda doimiy ishlatiladigan atamalar qatoriga qoʻshilmoqda.

Tilning mashhur shaxslarning nomlari orqali boyishi. Odatda biror shaxs maʼlum bir narsani ixtiro qilsa yoki yaratsa va bu narsa keng ommalashsa, shu inson nomini abadiylashtirish uchun aynan uning nomi keltirilgan atamalar yaratilishi mumkin. Jumladan, **“mesmerize”** – maftun qilmoq maʼnosini beradi, avstraliyalik doktor va gipnozchi F.A.Mesmer nomidan olingan. **“Sideburns”** – inson yuzidagi yon tomonlar tushuniladi. Mazkur soʻz amerikalik yosh general E.Burnside nomidan kelib chiqqan.

Tilning harflar qisqartmalaridan yasalgan nomlar orqali til boyishi. Baʼzi soʻzlarning qiziqarli tarixi mavjud. Soʻzlarning kelib chiqishini oʻrganish ularni yodlashning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Ismlardagi bosh harflar ham oʻrnida aytilsa, guruh hosil qiladi. Masalan, kompyuter dasturlardan birida hujjatlarni arxivlab, ixchamlashtiradigan koʻrinishga olib keladigan dasturning fayl kengaytmasi **ZIP (“Zone Improvement Plan – hududni rivojlantirish rejasi”)** deyiladi. Bundan tashqari, barchamiz uchun maʼlum boʻlgan **TV (“Television – televizor”)** qisqartmasi ham ommalashgan yoki mobil ilovalarning atamalari tahlili jarayonida **QR (“quick response – tezkor javob”)** qisqartmasiga ham duch kelasiz. Bunday soʻzlar koʻplab uchraydi, **VIP (“very important person – oʻta muhim shaxs”), FAQ (“frequently asked question – koʻp soʻraladigan savollar”)** va boshqalar.

Yuqoridagi maʼlumotlarni koʻrib turganingizdek, soʻzlarning genetikasini oʻrganish juda qiziqarli va foydali soha hisoblanadi. Taʼkidlanganidek, ingliz tili soʻzlarining aksariyati lotin va grek tillaridan yoki boʻlmasa old va orqa qoʻshimchalar qoʻshilishi natijasida shakllangan. Ushbu faslda aynan ingliz tilidagi mobil ilova terminlarining genetik tahlili yoritiladi. Mazkur faslning asosiy maqsadi mobil

ilovalardagi turli tillardan olingan soʻzlarini aniqlash va ingliz tilida ifodalanish etimologiyasini tasvirlab berishdan iborat.

Dr.Arun K.Beheraning maqolasida taʼkidlashicha, ingliz tilining 30 foiz soʻzi mahalliy hisoblanadi. Bu soʻzlar kamligiga qaramasdan keng hajmdagi leksik va sintaktik tuzilishlarga ega. Baʼzida mahalliy va olingan soʻzlarni ajratib olish qiyin. Maʼlumki, agar tillar uzoq vaqt bir-biri bilan uygʻunlashgan boʻlsa, bu holat tilning boyishiga taʼsir qiladi. Baʼzi soʻzlar dastlab vaqtincha foydalanish uchun olinadi, lekin keyinchalik soʻzlar moslashgan keyin doimiy foydalanilishga oʻtadi, aynan shu jarayon olingan soʻzlar hisoblanadi. Finkensted, Volf, Neuhaus, Herget tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga koʻra, zamonaviy ingliz tilining turli tillardan kirib kelgan soʻzlari mavjud. Ularni foizlarga hisoblaganda, lotin tili (ilmiy, tibbiy, huquqiy soʻzlarni hisobga olganda), fransuz, nemis, grek va boshqa tillar 29, 29, 26, 6 va 10 foizni tashkil etar ekan. Skitga koʻra, ingliz tili anglo-sakson lahjasiga tegishli 178 ta va 280 ta esa boshqa tillardan, jumladan, lotin va grek tili oʻzak soʻzlardan olingani taʼkidlangan.⁴⁷

Genrining aytishicha, 12 ta lotin va 2 ta grek tilidagi oʻzak soʻzlar va 20 ta koʻp qoʻllaniladigan old qoʻshimchalar taxminan 100000 mingta soʻzga asos boʻladi.⁴⁸

Ingliz tiliga boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlar orasida quyidagilar mavjud: “Ad hoc”, “Bona fide”, “Calendar”, “Pro-forma”, “Verbatim” (lotin tilidan); “Artist”, “Bureau”, “Chef”, “Diplomat”, “Justice”, “Gallop”, “Precis”, “Restaurant” (fransuz tilidan); “Cookies” (nemis tilidan), “Bangle”, “Bungalow”, “Curry”, “Jungle”, “Loot”, “Pyjamas”, “Shampoo”, “Yoga” (hind tilidan), “Democracy”, “Eureka”, “Plethora” (grek tilidan); “Gestalt” (nemis tilidan); “Guitar” (ispan tilidan); “Lemon” (forsiy tilidan); “Mafia”, “Opera”, “Piano”, “Pizza”, “Studio”, “Solo”, “Traffic”, “Umbrella”, “Volcano” (italyan tilidan); “Paper” (arab tilidan); “Robot” (chex tilidan); “sputnik”, “troika” (rus tilidan); “Tsunami” (yapon tilidan); “Yoghurt” (turk tilidan), “Zero” (arab tilidan);⁴⁹

Koʻrib turganingizdek, ingliz tilidagi aksariyat soʻzlar oʻzshlashgan. Shu bilan bir qatorda, ilmiy ishda terminlari tahlil qilinayotgan atamalar, mobil ilovalardagi soʻzlar ham boshqa tillardan olingan boʻlishi mumkin. Bu holatni aniqlash uchun “Google chrome” kabi axborot izlovchi dasturlarga yuzlanganda soʻzlarning genetikasini aniqlab beruvchi onlayn mobil va veb-saytlar (etymonline.com) mavjudligini aniqladi.

Shunga koʻra, yuqoridagi nomi keltirilgan veb-sayt orqali soʻzlarning genetikasi oʻrganilganida quyidagilar aniqlandi.

Dastlab “Telegram” mobil ilovasidagi atamalar tadqiq etildi.

⁴⁷ Dr.Arun.K.Behera – Etymological analysis of English words // Cross-Currents: An International Peer-Reviewed Journal on Humanities & Social Sciences – 2015 - № 1 – PP 18 – 20

⁴⁸ Mario Dominkovic – Historical background of the contact between celtic languages and English: Dis assis. – Strossmayer universiteti, Osijek, Xorvatiya, 2016. - P. 4

⁴⁹ Dr.Arun.K.Behera – Etymological analysis of English words // Cross-Currents: An International Peer-Reviewed Journal on Humanities & Social Sciences – 2015. № 1 – P.18 – 20

“**Telegram**” - ushbu atamadagi “**tel**” qo‘shimchasi, so‘z hosil qiluvchi element sifatida olingan bo‘lib, xuddi “*television*” so‘ziga o‘xshab, grek tilidan olingan olingan bo‘lib, “*uzoq masofa ma’nosi*”ni beradi, genetik jihatdan grek tilidagi “*teleos*” so‘zidan olingan hisoblanadi. “**Gram**” qo‘shimchasi esa ot yasovchi qo‘shimcha hisoblanib, grek tilidagi “*gramma*” ya’ni harf, yozma harf anglatuvchi so‘zdan olingan bo‘lib, ikkalasi qo‘shilganda “telegram” so‘zi yasalgan. Ushbu atama 1850-yillar, aniqrog‘i, Albaniyadagi “Tungi jurnal”, 6 aprel, 1852-yildagi sonida dastlab foydalanilgan.⁵⁰

“Telegram” mobil ilova sifatida 2013-yilda kirib keladi. Uning asoschilari rossiyalik dasturchi Pavel Durov va akasi Nikolay Durovlardir. Bugungi kunga kelib “Telegram” mobil ilovasi IOS, Android, Windows Phone, Win, Mac OS va Linux kabi operatsion tizimlarda ishlamoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki ushbu atama atoqli ot tarzida tilshunoslikka kirib keldi degan xulosaga kelsak mubolag‘a bo‘lmaydi.⁵¹

“**Google chrome**” – ikki komponentli atama bo‘lib, “**google**” – atamasiga ta’rif beriladigan bo‘lsa, ushbu atama 1999-yildan boshlab foydalanildi. Google.com domeni 1997-yilda ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, mashhur kompaniya ham aynan shu nomdan olingan. Kompaniyaning ma’lumot berishicha, bu “google” nomi “googol” atamasi bilan chalkashlik hosil qilgan, maqsadi millionlab ma’lumotlarni bitta to‘rga jamlaydigan qidiruv tizimini yaratish bo‘lgan Lari Peyj va Sergey Blinning g‘oyalariga katta ta’sir ko‘rsatgan. “Merriam-webster” ingliz izohli lug‘atida “Googol” – uzun son sifatida tushuniladi ya’ni 10100 tarzida. “**Chrome**” - atamasi fransuz tilidan olingan bo‘lib, ushbu nom Fourkroy va Haviy tomonidan yangi element sifatida olib kirilgan, lekin dastlab ushbu atama grek tilidan boshqacha atalgan “khroma” yoki “chromium” tarzida. Keyinchalik metal tarzida fransuz kimyogari 1798-yilda Luiz Nikolas Vakvilini “xrom – chrome” tarzida nom beradi. “Google Chrome” mobil ilovasining belgisi ham xrom elementiga o‘xshab ishlab chiqilgan.

“**Yandex.taxi**” – “yandex” atamasi ham “google chrome”ga o‘xshab, Rossiya dasturchilari tomonidan ishlab chiqilgan qidiruv tizimi hisoblanadi. Bu tizim tarmoqlangan bo‘lib, tur xil ma’lumotlarni izlashda yordam beradi, xususan, ko‘rib turganingizdek, taksi haydovchilari haqidagilarni ham. “Yandex” atamasining birinchi kelib chiqishi, Arkadiy Voloz va Borovskiya borib taqaladi. Ular Arkadiya deb nomlangan kichik kompaniyada qidiruv texnologiyalari ustida ishlashardi. 1993-yilda ularning bu tizimi rivojlangandan keyin nomni o‘zgartirishga kelishib olishadi. Ingliz tilidagi “*search*” va “*index*” (ikkala so‘z ham qidirmoq ma’nosini beradi) atamalari ular uchun muqobil shakl hisoblanadi va ikkalasi orasidan “*index*” atamasi tanlanadi. “Yet Another Indexer” so‘zining qisqartmasi “Yandex”ni o‘ylab topishadi. Shundan so‘ng,

⁵⁰ https://www.etymonline.com/word/telegram#etymonline_v_7690

⁵¹ <https://mitc.uz/uz/news/2656>

Voloz dastur logotipidagi soʻzning birinchi ikkita inglizcha harflarini ruscha harflar bilan YA(“Ya” – ingliz tilida Men – I maʼnosini anglatadi) ga oʻzgartiradi, shu bilan ushbu atama ikki tilliga aylanadi. **Yandex** kompaniya sifatida 2000-yilda faoliyatini boshlaydi.

“**Taxi**” – atamasi “*taximeter cab*” soʻzining qisqartmasi boʻlib, 1907 yilning mart oyida Londonda foydalanilgan.

“**Payme**” – mobil ilovasi 2013-yilda oʻzbek dasturchilari tomonidan yaratilgan boʻlib, barcha turdagi toʻlov va oʻtkazmalar uchun foydalaniladigan xizmat turi hisoblanadi. “*Pay*” – atamasi 1200-yilda eski fransuz tili “*paier*” soʻzidan olingan. “*Me*”- olmosh sanalib, eski ingliz tilidan olingan. Ingliz tilida “*I*” - kishilik olmoshining, toʻldiruvchi vazifasini bajaruvchi soʻzi hisoblanadi.

Yuqorida barcha mobil ilovalar nomlarida qoʻllanilgan atamaları etimologik tahlil qilindi. Mobil ilovalardagi qolgan terminlarni ham tahlil qiladigan boʻlsak, “*Telegram*” mobil ilovasidagi terminlar quyidagilar:

“**start**” (feʼl) – eski ingliz tilidagi “*steortian*” soʻzidan olingan,

“**group**” (ot) – 1690-yillarda fransuz tilidagi “*grupe*” soʻzidan olingan.

“**Contact**” (ot) - lotin tilidagi “*contactus*” soʻzidan olingan. 1620-yillarda

“**Code**” (ot) – 1300-yilda eski fransuz tilidan “*code*” soʻzidan olingan

“**Bots**” (ot) – 2000-yillarda kirib kelgan, “**robot**” soʻzining qisqa shakli. Ushbu atamaning kelib chiqish aniq emas.

“**Calls**” (ot) - ot soʻz turkumida turli maʼnolari boʻlgani uchun ushbu soʻzning oʻzagi **gal** - eski hind yevropa tillaridan olingan. Aynan “*call*” telefon orqali aloqa maʼnosida 1878-yildan boshlab foydalanilgan.

“**People**” (ot) - xalq maʼnosida ushbu soʻz lotin tilining “*populus*” soʻzidan olingan. Odamlar maʼnosida esa 1300-yillardan anglo-fransuz tillar aralashmasidan kelib chiqqan, yaʼni “*peple*”, “*people*”. “**People**” leksemasi mobil ilovalarda, ayniqsa, ijtimoiy tarmoq platformalarida foydalanilib kelinmoqda. Shu holatda ushbu termin haqiqiy “xalq” yoki “odam” maʼnosida emas, balki “ijtimoiy tarmoqlardagi va onlayn xalq” maʼnosida ifodalangan. 2000-yillarning oxirlarida yuqorida keltirilgan maʼnoda aynan ushbu termin foydalanila boshlangan.

“**Friend**” (ot) – eski ingliz tilining “*freond*” soʻzidan kelib chiqqan. Eski ingliz tilida “*feond*” va “*freond*” soʻzlari bir biriga qarama qarshi boʻlib kelgan. Aniqroq aytadigan boʻlsak, “*friend*” soʻzining antonimi zamonaviy ingliz tilida “*enemy*” soʻzi hisoblanadi.

“**Invite**” (feʼl) – ushbu soʻz lotin tilining “*invitare*” soʻzidan olingan.

“**Voice**” (ot) – eski fransuz tili “*voiz*” soʻzidan kelib chiqqan, shu maʼnodan lotin tilining “*vocern*” soʻzi ham ushbu soʻzning asosi boʻladi.

“**View**” (ot) – XVI asr boshlarida fransuz tilining “*vewe*” soʻzidan olingan.

“**File**” (ot) – aslida ushbu so‘z fransuz tilining “*file*” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, 1954-yildan boshlab kompyuter maqsadlaridan foydalanila boshlagan.

“**Store**” (ot) – ingliz tilining amerika lahjasida ushbu so‘z 1721-yilda “*tovarlar saqlanadigan joy ma’nosi*”da ishlatilgan. Ushbu atama kompyuter yoki telefon xotirasida bundan tashqari mobil ilovalardagi ma’lumotlarni saqlash ma’nosining kirib kelishi, dastlabki zamonaviy kompyuter dasturlarining yaratilishi bilan bog‘liq ya’ni 1975-yilda Microsoft kompyuterlar uchun windows dasturi.

“**Username**” (ot) – “**user**” va “**name**” so‘zlar qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan, “*user*” so‘zi kompyuterlar dasturlari foydalanuvchisi ma’nosida 1967-yildan boshlab ishlatilgan. “*Name*” so‘zi eski ingliz tilining “*nama*”, “*noma*” so‘zlaridan olingan. Ushbu so‘zning asl o‘zagi “*no-men*” bo‘lgan.

“**Profile**” (ot) – “*file*” so‘ziga, old qo‘shimcha “*pro*” qo‘shilishi natijasida, o‘zlashgan so‘z bo‘lib, ushbu so‘z 1650-yillardan boshlab foydalanilgan, lekin ayni hozirgi zamonaviy ingliz tilidagi ma’noni anglatmagan. Bugungi kundagi ma’noni berishi 1734-yildan boshlangan.

“**Country**” (ot) – ushbu atama XIII asr o‘rtalaridan boshlab foydalanilgan, ayni ma’nosi esa eski fransuz tilining “*countrie*”, “*cuntrede*” so‘zlaridan olingan, chunki shu davrlardan boshlab Fransiya davlat bo‘lib shakllanishni boshlagan. Ushbu so‘z aslida XVI asrlargacha odatda qishloq hududlariga nisbatan ishlatilgan.

“**Location**” (ot) – 1590-yillardan boshlab hozirgi ma’noda foydalanilgan, lekin lotin tilining “*locationem*” so‘zi ham ayni ma’noni anglatgan.

“**Chat**” (ot) – ushbu atama 1520-yildan boshlab foydalanilgan, eski ingliz tilidan yuzaga kelgan, ya’ni oldingi holatda bema’ni suhbatlashish ma’nosini bergan, hozirgi zamonaviy ingliz tilida onlayn tarzida, muloqot qilinadigan mobil ilovalar ko‘p. Shular orasidan, “Telegram” ham xuddi shunday muloqotlarni yaratishga xizmat qiladi. Bugungi kundagi ma’nodagi holatda foydalanish 1994-yildan boshlangan.

“**Message**”(ot) – atama 1300-yillardan boshlab foydalanilgan, eski fransuz tilidan olingan bo‘lib, “xabar” ma’nosini anglatib, ushbu tilda ham yozilishi biri xil bo‘lgan. Ilgari xabarlar kabutarlar yoki elchilar orqali yuborilgan bo‘lsa, bugungi kunda nomalar mobil qurilmalarimizdagi maxsus xabarlar jo‘natish uchun mo‘ljallangan mobil ilovalar orqali yuborilmoqda.

“**Forward**”(fe‘l) – ushbu atama eski ingliz tilidagi “*forewearde*” so‘zidan olingan bo‘lib, dastlab sifat so‘z turkumidagi ma’noni bergan, bunday holat 1520-yillardan boshlangan. Keyingi bosqichda yuborilgan “*xatlarni boshqasi orqali jo‘natib yuborish ma’nosi*”da esa 1757-yildan boshlab foydalanilgan. Ilgari haqiqiy xatlar yuborilgan bo‘lsa, hozirga kelib, ushbu xatlar e-mail orqali jo‘natilmoqda.

Tahlil natijasida ko‘rilgan atamalarning barchasi, “**Telegram**” mobil ilovasi terminlarining genetik xususiyatlari edi, keyingi terminlari tahlil qilinadigan mobil ilova bu “**Google chrome**” hisoblanadi:

“**Home**” (ot) – eski ingliz tilining “*ham*” so‘zidan olingan bo‘lib, 1765-yildan boshlab ushbu atama fe‘l ma‘nosida ishlatila boshlagan. “Home” leksemasi ushbu mobil ilovada screen leksemasi qo‘shilgan holatda “bosh sahifa” ma‘nosini anglatib kelayotganini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur ma‘noda foydalanilishi to‘g‘risida aniq ma‘lumot mavjud emas.

“**Web**” (ot) – eski ingliz tilining “*webb(мoла)*” so‘zidan olingan bo‘lib, XIII asr o‘rtalarida “*o‘rgimchak to‘ri*” ma‘nosida foydalanila boshlangan. Internetda ishlatilishi 1992-yildan boshlangan.

“**Browser**” (ot) – 1845-yilda dastlab fe‘l ma‘nosida foydalanilgan (ko‘rib chiqish). Kompyuterlardagi dasturlarda esa 1982-yilda foydalanila boshlangan, xususan, birinchi “*Apple*” kompyuterlarida Lari Tesler tomonidan “PARC” deb nomlangan qidiruv tizimi ishlab chiqilgan.

“**Page**” (ot) – dastlab ushbu atama 1200-yillarda eski fransuz tili va lotin tilidan foydalanilgan “*pagine*” so‘zidan olingan. Ayni mobil ilovalardagi ma‘nosini anglatishi 1982-yildan boshlanadi.

“**Screen**” (ot) – XIV asr boshlarida eski fransuz tilining “*ecran*”(olov ko‘rinishi) so‘zidan olingan bo‘lib, hozirgi kundagi ma‘nosida 1946-yildan boshlab foydalanila boshlangan. Internet dasturlarida esa 1999-yildan boshlab ishlatilgan.

“**Desktop**” (ot) - qo‘shma so‘z hisoblanadi. 1873-yildan boshlab “desk-top” tarzida ishlatilgan, kompyuterlardagi asosiy menyu sifatida ya‘ni kompyuter ko‘rinishida 1983-yildan foydalanilgan.

“**Feedback**” (ot) – “*feed + back*” so‘zlari qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan. 1920-yildan “*axborotda foydalaniladigan signal ma‘nosi*” da ishlatilgan, keyinchalik ikki so‘z bir holatda ot so‘z turkumiga o‘zgartirilib, 1955-yildan boshlab bugungi kundagi tarjima (fikir-mulohaza) bo‘yicha foydalanish boshlangan.

“**Classroom**” (ot) – 1811-yildan boshlab, ushbu bitta atama sifatida foydalanilgan, class(ot) – XIV asrdan fransuz tilining “*classe*” (tabaqa) so‘zidan olingan bo‘lib, aynan hozirgi ma‘nosida (dars mashg‘uloti) 1650 yillardan boshlab foydalanilgan. 2014-yilda esa “Google” kompaniyasi “*google classroom*” talabalarning masofaviy ta‘limga jalb qilish uchun mazkur loyihasini ishga tushirgan.

“**Cookie**” (ot) – 1730-yildan boshlab, shotlandiyaliklar “katta bulochka” deb tarjima qilishgan, lekin mobil ilovalarga qanday aloqasi bor degan savolga, quyidagicha javob berish mumkin: bu atama veb-qidiruv tizim dasturchisi L.Montulli tomonidan ishlab chiqilgan. Bu atama ingliz tilidagi “*magic cookie*” so‘zidan olingan bo‘lib,

dasturda ma'lumotlarni qabul qiluvchi va javob qaytaruvchi vazifasini bajaruvchi ma'nosida keladi.

“**Data**” (ot) – lotin tilining “*datum*” so‘zining ko‘plik shakli hisoblanadi. Ingliz tilida mazkur so‘z 1640-yillardan boshlab foydalanilgan. “*Data*” atamasi (saqlab qolinadigan kompyuter ma'lumoti ma'nosida) 1946-yildan boshlab ishlatilgan.

“**Google play market**” (ot) – ushbu atama 2012-yildan boshlab mobil ilova sifatida foydalanilgan va ingliz tili tilshunosligi yana bir axborot texnologiyalariga oid dastur atamasi bilan boyidi. Ushbu mobil ilova ham “Google” kompaniyasining mahsuloti hisoblanadi.

“**Android**” (ot) - dastlab qadimgi grek tilida “*andro*” – erkak kishi va “*eides*” – shakl, tur ma'nosida ishlatilgan. Lotin tilidan o‘zlashgan “*androides*” so‘zi 1727-yildan boshlab ingliz tilida foydalanila boshlagan. “*Android*” zamonaviy ingliz tilida operatsion tizimda ishlatiladigan dasturlash tili hisoblanadi va asosan mobil qurilmalariga yuklanadi. Ushbu tizim 2003-yilda A.Rubin, R.Miner kabi dasturchilar jamoasidan tuzilgan, asosiy dasturchi Rubin hisoblangan hamda aqlli mobil qurilmalarni ishlab chiqarish uchun tuzilgan tizim hisoblanadi.

“**Window**” (ot) – atamasi eski norveg tilidagi “*vindauga*” so‘zidan, bu so‘z esa “*vindr*” va “*auga*” so‘zlar qo‘shilmasidan paydo bo‘lgan.⁵² Zamonaviy tilda ta’rif beriladigan bo‘lsak, “*wind + eye*” so‘zlar qo‘shilmasidir. Mazkur “*window*” atamasi XIII asr o‘rtalaridan boshlab ishlatilgan. “Window” termini XXI asr boshlarida planshet va smartphone (aqlli telefon) rivojlanishi bilan ushbu qurilmalarning bosh oynasi tarzida ifodalab keladi va metaforik ma’nosi ko‘chish orqali foydalanuvchilarda qurilmalardagi oyna shaklida gavdalanadi.

Navbatdagi, terminlar tahlili «*Payme*» mobil ilovasining atamalaridir. Genetik tahlil davomida mobil ilova moliyaviy jarayonlarni amalga oshirganligi bois quyidagi moliyaviy atamalarning kelib chiqishi bilan tanishasiz:

“**Money**” (ot) – ma’lumki, o‘rta asrlarda qog‘oz pullar bo‘lmagani bois, ularning o‘rniga tangalardan foydalanilgan, shu paytlarda lotin tilining “*moneta*” so‘zi aynan pul so‘zi o‘rnida ishlatilgan. Bundan tashqari, 1300-yillarda eski fransuz tilidagi “*monnaie*” ham kundalik hayotda ishlatilgan. XIX asr o‘rtalariga kelib, tangalar o‘rniga qog‘oz pullar qabul qilingandan so‘ng, ushbu atama urfga aylandi. Hozirgi kunga kelib esa, “*digital currency*” yoki “*money*” atamasi ko‘p ishlatilmoqda. D.Chaum tomonidan yozilgan ilmiy ishda birinchi bo‘lib 1983 yilda “*raqamli mablag*” g‘oyasini ilgari surgan va shu paytdan tilda ushbu atama paydo bo‘lgan.⁵³

“**Balance**” (ot) – XII asrda eski fransuz tilining “*balance*” so‘zidan olingan bo‘lib, “*og‘irlik o‘lchovchi tarozi*” ma’nosida ishlatilgan, bundan tashqari kuchlar muvozanati

⁵² <https://www.etymonline.com/search?q=window>

⁵³ https://en.wikipedia.org/wiki/David_Chaum

ya’ni geosiyosiy tarjimada 1701-yildan boshlab kirib kelgan, mobil ilovalardagi “*qolgan qoldiq*” ma’nosidagi tarjimadan esa 1788-yildan boshlab hozirgacha foydalanilib kelinmoqda.

“**PIN** – *personal identification number*” (shaxsiy identifikatsiya raqami) birikmasining qisqartmasi bo‘lib, 1981-yildan boshlab ingliz tiliga kirib kelgan.⁵⁴

“**Virtual card**” – atamasidagi “*virtual*” so‘zi XIV asrning oxiridagi tarjimasi “*jismoniy fazilatlar yoki qobiliyatlar bilan tasir qilish*” ma’nosida ishlatilgan va bugungi kundagi tarjimasi (hayoliy, rost mavjud bo‘lmagan) 1959-yildan boshlab barcha kompyuter va mobil ilovalar dasturlarida ishlatilgan.

“**QR-code**” - ushbu atama “*quick response*” (tezkor javob) so‘z birikmasining qisqa formasi bo‘lib, hozirda ingliz tilida to‘liq holda emas, balki qisqartirib o‘qilgani uchun ommlashishga muvaffaq bo‘lgan. Tahlil qilinayotgan atamaning kirib kelishi 1994-yildan bu tizimni yaratgan M.Hara nomi bilan bog‘liq.

“**Income**” (ot) – “*in + come*” so‘z va qo‘shimchalarining qo‘shilishidan, ehtimol eski ingliz tilining “*incuman*” fe’li orqali yasalgan. Bu atamaning kirib kelishi 1300-yillarga borib taqaladi. “Tijorat va ish orqali qilingan daromad” ma’nosida 1600-yillardan boshlab ishlatilgan va hozirgacha barcha moliyaviy jarayonlardagi holatlarda ishlatilmoqda, jumladan, moliyaviy jarayonlarni amalga oshiradigan mobil ilovalar (“Payme”, “Paypal”, “Click” va boshqalar) da berilgan so‘z qo‘llanilmoqda.

“**Expenditure**” (ot) – o‘rta asrlardagi lotin tilining “*expeditus*” noto‘g‘ri fe’li orqali yasalgan so‘z bo‘lib, “*expend*” – “*dastlab sarflamoq*” ma’nosida foydalanilgan. 1791-yildan boshlab “sarf, chiqim” ma’nosini berishi uchun ot yasovchi qo‘shimcha “*-ure*” qo‘shilishi orqali kirib kelgan. Ko‘rib turganingizdek, ushbu tarjima bilan hozirgi kunda mobil ilovalardagi atamalarda ham uchramoqda.

“**Link**” (ot) – eski ingliz tilida ushbu atama uchramaydi, faqat “bir narsani boshqa narsaga ulash” ma’nosini 1540-yillardan tarjima qilingan. Telekomunikatsiyada ikkita nuqta o‘rtasini ulash ma’nosida esa 1911-yillardan tarjima qilina boshlagan. Internet borgan sari ma’lumotlarga kengayib borayotgani sababli, ikki saytlarni biri-biriga bog‘lash uchun ham aynan shu ma’noni beruvchi “*link*” ya’ni “*web link*” atamasidan foydalanilib kelinmoqda.

“**Invoice**”(ot)– 1550-yillardan boshlab ishlatilgan, o‘rta asrlar fransuz tilidagi “*envois*” so‘zidan olingan, fe’l ma’nosida (tovarlarni jo‘natish) ishlatilib kelingan, keyinchalik esa 1690-yillardan bu atama ot so‘z turkumiga o‘tkazildi. Ayni vaqtda, “*hisob raqami*” deb tarjima qilinib, barcha moliyaviy jarayonlarda ushbu atamadan foydalanilmoqda.

“**Share**” (fe’l) – eski ingliz tilida XV asr boshlarida “*ulush*” deb tarjima qilingan, 1590-yillarda o‘zining ulushini boshqaga ulashish ma’nosini beruvchi yangi so‘z

⁵⁴ <https://www.etymonline.com/search?q=PIN>

turkumidagi xuddi shunday soʻz kirib keladi. Dasturlash rivojlanishi bilan bunday atamalar kundalik turmush tarzimizga kirib kelmoqda, dastlab 2013-yilda “Shareit” dasturining ilk talqini chiqarildi, maʼlumotlarni tez va oson bir biri bilan almashishda qulay dastur edi, endi barcha mobil ilovalarda maʼlumotlarni almashish uchun ushbu atamadan foydalanilmoqda.

Yuqorida 3 ta mobil ilova terminlarining genetik xususiyatlari tahlil qilindi, qolaversa etimologik jihatdan oʻrganildi. Keyingi navbat soʻnggi tahlil qilinadigan mobil ilovaga yaʼni “Yandex.taxi”ga. “Google” kompaniyasi singari “Yandex.taxi” ham turli xizmatlarni ishga tushirgan, jumladan, taksi va yetkazib berish xizmatlari. Hozirda bu mobil ilova faqat Toshkent shahri hududida yashovchilar fuqarolar uchun ishlaymoqda. Bu ilovada maʼlumki, havdovchilar sohasi va yoʻnalishni bildiruvchi atamalar ishlatilgan. Ular quyidagilar:

“**A driver**”(ot) - mazkur atama aslida “drive” feʼlidan yasalgan boʻlib, eski ingliz tilida “drifan” soʻzi XIII asr oxirlarida “drive” soʻzining shakli boʻlgan. Vaqt oʻtib, ot-aravalar, yengil mexanik avtomobillar kashf etilgandan soʻng, shunday ulovlarni boshqarish uchun kasb egalari kerak boʻldi va “driver” soʻzi tili tilga kirib keldi, bu voqea XV asr oʻrtalarida sodir boʻladi. Hozirgi holatda esa driver koʻchma maʼnoda mobil ilovaning maqsadidan kelib chiqib, “Yandex.taxi” mobil ilovasi orqali ishlashni xohlovchi xodimlar haydovchi sifatida roʻyxatdan oʻtishi uchun ushbu atamadan foydalanilgan yaʼni “become a driver” tarzida.

“**Become**” (feʼl) – eski ingliz tilining “becuman” soʻzi mazkur atamaning kirib kelishiga asos boʻladi. XII asrdan boshlab ushbu atamaning maʼnosi bir holatdan ikkinchi holatga oʻzgarish maʼnosida ishlatila boshlangan. XIV asr boshlarida esa mobil ilovadagidek tarjimai kirib kelgan yaʼni “haydovchi boʻlmoq” tarzida.

“**Transport**” (ot) – XIV asr oxirlarida “bir joydan ikkinchi joyga eltib qoʻyish” maʼnosida eski fransuz tilining “transporter” soʻzidan olingan, bundan oldin lotin tilining “transportare” soʻzi ham ishlatilgan. Ot soʻz turkumiga oʻtkazilishi XV asr oʻrtalariga toʻgʻri keladi. Sababi aynan shu paytdan boshlab turli xil ulov turlari kashf etilgan va 1690-yillardan “transport” feʼlidan ot soʻz turkumi maʼnosi ham yaratilgan. Demak, ushbu atamaning ham ot va feʼl soʻz turkumlaridagi maʼnolari hozirgacha saqlanib qolgan.

“**Delivery**” (ot) – XV asr boshlarida anglo-fransuz tillarning birlashmasidagi “delivree” soʻzidan olingan va XVIII asr boshlarida hozirgi koʻrinishdagi shaklga keltirilgan. 1570-yillarda ushbu atamaning tarjimai boshqa maqsadlarda ishlatilgan. XX asr boshlarida Yevropada yetkazib berish xizmati paydo boʻlganidan soʻng ushbu atama turli xil mahsulotlarni yetkazib berish maʼnosida qoʻllanilgan va atamalar qatoriga qoʻshilgan. Mobil ilovada ham yetkazib berish xizmati maʼnosini anglatishi uchun ham ushbu atamadan foydalanilgan.

“**Order**” (ot) – XI asrlarda diniy qoida, nazorat ma’nosida eski fransuz tilining “*ordre*” atamasidan olingan. XII asrlarga kelib, fe’l ma’nosida (buyruq berish) ishlatila boshlangan. Tadbirkorlik va tijoratchilik atamalari orasiga esa 1837-yilda kirib kelgan va “*buyurtma*” ma’nosi sifatida ifodalangan, shuningdek, mobil ilovada ham XIX asr o’rtalaridagi tarjimasi bilan foydalanilgan.

“**Address**” (ot) – XIV asr boshlarida eski fransuz tilining “*adrecier*” so‘zidan olingan bo‘lib, ko‘rsatib borish, yo‘naltirish ma’nosida ishlatilgan, ya’ni fe’l so‘z turkumi ma’nosida. “*Xabarlarda ko‘rsatiladigan manzil*” ma’nosida esa XV asr o’rtalaridan boshlab foydalanilgan va hozirgacha shu tarzda ishlatilib, deyarli barcha tillarda tarqalgan. Mobil ilovada ham biror buyurtma bergan shaxsning turgan manzili ma’nosidan ifodalangan.

“**Credit card**” – tahlil qilinayotgan atamaning tilga kirib kelishiga 1887-yilda E.Bellamining utopik asarlaridan biri “*Ortga nazar*”da ilgari surilgan, lekin XIX asr oxirlarida hali qog‘oz pullardan yaratilmagan, tangalardan foydalanilgani uchun hech kim bu tushunchaga quloq ham solmagan. XX asr o’rtalariga kelib, 1958 yilda Amerika bankida bunday kartalar tarqatish boshlangan va 1973-yildan boshlab tizim kompyuterlashtiriladi. Bugungi kunda esa barchamiz uchun oddiy holat bo‘lib qolganidek, elektron pullardan bemalol foydalanmoqdamiz va kundalik so‘zlashuvimizda ham ushbu atamalarni ishlatmoqdamiz.

“**Credit**” (ot) – 1540-yillarda fransuz tilining “*credit*” (ishonch, haqiqat) so‘zidan olingan bo‘lib, moliyaviy jarayonlarga 1570-yillarda kirib kelgan va hozirda “*xaridor yoki qarz oluvchining kelajakdagi vaqtda to‘lovni amalga oshirish qobiliyati va niyatiga ishonch*” ma’nosida banklarda ishlatilib kelinmoqda. Bundan tashqari, mazkur atama ta’lim sohasiga 1904-yilda kirib kelgan bo‘lib, biror bir fanning akademik soati ma’nosida foydalanilmoqda.

“**Discount**” (ot) – o‘rta asrlar lotin tilining “*discomputus*” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, 1620-yillarda zamonaviy fransuz tilida esa “*decompte*” so‘zi orqali ushbu atama ishlatila boshlangan. 1837-yilda esa “*tovarlarning narxlariga chegirma*” ma’nosida esa qaydlarga kiritilgan. Ayni vaqtda ham bozorlarda mana shu yozuvni ko‘plab uchratmoqdamiz. Qolaversa, yandex.taxi mobil ilovasida ham foydalanuvchilarni jalb qilish maqsadida ma’lum bir muddatda chegirmalar e’lon qilinadi. Shu paytda, “*discount*” atamasidan foydalaniladi.

Ta’kidlash joizki, so‘zlarning genetik xususiyati va etimologiyasini bilish yangi tilni o‘rganishda katta yordam beradi. Bundan tashqari ingliz tili o‘rganuvchi talabalar genetik xususiyatlardan foydalangan holda har bir so‘zni taqqoslash orqali o‘rganishi ular uchun qulay hisoblanadi. Bu orqali esa o‘rganuvchilar ingliz tili va mahalliy til o‘rtasidagi aloqalarni yaratishi ham mumkin. Ma’lumki, ingliz tili so‘zlarning omonimlik va ko‘p ma’nolilik jihati o‘ta kuchli hisoblanadi, shu sabab, so‘zning asl ma’nosini tushunish,

shuningdek, uning o‘tmishda ham, hozirgi paytda ham qanday qo‘llanilganligini anglash uning ishlatilish holatlarini va ma’nosini tushunishni oshirishi mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dr.Arun.K.Behera – Etymological analysis of English words // Cross-Currents: An International Peer-Reviewed Journal on Humanities & Social Sciences – 2015 - № 1 – PP 18 – 20
2. Mario Dominkovic – Historical background of the contact between celtic languages and English: Dis assis. – Strossmayer universiteti, Osijek, Xorvatiya, 2016. - P. 4
3. Dr.Arun.K.Behera – Etymological analysis of English words // Cross-Currents: An International Peer-Reviewed Journal on Humanities & Social Sciences – 2015. № 1 – P.18 – 20
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Etimologiya>
5. <https://www.etymonline.com/search?q=PIN>
6. <https://www.etymonline.com/search?q>window>
7. https://en.wikipedia.org/wiki/David_Chaum



NOFAOL SO‘ZLAR TADQIQIGA DOIR METODIK YONDASHUVLAR



Saidova Kamola

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. O‘qish savodxonligi – matnning asosiy g‘oyasini anglash, axborotni izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga olgan asosiy kompetensiya sifatida ta’lim tizimidagi boshqa sohalarning rivojiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchining bu boradagi past ko‘rsatkichlari til materialining murakkabligi va nofaol so‘zlarning tizimli o‘rgatilmashligi bilan bog‘liq. Bu esa nofaol so‘zlarning tadqiqi masalasini kun tartibiga qo‘yadi. Nofaol so‘zlarni ma’lum mezonlar asosida aniqlab tizimlashtirish, o‘quvchining lug‘at boyligini kengaytirish, matni tushunish qobiliyatini oshirish va o‘qish savodxonligini mustahkamlashda ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *nofaol leksika, fonetik murakkablik, semantik murakkablik, chastota tahlili, so‘z uzunligi.*

Annotation. Reading literacy, as a core competency encompassing the ability to comprehend the main idea of a text, search for information, and analyze it, directly influences the development of other areas within the education system. Students' low performance in this area is linked to the complexity of linguistic materials and the lack of systematic teaching of passive vocabulary. This brings the issue of researching passive vocabulary to the forefront. Identifying and systematizing passive vocabulary based on specific criteria plays a crucial role in expanding students' lexical resources, improving their text comprehension skills, and strengthening reading literacy.

Key words: *passive vocabulary, phonetic complexity, semantic complexity, frequency analysis, word length.*

Аннотация. Читательская грамотность, как ключевая компетенция, включающая способность понимать основную идею текста, искать и анализировать информацию, оказывает прямое влияние на развитие других сфер образовательной системы. Низкие показатели учащихся в этой области связаны со сложностью языкового материала и отсутствием систематического изучения пассивной лексики. Это ставит вопрос исследования пассивной лексики на повестку дня. Определение и систематизация пассивной лексики на основе определенных критериев играет важную роль в расширении словарного запаса учащихся, улучшении их способности понимать тексты и укреплении читательской грамотности.

Ключевые слова: *пассивный словарный запас, фонетическая сложность, семантическая сложность, частотный анализ, длина слова.*

Kirish. Jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri uning ta’lim tizimi darajasidir. Sifatli ta’lim malakali kadrlar tayyorlash va yangi avlodning madaniy, ilmiy va iqtisodiy sohalarda muvaffaqiyatga erishishi garovi. Ta’lim sifatini baholash tizimning muammolari va kamchiliklarini ko‘rsatadi va yechimlar hamda bo‘shliqlar

ustida tadqiqotlarga yo‘l ochadi. O‘zbekiston 2022- yilda ilk bor Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi (PISA)da ishtirok etdi va test natijasiga ko‘ra oxirgi o‘ntalikdan joy oldi. Ushbu dastur 15 yoshli o‘quvchilarning matematika, o‘qish savodxonligi va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini baholaydi. Mazkur test natijalari haqida iqtisodchi B. Hoshimov quyidagicha fikr bildirdi: *...atigi 14 foiz 15-yoshli o‘quvchilar, o‘rtacha uzunlikdagi matndagi asosiy g‘oyani aniqlay oladi, ravshan aniqlangan, lekin ba‘zan murakkab kriteriyalar asosida ma‘lumot topa oladilar va agar ravshan qilib ko‘rsatilsa, matnning maqsadi va shakli haqida fikr yurita oladilar*”⁵⁵. O‘qish savodxonligi asosiy ko‘nikma sifatida matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlar rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa o‘qish savodxonligi bilan bog‘liq muammoning yechimi dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi (PISA) o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matnni tushunish darajasida bo‘shliqlar mavjud bo‘lib, bu qator *lingvistik qiyinchiliklarni* keltirib chiqaradi.

– matnlarda nafaol yoki murakkab so‘zlarning mavjudligi, ularning mazmuni tushuntirilmashligi o‘quvchilarning tushunishini qiyinlashtiradi;

– lug‘at boyligi yetarli bo‘lmagan o‘quvchilar yangi yoki murakkab so‘zlarni anglashda qiynaladi;

– turli uslubdagi matnlar (ilmiy, badiiy, texnik) tushunish qobiliyatiga turlicha ta‘sir ko‘rsatadi.

Mazkur qiyinchiliklarga ta‘lim jarayonida nafaol yoki murakkab so‘zlarni tizimli ravishda tushuntirilmashligi, darslikda matn o‘quvchining yosh va darajasiga mos kelmasligi, jarayonda ko‘proq funksional va asosiy so‘zlar o‘rgatilib, murakkab terminologiya yoki nafaol so‘zlar chetda qolishi kabi omillar sabab bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchi leksik fonining xilma-xil va keng qamrovli bo‘lmashligi o‘qish savodxonligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dunyo tilshunosligida nafaol so‘zlar, ularning xususiyatlari va foydalanish imkoniyatlari xususida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, turli tillarda nafaol so‘zlarni nutqda muntazam qo‘llab faollashtirish orqali o‘quvchi leksik boyligini oshirish masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotida⁵⁶ nafaol so‘zlar dars davomida qisman o‘zlashtirilgan, ammo yetarlicha amaliy foydalanilmaganligi, nutqiy jarayonlarda qo‘llanilmaganligi sababli faollashtirilmaganligi aytiladi. Shuningdek, tadqiqotchi “vocabulary dormancy” konsepsiyasi haqida to‘xtalib, uni o‘quvchi so‘zlarni eshitgan yoki ko‘rgan bo‘lsa ham, ulardan amaliyotda foydalanish darajasiga yetkazilmagan, ya‘ni faollashmagan so‘zlar deb izohlaydi. Masalan, *bougie (sham), caverne (g‘or), cuisine (oshxona), dortoir (yotoqxona), forêt (o‘rmon), fourchette (sanchqi)* kabi maxsus kontekst uchun qo‘llanilgan so‘zlarni turli intensiv usullar orqali faollashtirish yo‘llarini tavsiya qiladi.

⁵⁵ <https://m.kun.uz/news/2023/12/07/pisa-natijalari-elon-qilindi-ozbekistonlik-oquvchilar-oxirgi-10-talikdan-joy-oldi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F12%2F07%2Fpisa-natijalari-elon-qilindi-ozbekistonlik-oquvchilar-oxirgi-10-talikdan-joy-oldi>

⁵⁶ Daniels, J. (2000). Intensive language work as a catalyst for classroom learning and an antidote for “vocabulary dormancy”. *The Language Learning Journal*, 21, 13 - 18. <https://doi.org/10.1080/09571730085200051>.

Shuningdek, nafaol soʻzlar tadqiqiga bagʻishlangan “Study on Dormancy of Words and Causes of Their Activation”⁵⁷ tadqiqotida noyob soʻzlarning nafaollik darajasi, jamiyat va madaniy qadriyatlar taʼsirida ularning qayta aktivlashuvi hamda faollashtirishning psixologik va pragmatik xususiyatlari haqidagi tahlillari nafaol leksikani oʻrganishda nazariy asoslarni taqdim qiladi. Bundan tashqari nafaol soʻzlar va ularning xususiyatlari, nutqda foydalanish usullariga bagʻishlangan tadqiqotlar⁵⁸ni tahlil qilish shuni anglatadiki, nafaol soʻzlar maxsus kontekstda qoʻllaniladi va oʻquvchi tomonidan qabul qilingan (receptive), ammo foydalanilmaydigan (productive) lugʻat birliklari hisoblanadi. Oʻzbek tilshunosligida nafaol soʻzlar tadqiqiga doir samarali izlanishlar olib borilgan. Jumladan, nafaol qatlam sanalgan ixtisoslashgan va terminologik soʻzlar⁵⁹, tarixiy va arxaik soʻzlar⁶⁰, dialektizmlar⁶¹ ustida taqiqotlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarda nafaol leksikaning nazariy qonuniyatlari, tasniflash, lugʻatlarda berilishi, madaniy ahamiyati masalasi tadqiq qilingan.

Yuqoridagi kabi oʻzbek tilshunosligida nafaol leksika doirasidagi tadqiqotlar soha bilan bogʻliq bir qancha ilmiy muammolar yechimi uchun nazariy asos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Nafaol qatlamni aniqlash va tasniflash mezonlari bilan bogʻliq muammolar;
2. Dialektal va tarixiy soʻzlarning faollashtirilishi bilan bogʻliq muammolar;
3. Leksik oʻzgarishlarning kuzatilishi va lugʻatlarda qayd etilishi bilan bogʻliq muammolar;
4. Lugʻatlar, darsliklar va til oʻrgatishga xoslangan resurslarda nafaol soʻzlar qanday kiritilishi va ularning oʻrganuvchilar uchun ahamiyatini aniqlash bilan bogʻliq muammolar kabi izlanishlar nafaol soʻzlardan amaliy foydalanish imkoniyatlarini oshiradi va mazkur holat kam qoʻllaniluvchi soʻzlar tadqiqining dolzarbligini koʻrsatadi.

Tadqiqotlar natijasiga koʻra, oʻzbek tili lugʻati tarkibida qoʻllanish darajasi va mazmun xususiyatiga bogʻliq holda nafaol soʻzlarning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

1. Hududiy chegaralangan soʻzlar – maʼlum bir hududda qoʻllaniladigan soʻzlar. Dialektal leksika faqat ogʻzaki nutqda uchraydi va shu xususiyati bilan soʻzlashuv uslubiga oʻxshaydi. Ammo qoʻllanish hududi chegaralangan uchun soʻzlashuv leksikasidan farq qiladi. Muayyan mintaqada qoʻllangan sababli dialektal soʻzlar adabiy til leksikasiga kirmaydi. Badiiy asarda uslubiy maqsadlarda dialektal soʻzlardan foydalanish bu soʻzlarni adabiylashtirishga katta hissa qoʻshadi. Bunda dialektik birlik keng tarqalib ommalashadi, faollashadi. Dialektal leksika adabiy tilga butunlay oʻzlashib

⁵⁷ Ding, Q. (2018). Study on Dormancy of Words and Causes of Their Activation. . <https://doi.org/10.23977/etmhs.2018.29167>.

⁵⁸ Meara, P. (1990). A note on passive vocabulary. *Second Language Research*, 6, 150 - 154. <https://doi.org/10.1177/026765839000600204>. Solovyeva, E. (2019). Rare and uncommon vocabulary as a pragmatic tool of modern French political discourse. *NSU Vestnik. Series: Linguistics and Intercultural Communication*. <https://doi.org/10.25205/1818-7935-2019-17-4-92-107>.

⁵⁹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168 b.

⁶⁰ Xolmanova Z. “Boburnoma” leksikasi tadqiqi: Filol. Fan.dokt...diss.avtoref. Toshkent, 2009. – 52 b..

⁶¹ Rahimov R. Surxondaryo oʻzbek shevalari lugʻati. – Denov, 1993.

ketsa, unday leksika dialektal leksika doirasidan chiqib, chegaralanmagan leksik qatlarga kiradi. Masalan, darra (o‘g‘. qipch.) — kema boshlig‘i, kapitan, ta‘til (laqay), archimoq (Farg‘ona), yelvagay, shamoyil, aymog‘i, omuxta, ziyod kabi so‘zlar keyingi yillarda o‘zbek tilining turli dialektlardan adabiy tilga o‘zlashgan so‘zlardir. Bundan tushuniladiki, dialektik so‘zlarning nafaollik darajasi o‘zgaruvchan bo‘lib maxsus tadqiqni talab qiladi.

2. Sohaga oid terminlar – muayyan soha vakillari qo‘llaydigan, ma‘lum me‘yorlarga asoslanadigan maxsus leksika. Maxsus leksika terminlardan iborat, ular muayyan sohalar — ilmiy texnika, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot va boshqalarga tegishli tushunchalarni ifoda etish uchun ishlatiladi. Terminlarni determinlashtirish jarayonida kundalik hayotda zarur bo‘lgan va barcha tushunadigan so‘zlar muayyan sohalardan tashqarida ham keng qo‘llaniladi. Masalan, “*protsent*”, “*gradus*”, “*metr*”, “*litr*”, “*gramm*”, “*kilogram*”, “*plyus*”, “*minus*” kabi maxsus kontekst so‘zlari barcha sohalarda keng foydalaniladi. Demak, bu borada so‘zlarni maxsus mezon va usullar vositasida faol va nafaolga ajratish muhim ahamiyatga ega.

3. Tarixiy-madaniy so‘zlar – qo‘llanilishi tarixiy davr bilan bog‘liq bo‘lgan, poetik nutqda, tarixiy matnlarda ishlatilgan so‘zlar. Bunday so‘zlar o‘tmish haqida hikoya qiluvchi zamonaviy badiiy asarlarda uchraydi.

4. Neologizmlar- tilda yangi paydo bo‘lgan so‘zlar. Neologizmning nafaolliги nisbiy hodisa bo‘lib, til taraqqiyotining ma‘lum bir bosqichida neologizm bo‘lgan so‘z zamonaviy leksik qatlam birligiga aylanib keng qo‘llanilishi mumkin. Neologizmlarning nafaollik darajasini aniqlash til, madaniyat, jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy kontekstda nafaol so‘zlar o‘quvchi tomonidan qabul qilingan (receptive), ammo foydalanilmaydigan (productive)⁶² lug‘at birliklari hisoblanadi. O‘quvchi bunday so‘zlarga matnni o‘qish va tinglash jarayonlarida duch keladi, ammo o‘gzaki va yozma nutqda foydalanmaydi. Odatda, nafaol lug‘at boyligi faol so‘zlardan bir necha marta ko‘p bo‘ladi. Masalan, stenografiyani ixtiro qilgan I.Pitman bor-yo‘g‘i 700 ta so‘z kundalik muloqotning uchdan ikki qismini tashkil qilishini aniqlagan.⁶³ Bundan kundalik hayotda qo‘llaniladigan faol so‘zlar nafaol so‘zlardan bir necha marta kam ekanligi kelib chiqadi. Nafaol so‘zlardan nutq jarayonida foydalanish nutqning xilma-xilligi, ta‘sirchanligi va ma‘lumotlarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, nafaol so‘zlarni zamonaviy kontekstda aniqlash, tasniflash va tushuntirish lingvistik va leksikografik tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy kontekstda so‘zning nafaollik darajasini quyidagi mezonlar asosida aniqlash mumkin:

⁶² Daniels, J. (2000). Intensive language work as a catalyst for classroom learning and an antidote for “vocabulary dormancy”. *The Language Learning Journal*, 21, 13 - 18. <https://doi.org/10.1080/09571730085200051>

⁶³ The 80/20 Principle: The Secret of Achieving More with Less. Richard Koch. Nicolas Brealey Publishing. London. 1998. P14.

1. So‘zning idrok qilinish darajasiga ko‘ra. Idrok murakkabligini tahlil qilishda o‘quvchilar tushunishi qiyin bo‘lgan, shuningdek, eshitish va aytishda murakkablik tug‘dirgan so‘zlar nafaol so‘zlar hisoblanadi. Nutqda, asosan, sohaviy terminlar va tarixiy -madaniy ahamiyatli so‘zlar bilan shunday murakkabliklar yuzaga chiqadi. Bu murakkabliklar so‘z uzunligi hamda fonetik, semantik murakkabliklar bilan tavsiflanadi.

Fonetik murakkablik so‘zda bir-biriga yaqin unli va undoshlar kombinatsiyasi asosida yuzaga keladi. Bir havo zarbi doirasida ikki va undan ortiq undoshning yonmayon kelishi hamda so‘z tarkibida qator unlilarning mavjudligi akustik murakkablik tug‘diradi. Bu esa so‘zni eslab qolish va talaffuz qilish uchun qo‘shimcha kognitiv yuk talab qiladi. Buning natijasida kundalik muloqotlarda bunday so‘zlardan kamroq foydalaniladi. Masalan, quyidagi holatni tahlil qilsak:

ENDSHPIL [nem. *Endspiel* < *Ende* oxir, nihoya + *Speil*-o‘yin] Shaxmat yoki shashka partiyasining oxirgi qismi; *qiyoslang*: **debyut**. Piyodali endshpillarni o‘rganish murakkab hisoblar yuritishni osonlashtiradi, shaxmat havaskorlarining o‘yin mahoratini oshiradi⁶⁴. Mazkur so‘z maxsus kontekst – shaxmat terminologiyasida foydalaniladi, o‘quvchi bu so‘zga o‘qish va eshitish orqali duch kelgan, ammo og‘zaki va yozma nutqda fonetik murakkabliklar tufayli foydalanmaydi va passiv lug‘at fondida saqlanadi. Bunda nafaol lug‘at fondi deyilganda, o‘quvchi so‘zlarni eshitgan yoki ko‘rgan bo‘lsa ham, ulardan amaliyotda foydalanish darajasiga yetkazilmagan “vocabulary dormancy” konsepsiyasi tushuniladi⁶⁵. Bunday so‘zlarga ko‘plab misollar keltirish mumkin:

ADSORBSIYA [lot. *adsorbe* – shimish, so‘rish] *fiz.*, *kim.* Gaz yoki eritilgan modda zarralarining qattiq modda sirtiga singishi, shimilishi.

ADYUNKTURA Yuqori malakali harbiy- ilmiy va ilmiy - pedagog kadrlar – fan nomzodlari tayyorlashning asosiy shakli bo‘lib, u O‘zbekistonda uzluksiz ta‘lim tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi⁶⁶.

Tuzilishi jihatdan murakkab so‘zlar ham talaffuz va akustikada qiyinchilik tug‘dirishi sabab nafaol lug‘atdan joy oladi:

1) tarkibida “agro-”, “anti-“, “bio-“, “gipo-“, “vibro-” kabi tarkibiy qismlil o‘zlashgan qo‘shma so‘zlar:

BIOKLIMOTOLOGIYA ayn. **Bioiqlimshunoslik**

BIOLLYUMINESSENSIYA [bio. + lot. *lumen*, *lumens* – nur, yorug‘lik + *escent* – kuchsiz, sust] Tirik organizmlarning o‘z hayot faoliyati jarayonida kuchsiz, ko‘zga ko‘rinmas nur chiqarish, yiltirash xususiyati⁶⁷.

2) Tarkibi murakkab va qo‘shma so‘zlar ham talaffuzdagi murakkablik sababli nafaol so‘zlar fondida saqlanadi. Misol uchun, *dakkam-dukkam*, *dakki-dashnom*, *beshikkerti*, *arzandayi-kiromanda*, *haftafahm* kabi so‘zlar.

⁶⁴ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jild. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. – 2020. – 591 b. – 40 B

⁶⁵ Daniels, J. (2000). Intensive language work as a catalyst for classroom learning and an antidote for “vocabulary dormancy”. *The Language Learning Journal*, 21, 13 - 18. <https://doi.org/10.1080/09571730085200051>

⁶⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. – 2020. – 679 b. – 42 B

⁶⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. – 2020. – 679 b. – 268 B

3) semantik murakkablik, odatda, soʻz maʼnosining tushunilishidagi qiyinchilik orqali kuzatiladi. Leksema semantik strukturasi semalarning xilma-xil birikuvini semantik murakkablikka asos boʻladi. Jumladan, semema tarkibida ifoda semasining mavjudligi soʻzning nafaol qatlamga kirish ehtimolini oshiradi. Ifoda semasi deganda semema tarkibidagi atash semasidan tashqari, turli qoʻshimcha maʼnolarni (uslubiy boʻyoqni, shaxsiy munosabatni, qoʻllanish doirasini) anglatuvchi semalar tushuniladi.⁶⁸ Bundan soʻzlarning qoʻllanish doirasi semema tarkibidagi ifoda semasining tahliliga bogʻliqligi kelib chiqadi. Ifoda semasiga ega boʻlgan soʻzlar, asosan, texnik va maxsus terminlar, ijtimoiy - siyosiy, tarixiy - madaniy kontekstga aloqador soʻzlar boʻlib, semantik murakkab soʻzlar sifatida qaraladi. Masalan, *aduv, ajivaqa, boʻzagar, boʻrsimoq, domod, dorushshifo, metamorfoz, koeffitsiyent, diskurs* kabi soʻzlar tarkibidagi ifoda semalari soʻzlarning qoʻllanish chegaralarini koʻrsatadi, bu esa soʻzlarning nafaol qatlamga xosligini bildiradi. Demak, mazkur usul orqali nafaol leksikani aniqlash uchun leksema sememasini tarkibiy qismlarga - semalarga ajratish kerak boʻladi. Bu tahlil usuli tilshunoslikda komponent tahlil deb yuritiladi.

2. Soʻzning foydalanish chastotasiga koʻra. Bunda korpus tahlili amalga oshiriladi. Korpus tahlili – katta hajmdagi matnlar toʻplami boʻlib, bunda gazeta maqolalari, ilmiy-ommabop, badiiy asarlar va ijtimoiy tarmoqlardagi blogpostlarning tahlili tushuniladi. Jumladan, oʻzbekcha matnlarda qoʻllanilgan soʻzlar chastotasini aniqlab beradigan dasturlar va korpuslardan foydalanish va statistik tahlillarni amalga oshirish mumkin. Bunda katta hajmdagi matnlar tahlil qilinib soʻzlarning chastotasi aniqlanadi, past chastotali soʻzlar nafaol soʻz hisoblanadi. Bu mezonning afzalligi soʻzlarning qoʻllanish darajalarini aniq tahlilida koʻrinadi.

Tahlil va natijalar. Nafaol soʻzlar til oʻqitish va lingvistik tadqiqotlar uchun manba sifatida tilning tarixiy va zamonaviy rivojlanishiga doir asosiy qonuniyatlarni oʻrganish imkonini beradi. Bu esa mazkur manbadan amaliy foydalanish konsepsiyasini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Shu maqsadda nafaol soʻzlar va ularning ahamiyati tadqiqotlar manbayi sifatida koʻrilgan. Jumladan, tadqiqotchi A. Hasanov "Oʻzbek tilidagi leksik boʻshliqlarni toʻldirish masalalari (soʻnggi yuz yillik misolida)" maqolasida⁶⁹ leksikografik va dialektologik tadqiqotlarda kam qoʻllaniluvchi muhim soʻzlardan oʻzbek tilida mavjud boʻlmagan yangi tushunchalarni ifodalashda foydalanib nafaol leksikani rivojlantirish va tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirish boʻyicha muhim yondashuvni taklif etadi. Demak, nafaol soʻzlarni tadqiq qilish va ularni qayta faol qatlamga kiritish til boyligini tiklash va zamon talablariga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega. Nafaol soʻzlarni faollashtirish ularni yangi realliklarga moslashtirish bilan bogʻliq. Bu jarayon tilning tabiiy rivojlanishiga yordam beradi, yaʼni maʼlum vaqt oʻtganidan keyin nafaol boʻlib qolgan soʻzlar yangi maʼno va vazifalarni oʻzida mujassam etish orqali qaytadan qoʻllanila boshlaydi. Bu oʻzgarishlar tilning boyligi va

⁶⁸ Neʼmatov H. Rasulov R. Oʻzbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi. – 1995. – 46 B. – 98 b

⁶⁹ Hasanov A.M. Oʻzbek tilidagi leksik boʻshliqlarni toʻldirish masalalari (soʻnggi yuz yillik misolida).// Oʻzbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 3 (50). — B. 7-15.

ko'p qirraligini saqlab qolish uchun zarur bo'lib, eskirgan so'zlarni zamonaviy tushunchalar mazmuniga moslashtirish orqali faollashtiriladi.

Bundan tashqari, zarur hollarda xorijiy tillardan so'zlarni to'g'ridan-to'g'ri, me'yorga amal qilgan holda o'zlashtirish orqali ham til rivojlantirilmoqda. Bu jarayonda nafaol so'zlar tadqiqoti muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular orasida ko'pincha xorijiy atamalarga muqobil bo'la oladigan va til tabiatiga yaqin bo'lgan birliklar topilishi mumkin. Bu holatda dialektizmlardan foydalanish yaxshi natija berishi haqida tadqiqotlarda keltirilgan. Dialektologik tadqiqotlarda adabiy til leksikasiga kiritilmagan 40 mingga yaqin dialectal so'z mavjudligi qayd etiladi⁷⁰. Qolaversa, tarjimashunoslikda ham shu jarayonni kuzatish mumkin. Shunday qilib, tilning nafaol zaxirasi qaytadan faollashtirilib, yangi ma'nolar bilan boyitiladi, bu esa milliy o'zlik va tilning tarixiy qadriyatlarini asrab qolishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Nafaol so'zlarni aniqlash va tasniflashda aniq mezonlarga amal qilish noyob so'zlarni aniqlash orqali ularni faollashtirish jarayonini osonlashtiradi. Nafaol so'zlarni aniqlash va tasniflash uchun tayaniladiga mezonlar tilning turli qatlamlarida so'zlarni tanlab olish va ularning faol yoki nafaol bo'lganini tahlil qilishda yordam beradi. Nafaol so'zlarni aniqlashda tayaniladigan mazkur mezonlar til o'qitish, leksikografiya, psixolingvistika, korpus lingvistikasi kabi sohalarda ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'la oladi. Jumladan, so'zning idrok qilinishi, fonetik va semantik jihatdan murakkab so'zlar inson ongida qanchalik samarali saqlanishi va tushunilishi psixolingvistik tadqiqotlar muammosi sifatida qaraladi. Shuningdek, til o'qitish va leksikografiya sohasida o'ziga xos qulaylik va afzallik yaratadi. Leksikograflar so'zlarni idrok qilinish holati va qo'llanilish chastotasi asosida darajali lug'atlar, jumladan, nafaol so'zlar lug'atlarini tuzish imkoniga ega bo'ladi. Til o'qitishni tizimlashtiradi, ya'ni jarayonni o'quvchilarning darajasiga mos bo'lgan so'zlarni tanlashdan boshlab, ularning darajasi oshgan sari, tushunish qiyin bo'lgan so'zlarga o'tishni tashkil qilish mumkin. Nafaol, noyob so'zlar o'quvchi lug'at boyligini oshirish uchun mazkur mezonlar asosida ajratib olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Daniels, J. (2000). Intensive language work as a catalyst for classroom learning and an antidote for "vocabulary dormancy". *The Language Learning Journal*, 21, 13 - 18. <https://doi.org/10.1080/09571730085200051>
2. Ding, Q. (2018). Study on Dormancy of Words and Causes of Their Activation. <https://doi.org/10.23977/etmhs.2018.29167>.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168 b.

⁷⁰ Hasanov A.M. O'zbek tilidagi leksik bo'shliqlarni to'ldirish masalalari (so'nggi yuz yillik misolida).// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 3 (50). — B. 7-15.

4. Hasanov A.M. O‘zbek tilidagi leksik bo‘shliqlarni to‘ldirish masalalari (so‘nggi yuz yillik misolida).// O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 3 (50). — B. 7-15.

5. Meara, P. (1990). A note on passive vocabulary. *Second Language Research*, 6, 150 - 154. <https://doi.org/10.1177/026765839000600204>.

6. Ne‘matov H.Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi. – 1995. – 46 B. – 98 b

7. Rahimov R. Surxondaryo o‘zbek shevalari lug‘ati. – Denov, 1993.

8. Solovyeva, E. (2019). Rare and uncommon vocabulary as a pragmatic tool of modern French political discourse. *NSU Vestnik. Series: Linguistics and Intercultural Communication*. <https://doi.org/10.25205/1818-7935-2019-17-4-92-107>

9. Xolmanova Z. “Boburnoma” leksikasi tadqiqi: Filol. Fan.dokt...diss.avto-ref. Toshkent, 2009. – 52 b..

10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jild. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. – 2020. – 591 b. – 40 B

11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. – 2020. – 679 b. – 268 B

12. The 80/20 Principle: The Secret of Achieving More with Less. Richard Koch. Nicolas Brealey Publishing. London. 1998. P14

Elektron manbalar:

1. <https://m.kun.uz/news/2023/12/07/pisa-natijalari-elon-qilindi-ozbekistonlik-oquvchilar-oxirgi-10-talikdan-joy-oldi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F12%2F07%2Fpisa-natijalari-elon-qilindi-ozbekistonlik-oquvchilar-oxirgi-10-talikdan-joy-oldi>



BOLALARGA O‘ZGA TILNI O‘RGATISHNING PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI



Yarashova Nasiba,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
professori v.b, f.f.d. (DSc)

Annotatsiya. Til ijtimoiy munosabatlar mahsuli sanalib, mamlakatimizda yashayotgan har bir xalqning ona tili uning milliy o‘ziga xosligi va ma’naviy madaniyatining yorqin ko‘rsatkichidir. Til tafakkur bilan monand bog‘langani holda ongni shakllantiradi. Nutq va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik nafaqat psixologik jarayonlarning chuqur bosqichlarida, balki ijtimoiy hodisalar darajasida ham namoyon bo‘ladi. So‘zning insonga, uning xulq-atvoriga ko‘rsatadigan ta’siri barchaga yaxshi ma’lum.

Kalit so‘zlar. *Til, tafakkur, nutq, muloqot, bilingvizm, psixolingvistik jarayon, kommunikativ layoqat, lingvistik va ijtimoiy komponent.*

Аннотация. Язык является продуктом общественных отношений, а родной язык каждого народа, проживающего в нашей стране, является ярким показателем его национального самосознания и духовной культуры. Язык формирует сознание, будучи монадно связанным с мышлением. Связь речи и мышления проявляется не только на глубинных стадиях психологических процессов, но и на уровне социальных явлений. Влияние, которое слово оказывает на человека, на его поведение, хорошо известно всем.

Ключевые слова. *Язык, мышление, речь, общение, билингвизм, психолингвистический процесс, коммуникативная компетентность, лингвистическая и социальная составляющая.*

Annotation. The language is a product of social relations, and the native language of every people living in our country is a vivid indicator of their national identity and spiritual culture. Language forms consciousness, being monadically connected with thinking. The connection of speech and thinking is manifested not only at the deep stages of psychological processes, but also at the level of social phenomena. The influence that the word has on a person, on his behavior, is well known to everyone.

Keywords. *Language, thinking, speech, communication, bilingualism, psycholinguistic process, communicative competence, linguistic and social component.*

Kirish. Hozirgi paytda mamlakatimizda tillar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda ikki tamoyil mavjud: bir tomondan, milliy tillarning yanada rivojlanishi va takomillashuvi, o‘zga tomondan esa o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi ahamiyatining oshishi ro‘y bermoqda.

Mashhur bolalar yozuvchisi Korney Ivanovich Chukovskiy bolalar adabiyoti tilining jiddiy tadqiqotchisi sifatida “bola nutqi juda chiroyli, jozibador, g‘aroyibotlarga to‘la ilmiy manba sanaladi, bu orqali biz bola ruhiyatini kashf etamiz hamda o‘ziga xos naqshinkor chizgilarini ko‘ramiz”, – deya e’tirof etadi⁷¹.

⁷¹ Чуковский К.И. От двух до пяти. – Москва, 1970. – С. 345.

Bolalikda bilingvizm (lotinchada $bi < bis - ikki$, ikki tomonlama va *lingua - til*)⁷² bola hayotida har bir tilning tutgan o'rniga, uning ikki tillilikdan qaysi vaziyatlarda va qay darajada foydalanishiga bog'liq holda shakllanadi. Maktabgacha yoshda ikki tillilik shakllanishining quyidagi o'ziga xos holatlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- bola tug'ilgan paytidan boshlab ikki tilli oilada bir tildan o'zga tilga o'tib muomala qilish sharoitida tarbiyalanadi;

- bola oilada ona tilida so'zlashadi, undan tashqarida esa (qo'shnilar, qarindoshlar va boshqa shaxslar bilan) o'zga tilni o'zlashtiradi;

- bola o'zga tilni aniq maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotlarda va ulardan tashqari vaqtlarda maktabgacha ta'lim muassasasida egallaydi;

- bola o'zga tilni ommaviy axborot vositalari, kompyuter hamda telefon orqali tez o'zlashtiradi.

Adabiyotlar tahlili. XX asrda Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya, Fransiya, Rossiya, Chexiya singari davlatlarning tilshunoslik maktablarida til birliklarini boshqa ijtimoiy hodisalarga qiyosan o'rganish yuzasidan bir qator izlanishlar yuzaga kela boshladi. Tilni uni o'rab turgan muhit bilan birgalikda tadqiq qilish, jamiyatda inson omili ta'sirida vujudga keluvchi tilda bilingvizm muammosining tadqiqi tilshunoslar diqqat markazida bo'ldi.

Har qanday millatning boyligini ko'rsatuvchi, avlodlar tomonidan to'plangan madaniy boylik o'z tiliga egaligidir. S.A.Grinberg fikriga ko'ra, "Til va jamiyat barqarorligi uning madaniyatida yaqqol gavdalanar ekan, bilingvizm lingvistik bilim zahiralari tarkib topadi hamda shu orqali dunyoning lisoniy manzarasini yaratadi"⁷³. Bu bolalar adabiyoti tilida ham odatiy tarzda vujudga kelib, bola tomonidan ikki tilni to'g'ri qo'llash va subkodlardan foydalanishni nazarda tutadi.

Tilning mazmunli va funksional tomonlariga, uni markazga qo'yish, til va madaniyat o'rtasidagi tashqi aloqalarni o'rganish, u aks ettiradigan tendentsiya, shuningdek, inson omili asosida o'rganish ishlari jadallashdi. O'z faoliyatida inson dunyoning o'zi bilan emas, balki kognitiv bilim va tafakkuri bilan paydo bo'ladi. Hozirgi kunda hech qanday madaniyat yolg'izlikda yashamaydi, bir vaqtning o'zida xalqlarning madaniyatlararo aloqalari tillar va madaniyatlarda aks etadi⁷⁴.

Bolalarning ikki tilliligini o'rganishning maqsadga muvofiqligi ikkinchi tilni o'zlashtirish jarayoni va shaxsda bir nechta tillarning ishlashi hali to'liq ochib berilmaganligi bilan izohlanadi. Bolalar ikki tilliligining ayrim muammolari nafaqat ontobilinguologiya doirasida, balki sotsiolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, kognitiv tilshunoslik, ona tili va chet tili fanlarini o'qitish metodikasida ham o'rganilmoqda. Bolalarning ikki tilliligini tadqiq qilishning yangi yo'nalishlari: og'zaki bo'lmagan xulq-atvor va og'zaki bo'lmagan aloqa⁷⁵, bolalarning individual xususiyatlari

⁷² Лингвистический энциклопедический словарь. Под редакцией В.Н.Ярцевой. – Москва, 1990. – С. 303.

⁷³ Гринберг С.А. Белорусско-русский художественный билингвизм в когнитивно-дискурсивном и лингвокультурологическом аспектах: дис. ... канд. филол. наук: спец. 10.02.20 / С.А.Гринберг. – Москва, 2011. – 162 с.

⁷⁴ Головановская М.К. французский менталитет с точки зрения носителя русского языка: (контрастив. анализ лекс. групп со значением "высш. силы и абсолюты", "органы наив. анатомии", "основные мысл. категории", "базовые эмоции") / мгу, 1997. – б. 27.

⁷⁵ Aleksandrov A. Ko'rsatilgan asar. – В. 57–73.; Meng K. Sprachliche Integration von Aussiedlern. Einige Ergebnisse – einige Probleme // Sprachreport 2/2001, Mannheim: 2001. (Sprachreport 2/2001). – P. 4–11.

va ular til qobiliyatlarining ikki tilli tilni rivojlantirishdagi roli⁷⁶, ikki tilli bolalarning madaniyatlararo muloqotdagi xatti-harakatlari⁷⁷, ikki tilli va bikulturallik nisbati⁷⁸, bir vaqtning o‘zida ikki tilda o‘qishni o‘rganish, ikki tilda yozishni rivojlantirish⁷⁹, spontan tarjima va tillararo ekvivalentlar, ikki tilli tipologiyalarni rivojlantirish va yangi turlarni aniqlash⁸⁰ demakdir. Ikki tillilikning jadal rivojlanishi bu sohada uslubiy ishlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi⁸¹.

M.B.Amalbekova, Ye.V.Kuftyak, L.M.Xanuxova, Ye.V.Poymanova, Ye.A.Xamrayeva, U.M.Baxtikorova, A.A.Girituskoy, S.A.Grinberg, Y.N.Kremer, N.L.Leyderman, N.G.Mixaylovskaya, R.O.To‘qsaitova, B.V.Hasanova⁸² kabi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra badiiy bilingvizm bevosita ijodkor dunyoqarashi hamda qaysi tilda ijod qilishidan, qahramonlarning qaysi hududda yashashidan kelib chiqadi. Bolalar adabiyoti asarlaridagi bolalar nutqida mahalliy bo‘lmagan til kodlarining mavjudligi ular nutqini boyitadi, to‘ldiradi hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Psixolingvistik adabiyotlarda yozilishicha, haqiqiy ikki tillilik faqat odam hech bo‘lmaganda bitta tilda har qanday fikrni mos tarzda ifodalashga qodir bo‘lgan taqdirdagina rivojlanadi. Agarda nutq bironta tilda ham to‘laqonli shakllanmagan bo‘lsa, bu holda fikr tuzilmasi buzilib ketadi va o‘z fikrini ifodalashga bo‘lgan intilish muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, bu esa nafaqat psixologik ezilishlarga, balki muloqot sifatidagi chuqur yo‘qotishlarga va inson shaxsiga ziyon etishiga olib keladi. Yarim tillilik deb ataladigan bunday hodisa, umuman olganda, jamiyat uchun ham ancha xavflidir, chunki bunda uning a‘zolarining muayyan qismi hissiyotlarini boshqara olmaydi hamda o‘z hissiyotlari, ehtiyojlari, istak-xohishlarini tegishli tarzda so‘z shakliga keltira olmaydi. Agarda inson xohlagan narsasini ayta olmasa, u boshqalar bilan teng ravishda raqobatlashishga, kommunikatsiyaning odatdagi shakllaridan foydalanishga qodir bo‘lmay qoladi hamda u o‘z-o‘zini boshqarishning qandaydir boshqa shakllariga murojaat qilishga, ba‘zan esa zo‘ravonlik qilish, kuch ishlatishga majbur bo‘ladi. SHundan kelib chiqqan holda, ilk yoshdan boshlab individning nutqiy rivojlanishini tuzatishni to‘g‘ri tashkil etish zarurdir. Ilk start ona tilini qabul qilishga va keyinchalik har qanday boshqa tilni o‘zlashtirib olishga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. «Til qanchalik

⁷⁶ Kielhofer G. Model of Human Occupation. 3rd ed. Baltimore: Lippincott Williams and Wilkins. – Published by Wolters Kluwer Health, 2002. – S. 17. // <https://www.abebooks.com/servlet/BookDetailsPL?bi=30892969758>

⁷⁷ Oksaar E. “Spracherwerb – Sprachkontakt – Sprachkonflikt” im Lichte individuumzentrierter Forschung // Spracherwerb Sprachkontakt - Sprachkonflikt. – Berlin; New York: de Gruyter, 1984. – P. 243–263.

⁷⁸ Burkhardt Montanari E. Wie Kinder mehr-sprachig aufwachsen: Ein Ratgeber / Hrsg. Vom Verband Binationaler Familien und Partnerschaften, iaf e.V. Vorw. Von Ingrid Haller. 1. Aufl. Frankfurt a. – Montanari: Brandes und Apsel, 2000. – 106 p.

⁷⁹ Protasova Y.Y., Richagova Y.S. *Ko‘rsatilgan manba.* – B. 18–25.; Meng K. Beobachtungen zur Sprachvariationskompetenz von Vorschulkindern // Linguistische Studien 204, 1990, – P. 39–70.

⁸⁰ Чиршева Г.Н. Металингвистические способности детей-билингвов // Когнитивная лингвистика: Современное состояние и перспективы развития: Материалы I Международной школы-семинара по когнитивной лингвистике. – Тамбов, 1998. Ч. 1. – С. 35–37.

⁸¹ Протасова Е. Ю. Психоллингвистические и педагогические аспекты детского двуязычия: научное издание, предварительная публикация. – Москва: Дошкольное детство, 2004. – 72 с.

⁸² Амалбекова М.Б. Особенности языка и публицистический тезаурус билингва М. Кул-Мухаммеда // DOI 10.22363/2312-8011-2017-14-4-665-675.; Куфтяк Е.В., Ханухова Л.М., Пойманова Е.В. Билингвизм у детей: влияние на когнитивно-коммуникативное развитие и инструменты измерения // Современное дошкольное образование. – 2019. – №2(92). – С. 30–39. DOI: 10.24411/1997-9657-2018-10042.; Хамраева Е.А. Русский язык для детей билингвов: теория и практика. – Москва: Билингва, 2015.

oldin egallab olinsa, bilimlar ham shunchalik oson va to‘liqroq o‘zlashtiriladi», - deya ta’kidlaydi N.I.Jinkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda metodikaning tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, kontekstual tahlil, statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bola tug‘ilgan paytidan boshlab ijtimoiy mavjudot hisoblanadi. Uning har bir yosh bosqichidagi ijtimoiy rivojlanishi o‘z xususiyatlariga, vazifa va mazmuniga ega bo‘lib, ularni amalga oshirish uchun pedagogika sohasidagi ishlarga tegishli shart-sharoitlarni yaratish darkor.

Bola bilan muloqot u bilan hamkorlik asosiga qurilishi lozim. Doimo kattalarning biron narsani majburlashlari bolada faol tadqiq etish va bilishga intilishni emas, balki sustlik, faqat atrof-muhitga moslashish istagini shakllantiradi.

Bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan davrda bola rivojlanishiga oid ijtimoiy vaziyat sezilarli darajada o‘zgaradi. O‘z yaqinlari bo‘lmish kattalar bilan birgalikda bolaning muloqot doirasiga birinchi navbatda kichkintoyning diqqat-e’tibor va g‘amxo‘rlikka bo‘lgan ehtiyojini qondirishi lozim bo‘lgan boshqa kattalar (maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlari, tarbiyachi yordamchisi) ham kirib kela boshlaydilar. Bunday sharoitda ilk yoshdagi bolalarda kattalar bilan narsalar, o‘yinchoqlar va ular bilan bajarilishi lozim bo‘lgan harakatlar xususida muloqot qilishga ehtiyoj rivojlanadi.

Bu yoshdagi bolada kattalar bilan emotsional va amaliy aloqalar o‘rnatish qobiliyati rivojlanadi, bu unga yangi hayotiy shart-sharoitlarga moslashishga: so‘zlar, iltimoslarni baholovchi fikrlarni va boshqa kishilarning emotsional munosabatlarini to‘g‘ri qabul qilishga yordam beradi.

Uch-besh yoshli bolalarda kattalarning mehriga, ularning tushunishiga va u bilan muloqot qilishiga ehtiyoj saqlanib qoladi. Kattalarga nisbatan ishonchga asoslangan muloqot va uning emotsional ahvolini (quvonch, zavq-shavq, qayg‘u, xotirjamlik, jahldorlik va h.k.) his qilishga, kayfiyat o‘zgarganligi sabablarini tushunishga qodirlik rivojlanadi. Kattalar bilan muloqotning yangi shakli – qiziqarli mavzularda muloqot qilish vujudga keladi va rivojlanadi. U dastlab kattalar bilan birgalikdagi bilish faoliyatiga (masalan, o‘yin, predmetlar va o‘yinchoqlar bilan tajriba o‘tkazish, qog‘ozdan va tabiiy materialdan narsa yasash va boshq.) qo‘shilib ketgan, so‘ngra, bola hayotining beshinchi yili oxiriga kelib muayyan vaziyat bilan bog‘liq bo‘lmagan bilish mavzularidagi «nazariy» muloqot ko‘rinishiga ega bo‘ladi.

Lingvokognitiv adabiyotlarda yozilishicha, haqiqiy ikki tillilik faqat odam hech bo‘lmaganda bitta tilda har qanday fikrni mos tarzda ifodalashga qodir bo‘lgan taqdirdagina rivojlanadi. Agarda nutq bironta tilda ham to‘laqonli shakllanmagan bo‘lsa, bu holda fikr tuzilmasi buzilib ketadi va o‘z fikrini ifodalashga bo‘lgan intilish muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, bu esa muloqot sifatidagi chuqur yo‘qotishlarga va bola shaxsiga ziyon yetishiga olib keladi. Yarim tillilik deb ataladigan bunday hodisa, umuman olganda, jamiyat uchun ham ancha xavflidir, chunki bunda bola a’zolarining muayyan qismi hissiyotlarini boshqara olmaydi hamda o‘z hissiyotlari, ehtiyojlari, istak-xohishlarini tegishli tarzda so‘z shakliga keltira olmaydi. Agarda inson xohlagan narsasini ayta olmasa, u boshqalar bilan teng ravishda raqobatlashishga, kommunikatsiyaning odatdagi shakllaridan foydalanishga qodir bo‘lmay qoladi hamda u o‘z-o‘zini boshqarishning qandaydir boshqa shakllariga murojaat qilishga, ba’zan esa

zo‘ravonlik qilish, kuch ishlatishga majbur bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda, ilk yoshdan boshlab individning nutqiy rivojlanishini tuzatishni to‘g‘ri tashkil etish zarurdir. Dastlabki qadam ona tilini qabul qilishga va keyinchalik har qanday boshqa tilni o‘zlashtirib olishga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Tilshunos olim A.Hojiyev ta‘kidlaganidek, “Ona tili. Bolaning yoshlikdan atrofdagi kattalarga taqlid qilish yo‘li bilan o‘rganadigan tili”⁸³dir. Ushbu talqin N.Mahkamov, I.Ermatovlar tomonidan tuzilgan lug‘atda esa “Har bir elatning, xalqning, millatning o‘z tili”⁸⁴ tarzida keltirilib, ijtimoiy munosabatlarga bog‘lanadi. N.I.Jinkin e‘tirof etganidek, “Til qanchalik oldin egallab olinsa, bilimlar ham shunchalik oson va to‘liqroq o‘zlashtiriladi”⁸⁵.

Ma‘lumki, til aloqalari tushunchalarini ifodalovchi terminlardan biri bilingvizmdir. Bilingvizm (ikki tillilik, zullisonaynlik) ikki tilda bemalol muloqot qilish, ikki til sohibi bo‘lish demakdir. Ikki tilda o‘zaro kommunikativ munosabatga kirishuvchi shaxslar bilingvlar hisoblanadi. Bu atamaning kelib chiqishiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, miloddan avvalgi III-II asrlarda rimliklar Iberiya (bugungi Ispaniya) hamda Galliyani (bugungi Fransiya) bosib olishgan. Mazkur hududlarda mahalliy til – lotin tili bilingvizmi vujudga keladi.

Ommaviy bilingvizm sharoitida interferensiyaning ba‘zi turlari til tizimiga ta‘sir etib, ayrim o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Olimlar bu vaziyatda tilning hududiy farqlanishi – etnik sheva yuzaga kelishi mumkin, deb hisoblaydilar. Interferensiyaning ikki guruhga: dialektal interferensiya va internatsional interferensiya turlariga ajratish maqsadga muvofiq. Dialektal interferensiya til tashuvchisining bir subkod orqali muloqot jarayonida ikkinchi subkod birligini qo‘llashi natijasida yuzaga chiqadi. Bunday holat bolalar adabiyoti tilida ham kuzatiladi.

Bugungi zamonaviy jamiyatda bilingvizm tobora odatiy holatga aylanib bormoqda. Bunga turli xil omillarni sabab qilib keltirishimiz mumkin. Masalan, hozirda ko‘p kuzatiladigan migratsiya jarayonlari, turli millatga mansub insonlarning oila qurishi yoki ona tili, ta‘lim tili boshqa o‘quvchilar va hokazolar shular jumlasidandir.

Bilingval bola deganda ikki tildagi nutqni tushunadigan va muloqot qila oladigan shaxs tushuniladi. Biz go‘dakligidan ikki tilda muloqot qilgan bolalarni bilingval deb hisoblaymiz va ularni shu tillarda bemalol gaplasha oladi, deb o‘ylaymiz.

Bilingvizm – juda keng tushuncha. U nafaqat lingvistika, balki psixolingvistika va kognitiv tilshunoslik fanlarining ham o‘rganilish obyekti hisoblanadi. Bu sohada o‘zbek tilshunosligida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgani⁸⁶ va hozirgi kunda ham bu jarayon izchil davom etayotganiga qaramasdan, o‘z yechimini topmagan masalalar talaygina.

Bilingvizm ikki turga bo‘linadi:

1. Tabiiy;
2. Sun‘iy.

Biz buni bolani o‘rab turgan til muhitiga qarab ajratishimiz mumkin. Tabiiy bilingvizm oilada ota-ona, qarindoshlar bilan muloqotda, radio orqali musiqa tinglash

⁸³ Hojiyev A. Ko‘rsatilgan lug‘at. – B. 75.

⁸⁴ Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Umumta‘lim maktablari, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari ona tili darsliklari asosida. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 81.

⁸⁵ ЖИНКИН Н.И. МЕХАНИЗМЫ РЕЧИ. – МОСКВА: АПН РСФСР, 1958. – 378 С.

⁸⁶ Shamsiyeva M.B. Ko‘rsatilgan tadqiqot. – 24 b.

yoki televizorda kino ko‘rish, telefonda turli multfilmlarni tomosha qilish, o‘yinlarni o‘ynash singari vaziyatlar yordamida shakllanadi. Sun‘iy biligvizm esa, ta‘lim jarayonida rivojlanadi, bu maktabgacha ta‘lim muassasasi yoki maktab davriga to‘g‘ri kelishi mumkin. Bunda bola oldin monolingval muhitda bo‘lib, keyinchalik ikkinchi tilni o‘zlashtira boshlaydi. Tabiiy biligvizm oilada erta shakllanadi. Bunda tilning sistematik xususiyatlariga alohida e‘tibor berilmasligi mumkin. Sun‘iy biligvizm bolada nisbatan kech vujudga kelishini inobatga olganda, tilning grammatik kategoriyalariga e‘tibor qaratish va o‘zlashtirish juda yuqori bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Muloqot vositasi sifatida tilni erkin o‘zlashtirish quyidagilarni nazarda tutadi: til haqida muayyan va nazariy bilimlar mavjud bo‘lishi; til vositalarini muloqot vazifalari va shartlari, ya‘ni vaziyat bilan taqqoslay olish qobiliyati; nutqiy muloqotni xulqning ijtimoiy normalarini hisobga olgan holda tashkil etish ko‘nikmasi; til vositalarining milliy xususiyatlarini bilish. Bularning barchasi individning til vositalari yordamida muloqotning turli sohalarida va vaziyatlarida u yoki bu kommunikativ vazifalarni hal etishga qodirligi bilan aniqlanadigan kommunikativ layoqatini ta‘minlaydi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, kommunikativ layoqat – bu ikki komponentning – lingvistik va ijtimoiy komponentlarning ajralmas birligi, muayyan hajmdagi lingvistik va ijtimoiy bilimlarning muloqot malaka va ko‘nikmalari bilan bog‘liqligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аскарходжаева М.И. Обучение дошкольников русской разговорной речи в детских садах Узбекистана. – Ташкент, 1996.
2. Askarxo‘jayeva M.I., Hakimova N.A. Bog‘chalarda o‘zbek tilini o‘rgatish. – Toshkent, 1994.
3. Xasanboyeva O. va boshqalar. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2007.
4. Qodirova F.R. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o‘zbekcha so‘zlashishga o‘rgatish (metodik qo‘llanma). – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI
ELEKTRON JURNALI**

**№ 2 (4),
2024-yil, DEKABR**

O‘zbekcha matn muharriri:

Ruscha matn muharriri:

Inglizcha matn muharriri:

Musahhah:

Texnik muharrir:

Sharopova Ra’no Jaxonovna

Boltayeva Gulchehra Shokirovna

Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li

Sharopova Ra’no Jaxonovna

Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li

**XXI ASR TILSHUNOSLIGI: TAHLIL
VA TALQIN ILMIY-METODIK
JURNALI
2-jild, 4-son**

**SCIENTIFIC-METHODICAL
JOURNAL OF LINGUISTICS OF XXI
CENTURY
VOLUME 2, ISSUE 4**

Tahririyat bilan bog'lanish:

Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko'chasi, 45-uy
Web-site: <http://linge.nspi.uz>
Tel: +998(97) 378 - 34 -45

Editorial staff of the journal:

Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city
Web-site: <http://linge.nspi.uz>
Tel: +998(97) 378 - 34 -45